O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INISTITUTI

IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI

S. Karimov

Ma’naviyat asoslari

fanidan



O’QUV - USLUBIY MAJMUA

JIZZAX – 2015-2016

“Ma’naviyat asoslari” fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi. -J.: JDPI, 2015, 360-bet.

Ushbu o’quv-uslubiy majmuada ijtimoiy fanlardan biri hisoblangan “Ma’naviyat asoslari” o’quv fani misolida zamonaviy pedagogik texnologiya qonuniyatlaridan foydalangan holda ta’lim–tarbiya jarayonida qo’llashning turli usul va yo’llari keltirilgan. Ushbu o’quv-uslubiy majmua “Ma’naviyat asoslari” fanini o’qitish borasida yangicha bir yondashuv misolida ham DTS talablariga javob beruvchi bir uslubiy qo’llanma sifatida shu sohadagi barcha o’rta maxsus va oliy o’quv yurti professor-o’qituvchilari uchun mo’ljallangan.

Falsafa fanlari doktori, B.M. Ochilovaning

umumiy tahriri ostida.

Tuzuvchi: **S. Karimov**

Taqrizchilar:

Falsafa fanlari nomzodi, dosent. A. Xotamov.

Falsafa fanlari nomzodi, dosent. M.Saidov

© S. Karimov. –J.: JDPI, 2015.

MUNDARIJA

1- QISM. OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI TASDIQLAGAN O‘QUV–METODIK HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR	
Kirish……	**4**
1.1. O‘quv–me’yoriy hujjatlar	
1.1.1. Davlat ta’lim standarti ……...	**5**
1.1.2. O‘quv rejasi ……	**26**
1.1.3. Namunaviy dastur……	**28**
1.1.4. Moddiy–texnik va o‘quv–metodik ta’minotga qo‘yiladigan talablar……	**45**
1.2. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi grifini olgan o‘quv adabiyotlar	
1.2.1. Rahbariy adabiyotlar……	**49**
1.2.2. O’quv adabiyotlar……	**49**
1.2.3. Maxsus adabiyotlar……..	**50**
1.2.4. Internet saytlari……	**52**
2- QISM. JORIY O‘QUV-METODIK TA’MINOT	
2.1. Joriy o‘quv-me’yoriy hujjatlar	
2.1.1. Ishchi dastur…...……	**53**
2.1.2. Ishchi o‘quv reja…. ……	**78**
2.1.3. Kalendar tematik reja ……	**79**
2.2. Joriy o‘quv–metodik ta’minot	
2.2.1. Ma’ruzalar matni ……	**82**
2.2.2. Laboratoriya mashg‘ulotlarining ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o‘tkazish va qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar…	**221**
2.2.3. J.N., O.N., YA.N. savolnomalari (intellektual tizim, testlar, yozma ish va og‘zaki so‘rov variantlari, umumiy savollar)…….....	**315**
2.2.4. Mustaqil ish larni bajarish bo‘yicha tavsiyalar ……	**319**
2.2.5. Fan bo’yicha testlar……..…….	**328**
2.2.6. Baholash me’zonlari ……	**342**
2.2.7. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati……	**344**

K I R I SH

Ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri xisoblanadi chunki, ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o’z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo’lgan zamin bo’lib xizmat kiladi. Buni chuqur xis qilgan va o’z qalbidan o’tkazgan Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o’z mustaqilligini qulga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chikar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy xayotni qayta qurishni milliy-ma’naviy tiklanish bilan uyg’un xolatda bo’lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o’zining xajmi jixatdan kichik bo’lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jixatdan mukammal, fundamental dastur bo’lgan «O’zbekistonnnig o’z istiqloli va taraqqiyoti yo’li» nomli asarida mustaqillikdan keyin O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy soxasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Umuman bu asar O’zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmga asoslangan dasturi xisoblanadi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy xayotni qayta qurish soxasida ilgari surilgan barcha g’oyalar o’tgan davrda o’zining ifodasini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga kutarildi.

«Ma’naviyat asoslari» fani bo’yicha ushbu o’quv-uslubiy majmuada ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni loyihalash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo’llanma kirish, o’quv-uslubiy majmuaning konseptual asoslari hamda ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda o’qitish texnologiyalaridan tarkib topgan.

O’quv-uslubiy majmuaning konseptual asoslari bo’limida «Ma’naviyat asoslari» fanini o’qitishning dolzarbligi asoslangan, mazkur kursning tuzilmasi keltirilgan hamda kurs bo’yicha o’qitishning mazmuni ochib berilgan.

So’ngra o’quv fani bo’yicha o’qitish texnologiyalari loyihalashtirilgan:

1) ma’ruza mashg’ulotlarini olib borishning kirish-ma’ruza, mavzu asosida ma’ruza, muammoli ma’ruza, vizuallashtirilgan ma’ruza, konferensiya ma’ruzalar ko’rinishlari qo’llanilishi;

2) amaliy mashg’ulotlarni olib borishning topshiriqlarni individual tarzda yoki guruhda bajarilishi, muammoli amaliy mashg’ulot hamda bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga yo’naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarilishi.

Mazkur o’quv-uslubiy majmua barcha oliy o’quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida o’qituvchi tomonidan qo’llanilishi mumkin.

Shu bilan birgalikda mualliflar qo’llanmada uchraydigan ayrim kamchiliklar va me’yoriga yetmagan o’rinlar uchun uzr so’rab, bildirilgan barcha tanqidiy mulohaza va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar. Sizlardan ushbu fikrlarni kutib qolamiz.

1.1. O’QUV–ME’YORIY HUJJATLAR

1.1.1. Davlat ta’lim standarti

O’z DSt_____201_

O’ Z B Ye K I S T O N D A V L A T S T A N D A R T I

O’zbekiston uzluksiz ta’limining

Davlat ta’lim standartlari

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti

5111600-Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi **ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo’yiladigan**

TALABLAR

Rasmiy nashr

Г О С У Д А Р С Т В Е Н Н Ы Й С Т А Н Д А Р Т У З Б Е К И С Т А Н А

Государственные образовательные стандарты непрерывного образования Узбекистана

Государственный образовательный стандарт высшего образования

ТРЕБОВАНИЯ
к необходимому содержанию и уровню подготовленности бакалавра по направлению
5111600– Насиональная идея, основы духовности и правовое образование
Издание официально

O’zbekiston Respublikasi

Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi

Toshkent

SO’Z BOShI

1 IShLAB ChIQILGAN VA KIRITILGAN:

- **Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi;**
- **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.**

2 TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2011 yil «16 » sentyabrdagi 387 - sonli buyrug’i asosida.

O’zbekiston Respublikasi hududida mazkur standartni amalga kiritilishi (amal qilishining to’xtatilishi) va unga o’zgartirishlar kiritilishi to’g’risidagi ma’lumotlar «O’zstandart» agentligi tomonidan nashr etiluvchi ko’rsatkichlarda chop etiladi.

O’zbekiston Respublikasi hududida mazkur standartni rasmiy chop etish huquqi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir

MUNDARIJA

		bet
1	Qo’llanilish sohasi …….....	**1**
2	Atamalar, ta’riflar, qisqartmalar …….....	**2**
3	Ta’lim yo’nalishining tavsifi ……....…	**3**
4	*5111600– Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi	**3**
5	Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar.....	**4**
6	Ta’lim dasturining mazmuni va komponentlari ….....….....	**15**
7	Bakalavriatning asosiy ta’lim dasturlarini o’zlashtirish bo’yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga belgilangan talablar.....	**24**
7.1	Bakalavriatning asosiy ta’lim dasturlari o’zlashtirilishiga belgilangan umumiy talablar …….....…….....	24
7.2	Ta’lim dasturini amalga oshirish talablari ……	25
7.3	Malakaviy amaliyotni tashkil etishga qo’yiladigan talablar..…...	26
7.4	O’quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta’minlashga talablari	26
7.5	Ta’lim jarayonini o’quv-metodik va axborot resurslari bilan ta’minlashga talablar.....	26
7.6	O’quv jarayonining moddiy-texnika bazasiga qo’yilgan talablar ….	27
8	**Bakalavr tayyorlash sifatini baholash …….....**	**28**
9	**Eslatma ……..**	**29**
10	**Davlat ta’lim standartining amal qilish muddati .....**	**29**
11	**Ilova ……..**	**30**
12	**Bibliografik ma’lumotlar ……**	**31**

1. Qo’llanish sohasi

1.1 Oliy ta’limning mazkur davlat ta’lim standarti (OT DTS**)** *5111600– Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashda asosiy ta’lim dasturlarining o’zlashtirilishini amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun majburiy talablar majmuini ifodalaydi.

1.2 Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo’lganda Oliy ta’lim muassasasi uning asosiy ta’lim dasturini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.3 OT DTSning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo’nalishi va tayyorgarlik darajasi bo’yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda asosiy ta’lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilashga mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchi jamoalari;
- ta’lim yo’nalishining asosiy ta’lim dasturini o’zlashtirish bo’yicha o’quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlar va talabalar;
- oliy ta’lim muassasalarining o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi va dekanat);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasining baholashnishini amalga oshiruvchi Davlat attestasiya va imtihon komissiyalari;
- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ta’lim yo’nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo’lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

2 Atamalar, ta’riflar, qisqartmalar

Mazkur standartda O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda oliy ta’lim sohasidagi xalqaro hujjatlarga mos ravishda atamalar va ta’riflardan foydalanilgan:

bakalavriatning asosiy ta’lim dasturlari (bakalavriat dasturi) – talabalarning tarbiyasi va tayyorgarlik darajasi sifatini ta’minlashga yo’naltirilgan o’quv rejasi, o’quv kurslari, fanlari (modullari)ning dasturlarini qamrab olgan o’quv-uslubiy majmualari hamda malakaviy amaliyotlar dasturlari, o’quv jarayoni jadvali va mos ravishdagi ta’lim texnologiyalarini amalga oshirilishini ta’minlovchi metodik materiallar;

Integrallashgan kurs – ta’lim dasturidagi o’quv fanlari mazmun jihatdan o’zaro bog’langan, lekin o’z mustaqil faniga ega bo’lgan fanlar moduli.

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo’ladigan kasbiy faoliyat obektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat obekti – kasbga yo’naltirilgan predmetlar, voqyeliklar, jarayonlar va tizimlar;

kasbiy faoliyat turi – ta’lim yo’nalishiga o’zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat obektiga ta’sir qilish tavsifi metodlari va usullari;

kompetentlik - shaxsning muayyan ta’lim yo’nalishi yoki mutaxassisligi bo’yicha olgan bilim, malaka va ko’nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo’llay olish qobiliyati.

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo’llay olish;

modul – ta’lim va tarbiyaning muayyan maqsadi va natijasiga yerishish bo’yicha o’zaro bog’langan hamda mantiqiy tugallikka ega bo’lgan o’quv fanlari va ularning tarkibiy qismlari.

yo’nalish – asosiy ta’lim dasturining kasbiy faoliyatning muayyan turi va yoki obektiga yo’nalganligi;

ta’lim dasturi – muayyan bakalavriat ta’lim yo’nalishi yoki magistratura mutaxassisligida majburiy va tanlab o’qitiladigan fanlar tizimi, o’tkaziladigan amaliyot turlari va ularning mazmuni.

ta’lim yo’nalishi – bitta kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta’lim dasturlarining majmui;

ta’lim natijalari – o’zlashtirilgan bilim, malaka va ko’nikmalar hamda o’zlashtirilgan kompetensiyalar;

o’quv turkumi – asosiy ta’lim dasturining ilmiy va (yoki) kasbiy faoliyatning tegishli sohasida bilim, malakalarni o’zlashtirish va kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydigan fanlar (modullari) yig’indisi;

ARM- axborot resuruslar markazi;

ITI – ilmiy tadqiqot ishlari;

OTM- oliy ta’lim muassassasi;

O’MM – o’quv metodik majmua.

3 Ta’lim yo’nalishining tavsifi

3.1 Ushbu ta’lim yo’nalishini qamrab oluvchi oliy ta’limning asosiy ta’lim dasturini o’zlashtirgan, yakuniy davlat attestasiyasidan muvaffaqiyatli o’tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to’g’risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

3.2 Asosiy ta’lim dasturining me’yoriy muddati va mos malaka (daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Asosiy ta’lim dasturining muddati va bitiruvchilarning malakasi

Ta’lim dasturining nomi	**Malaka (daraja)**	**Ta’lim dasturini o’zlashtirishning me’yoriy muddati**
Bakalavriat ta’lim dasturi	Bakalavr	4 yil

4 *5111600– Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5111600– *Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* **–** umumiy o’rta ta’lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq fanlari, O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o’rgatish bo’yicha o’qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig’indisidan iborat bo’lgan ta’lim yo’nalishidir.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

– Kasbiy ta’lim didaktikasi;

– Kasbiy ta’lim pedagogikasi va tashxis texnologiyasi;

– O’qitishning didaktik vositalari;

– Ta’limning elektron vositalari;

– Umumiy o’rta ta’lim maktablari, o’*rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimidagi o’rni va roli.*

4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obektlari

5111600– Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi ta’lim yo’nalishi bakalavrlarning **kasbiy faoliyati obektlari –** umumiy o’rta ta’lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, o’quvchilar, o’quv-tarbiya jarayoni, o’qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlar jarayonidir.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5111600– Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr o’z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

o’qituvchilik: akademik liseylar kollej, umumta’lim maktablarida milliy g’oya huquq asoslari fani o’qituvchisi;

tarbiyachilik: ma’naviy va ma’rifiy ishlar tashkilotchisi, maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

o’quv-metodik: ushbu yo’nalishlar bo’yicha ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq

boshqarmalari va muassasalarida metodist vazifalarini bajarishi mumkin.

- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi**.**

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5111600– *Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi* yo'nalishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

– ***o'qituvchilik:*** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarida milliy g'oya, xuquq asoslari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rgatish bo'yicha o'qituvchisi bo'lib ishlash;

– **tarbiyachi-tashkilotchi;** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash

- ilmiy-tadqiqot muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.

-bolalar muassasalarida huquqshunos;

-o'quv-metodik: mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash

– **madaniy-oqartuv;**

– **o'lkashunoslik** vazifalariga moslashishi mumkin.

4.5 Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari

Bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin turdosh ta'lim yo'nalishlarining magistraturada mutaxassisliklari bo'yicha ta'limning vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadigan ikki yildan kam bo'lmagan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirishi mumkin

Pedagogik faoliyatni olib borganda o'z malakasini har uch yilda oshirib turishi kerak.

5 Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

5.1 ***5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi quyidagi **umumiy malakaviy kompetensiyalarga ega** bo'lishi lozim:

a) umumiy malakaviy kompetensiyalar:

– dunyoqarash xarakteridagi sistemali bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

– Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi hamda ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faolitida ularni hisobga ola bilishi;

– sog'lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo'yicha ilmiy tasavvur va ye'tiqodga ega bo'lishi, o'z-o'zini chiniqtirish ***ko'nikmaga ega bo'lishi lozim***;

– axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undash foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

b) kasbiy kompetensiyalar, jumladan:

Umumkasbiy kompetensiyalar:

nazariyani amaliyotga tatbiq etish bo'yicha: milliy istiqlol g'oyasi va huquqshunoslikka oid bilimlarni egallash, ularning dolzarb masalalarini tahlil qila olish va o'quvchilarga yetkaza olishi;

metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq yetish bo'yicha: an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni fan va mavzularni o'tish chog'ida tanlay olishi, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishi;

ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo'yicha: har bir mavzuning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, psixologik xususiyatlarini yorita olishi, o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunida fanning o'rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo'yicha pedagogik o'qishlarda ma'ruzalar o'qishi, maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida differensial ta'limni yo'lga qo'ya olishi, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yurita olishi;

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha: har bir o'quvchining ruhiy, ahloqiy holatini bilishi, o'quvchilar bilan yakka tartibda va guruh bilan ishlay olishi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil yetish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy g'oyani singdirish, diniy g'oyaviy tahdidlarga jumladan ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirish metod va texnologiyalarini bilishi;

o'quv jarayonini tashkil yetish va boshqarish bo'yicha: dars tiplarini bilishi va ularni maqsadga muvofiq tashkil yetishi, o'quv reja va fan dasturi, tematik rejani tayyorlay olishi, ta'lim muassasasi metodik birlashmasi ishini rejalashtirishi va rahbarlik qila olishi, dars jadvalining tuzilish tamoyillarini bilishi, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishni **bilishi kerak.**

Kasbiy mahorat *bo'yicha* o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga va professionalizmga javob berishi kerak**.**

5.2 Ta'lim dasturlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar

5.2.1. ***Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*** **bo'yicha talablar**

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blok bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

Ma'naviyat asoslari kursi bo'

Bakalavr:

- jamiyatda ma'naviyatga bo'lgan ehtiyojlar;
- ma'naviyatning mohiyati;
- ma'naviyat va milliy g'oya munosabatlari;
- shaxs, ijtimoiy guruhlar ma'naviyati;
- barkamol avlodning ma'naviy qiyofasi;
- ma'naviyat asoslarining O'zbekiston Respublikasida alohida mohiyati va O'zbekiston Respublikasi tashabbusi yekanligi;
- adabiyot, san'atning xalq ma'naviyatini ko'tarishdagi ahamiyati;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning kishilar ongining madaniyatining yuksalishidagi ahamiyati ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***
- ma'naviyat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni;
- milliy ma'naviyat va uning tarixiy takomili;
- milliy ma'naviyat tarixini davrlashtirish;
- islomgacha va keyingi davrlardagi ma'naviyatning xususiyatlari;
- ma'naviyatning ulug' shoir va yozuvchilar ijodidagi talqinlari;
- ma'naviy qadriyatlar;
- ma'naviyatning tarkibiy qismlari;
- ma'naviyatning milliy va umuminsoniy xarakteri;
- ma'naviyat va siyosat, iqtisod;
- ma'naviyat va axborot tizimlari;
- ma'naviyat va madaniyat;
- madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari;
- madaniy meros;
- milliy madaniyat nazariyasi;

- jahon madaniyatining rivojlanish tendensiyalari;
- dunyoviy va diniy madaniyat;
- texnogen va zamonaviy madaniyat;
- ilk, o'rta va yangi asrlarda O'zbekiston madaniyatining taraqqiy yetish xususiyatlari;
- mustaqillik va madaniy taraqqiyot;
- adabiyot va ma'naviyat munosabati;
- o'zbek va jahon adabiyoti xalqlar, millatlar ma'naviyatining ko'zgusi yekanligi;
- tasavvuf adabiyoti;
- o'zbek adabiyotining rivojlanish bosqichlari;
- adabiyotda yangi yo'nalishlarning rivojlanishi;
- ma'naviy hayotda dinlarning o'rni;
- dinlarning paydo bo'lishi;
- dinning ijtimoiy-tarixiy hodisa yekanligi;
- din turlari;
- ma'naviyatning oilada shakllanishi;
- oilaning ijtimoiy-falsafiy talqini;
- oila turlari, tarkibi, murakkab oilalar;
- oilani boshqarish;
- oiladagi ma'naviy ishlar mazmuni;
- oila a'zolarining ma'naviy qiyofasi;
- o'lkashunoslik turlari;
- O'zbekiston va dunyo miqyosida olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari mazmuni;
- O'zbekiston va jahon turizm markazlari;
- turist huquqlari va axloqi normalari;
- san'at ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligi;
- san'atda milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni;
- san'at va milliy mafkura;
- ma'naviy kamolot va uning san'atda o'ziga xos aks yetishi;
- san'at turlari;
- ma'naviyat va nafosat tarbiyasini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***
- o'quvchilar, talabalar va aholi qatlamlarining ma'naviyat bo'yicha bilimlarini sosiologik tadqiq qilish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirish va uni tashkil etish;
- ma'naviy hayotni tahlil qilib borish;
- turli xildagi tantana va tadbirlarda ma'naviy qudratimizni reklama qila olish;
- adabiyot, san'atdagi ibratli ma'naviy timsollarni targ'ib qila olish;
- badiiy adabiyot va san'at namunalarini ma'naviy qadriyat sifatida tahlil qila olish va ulardan tarbiyaviy ishlarda foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

Huquq ta'limi kursi

Bakalavr:

- davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquqning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi haqidagi asosiy nazariyalar;
- jamiyatning siyosiy tizimida davlat va huquqning o'rni va ahamiyati;
- O'zbekiston Respublikasidagi huquq va tartibot organlari;
- inson huquqlarini himoya qiluvchi ijtimoiy institutlar;
- huquqiy normalar ***to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;***
- davlat va huquqning asosiy shakllari va tarixiy mezonlari, O'zbekiston Respublikasida davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi;
- ta'lim, din, mafkura, iqtisod, davlat va huquqning o'zaro munosabati;
- O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy va ma'muriy huquqi;
- siyosiy va huquqiy ta'limotlarning muhim maktablari;
- O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy jihatdan tartibga solish mazmuni;

- O’zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi;
- huquq va shaxs, huquqiy ong, huquqiy madaniyat;
- O’zbekiston Respublikasi konstitusiyasining tarixiy yo’li;
- konstitusiyaning aossiy prinsiplari;
- xorijiy mamlakatlar konstitusiyaviy tizimi;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari;
- xalqaro huquqiy munosabatlar va ularning prinsiplari;
- xalqaro huquq manbalari;
- diplomatik va konsullik xizmatlari;
- fuqarolik huquqi asoslari;
- fuqarolar huquqini himoya qilish shakllari;
- notarius ishi;
- oila huquqi asoslari;
- ijtimoiy munosabatlarni ma’muriy-huquqiy tartibga solish;
- mehnat huquqi asoslari;
- aholini ish bilan ta’minlash;
- jinoyat huquqi prinsiplari, manbalari;
- jinoyat turlari va ular bo’yicha ish yuritish;
- inson huquqlari bo’yicha ijtimoiy-milliy institutlar;
- inson huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo’llay olishi;***
- hayotda huquqiy bilimlardan foydalanish;
- qonuniy aktlarni hayotga joriy qilish metodikasi va texnologiyalarini qo’llash bo’yicha dars ishlanmalarini yaratish;
- o’quvchi va talabalarning konstitusiyaviy huquqlarini belgilab berish;
- fuqarolik, mehnat huquqini himoya qilish;
- o’quvchilarga kundalik hayotdagi har bir xatti-harakatning qonuniy asoslarga ega ekanligini tushuntira olish;
- o’quvchilarga ma’muriy, jinoiy javobgarlikni tushuntira olish ***ko’nikmasiga ega bo’lishi lozim***.

5.2.4 Ixtisoslik fanlari bloki bo’yicha talablar

Bakalavr:

- ixtisoslikka mos texnika sohasining mos texnika sohasining asosiy ilmiy-texnikaviy muammolari va rivojining istiqbolini hamda ularning turdosh sohalar bilan o’zaro aloqasini tushunishi;
- ixtisoslikning muayyan sohasi bilan bog’liq bo’lgan asosiy obektlarni, hodisa va jarayonlarni bilishi, ularni ilmiy-tadqiqot qilish usullaridan foydalana bilishi;
- loyihalarni kompyuterlardan foydalanib bajarishi va tuzilgan loyiha natijalarini himoya qila olish qobiliyatiga ega bo’lishi;
- o’rganilayotgan texnikaviy obektlarga qo’yiladigan texnikaviy-iqtisodiy talablarni ta’riflab berishni uddalashi, ularni amalga oshirishning mavjud ilmiy-texnikaviy vositalarini ***bilishi kerak.***

Bakalavr ixtisosligiga qo’yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachi-larining talablari va bakalavrlar tayyorlashning ushbu yo’nalishi bo’yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

5.2.5 Bitiruv malakaviy ishlariga qo’yiladigan talablar:

Bitiruv malakaviy ishida bakalavr tugallangan kasbiy vazifalarni hal qiladi va bunda barcha blok fanlari bo’yicha olingan bilimlardan foydalaniladi.

Bu ishda bakalavr:

- o’rganilayotgan masalaning holati va tarixini tahlil qiladi;
- ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik masalani aniqlab oladi, uning yechilishidagi bir necha variantlarni ko’zda tutadi va ulardan yeng muhim variantini tanlaydi;
- xulosani shakllantiradi va hal qilingan masala natijalari bo’yicha tavsiyalar beradi va tegishli fan sohasida qo’llanishi imkoniyatlarini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari zamonaviy fan yutuqlari va texnologiyasini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasasining mutaxassis tayyorlovchi kafedralari tomonidan tuziladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik yo’nalishga qaratilgan bo’lishi

mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo'yicha vazifalar odatda uchinchi kursni bitirish chog'ida beriladi. Ish umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o'rganilishi darajasiga ko'ra to'rtinchi kurs davomida ishlab boriladi va ushbu standartda ko'zda tutilgan bitiruv malakaviy ishiga ajratilgan vaqt davomida bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi tegishli kafedra tomonidan aniqlab beriladi.

5.2.6 Malakaviy amaliyotlariga qo'yiladigan talablar:

pedagogik amaliyot: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq yetish ko'nikmalarini hosil qiladi.

o'quv amaliyoti: huquq-targ'ibot organlari, hokimliklar, mahalla, targ'ibot markazlari, sog'lomlashtirish idoralari va ommaviy bolalar oromgohlarida o'tkaziladi.

6 Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari

6.1 ***5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning 4 yillik kunduzgi shakli ta'lim dasturi quyidagicha taqsimlanadi:

Nazariy va amaliy ta'lim	136 hafta
Malakaviy amaliyotlar	15 hafta
Bitiruv malakaviy ishi	4 hafta
Joriy va davlat attestasiyalari	17 hafta
Ta'tillar	32 hafta
Jami	**204 hafta**

6.2 Talabaning haftalik o'quv yuklamasining maksimal hajmi 54 soat, shundan auditoriyadagi o'quv yuklamasi – 30 soatgacha, qolgan soatlar hajmi mustaqil ta'lim uchun ajratiladi.

6.3 Joriy, oraliq va yakuniy attestasiyalarni hisobga olgan holda ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun xaftalik o'quv yuklamalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6.4 Ta'lim dasturini o'zlashtirishda bir qator masalalar auditoriya soati hisobiga integrallashtirilgan kurslar muammosi bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi ko'zda tutiladi.

6.5 ***5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni**

6.5.1 Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blok bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

6.5.2 Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar

Matematik kommunikativ kurs

6.5.2.1 Oliy matematika asoslari:

asosiy algebraik tuzilmalar, vektor fazo va chiziqli akslantirish, analitik geometriya, ko'p o'lchovli evklid geometriyasi, topologiya elementlari, mantiqiy hisoblashlar, algoritmlar nazariyasi, kombinatorika, differensial va integral hisoblash, differensial tenglamalar, ehtimolliklar nazariyasining matematik asoslari, tasodifiy hodisalar modellari, gipotezalarni tekshirish, yeng katta o'xshashlik prinsipi, yeksperiment natijalarini qayta ishlashning statistik metodlari.

6.5.2.2 Informatika va axborot texnologiyalari:

axborotlarni yig'ish jarayoni, uzatish, qayta ishlash va to'plash haqida umumiy tavsifnoma; axborotlarni tarqatish jarayonida texnik va dasturlash vositalari. Texnologiya tushunchasi. Axborot texnologiyalari, ularning ko'rinishlari va klassifikasiyasi. Yangi axborot texnologiyalari. Yangi axborot texnologiyalari vositalari. Shaxsning o'qishida, tarbiyalanishida va rivojlanishida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Matn va grafik axborotlarni tayyorlash, tahlil qilish va qayta ishlash texnologiyasi. Multimedia texnologiyasi. Tarmoq texnologiyalari. Internet texnologiyasi. Masofadan o'qitish.

Tabiiy-ilmiy kurs

6.5.2.3 Yosh fiziologiyasi va gigiyena:

organizmning yosh xususiyatlari va organlar hamda sistemalarning turli vazifalari. Organizm - yaxlit bir sistema. Odamning o'sishi va rivojlanishi. Organizmning atrof-muhit bilan aloqadorligi. Irsiy kasalliklarning genezisi va ularni profilaktika qilish. Yosh organizmning o'sishi va rivojlanishining o'ziga xosligi. Ichki sekresiya bezlarining faoliyati. Garmonlar muhim biostimulyator va regulyator sifatida. To'qima, organ va organizmlar vazifalarining gumoral boshqaruvi, organizmlar hayot faoliyatida nerv sistemasining ahamiyati. Har tomonlama taraqqiy yetgan shaxsni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Bolalar sog'lig'ini himoya qilishda oilaning o'rni. Sog'lom organizmni ta'minlashda ovqatlanish kun rejimi va boshqa omillarning ahamiyati. Inson organizmining jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishida gigiyenaning ahamiyati. Shaxsiy gigiyenaga qo'yiladigan talablar va gigiyena me'yorlari.

6.5.2.4 Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish:

odam va biosfera: biosferaning tuzilmasi, yekosistemalar, organizm va muhitning o'zaro munosabatlari, odamning sog'lomligi va ekologiya. Atrof-muhitning global muammolari.

tabiatdan foydalanish: tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ekologik tamoyillari va tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy asoslari. Atrof-muhitni muhofaza qilish texnika va texnologiyalari. Ekologik huquq asoslari va kasbiy mas'uliyat. Atrof-muhit sohasida xalqaro aloqalar.

6.5.2.5 Markaziy Osiyo geografiyasi:

«Markaziy Osiyo» atamasi mohiyati, Markaziy Osiyoning chegaralari, o'lchamlari, geografik o'rni, qo'shni mamlakatlar bilan tarixiy, geografik yaqinligi, geografik o'rni, tabiiy-demografik potensiali; hozirgi vaqtdagi siyosiy-iqtisodiy holati, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari – Markaziy Osiyoning muhim siyosiy-iqtisodiy geografik subektlari sifatida, Markaziy Osiyo respublikalarining geografik xarakteristikasi, rivojlanish muammolari va istiqbollari, tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy rayonlari.

6.5.2.6 Hozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi:

moddiy dunyo va uni o'rganish metodologiyasi. Dunyoning umumiy ilmiy manzarasi. Dunyoning fizik, kimyoviy va biologik manzarasi, zamonaviy dunyoqarashning tarkibi, Mikro va makro dunyo, ulardagi yevolyusion va revolyusion o'zgarish. Tabiiy sikllar. Biosfera va noosfera. Antropogen omillar va ularning jonli va jonsiz tabiatga ta'siri. O'zaro yaqin fanlarning tabiatni o'rganishdagi roli va ahamiyati (fizikaviy-kimyo, kimyoviy-fizika, geologik kimyo va boshqalar).

Yer va koinot. Geologik jarayonlar va ularning jonli tabiat vakillariga ta'siri. Modda va yenergiyalar o'zaro almashinuvining umumiy qonuniyatlari. Organizmlarning tashqi muhit bilan dialektik bog'liqligi. Real dunyoning moddiy birligi. Inson tabiatning, dunyo yevolyusiyasining yeng oliy mahsuli sifatida. Umuminsoniy, tabiiy-ilmiy muammolar va ularni hal qilish yo'llari, real voqyelik, imkoniyatlar va prognoz.

6.5.3 Umumkasbiy fanlar

Pedagogika va psixologiya kursi

6.5.3.1 Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti:

umumiy psixologiya: umumiy psixologiyaning obekti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida. Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Bosh miya va psixika. Psixika va ong. Psixologiya va falsafa. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari. Psixika va ongni tahlil qilish prinsiplari. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilmasi va uning prinsiplari. Psixologiyaning sohalari. Psixologiyaning metodlari va uning tahlili. Faoliyatning psixologik tahlili. Motivlar va faoliyat. Psixikaning taraqqiyoti. Motivasiya va yemosiya psixologiyasi. Iroda psixologiyasi. Shaxs psixologiyasi. Shaxs, individ, individuallik tushunchalari. Frustrasiya va shaxsning istiqbol rejalari. Konformizm. Dunyoqarash va ye'tiqod. Muloqot psixologiyasi va nutq. Diqqat va uning turlari. Sezgi va idrok. Xotira va xayol. Tafakkur. Muammoli vaziyat va uni hal qilish. Temperament, uning o'ziga xos xususiyatlari.

Yosh va pedagogik psixologiya: yosh va pedagogik psixologiyaning predmeti, uning rivojlanish tarixi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Yosh psixologiyasidagi maktablar. Yosh psixologiyasini o'rganish metodlari. Ta'lim mazmuni va psixik taraqqiyot. Yoshning umumiy xarakteristikasi. Yosh taraqqiyotini davrlashtirish. Maktabgacha yosh davri xarakteristikasi. Kichik maktab yoshi davri psixologiyasi. O'smir psixologiyasi, o'spirin psixologiyasi. Ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. Tarbiya metodlari va formalari. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari. Pedagogik

qobiliyat: nazariya va amaliyot.

6.5.3.2 Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti:

Pedagogika nazariyasi: pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obekti, metodlari. «Ta'lim to'g'risida Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta'lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta'lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari. Ta'limning rivojlanish yo'nalishlari: uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, texonologizasiya konsepsiyasi, ta'lim paradigmalari. Didaktik prinsiplar(tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari. Ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar. Ta'lim jarayonida motivasiya. Ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari. Umumiy va xususiy metodlar. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga qaratilgan metod va texnologiyalar. Metod tanlash va motivasiya. O'quv adabiyotlari va ularning turlari. Yelektron o'quv adabiyotlari. Ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik texnologiyalar. Ta'lim shakllari. Ta'limni tashxis yetish. Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayoni, muhiti(sosium), tarbiya prinsiplari, tarbiyaga qo'yiladigan talablar. Tarbiya metod va texnologiyalari. Milliy tarbiya masalasi. Tarbiya turlari. Tarbiya va milliy g'oya. Tarbiya va ma'naviyat. Oila tarbiyasi.

Ta'lim tizimini boshqarish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim muassasasi, uni boshqarish. Boshqaruvda vasiylik va homiylik masalalari. Maxsus(korreksion) pedagogika, uning maqsad va vazifalari, uning pedagog faoliyati uchun ahamiyati.

Pedagogika tarixi. Ta'lim, tarbiya va ta'lim muassasasi to'g'risidagi g'oyaning paydo bo'lishi. Yeng qadimgi, o'rta, yangi va yeng yangi davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlash taraqqiyoti. Islom madaniyati va tarbiya. Tarbiya to'g'risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari. Turkistonda ta'lim va tarbiya. O'zbekistonda maktab, maorif, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish tarixi. Mustaqillik davrida ta'lim va tarbiya. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogik fikrlarning xususiyatlari.

Pedagogik mahorat: pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya, pedagogik mahoratning nazariy asoslari. Pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari. Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati. Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari. O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati. Pedagog mehnatini tashkil yetishning ilmiy asoslari. Pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik g'oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq yetish yo'llari. Pedagogik mahorat taraqqiyot tarixi. Mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq yetish, pedagog faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslari.

6.5.3.3 Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitish metodikasi

milliy g'oyani o'qitish metodikasi: milliy g'oya fanining o'qitilishi, maqsad va vazifalari. Fanning tuzilishi milliy g'oyaning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati. Fanning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi mazmuni. O'qitishning umumdidaktik tamoyillari. O'quv qo'llanmalari, qo'shimcha materiallar, Prezident asarlari va ma'ruzalari ustida ishlash. O'qitish metodlari va texnologiyalari. Mazkur kurs mazmuni ustida uzluksiz ishlash, kurs mazmunini yangilash metodlari.

*ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi:*ma'naviyat asoslari fanining bo'limlari va ularning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi mazmun xususiyatlari, ularni o'qitishda qo'llanadigan metodlar va texnologiyalar. Didaktik materiallar mazmuni. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil yetish, ularda ma'naviyatning rivojlanish bosqichidagi qadriyatlardan foydalanish metodlari.

huquq ta'limi fanlarini o'qitish metodikasi: huquqiy ta'limning maqsad va vazifalari. Didaktik materiallar mazmuni. Ta'lim tizimida huquqiy ta'limning tutgan o'rni. Fanning umumiy o'rta , o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi mazmuni. O'qitish tamoyillari. Ta'lim metodlari, yangi axborot va pedagogik texnologiyalar. Tarbiyaviy ishlarning shakl va usullari. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda huquqiy ta'lim-tarbiyaning o'rni va roli.

Dars va mashg'ulotlar turlari. Fan bo'yicha o'quv rejasi, kalendar tematik reja. Auditoriyadan tashqari olib boriladigan ishlar. Mustaqil ish. Mustaqil ta'limda o'z ustida ishlashni tashkil yetish. Reyting tizimi

xususiyatlari. Reja-konspekt. Pedagogik amaliyot va yozgi sog'lomlashtirish lagerlari amaliyotiga tayyorgarlik.

Milliy g'oya kursi

6.5.3.4 Falsafa tarixi va nazariyasi:

falsafa tarixi: antik davr falsafasi, qadimgi Misr va Bobilda dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Xitoyda falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi. Qadimgi Hindistonda falsafaning shakllanishi. Qadimgi Yunonistonda falsafaning shakllanishi va rivojlanishi: Ioniya falsafasi. Italiya falsafasi. Yeley falsafiy maktabi. Yeramizdan avvalgi V asrda naturfalsafaning rivoji. Sofistlar, Suqrot maktablari. Qadimgi yunon atomizmi. Platon, Aristotel ta'limotlari. Yepikurchilik. Stoiklar, Skeptisizm, neoplatonchilik.

Markaziy Osiyo falsafasi tarixi. Moniylar, buddaviylar ta'limoti. Islom aqidalari.

O'rta, yangi va yeng yangi davr g'arb falsafasi. Yeng yangi davr Sharq falsafasi.

falsafa nazariyasi: ontologiya. Borliq – falsafiy tafakkurning asosi. Moddiy va ruhiy borliq. Tabiat, inson, jamiyat borlig'i. Borliq atributlari. Harakat – moddiy borliq mavjudligining zaruriy sharti. Falsafada borliqning birligi.

Rivojlanish falsafiy konsepsiyasi. Borliqning yalpi umumiy bog'langanligi. Borliqning barqarorligi va beqarorligi. Borliqning tarkibiy tuzilishini falsafiy anglash. Borliqning betartibligi va batartibligi. Borliqning taqozolanganligi. Borliqda ziddiyatlarning o'rni.

Miqdor va sifat o'zgarishlari. Yevolyusiya – borliqning shakllanish jarayoni sifatida. Tabiat, inson, jamiyat yevolyusiyasi konsepsiyasi. Yalpi umumiy yevolyusiya chizgilari. Hozirgi davrda rivojlanish muammosini hal qilishning amaliy ahamiyati.

6.5.3.5 Ijtimoiy falsafa:

jamiyat falsafasi: ijtimoiy falsafaning baxs mavzusi, vazifalari. Ijtimoiy falsafa tarixi. Jamiyatga mifologik, diniy va ilmiy-falsafiy yondoshuv, uning o'ziga xos xususiyatlari. Jamiyat tushunchasining falsafiy tahlili. Jamiyatning mohiyati, o'ziga xos jihatlari.

Jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy va ijtimoiy omillari. Geografik muhit tushunchasi. Tabiiy muhitning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni. Abu Rayhon Beruniy jamiyatga tabiiy muhitning ta'siri to'g'risida. Tabiiy muhitning jamiyatga ta'siri. Geografik siyosat. O'zbekistonning geografik siyosati. Jamiyat taraqqiyotiga nufuz omilining ta'siri. Demografiya. Demografik jarayonlar. Urbanizasiya va rualizasiya jarayonlari, ularning jamiyatga ta'siri. Aholi zichligi qonuniyati. Maltuschilik va neomaltuschilik nazariyalari to'g'risida. Demografik omil va uning o'ziga xos jihatlari. Demografik siyosat. O'zbekistonning demografik siyosati. Moddiy ishlab chiqarish, ma'naviyat, madaniyat, milliy g'oya.

Jamiyat taraqqiyoti va uning asosiy qonunlari. Ijtimoiy qonunlar, ularning amal qilish. Jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'llari: yevolyusion (tadrijiy) va revolyusion (inqilobiy) taraqqiyot, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Jamiyat rivojlanishidagi vorisiylik. Jamiyat taraqqiyoti tarixiga sinfiy yondashuv va uning kamchiliklari. Ijtimoiy ziddiyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Ijtimoiy ziddiyatlarni mutlaqlashtirish va uning salbiy oqibatlari.

Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik. Barqarorlik – jamiyat hayoti va taraqqiyotning muhim omili. Barqarorlik-tinchlik va taraqqiyot asosi, olg'a siljishning bosh sharti. Tinchlik va barqarorlik – O'zbekistonning buyuk g'alabasi. Jamiyat hayotida beqarorlik, uning namoyon bo'lish xususiyatlari. Ijtimoiy taraqqiyot: imkoniyatlar va muammolar. Bag'rikenglik (tolerantlik) va ijtimoiy taraqqiyot.

Jamiyatni boshqarish. Ijtimoiy boshqarish. Jamiyatni maxsus boshqarish. Davlat maxsus boshqaruv usuli sifatida Davlatchilik O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.

Milliy davlatchilik. Ijtimoiy taraqqiyotning o'zbek modeli, uning xususiyatlari va asosiy tamoyillari. Mustaqillikni mustahkamlash. Huquqiy demokratik davlat va yerkin fuqarolik jamiyatini barpo yetish.

Jamiyat hayotining moddiy va ma'naviy omillari. Jamiyat hayotining asosiy sohalari. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Moddiy ishlab chiqarish-jamiyat iqtisodiy hayotining aosi. Moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari. Jamiyat iqtisodiy hayotida amal qiladigan qonunlar.

Jamiyatning ijtimoiy hayoti tushunchasining mazmun-mohiyati. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi. Ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlar. Jamiyat ijtimoiy tarkibining asosiy unsurlari. Jamiyatning yetnik tarkibi: urug', qabila, yelat, millat. Milliy va millatlararo munosabatlar.

Jamiyatning sinfiy tarkibi. Ijtimoiy sinf, tabaqa, qatlam. O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot va

ijtimoiy munosabatlar. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish.

Jamiyatning demografik tarkibi. Jamiyatning siyosiy hayoti. Siyosiy tizim. Siyosiy ong. Siyosiy munosabatlar. Siyosiy muassasa va tashkilotlar. Davlat – siyosiy tizimning asosiy yelementi sifatida.

Jamiyatning ma'naviy hayoti. Ma'naviyat. Madaniyat. Milliy g'oya. Madaniy – ma'naviy taraqqiyot.

inson falsafasi -antropologiya: inson muammosiga falsafiy yondashuv va uning o'ziga xos xususiyatlari. Inson borliqning tarkibiy qismi sifatida. Jamiyat va insoniyat. Odam. Inson. Individ. Shaxs. Inson – ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi.

Inson – oliy qadriyat sifatida. Antropologiya. Insonda jismoniy va ruhiy jihatlar, ularning birligi. Inson ijtimoiy mavjudot. Insonning ijtimoiy mohiyati. Ma'naviy dunyo. Insonning tabiiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy xislatlari.

O'zbekistonda demokratik jamiyatning qurilish va bunda insonning tutgan o'rni. Inson huquqlari, burchlari, yerkinliklari.

Yehtiyojlar. Moddiy va ma'naviy yehtiyojlar. Jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar xalqning moddiy va ma'naviy yehtiyojlarini qondirishga qaratilgan jarayon sifatida. Bozor munosabatlari sharoitida inson. Inson va hozirgi dunyo.

Inson muammosini o'rganish, uning nazariya va amaliyotdagi ahamiyati.

6.5.3.6 G'oyalar falsafasi.

g'oyalar falsafasining predmeti, maqsad va vazifalari. ideologiya atamasining fanga kiritilishi. Ideologiya nazariyasining asosiy funksiyalari. G'oyalar falsafasining sharqona ildizlari. «G'oya» («ideya»), «ideal», «ideallik», «ideologiya» tushunchalarining falsafiy mazmun-mohiyati, ularning o'zaro aloqadorligi va farqli jihatlari. G'oyalar tipologiyasi: bunyodkor (gumanizm, demokratiya, tolerantlik) va vayronkor (totolitarizm, avtokratizm, yekstremizm, terrorizm) g'oyalar. G'oyalarning obekti va subekti. G'oya va dunyoqarash. Dunyoqarash turlarining g'oyaviy asoslari.

G'oyaviylik va g'oyasizlik, uning mezonlari hamda darajalari. G'oyasizlik va ma'naviy bo'shliqning o'zaro aloqadorligi. G'oyalarning qadrsizlanishi jarayoni, uning obektiv va subektiv omillari.

O'tish davri jamiyatlarida g'oyaviy, ma'naviy bo'shliqdan chiqish yo'llari, usul va vositalari. Istiqlol, yerk g'oyalarining qadrini saqlash masalalari. Islohotlar jarayonida bunyodkorlik g'oyalari va yerkinlik tamoyillarini ta'minlash imkoniyatlari.

6.5.3.7 Aksiologiya:

hayotiy va madaniy qadriyatlar. Qadriyatlar kishilar yehtiyojlarini qondiradigan va shu sababli ular uchun qimmatli va ahamiyatli bo'lgan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasi sifatida.

Qadriyatlarning turlari. Inson va uning hayoti – oliy qadriyat. Moddiy qadriyatlar. Madaniy-ma'naviy qadriyatlar. Ahloqiy qadriyatlar. Yestetik qadriyatlar. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik.

Mustabid tuzum sharoitida milliy qadriyatlarimizning poymol qilinganligi. O'rta Osiyo respublikalarini Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi va o'lka iqtisodiyotining Rossiya xom-ashyo bazasiga aylantirilishi. Mustamlakachilarning milliy madaniyatimizga bepisand munosabatlari: tilimiz, tariximiz, urf-odatimiz va an'analarimiz, milliy qadriyatlarimizning talon-taroj qilinishi.

Totalitar tuzum hukmronligi davrida Rossiyaning O'rta Osiyo mahalliy xalqlari orasida yuritgan siyosati chorizm mustamlakachilik siyosatining davomi yangi ko'rinishi sifatida. Mahalliy aholi huquqlarining poymol qilinishi. O'lkamizdagi ilg'or kuchlarning milliy mustaqillik uchun kurashi. Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi, milliy madaniyatimizning qayta tiklashi va rivojlanishi. Davlatimizning mustaqillikni qo'lga kiritishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roli.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosi – fandagi yangilanish va taraqqiyot manbai. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissalari. O'lka xalqlarining madaniy tiklanishi va rivojlanishida Markaziy Osiyo mutafakkirlari boy merosining o'rni va ahamiyati.

Milliy qadriyatlarning g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati. Madaniy qadriyatlar, milliy o'z-o'zini anglash, milliy iftixor tuyg'usi rivojining manbai. Milliy qadriyatlar – yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol shaxs shakllanishining ma'naviy asosi. Ma'nan boy, har tomonlama rivojlangan shaxs – mustaqilligimiz tayanchi.

Milliy qadriyatlarning islohotlarni, demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishdagi, yerkin fikrli ijodkor shaxslarni kamol toptirishdagi ahamiyati.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ular orasidagi o'zaro dialektik aloqadorlik. Tinchlik, xotirjamlik,

xalqlar havfsizligi, millatlararo totuvlik – jahon hamjihatiga qo'shilishning yo'li. Boy tabiiy qadriyatlar va ulardan oqilona foydalanish–dunyo miqyosidagi xo'jalik aloqalariga kiritish, xalqaro iqtisodiyotga integrasiyalashuvimizning zaruriy sharti. O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrlik, o'ziga xos rang-barang madaniyati va uning dunyo madaniyatiga integrasiyalashuvidagi o'rni. Milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning o'zaro aloqadorligi uning insoniyat ijtimoiy taraqqiyoti va gullab yashnashi manbai yekanligi.

Ma'naviyat asoslari kursi

6.5.3.8 Ma'naviyatshunoslik:

Ma'naviyatshunoslik fanining predmeti va uning jamiyat hayotidagi o'rni. Ma'naviyat tarixiy hodisa sifatida.

Milliy ma'naviyat asoslari. Milliy ma'naviyatning tarkibiy qismlari. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik ma'naviyatining tayanch qoidalari. Milliy ma'naviyatimizning teran tomirlari.

Milliy ma'naviyat bosqichlari. Islomgacha milliy ma'naviyat taraqqiyoti. «Avesto» ma'naviyati. Islom mintaqa madaniyati. Milliy madaniyatimiz takomilida sunna bosqichi va tavxid ye'tiqodining shakllanishi. Islom ma'rifatchiligi bosqichida tavhid ye'tiqodi talqinlari. Tasavvuf tariqatlari va irfon. Riyozat ma'rifati.

Temuriylar davrida madaniy yuksalish. A. Navoiyning badiiy ijod tariqlari haqidagi ta'limoti. Yangi davr jaxon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz ahvoli. Islom mintaqa madaniyatining Yevropaga ta'siri. Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tanazzulning kuchayishi. Milliy uyg'onish. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik.

Ijtimoiy fanlar sohasining hokim mafkura zulmi ostida tanazzulga yuz tutishi. Mustamlakachilik va qaramlik davrida ma'naviyatning tushkunligi.

O'zbekiston mustaqilligi va milliy ma'naviyat rivojining yangi davri. Buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganishning yangi bosqichi. Islom dini va tasavvuf tariqatlariga ma'naviy qadriyat sifatida yangicha yondashuv. Milliy o'zlikni anglash va millatlararo totuvlik.

San'atning ma'naviy asoslari. San'at va ma'naviyat. San'at va uning tarbiyaviy ahamiyati. San'atning vujudga kelishi va uning mohiyati. Yevropa mintaqa madaniyatida san'at va madaniyat nisbati. Shaxms ma'naviy yehtiyojini shakllantirishda san'atningo'rni.

Milliy turmush tarzi tushunchasi va uning ma'naviy yestetik jihatlari. Ijtimoiy ma'naviy muhitni yaratishda san'at turlarining o'rni va ahamiyati. Mustaqil O'zbekistonda san'at va adabiyotning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati.

Oila ma'naviyati. Sog'lom avlol-jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili.

Oilaviy burch va mas'uliyatning ijtimoiy va ma'naviy asoslari. Oilaviy munosabatlar madaniyatining milliy va diniy jihatlari.

Jamoatchilik fikrining oilaviy hayot va yoshlar tarbiyasiga ta'siri. Ota-ona ibrati- farzandlar ziynati. Axloqiy qadriyatlar va ularning farzand tarbiyasiga ta'siri. Farzandlik burchining ma'naviy asoslari.

Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi.

6.5.3.9 O'zbek adabiyoti:

O'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti. Adabiyot va san'at. Adabiy meros. Adabiyot va ma'naviyat. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish. Adabiy janrlar, adabiy oqimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi. O'zbek va fors-tojik adabiyotining o'zaro aloqasi. O'zbek adabiyotining tematik xilma-xilligi. Xalq og'zaki ijodi va adabiy meros. Qadimgi o'rta va keyingi davr o'zbek adabiyoti. Tasavvuf. O'zbek adabiyotining ma'naviy, g'oyaviy va janr jihatdan boyishida klassik shoir va yozuvchilarning roli. Klassik adabiyotning she'riyatida vazn masalasi. XX asr o'zbek adabiyotin davrlashtirish muammolari. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy va madaniy hayot. Jadidchilik va jadid adabiyoti. Jadid adabiyoti vakillari. O'zbek matbuotining paydo bo'lishi. 20-yillar adabiyotida g'oyaviy kurash. O'zbek adabiyoti va mafkura. 20-yillar o'zbek adabiyotining namoyondalari. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek adabiyoti. Urushdan keyingi davr adabiyoti. 60-80 yillar o'zbek adabiyoti. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishdagi ahamiyati. Adabiyotda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi.

6.5.3.10 Jahon dinlar tarixi:

Jahon dinlari to'g'risida tushuncha. Jahon dinlari turlari.

Buddizmning paydo bo'lishi va uning mohiyati. Buddizm dinidagi asosiy g'oyalar.

Xristianlik, uning paydo bo'lishi sabab bo'luvchi omillari. Xristianlik dinining turli oqimlarga bo'linib ketishi va uning davlat diniga aylanishi.

Islom dini. Islom dini paydo bo'lishi davridagi tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda. Islom dini shakllanishi arafasida arab dinlari. Qadimgi Arabistonga tashqi dinlarning kirib kelishi.

Islom dinining jamiyat va inson hayotida tub burilish yasaganligi. Yakka xudolikka da'vat. Hijratgacha bo'lgan davrda islomning rivojlanishi. Hijratning amalga oshirilishi. Islom davlatining qurilishi.

Islom qadriyatlari, ma'naviyati va ma'rifati. Milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligi. Qur'on va uning shakllantirilishi. Islomdagi oqimlar va mazhablarning mintaqa ma'naviyatidagi o'rni. Islomning rivojlanish xususiyatlari.

Islomdagi diniy-axloqiy va huquqiy normalar, ularning mazmuni xususiyatlari. Komil insonni tarbiyalashda diniy asarlarning roli. Markaziy Osiyoda Islom ma'naviyatining rivojlanishi. Tasavvuf.

Milliy g'oya va ma'naviyatning shakllantirishda diniy bilimlarning ahamiyati.

6.5.3.11 Etnomadaniyat:

Etnomadaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati. Etnoslarning kelib chiqishi. Etnomadaniyat tarkibiga kiruvchi tushunchalar: urug', qabila, elat, millat hamda elat va millatlarga taalluqli bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, turli rasm-rusumlar. Xalq og'zaki ijodiyoti: ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, eposlar. Markaziy Osiyo Etnomadaniyatining asosiy bosqichlari. Etnomadaniyatning qadimgi namunalari. Markaziy Osiyo xalqlarning afsona va rivoyatlari.

Marosimlar. Bayramlar. O'zbekistonda Etnomadaniyat turlarini rivojlantirish masalalari. O'qituvchi va ma'naviy-ma'rifiy soha mutaxassislarini tayyorlashda Etnomadaniyat fanining roli hamda ahamiyati.

Etnomadaniyat evolyusiyasi. Mustaqillik va etnik- madaniy taraqqiyot.

Etnomadaniyatning yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Etnomadaniyatimizning milliy mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati.

Huquq ta'limi kursi

6.5.3.12 Davlat va huquq nazariyasi. Davlat va huquq tarixi:

Davlat va huquq nazariyasining predmeti va vazifalari. Jamiyat, davlat, huquq, huquqiy tizimning, shakllanishi va rivojlanishi . Jamiyatning siyosiy-huquqiy tizimida davlat va huquqning o'rni. Davlat hokimiyati, shakllari, davlatning tuzilish mexanizmlari. Huquq tushunchasi. Huquq shakllari. Huquqiy davlat. O'zbekistonda barpo yetilayotgan huquqiy demokratik davlat va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Huquqiy tizim. Huquqiy munosabatlar. Huquq ijodkorligi. O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi. Huquqni tatbiq yetish. Konuniylik. Huquqbuzarlik. Yuridik javobgarlik

Shaxs va huquq, huquqiy ong. Huquqiy tarbiya. Huquqiy madaniyat.

Davlat va huquq tarixi predmeti va vazifalari. Davlat va huquq tarixi. Davlat va huqukning shakllanish va tarakiyot tarixi. Eng qadimiy davrlarda shakllangan huquqiy karashlar. "Avesto"ning huquqiy g'oyalari. Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda shakllangan huquqiy qarashlar. G'arbiy Yevropada shakllangan huquqiy qarashlar. Yangi davrda G'arbiy Yevropada shakllangan huquqiy qarashlar. XX asr siyosiy-huquqiy ta'limotlari. Hozirgi davr siyosiy-huquqiy ta'limotlari.

Davlat va huquqning tarixiy rivojlanishi, funksiyalari. Huquq tizimi.

6.5.3.13 Huquq sohalari:

Xorijiy mamlakatlar konstitusiyaviy huquqi:

xorijiy mamlakatlar siyosiy tizimi va O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining qiyosiy tahlili. Xorijiy mamlkatlar konstitusiyalarining turlari, ularning mazmuni, manbalari, asosiy xususiyatlari, shakllari, konstitusiyaviy nazorat va ularning turlari. Ijtimoiy tuzum asoslari va ularning yelementlari. Iqtisodiy, sosial, ma'naviy-madaniy va siyosiy munosabatlari. Shaxsning huquqiy maqomi. Jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalarning maqomi. Davlat shakllari boshqaruvi, tuzilishi va siyosiy rejimi. Saylov huquqi va saylov tizimi. Parlament, davlat boshlig'i, hukumat va sud hokimiyatining maqomi, ularning o'zaro munosabati, davlat boshlig'i va parlamentining, parlament va hukumatning o'zaro munosabati, hokimiyatning bo'linishi prinsipi:

qonun chiqaruvchi, ijro yetuvchi, sud hokimiyatlari. Konstitusiyaviy, oliy, xo'jalik sudlari va ularning huquqiy davlatdagi o'rni. Mahalliy (munisipal) organlar maqomi va boshqa xorijiy mamlakatlarning davlat va huquq institutlari (AQSh, Buyuk Britaniya. Germaniya, Fransiya, Turkiya, Hindiston va boshqalar).

Xalqaro huquq:

xalqaro huquqning maqsad va vazifalari. Xalqaro huquqning fan sifatida tarixiy rivojlanishi. Xalqaro

munosabatlar va ularning prinsiplari. Xalqaro huquqiy munosabatlar subektlari va ularning ye'tiborligi tushunchasi. Xalqaro huquq manbalari. Xalqaro huquqda huquq tushunchasi, hudud, xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro huquq tarmoqlari va institutlari. Davlatning javobgarligi va xalqaro nizolarni hal yetishda diplomatlar va konsullarning vakolatlari.

Fuqarolik huquqi. Oila huquqi:

fuqarolik huquqi fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fuqarolik huquqi tarixi. Ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik huquqi metodi bilan tartibga solish. Fuqarolarning huquqiy munosabatlari tushunchasi. Fuqarolar huquqining tarkibiy tuzulishi. Fuqarolik huquqi bo'yicha mas'ullik. Mulkka egalik. Fuqarolarning mulkka egalik huquqi. Yuridik shaxslarning mulkka egalik huquqi. Majburiyat huquqi va turlari . Intellektual mulk. Vorislik huquqi.

Fuqarolar huquqini himoya qilish shakllari. Fuqarolik prosessual munosabatlari. Fuqarolik ishlarini ko'rish organlari. Sudga tortilish. Da'vo tushunchasi va turlari. Sud tergovlari va sud ishlarini yuritish. Sudda ish ko'rish, sud qarorlari turlari. Sud qarorlari ijrosi. Notarius. Xo'jalik sudi va uning faoliyati.

tadbirkorlik huquqi: tadbirokorlik huquqi, O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik faoliyati tushunchasi.Tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli qonunchilik va ushbu qonunchilikdan fuqarolar amaliy faoliyatida foydalanish.

moliya huquqi: Moliya va moliyaviy faoliyat. Moliya tizimi. Moliya va kredit organlari. Moliya huquqi va uning manbalari. Moliyaviy nazorat. Byudjet huquqi. Byudjet tizimi. Byudjet jarayoni. Bank huquqi. Davlat bankining yemission huquqi. Valyuta operasiyalarini yuritish qoidalari.

soliq huquqi: Moliyaviy siyosat tushunchasi. O'zbekiston moliyaviy siyosati. Soliq tizimi munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari. Soliq turlari. Yuridik shaxslarning daromad solig'i. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i. Aksiz solig'i. Yer solig'i. Soliq ishini yuritish.

Oila huquqi tushunchasi, maqsad va vazifalari. Yer-xotinlarning huquq va majburiyatlari. Ota-ona va bolalarning huquq hamda majburiyatlari. Nikoh asoslari, nikoh shartnomasi, nikohni tugatish. Yer-xotinlarning mulkiy va mulkiy bo'lmagan huquqlari. Ota-ona qaramog'ida bo'lgan bolalar patronati.

Ma'muriy huquq:

ma'muriy huquq tushunchasi. Ijtimoiy munosabatlarni ma'muriy-huquqiy tartibga solish. Ma'muriy huquq manbalari. Ma'muriy-huquqiy normalar. Ma'muriy huquq subektlari. Ma'muriy huquqbuzarlik. Ma'muriy javobgarlik. Ma'muriy prosess. Ma'muriy ish yuritish. Ma'muriy ishlarni yuritishning prosessual kafolatlari, nazorat, ularning turlari. Moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy sohalarni boshqarishning huquqiy asoslari.

Jinoyat huquqi:

Jinoyat huquqi tushunchasi. Jinoyat huquqi prinsiplari. Jinoyat huquqi manbalari, jinoiy javobgarlik tushunchasi va uning asoslari. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi va jinoyat tarkibi. Jinoyat obekti. Jinoyatning obektiv tomoni. Jinoyat subekti. Jinoyatning subektiv tomoni. Jinoyatni istisno qiladigan holatlar. Jinoiy jazo tushunchasi, maqsad, vazifalar va jazo belgilash. Jinoyat huquqining maxsus qismi. Voyaga yetmaganlar jinoyati va jinoiy javobgarligi. Jinoyat turlari. Jinoyat huquqi sohasi bo'yicha davlat siyosati.

Mehnat huquqi:

mehnat huquqi tushunchasi. Mehnat huquqi predmeti, prinsiplari va subektlari. Mehnatga doir huquqiy munosabatlar. Aholini ish bilan ta'minlash. Mehnat shartnomasi (kontrakt), ish vaqti. Mehnatga haq to'lash. Kafolatlar va kompensasiya to'lovlari. Mehnat intizomi. Intizomiy javobgarlik. Moddiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish. Ayollar mehnati. Yoshlar mehnati. Mehnat nizolari va ularni ko'rish tartibi. Davlat sosial ta'minoti.

6.5.4 Ixtisoslik fanlari

Oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadigan ixtisoslik fanlari.

Ixtisoslik fanlari ro'yxati va mazmuni kadrlar buyurtmachilarining talablari va bakalavrlar tayyorlashning ushbu yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

6.5.5 Malakaviy amaliyot

pedagogik amaliyot: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq yetish ko'nikmalarini hosil qiladi.

o'quv amaliyoti: adliya, huquq-targ'ibot organlari, mahalla, sog'lomlashtirish idoralari va ommaviy bolalar oromgohlarida o'tkaziladi.

6.5.6 Bitiruv malakaviy ishi

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi ta'lim muassasasining bitiruvchilarini chiqaruvchi kafedralari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining talablari, shuningdek zamonaviy fan, texnika, texnologiyalar yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi ilmiy-metodik yoki ilmiy-tadqiqot yo'nalishida bo'lishi mumkin.

Talabaga bitiruv malakaviy ish topshirig'i, odatda, u uchinchi kursni tugatgandan so'ng beriladi. Bitiruv malakaviy ish kasbiy va maxsus fanlarni talaba o'zlashtirib borgani sari to'rtinchi kurs mobaynida, shuningdek, mazkur standartda bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida bajariladi.

Oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi qarori asosida bitiruv malakaviy ishlarining himoyasini ixtisoslik fanlari bo'yicha davlat attestasiyasi sinoviga almashtirilishi mumkin

7 Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga belgilangan talablar

7.1.1 Ta'lim dasturini ishlab chiqishda OTM asosiy ta'lim dasturining ham tarbiya, ham ta'lim sohasidagi, o'ziga xosligi, ta'lim yo'nalishi va ixtisosligi, ilmiy maktablar xususiyatlari, mehnat bozori yehtiyojlarini hisobga olgan, bosh maqsadini belgilab olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari asosiy ta'lim dasturini fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot, texnologiyalar va ijtimoiy soha rivojlanishini hisobga olgan holda muntazam yangilab borishi kerak.

7.1.2 Bakalavriat dasturini ishlab chiqishda OTM bitiruvchilarining umummadaniy kompetensiyalarini (ijtimoiy hamkorlik, o'z-o'zini tashkil qilish va boshqarish, tizimli-faoliyatli xarakterlarini) shakllantirish imkoniyatlari belgilab olinishi kerak.

OTM o'quv jarayonining ijtimoiy-tarbiyaviy komponentini rivojlantirish ta'lim oluvchilarning jamoat tashkilotlari, sport, ijodiy klublar, talabalar jamiyatlari ishida ishtirokini rivojlantirishga ko'maklashishi lozim.

7.1.3 Ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida kompetentli yondashuvni amalga oshirish o'quv jarayonida mashg'ulot o'tkazishning faol va interfaol shakllarini (kompyuterli simulyasiya, ish o'yinlari, aniq vaziyatlar tahlili va sh.k.), dunyo pedagogik amaliyotida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalar, o'qitishning strategiyalari, metodlari va usullarini auditoriyadan tashqari ishlar bilan birgalikda ko'zda tutishi lozim.

Faol va interfaol shakllarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning yalpi ulushi dasturning asosiy maqsadi, ta'lim oluvchilar kontingentining o'ziga xosligi, aniq fanlar mazmuni bilan belgilanadi. Talabalarning tegishli guruhlari uchun leksiya mashg'ulotlari auditoriya mashg'ulotlarining 50%idan oshmasligi lozim.

7.1.4 Ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamasi, jumladan, asosiy ta'lim dasturini va OTM tomonidan ta'lim dasturiga qo'shimcha tarzda kiritiladigan fanlarni o'zlashtirish bo'yicha auditorii va auditoriyadan tashqari (mustaqil) o'quv ishlarining barcha turlarining maksimal hajmi haftasiga 54 akademik soatdan oshmasligi lozim.

7.1.5 OTM ta'lim oluvchilarga o'z ta'lim dasturini uchun, jumladan, yakka tartibdagi ta'lim dasturlarini shakllantirishda ishtirok yetish uchun real imkoniyatlarni ta'minlashi lozim.

7.1.6 OTM ta'lim oluvchilarni ularning ta'lim dasturini shakllantirishdagi huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi, ta'lim oluvchilar tomonidan tanlangan fanlar (modullar, kurslar) ular uchun majburiy bo'lishini tushuntirishi lozim.

7.1.7 OTM bakalavriati dasturi ta'lim oluvchilarda fizika, informatika va ta'limda axborot texnologiyalari hamda amaliy chet tili sohasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan fanlar (modullar) bo'yicha laboratoriya praktikumlari va yoki amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olishi kerak.

7.2 Ta'lim dasturini amalga oshirish talablari

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash ta'lim dasturi bo'yicha akkreditasiya qilingan oliy ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi ta'lim, axborot texnologiyalari va o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanib amalga oshirilishi lozim.

Talabalarning chet tilini o'zlashtirishi, o'qituvchilarning chet tilini o'qitishi, shuningdek, buning uchun zarur sharoitlarni yaratish bakalavrlar tayyorlashda ustivor sanalishi lozim.

Malakaviy amaliyotlar zamonaviy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi, ular talabalarni amaliyot dasturlarida ko'zda tutilgan ish o'rinlari bilan ta'minlashi lozim.

Ta'lim davri mobaynida talaba kamida ikkita Davlat attestasiyasi (gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy va chet tili fanlaridan) topshiradi va bitiruv malakaviy ishini himoya qiladi. Davlat attestasiyasi tegishli integrasiyalashtirilgan kurs bo'yicha o'quv jarayoni tugashi bilan o'tkaziladi.

7.3 Malakaviy amaliyotni tashkil yetishga qo'yiladigan talablar

Malakaviy amaliyot talabani kasbiy tayyorlashga yo'llaydigan o'quv jarayonining uzviy qismidir. Uning mazmuni maxsus o'quv fan dasturlaridagi maxsus bo'limlarda yoki malakaviy amaliyot Nizomida aks yettiriladi.

Malakaviy amaliyot talabaning auditoriyada olgan bilimlarini pedagogik jarayonda sinab ko'rish, dastlabki malaka va ko'nikma hosil qilish hamda provard natijada kadrning kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. U namunali, tayanch umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkaziladi.

Pedagogik amaliyotga bitiruvchi kafedralar va pedagogik amaliyot bo'limi hamda fakultet o'quv-metodik komissiyalari tashkilotchiligida hisobot konferensiyasi yoki taqdimot shaklida yakun yasaladi.

Amaliyotni o'tkazish muddatlari o'quv rejasi bilan aniqlanadi. Amaliyot tugagandan so'ng talabalar bajarilgan ish haqida amaliyot o'qituvchilari-rahbarlari va qabul qiluvchi tashkilot vakillaridan tarkib topgan komissiya oldida hisobot berishadi. Baholash shakli o'quv rejasida belgilanadi.

7.4 O'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash talablari

Bakalavriat asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish o'qitilayotgan fanning ixtisosliligiga mos, odatda, bazaviy ta'limga ega bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlar bilan va tizimiy ravishda ilmiy yoki ilmiy-metodik faoliyat bilan shug'ullanayotgan kadrlar bilan ta'minlanishi kerak.

Ixtisoslik fanlari o'qituvchilari o'qitilayotgan fan ixtisosligiga mos bazaviy ta'limga yoki ilmiy darajaga ega bo'lishlari kerak. Ta'lim jarayoniga amaldagi tegishli tarmoq tashkilotlari, korxonalari va muassasalarining rahbarlari va yetakchi mutaxassislari o'qituvchilikka jalb yetilishi mumkin

7.5 Ta'lim jarayonini o'quv-metodik va axborot resurslari bilan ta'minlashga talablar

Asosiy ta'lim dasturining barcha kurslari, fanlari (modullari) bo'yicha o'quv-metodik hujjatlar va materiallar bilan ta'minlanishi lozim.

Ta'lim oluvchilarning auditoriyadan tashqari ishlari metodik ta'minlanishi va uni bajarishga sarflanadigan vaqtga asoslanishi lozim.

Asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish har bir ta'lim oluvchining asosiy ta'lim dasturi fanlari (modullari) to'liq ro'yxat bo'yicha shakllantiriladigan ma'lumotlar bazasi va ARM fondlariga kirishi bilan ta'minlanishi lozim.

Har bir ta'lim oluvchi asosiy ta'lim dasturiga kirgan kasbiy turkumning har bir fani bo'yicha o'quv va o'quv-metodik bosma yoki yelektron nashrlar (jumladan, vaqtli nashrlar yelektron bazalari) bilan belgilangan me'yorlarga muvofiq ta'minlangan bo'lishi lozim.

Axborot-resurs markazining asosiy fondi oxirgi 10 yilda (gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy siklning bazaviy fanlari uchun – oxirgi 5 yilda) chop yetilgan hamma sikllarning bazaviy qismi fanlari bo'yicha o'quv adabiyotining chop yetilgan yoki yelektron nashrlari bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak.

Qo'shimcha adabiyotlar fondi o'quv adabiyotlaridan tashqari rasmiy ma'lumot-bibliografik va davriy nashrlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ta'lim dasturini to'liq amalga oshirish uchun OTMning ARMda ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida keltirilgan fanlar bo'yicha yaratilgan o'quv-uslubiy adabiyotlar va chet yelda chop yetilgan hamda internet tizimidagi axborot manbalari har bir talabaga yetarli darajada bo'lishi kerak.

Ta'lim oluvchilar uchun mahalliy va xorijiy OTM, korxona va tashkilotlar bilan tezkor axborot almashish imkoniyati, zamonaviy kasbiy ma'lumotlar bazalari, axborot va izlash tizimlariga kirishni ta'minlanishi lozim.

Talabalarning bilish faoliyatini samarali boshqarish uchun pedagogik texnologiya talablari va qoidalari asosida mashg'ulotlarni rejalashtirishning quyidagi izchilligi tavsiya qilinadi:

- o'qishning kutiladigan natijalari va talabalarning bilish, talaba qo'yilgan maqsadlarga yerishgandan keyin yoki B.Blumning taksonimiyasiga muvofiq bilish sohasidagi o'quv maqsadlarining 6 asosiy kategoriyasi (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash) orqali harakat (xulq)ga mos keladigan fe'l

yordamida namoyon bo'ladigan o'quv maqsadlari shaklidagi psixomotor va affektiv sohalardagi vazifalarini shakllantirish;

- o'qituvchining mazkur mashg'ulotdagi o'quv-tarbiyaviy maqsadlarini belgilash;
- tayanch o'quv savollarini aniqlash;
- har bir kutiladigan natijaga muvofiq trening uchun o'quv va nazorat topshiriqlarini (savol, masala, test topshiriqlari), o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun zarur hajmda mashqlarni ishlab chiqish;
- mashg'ulotdan kutiladigan natijani kafolat uchun ishchi dastur, o'qituvchining maqsadlari, talabalarning vazifalari va nazorat tpshiriqlari mazmuniga muvofiq mazmunini ishlab chiqish;
- mashg'ulotning jarayonini o'qituvchi faoliyati (asosiy o'rinlar) va u bilan o'zaro bog'liq talabalarning faoliyat tavsifi asosida, shu mashg'ulot uchun tobora samarali (jumladan, interfaol) metodlar, didaktik vositalar va jihozlarni tanlash bilan loyihalashtirish.

5111600– Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrni tayyorlash jarayonida asosan quyidagi ta'lim texnologiyalar va o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

o'qitishning interfaol metodi,
muammoli o'qitish texnologiyasi,
o'yinli texnologiyalar,
tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari,
shaxsiy yo'naltirilgan ta'lim,
tabaqalashtirilgan ta'lim,
dasturlashtirilgan ta'lim,
o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi,
o'qitishning kompleks metodlari (loyihalash metodi, tarmoqli rejalashtirish metodi, aqliy hujum, assosiogrammalar metodi va h.k.)

7.6 O'quv jarayonining moddiy-texnika bazasiga qo'yilgan talablar

Bakalavrlar tayyorlash asosiy ta'lim dasturini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasasi fanlar bo'yicha va fanlararo tayyorgarlikning barcha turlarini (laboratoriya, amaliy va ilmiy-tadqiqotchilik ishini) ta'lim oluvchilarning OTM o'quv rejasida ko'zda tutilgan va sanitariya hamda amaldagi yong'in xavfsizligi qoidalari va me'yorlariga muvofiq o'tkazishni ta'minlaydigan moddiy-texnik bazaga ega bo'lishi kerak.

Bakalavrlik dasturini amalga oshirish uchun minimal zarur moddiy-texnik ta'minot ro'yxati:

- leksiya (potok va guruh) auditoriyalari;
- seminar mashg'ulotlari uchun auditoriyalar;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish uchun laboratoriyalarni o'z ichiga oladi.

Mavjud moddiy baza:

- leksiyalar o'tkazishni – illyustrativ materialni namoyish yetish uchun turli jihozlar;
- asosiy fanlarning amaliy-laboratoriya ishlarini bajarish uchun–laboratoriya ishlari dasturiga muvofiq jihozlar;
- ixtisoslik fanlarining laboratoriya ishlari uchun–laboratoriyalarning amalga oshirilayotgan ilmiy tematikasiga muvofiq jihozlar;
- seminar mashg'ulotlarini o'tkazish uchun–hisoblashlar va axborot tizimlaridan foydalanish uchun kompyuterlar hamda chet tili mashg'ulotlari uchun–lingafon xonalari bilan ta'minlashi kerak

8 Bakalavrlar tayyorlash sifatini baholash

8.1 Oliy ta'lim muassasasi tayyorgarlikning kafolatli sifatini, jumladan:

- ish beruvchilar vakillarini jalb qilish bilan bitiruvchilarning tayyorgarlik sifatini ta'minlash bo'yicha strategiyani ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlari vaqt-vaqti bilan taqrizlash, monitoringi;
- ta'lim oluvchilarning bilim va malakalari darajasini, bitiruvchilarning kompetensiyalarini baholashning obektiv jarayonini ishlab chiqish;
- o'qituvchilar tarkibi kompetentligini ta'minlash;
- faoliyatni (strategiyani) kelishtirilgan mezonlar bo'yicha baholash uchun muntazam tahlillar va boshqa ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar vakillarini jalb qilgan holda taqqoslash yo'li bilan

ta’minlashi lozim.

8.2 Bakalavriat yo’nalishlari bo’yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat – oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta’limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi tomonidan tasdiqlangan nazorat reyting tizimi to’g’risidagi Nizom asosida o’tkaziladi;

yakuniy davlat nazorati davlat ta’lim standartlariga muvofiq fanlar bo’yicha Davlat attestasiyalari va bitiruv malakaviy ishi himoyasini o’z ichiga oladi;

davlat-jamoat nazorati oliy ta’limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalarini attestasiya qilish Boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar iste’molchilari tomonidan ularning mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

8.3 Har bir fan bo’yicha bilimlarni joriy va oraliq nazorat qilishning muayyan shakli va o’quv jarayoniga tadbiq yetilishi OTM tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi va talabalar ye’tiboriga o’qishning birinchi oyi davomida yetkaziladi.

8.4. Talabalarning o’zlashtirishi joriy nazorati va oraliq attestasiyasi dasturlari ularning bo’lajak kasbiy faoliyati sharoitlariga maksimal yaqinlashtirilishi uchun sharoitlar OTM tomonidan yaratilishi kerak. Buning uchun muayyan fan o’qituvchilaridan tashqari tashqi yekspertlar sifatida ish beruvchilar, turdosh fanlardan dars beruvchilar va boshqalar bu jarayonga faol jalb qilinishi kerak.

8.5 Yakuniy davlat attestasiyasi bakalavr bitiruv malakaviy ishi himoyasini o’z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni, hajmi va tuzilmasiga bo’lgan talablar bitiruvchilarning yakuniy davlat attestasiyasi o’tkazish haqidagi Nizom asosida oliy ta’lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

8.6 Oliy ta’lim muassasasi:

- oliy ta’lim muassasalari davlat attestasiyasi va akkreditasiyasi to’g’risidagi Nizomga muvofiq ushbu standart talablariga va bakalavr tayyorlash sifatiga rioya qilish;
- professor-o’qituvchilar tarkibi va o’quv-yordamchi xodimlar saviyasining malaka talablariga mos kelishi;
- har bir integrasiyalashtirilgan fanni o’quv dasturigida ko’zda tutilgan o’quv-metodik adabiyotlar, O’MM, shuningdek, mustaqil ta’lim va mustaqil tayyorgarlik uchun materiallar bilan ta’minlash;
- o’quv jarayonining moddiy-texnikaviy ta’minlanganligi uchun to’la mas’uldir.

9 Eslatma

9.1 Oliy ta’lim muassasasiga:

-ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmunni ta’minlagan holda talabaning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan o’quv materialini o’zlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini o’quv fanlari bloklari uchun 5% oralig’ida, blokga kiruvchi o’quv fanlari uchun 10% oralig’ida o’zgartirish;

- umumkasbiy fanlar blokiga mos ravishda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy o’quv fanlarining alohida bo’limlarini chuqurlashtirib o’qitishni belgilash;
- o’quv fanlari mazmuniga, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda o’zgartirishlar kiritish huquqi beriladi;
- bitiruv malakaviy ish mavzusini belgilash oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

9.2 Kurs ishlari muayyan o’quv faoliyatning bir turi sifatida ko’riladi va ushbu o’quv fanini o’zlashtirish uchun ajratilgan soatlar chegarasida bajariladi.

9.3 Davlat ta’lim standartini bilish professor-o’qituvchilar tarkibini tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

10 Davlat ta’lim standartining amal qilish muddati

10.1 Davlat ta’lim standarti o’rnatilgan tartibda tasdiqlanib, “O’zstandart” agentligida davlat ro’yxatidan o’tgandan keyin amal qilish muddati – 5 yil.

10.2 Davlat boshqaruvining vakolatli ogranlari tomonidan davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy yetish to’g’risida yangi tartib-qoidalar qabul qilinsa DTSlarning amal qilish muddati o’zgarishi mumkin.

1.1.2. O’QUV REJA

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎҚУВ РЕЖА

ТАСДИҚЛАЙМАН
Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазири
_____
2011 йил «__» _____ 09
м.ў.

Таълим йўналиши:
5110500 – География ўқитиш методикаси

Академик даража - БАКАЛАВР
Ўқиш муддати - 4 йил
Таълим шакли - кундузги

В 5110500-11

I. ЎҚУВ ЖАРАЁНИ ЖАДВАЛИ

| Курс | Ҳафталар | | |

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
4.02	Ўлкашунослик	136		76	38	38				60								X
4.03	Моддий ишлаб чиқариш асослари	132		72	36	36				60				X				
4.04	Географияни ўқитишда инновацион технологиялар	112		56	26	20		10	7ки	56					X			
4.05	География ўқитиш жараёнини лойиҳалаш	120		62	20	26	16			58						X		
4.06	Танлов фанлари	98		50	24	26				48					X		X	
5.00	**Қўшимча фанлар**	**450**	**6,1**	**228**	**100**	**118**		**10**		**222**						**3**	**9**	
	ЖАМИ	**7344**	**100**	**4080**	**1732**	**1622**	**310**	**416**		**3264**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**	**30**
	Малакавий амалиёт	**810**																
	Битирув малакавий иши	**216**																
	Жорий ва давлат аттестациялари	**918**																
	ЖАМИ	**1944**																
	ЖАМИ:	**9288**																

Изоҳ:

1. Олий таълим муассасаси ихтисослик фанлари рўйхатини тузишда кадрлар буюртмачиларининг талабларини эътиборга олади.
2. Қўшимча фанлар блокининг соатлари ОТМ синнинг Илмий кенгаш меҳнат бозори ва кадрлар буюртмачиларининг талабларига мосланувчанлиги ва ҳаракатчанлигини таъминлаш учун Илмий кенгашнинг қарори билан фойдаланилади.
3. Ўқув режа асосида олий таълим муассаси ҳар йили ишчи ўқув режасини тузади. Бунда олий таълим муассасасига талабалар ўқув юкламасининг ҳафталик ўртача ҳажмини сақлаган ҳолда айрим семестрларда унинг миқдорини эркин белгилаш, ўқув фанлари блоки ҳажмини 5 фоизгача, блоклар таркибидаги фанлар ҳажмини 10 фоизгача ўзгартириш ҳуқуқи берилади.
4. Ўқув фанлари ҳажмининг камида 20 фоизи мустақил таълим тарзида ўзлаштирилиши шарт.
5. Талаба билимини баҳолаш рейтинг тизимига мувофиқ ўқув жараёни давомида ва аттестация ҳафтасида амалга оширилади (ЖБ – жорий баҳолаш, ОБ – оралиқ баҳолаш, ЯБ – якуний баҳолаш).
6. Битирув малакавий ишини бажариш муддатлари таркибига уни ҳимоя қилиш ҳам киритилади. Олий таълим муассасаси илмий кенгаши қарори асосида *битирув малакавий ишларининг ҳимоясини ихтисослик фанлари бўйича давлат аттестацияси синовига алмаштирилиши мумкин.*
7. "Жисмоний маданият ва спорт" фани таркибида 28 соат ҳажмида "Валеология асослари" назарий курси ўқитилиши кўзда тутилади.

Ўқув жараёнининг таркибий қисмлари	Ҳафталар сони	Семестр	Давлат аттестацияси
Назарий ва амалий таълим	136	1-8	1. Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар
Малакавий амалиёт	15	2,4,8	2. Чет тили
Битирув малакавий иши	4	8	3. Битирув малакавий ишини ҳимоя қилиш
Жорий ва давлат аттестациялари	14+(3)	1-8	
Таътиллар	32	1-8	
Жами	**204**		

Мувофиқлаштирувчи Кенгаш раиси _____ (имзо)

Олий таълим муассасалари бош бошқармаси бошлиғи **И.Мажидов**

Маънавий ва ахлоқий тарбия бошқармаси бошлиғи **М.Комилов**

ОЎМКҲТРМ директори **Б.Рахимов**

Низомий номидаги ТДПУ ректори **У.Иноятов**

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими йўналишлари бўйича Мувофиқлаштирувчи кенгашида маъқулланган

201 1 йил "9" 09 даги 3-сонли баённома

1.1.3. O’QUV DASTUR

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Рўйхатга олинди

№ 52-1.04

2011 йил “ 8 ” 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан тасдикланган

TAJRIBA-SINOV

MA’NAVIYAT ASOSLARI

fanidan namunaviy DASTUR

(bakalavr yo’nalishi uchun)

TOShKENT-2011

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma’qullangan.

Ushbu dastur “Ma’naviyat asoslari” fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo’yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to’ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so’raymiz:

Toshkent shahar, 2-Chimboy ko’chasi 96-uy, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi “Ma’naviy-axloqiy tarbiya” boshqarmasi, tel: 246-10-58, 246-10-54.

Fanning o’quv dasturi Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Otamurotov S.- falsafa fanlari doktori, professor (TKTI)
Abdurahmonov M. - tarix fanlari doktori, professor (O’zMU)
Xusanov S. - falsafa fanlari nomzodi, dosent (TKTI)

Taqrizchilar:

Norqulov D.T. - falsafa fanlari doktori, professor (TTA)
KabuldjanovaT.A. - san’atshunoslik fanlari nomzodi, dosenti (O’zMU)

Fanning o’quv dasturi Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil 19 avgustdagi 1-son bayonnoma)

KIRISh

O’zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq mamlakatning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirdi. Islohotlarning muhim yo’nalishi sifatida ma’naviy yangilanish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Ma’naviyat inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan biri sifatida millat abadiyligini, mamlakat taraqqiyotining ta’minlashdagi ustuvor omil hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda 1997 yildan boshlab respublika oliy ta’lim tizimiga «Ma’naviyat asoslari» fani kiritildi. Jamiyat hayotini tu b dan yangilash borasidagi islohotlar sobitqadamlik bilan tadbiq etilayotgan hozirgi paytda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish va pirovard natijada ma’naviy barkamol komil insonni, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishlari bo’lib qolmoqda.

O’quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o’qitishdan maqsad - talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni singdirish orqali ularda yuksak ma’naviyat va ma’naviy qashshoqlashuvning inson va jamiyat hayotidagi mohiyatni tushunib yetish hamda yuksak ma’naviyatga ega bo’lish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari:

talabalar ongiga milliy ma’naviy qadriyatlarni, inson va jamiyat hayotida ma’naviyatning o’rni va ahamiyati to’g’risidagi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyani talabalar ongiga singdirish;

mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy-ma’naviy tiklanish borasida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar, yuksak ma’naviyatli insonlar qilib tarbiyalash borasidagi vazifalar mohiyati-mazmuni, asosiy yo’nalishlarini talablarga yetkazish asosida ularning bu jarayonlarda faol ishtirok qilish ruhiyatini mustahkamlash;

ma’naviy qashshoqlashuvning salbiy oqibatlari haqida tegishli bilimlarni talabalarga yetkazish va ularda bu jarayondan ogoh bo’lish ruhiyatini shakllantirish;

bugungi kunda jahonda keng yoyilayotgan “ommaviy ma’naviyat” va turli ma’naviy qashshoqlikka olib keluvchi oqimlarning maqsad va muddaolarini talabalarga yetkazish, ular ongi va dunyoqarashida “ma’naviy immunitetni” shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Ma'naviyat asoslari" fanini o'rganish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- talaba ma'naviyat nima ekanligini anglab yetishi, ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni bilishi, ma'naviy va moddiy hayotning uyg'unligini, ma'naviy yuksalishda milliy g'oyaning rolini, ma'naviyatning jamiyat yangilanishida rolini, islohotlar hamda ularning mezonlarini tushunishlari va ularni turmushda qo'llay bilishi lozim.
- talaba shaxs va jamiyatning ma'naviy yuksalishi, uning kamoloti darajasi pirovard natijada millatning ma'naviy salohiyatini belgilashini nazarda tutib, ajdodlarimiz yaratgan benazir ma'naviy merosimizni har taraflama va chuqur o'zlashtirishi, uning mazmun mohiyatini va g'oyaviy-falsafiy asoslarini bilishni uslub va uslubiyatlari haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
- talaba hozirgi globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlarni bilishi, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurash olib borish lozimligi. Inson qalbiga yo'l topish, ma'naviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yo'lida fidoiylik jasorat ekanligini anglab yetishi hamda g'oyaviy kurashish usullarini hayotda qo'llay olishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Ma'naviyat asoslari» fani eng avvalo o'quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar: "O'zbekiston tarixi", "Falsafa", "Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillari", "Etika", "Estetika", "Dinshunoslik", "Madaniyatshunoslik", "Pedagogika", "Siyosatshunoslik" va boshqa fanlar va kurslar bilan o'zaro bog'liq. Mazkur fanlar shaxsning ma'naviy-intellektual kamolotida, ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslari kabi masalalarda bir-birini to'ldirib keladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Fan bo'lajak kadrlarni yuksak ma'naviy kamolot ruhida tarbiyalashga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Bu o'z navbatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalari rivojlanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

"Ma'naviyat asoslari" fani talaba yoshlarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradigan, Prezident Islom Karimov asarlarini qunt bilan ukishi va o'zlashtirishi, ma'naviy sohadagi masala va muammolar bo'yicha erkin fikr yuritish qobiliyatini o'stiradigan yangi pedagogik texnologiyalar asosiga quriladi.

4

Fanni o’zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika va vositalardan, ko’rgazmali qurollardan samarali foydalaniladi.

Amaliy mashg’ulotlar mustaqillik yillarida qad tiklagan obidalar, ta’mirlangan ziyoratgohlar, muzeylarga tashrif uyushtirish, ma’naviy meros va ma’naviy hayot bilan bog’liq joylarga, tabiat qo’yniga chiqish shaklida tashkil etiladi.

ASOSIY QISM

I. BO’LIM. MA’NAVIYaT, UNING JAMIYaT VA INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O’RNI

Ma’naviyat tushunchasi, predmeti, maqsadi va vazifalari

Ma’naviyatning ma’no-mazmuni, hayotdagi o’rni va ahamiyati haqida turli fikr va ta’riflar. Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ma’naviyat tushunchasiga bergan ta’rifi, uning ma’naviyatning mohiyatini o’rganishdagi o’rni.

Ma’naviyatning predmeti. Inson va jamiyat ma’naviy hayotini o’rganuvchi fan. Uning maqsadi jamiyat ma’naviy taraqqiyotining asosi ekanligi. Ma’naviyat va ma’rifat uyg’unligi.

“Ma’naviyat”ning kategoriyalari. O’zlikni anglash, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik va boshqalar.

Ma’naviyatning rivojlanish qonuniyatlari. Shaxs va jamiyatning ma’naviy salohiyati bilan bog’liq bo’lgan qonuniyatlar. Shaxslar va millatlarning o’zaro munosabatlari natijasida yuzaga keladigan qonuniyatlar. Ma’naviyat rivojlanishidagi “ta’sir” va “aks ta’sir” qonuniyati.

Ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o’rnining oshib borishi. Davlat siyosatida ma’naviyatni yuksaltirishning ustuvor sohaga ko’tarilishi. Umumma’naviy yuksalishning asosiy mezonlari.

Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari va milliy-ma’naviy tiklanish haqidagi konsepsiyalari

Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari haqidagi konsepsiyasi. Uning jamiyat va shaxs hayotidagi o’rnini ko’rsatib berishda metodologik asos bo’lishining asosiy sabablari. Mamlakat miqyosidagi islohotlarning ma’naviy sohadagi islohotlar bilan uzviy olib borilishining zarurligi.

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasi. “Milliy taraqqiyot” va “Milliy tiklanish” tushunchalari. Mamlakat va jamiyat taraqqiyotida milliy-ma’naviy tiklanishning ustuvorligi. Jamiyat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlari. Milliy g’oyaning milliy-ma’naviy tiklanishdagi ahamiyati. Yoshlar yuksak ma’naviyati - milliy-ma’naviy tiklanishning asosiy omillaridan ekanligi.

Ma’naviyatning tarkibiy qismlari va ularning o’zaro munosabatlari

Ma’naviyat va madaniyat. Ularning o’zaro munosabati. Moddiy va ma’naviy madaniyatning o’zaro aloqadorligi. O’tmishda madaniyat va ma’naviyat, uning bugun va kelajakni bog’lovchi omil ekanligi. Madaniy boyliklar va ularning shaxs ma’naviy kamolotidagi o’rni.

Ma’naviy meros - ma’naviyat rivojlanishining asosi ekanligi. Madaniy meros. Ma’naviyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o’rni.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati. Qadriyat tushunchasi. Ma’naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi, milliy g’urur va milliy o’zlikni anglashdagi ahamiyati. Diniy qadriyatlarning inson ma’naviy kamolotida tutgan o’rni.

Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o’zaro munosabatlari hamda inson kamolotidagi ahamiyati

Ma’rifat tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati. Ma’rifatchilik. Ma’rifatparvarlik. Ma’naviyat va ma’rifatdagi o’zaro uyg’unlik. Yuksak ma’naviylik shaxs fazilatining mezoni. Ma’naviyat va ma’rifat -ma’naviy barkamollikning asosi ekanligi.

Ta’lim-tarbiya - shaxs ma’naviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tizim ekanligi. Ta’lim va tarbiyadagi uzviylik. Ta’lim tizimiga qo’yilayotgan yangi talablar tizimida ma’naviyatning o’rni.

Ma’naviy qashshoqlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri.

Ma’naviyat, iqtisod va ularning o’zaro bog’liqligi

Ma’naviyat va iqtisod uyg’unligi jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishish sharti ekanligi. Ma’naviy yuksalish va iqtisodiy rivojlanishining uyg’unligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy barkamol inson omili.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkor ma’naviyati. Zamonaviy tadbirkorning yuksak ma’naviy fazilatlari.

O’zbekiston milliy mustaqilligining ma’naviy-ma’rifiy asoslari. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyotidagi o’rni.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati.

Ma’naviyatning siyosat, huquq va hokimiyatdagi o’rni

Ma’naviyat va siyosat. Ularning o’zaro bog’liqligi. Ma’naviyat, jamiyat va davlat faoliyatini siyosatda ifodalanishi. Siyosatda xalq umummanfaatlarining mujassam bo’lish zaruriyati. Ma’naviy tiklanish va yuksalishida davlat siyosatining o’rni. Adolatli va adolatsiz siyosatning jamiyat ma’naviy hayotidagi oqibatlari .

Ma’naviyat va huquq, ularning o’zaro munosabati. Huquqiy savodxonlik. Uning ma’naviyat bilan bog’liqligi. Huquqiy ma’naviyat. Huquqiy demokratik davlat qurishda shaxs xuquqiy ongining o’rni. Hokimiyat boshqaruv tizimiga ma’naviy barkamol shaxslarni jalb qilish, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti. Rahbar ma’naviyati, uning jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashdagi o’rni.

Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik

Milliy ma’naviyat. Millat tushunchasi mohiyati, xususiyatlari va unda ma’naviyatning o’rni. Milliy ma’naviyatning asosiy vazifalari.

Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy ma’naviyat. Mintaqaviy ma’naviyat va uning o’ziga xos jihatlari.

Umuminsoniy ma’naviyat va uning zaminlari. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik milliy-ma’naviy tiklanish asoslaridan biri. Milliy ma’naviyat va umuminsoniy ma’naviyat uzviyligi.

Millatlararo madaniy-ma’naviy munosabatlar. Millatlararo totuvlik, O’zbekistonda milliy-madaniy markazlar va ularning faoliyati. Milliy madaniy markazlarning millatlararo ma’naviy hamkorlikning mustahkamlashdagi va milliy ma’naviyatlarning o’zaro boyishidagi o’rni.

II. BO’LIM. MA’NAVIYaTNING TARIXIY, NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari

Jahon ma’naviyati va ma’rifati rivojiga Markaziy Osiyo xalqlarining qo’shgan hissasi. Xalqimiz madaniy-ma’naviy taraqqiyotining asosiy bosqichlari: “Avesto” - xalqimiz diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma’naviy obida. “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal” “Avesto” ma’no-mohiyatini belgilovchi tamoyil sifatida. Moniylik va mazdakizm ta’limotda yaxshilik va yomonlik, yorug’lik va zulmat o’rtasidagi g’oyalari. Milliy bayram - Navro’z milliy qiyofamiz, urf - odatlarimizning betakror ifodasi. Ilk Sharq uyg’onish davri ma’naviyati.

Turkiy bitiklar. Qadimgi Sharq manbalari. Arxeo logik yodgorliklar. Xalq og'zaki ijodiyoti va yozma adabiy meros namunalari. Milliy ma'naviy qadriyatlarning mumtoz ko'rinishlari. Vatan ozodligi, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning ma'naviy fazilatlari ekanligi.

Islom dinida ma'naviyat va shaxs ma'naviy qiyofasining talqini

Din - inson ma'naviyatining tarkibiy qismi. Islom dini. Qur'oni Karim. Hadislarda inson ma'naviyati. IX asr hadis ilmining "Oltin asri". Imom Buxoriy "Muhaddislar sultoni". Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy ma'naviy merosi. "Sunani Termiziy" asari. Undagi insof, adolat, insonparvarlik g'oyalari va ahloqiy-ma'naviy masalalar.

Tasavvuf ma'naviyati, mazmun - mohiyati. Tasavvufdagi komil inson va tarbiya xaqidagi g'oyalar. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarida ma'naviyat.

Diniy aqidaparastlik ma'naviy qashshoqlikning ko'rinishi va uning zararli oqibatlari.

Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi va ularning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati. Prezident Islom Karimovning nutq, ma'ruza va asarlarida Islom ma'naviyati va uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi fikrlari.

Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ma'naviyat va ma'rifat masalalari

Markaziy Osiyo Sharqning ma'naviyat va ma'rifat markazlaridan ekanligi. Ilk Uyg'onish davri ilmiy - ijodiy kashfiyotlari. O'sha davrda faoliyat ko'rsatgan ilmiy markazlar: Bog'dod Ma'mun akademiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Samarqand (Ulug'bek) akademiyasi, Sharq va G'arb Renessans - Uyg'onish davri tushunchasi. Undagi umumiylik. Ularning ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni.

Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo ilm - ma'rifat va ma'naviyat rivoji. Muhammad ibn Muso Xorazmiy. O'nlik sanoq sistemasi. Algebra faniga asos solinishi. Algoritm. Ahmad Farg'oniy. Uning "Astronomiya asoslari haqida kitob" nomli asari. Abu Nasr Forobiy. Uning dunyoqarashi, jamiyat va axloq to'g'risidagi ta'limotlari. Abu Rayhon Beruniy. Uning jahon ilm - fan taraqqiyotidagi buyuk xizmatlari. XI asrni "Beruniy asri" deb atalishining sababi. Ibn Sino. Uning "Tib qonunlari" asari. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari. Ahmad Yugnakiy. "Hibbatul - haqoyiq " dostoni. Maxmud Zamahshariy -ma'naviy yetuklik timsoli.

Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviyat va ma’rifat

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi qonunining mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish xus-yatlariga "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida e'tibor berilgan. Kitobda moddiy va ma'naviy olamning uyg'unligi bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslanib, jamiyatdagi har qanday taraqqqiyot, o'sish va o'zgarishlarning zaminida ana shu ikki omilning o'zviy aloqadorligi nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi misol va dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Ma'lumki, inson va jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutishi, ularning qaysi biri ustivorligi to'g'risida xilma-xil qarashlar va yondashuvlar mavjud. Hozirgacha ba'zilar ruhiy olamni, ma'-yatni birlamchi deb bilsalar, boshqalar esa moddiylikni asosiy o'ringa qo'yadilar va shu asosda materializm va idealizm kabi oqimlar ham shakllangan. Aslida moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo'yish, ularning birini ustun deb bilish, boshqasini e'tiborga olmaslik masalaga bir yoqlama qarashning yaqqol ifodasidir. Bunday bir yoqlama yondashuv hayot talabiga javob bermaydi, albatta. Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi qonuni esa bundan farq qiladi, u biz yashayotgan hayotni yagona va yaxlit voqyelik sifatida tushunish imkonini yaratadi.

Ma'yatning inson va jamiyat bilan o'zviy aloqadorligi qonuni ham yuqorida qayd qilingan asarda asoslab berilgan. Ushbu qonun muayyan millat, jamiyat va davlat har bir taraqqiyot bosqichida shu davrga xos iqt-y, ijtimoiy , siyosiy riv-sh tamoyillariga ega bo'lgani singari, o'ziga mos keladigan ma'n-y, ma'r-y va axloqiy tartiblar hamda tamoyillar tizimiga ega bo'lishining tarixiy zarurat ekanini ifodalaydi. Haqiqatan ham, inson va jamiyat hayotini ma'-yatsiz tasavvur etib bo'lmagani kabi, ma'-yatni ham inson va jamiyatdan ajratib bo'lmaydi. Jamiyatdagi o'zgarishlar muqarrar ravishda ma'-yatga, ma'-yatdagi o'zgarishlar esa jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazishi shubhasiz. Insoniyat tarixi va taraqqiyotiga mazkur qonun n. nazaridan qarash har bir davrning to'zilishiga muayyan ma'naviy qadriyatlar tizimi mos kelishini va bu tizim ijtimoiy voqyea-hodisalar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. G'oyaviy, axloqiy, mad-y, ma'r-y va b. sohalarga aloqador t. va tamoyillar ham ushbu tizimda o'ziga xos o'rinni egallaydi, ular orasidagi farq, tafovut va munosabat lar esa tizimdagi umumiy o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi.

Ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi qonuni hodisaning o'tmishdan kelajakka tomon riv-sh jarayonidagi tarixiylik va zamonaviylik, inkor, vorislik va yangilanishning o'zluksizligi va davomiyligi bilan bog'liq tamoyillarining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Mazkur qonuniyat Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagicha asoslab berilgan: "...ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi o'zluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi". Ushbu qonuniyatga ko'ra, taraqqiyot jarayonida bir riv-sh bosqichidan boshqasiga o'tilganida iqt-y, siyosiy va mad-y sohalarda o'zgarish bo'lgani singari, ma'-yat sohasida ham yangilanish ro'y beradi. Bunda barcha ma'naviy mezonlar butunlay yo'qolib ketmaydi, balki yangi davrning ijtimoiy to'zilishiga va zamon talablariga mos keladigan, eskidan farq qiladigan yangi ma'-yat tizimi shakllanishi zaruratga aylanadi. Bunday holatlarning o'zluksiz takrorlanishi esa ma'-yatning ijtimoiy voqyelik va taraqqiyot

bilan bog'liqligini ifodalaydigan quyidagi muhim xulosaga kelish imkonini beradi: muayyan ijtimoiy voqyelikka (ya'ni, insoniyat taraqqiyotining biron bir davriga, jamiyatning riv-sh bosqichiga yoki davlat shakliga) muayyan ma'naviy t. va tamoyillar tizimi mos kelganidek, o'zgargan ijtimoiy voqyelikka ham o'zgacha ma'-yat tizimi mos keladi. Ijtimoiy voqyelik yoki ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar bir-biridan qisman ilgarilab ketishi yoki orqada qolishi ham mumkin, ammo bu mazkur qoidaning butunlay bo'zilishi, degani emas. Ana shu qoida ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liqlik qonunining asosiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Sh-dek, ma'naviy hayotning g'oya, mafkura, axloq, mad-t, ma'rifat va b. bilan bog'liq xususiy sohalarga doir bir qator qonun va tamoyillari ham bor. Ular yuqorida ko'rsatilgan qonunlar bilan birga ma'-yatga xos qonun-qoidalar tizimini tashkil qiladi hamda shu sohadagi narsa va hodisalar, voqyea va jarayonlar orqali namoyon bo'ladi. Mazkur tizimni hozirgi zamondagi o'zgarishlar bilan bog'lab o'rganish nafaqat naz-y, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa hozirgi davrda jahonda va O'z-nda ro'y berayotgan o'zgarishlarning ma'-yat sohasidagi xus-yatlarini bilib olish, qo'lga kiritilgan ilmiy dalillarni tajribada qo'llash, mazkur yo'nalishdagi vazifalarni aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.(*Q.Nazarov)*

Ma'naviyat ana shu o'zaro munosabatlar va «ta'sirlar» asosidarivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabo'l» qiladi. Shunday qilib, ma'naviyatrivojlanishidagi «ta'sir» va «aks ta'sir» qonuniyati mavjud bo'lib, u ma'naviyatning rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'naviyat tushunchalari va uning rivojlanish qonuniyatlari ushbu kursning boshqa mavzularida ham o'rganilishini e'tiborga olib, bu o'rinda qisqa to'xtab o'tishni lozim topdik.

4-masalaning bayoni. Yuqorida ma'naviyatning jamiyat, shaxs va millat hayotidagi muhim o'rni xaqida fikr yuritildi. Ammo uni real hayotga qanchalik tadbiq qilish yo qilmaslik davlat olib borayotgan siyosat bilan bog'lik. To'g'ri, shaxs va millat shakllanishi yoki jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ma'naviyatning roli va ahamiyatiga e'tibor berib kelingan.

Bugunga kelib ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga nisbatan munosabat tobora kuchayib bormoqda. Sobiq ittifoqdosh, bugungi mustaqil davlatlarning ko'pchiligida birida oldinroq, ikkinchisida keyinroq ma'naviyat omilining roli va ahamiyatini oshirishga imkoniyat darajasida e'tibor berilmoqda.

Bu borada O'zbekistonning tarixan qisqa vaqt ichida Prezident Islom Karimovning bevosita tashabbusi asosida ma'lum tajribalarni tuplashga erishganligini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ma'naviyatni ko'tarish davlat siyosatida ustivor sohaga kutarildi va u o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi.

Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida qilingan ma'ro'zasida ham ma'naviyat masalasi XX1 asr bo'sag'asida ikkinchi ustivor yo'nalish deb qaraldi. Xozirda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ekanligi qayd etildi. Boshqacha aytganda, biz o'z xaq-xuquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq

manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan erkin, har jihatdan barkamol, sog’lom avlodni tarbiyalashimiz kerak ekanligi uqdiriladi.

Aslini olganda, xozirgi kunda ma’naviyatning ustivor sohaga ko’tarilishining bir kator sabablari bor. Biz bu o’rinda ana shu sabablarning ba’zilarinigina ko’rsatib o’tishni lozim topdik.

Birinchidan, jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, unda yashaydigan odamlarning tafakkuri, ongi qay darajada o’sishi bilan bogliqdir. Ularning ongi va tafakko’rini amalga oshirmokchi bo’lgan vazifalar mohiyati va manfaati yo’nalishidan kelib chiqqan holda o’zgartirmasdan turib ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi.

Ana shu ma’noda ham ma’naviyat jamiyat hayotini o’zgartirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va xar qanday davlat o’z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ustivorlik bilan qaraydi.

Ikkinchidan, mustaqillikning daslabki yillarida sobiq Sovet mafkurasidan voz kechish bayrog’i ostida umuman har kanday mafkuraga qarshi kurash boshlandi. Bu o’z navbatida odamlarning ma’naviyatiga, shakllangan qadriyatlariga ham o’zining salbiy ta’sirini o’tkaza boshladi. Ayniqsa, matbuotlarda ba’zi olimlar, birinchi navbatda iqtisodiy tafakko’rni shakllantirish zarur, ma’naviyat esa ana shu iqtisodiy tafakkur zaminida yo’zaga keladi degan fikrlarni ilgari sura boshladilar. Oqibatda odamlar ruxiyatida yana bir tomonlama ketish turmush tarzida yetakchi o’rinni egallay boshladi. Bu o’z navbatida, milliy manfaatlar yoki vatanparvarlik haqida kanchalik gapirmaylik, u o’zining biz kutayotgan natijalarini bermasdan, balki odamlarda shaxsiy manfaatlarga ustivorlik berishga xizmat qila boshladi. Bunday salbiy jarayonning yo’zaga kelishi yangi jamiyat yaratish uchun xatarli.

Uchinchidan, mustaqillikning daslabki yillarida yo’zaga kelgan iqtisodiy muammolar oldida odamlarning aksariyat qismi dovdirab qoldi, ko’pchilik hollarda yoshlarning ta’lim olish, kasb o’rganish, san’at va badiiy asarlarga qiziqishdan ko’ra bozorga chiqish, pul topishga intilish xavfini yo’zaga keltirdi. To’g’ri, pul topish, o’z hayotining iqtisodiy imkoniyatini musaxkamlash har bir inson uchun hayotiy extiyoj va zarurat hisoblanadi. Ammo bu ehtiyoj shaxs va millat kamoloti manfaatlariga zid bo’lmasligi, ularning ma’naviy qashshoqlashib ketishiga xizmat qilmasligi lozim. Ana shu yo’zaga kelayotgan xavfli jarayonning oldini olish zarur.

To’rtinchidan, sobiq ittifok sharoitida fan, texnika, maorif, oliy ta’lim, bir qator sanoat korxonalarini vujudga keltirish va rivojlantirishda ko’pgina yutuqlar qo’lga kiritilgan edi. Ammo, ular markaz va qolaversa «katta og’a» manfaatlariga xizmat qilgan. Ana shu potensial sobiq Ittifokdosh respublikalarga turli baxonalar bilan rus millati vakillarini yuborish, ularni maxalliy xalqni boshqarish, ularga rus turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, harakterini singdirish xisobiga mamlakatda rus millati ma’naviyati ustivorligiga tayanuvchi yagona til, ma’naviyat va turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilib kelgan edi. Bunday ayyorona va zo’ravonlik siyosati oqibatida millatlarning o’zligini anglashga bo’lgan intilishiga katta zarba berildi. Bu sobiq ittifoqda umummilliy inqirozni yo’zaga keltirdi.

Bu inqiroz millatning «yo’q» bo’lib ketishi xavfini vujudga keltirdi. Bunday salbiy jarayonning oldi olinmasdan, millatning rivojlanishiga erishib bo’lmaydi. Uni bartaraf etish faqat milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, ma’naviyatning davlat siyosatida ustivor bo’lishiga yana bir sabab, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat’iy nazar, uning real subyekt, ma’lum moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchisi, ise’molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o’ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o’zining mustaqil o’rniga ega bo’lishi kabi omillarni, ya’ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy extiyoj darajasiga ko’tarilgan edi. Uni xal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Oltinchidan, o’zbeklar jaxon sivilizasiyasiga ulkan xissa ko’shgan xalqdir. Uning ma’naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan yutuqlari jaxon xalqlariga asrlar osha xizmat qilib kelmoqda. Ammo sho’rolar to’zumi davrida ajdodlari tomonidan yaratilgan ana shu yutuqlarni o’zbek xalqining ongi va qalbidan «chiqarish» borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa uni qayta tiklash, jaxon sivilizasiyasidagi munosib va adolatli o’rnini tiklash zarur edi. Bunga esa faqat ma’naviyatni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Yettinchidan, ma’naviyat millatni va butun mamlakat aholisini ma’lum maqsadlar sari davlat atrofiga uyushtiruvchi, ularni faollashtiruvchi, yorqin kelajakka ishontiruvchi, inson zotini ulug’lovchi, uning qadrini anglatuvchi ulkan «mexanizm» hamdir. Xuddi ana shu muhim «mexanizm»dan mustaqillikni mustaxkamlash, isloxotlarni amalga oshirish, millatimizning kaddini ko’tarishda foydalanishga bo’lgan extiyoj davlatimiz, eng avvalo Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o’z vaqtida anglab olindi.

Ana shu sabablar va extiyojlar mustaqillikni qo’lga kiritganimizdan keyin ma’naviyatni rivojlantirish va milliy merosni qayta tiklashni davlatimiz hayotida ustivor siyosatdarajasiga ko’tarilishiga olib keldi. Shu sababli respublika Prezidenti 1994 yil 23 aprelda «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil qilish to’g’risida»; 1996 yil 9 sentyabrda «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to’g’risida»; 1999 yil 3 sentyabrda «Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo’llab-quvatlash to’g’risida» farmonlarini chiqardi. 1996 yil 9 sentyabrdagi farmonda, «...ma’naviy-ma’rifiy islohatlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo’nalishi, deb hisoblansin», deb belgilandi.

1998 yilning 24 iyo’lida Vazirlar maxkamasi «Ma’naviy-ma’rifiy isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida» qaror kabo’l kildi. Yuqorida qayd etganimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustivor yo’nalishi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muxim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zarurligiga xalqimiz e’tibori qaratildi.

Ana shu muxim hujjatlar mamlakatimizda ma’naviyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda katta amaliy ahamiyatga ega bo’ldi. Ma’naviyatni rivojlantirishdagi davlat siyosati Prezidentimizning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblarida «Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman» va «Tafakkur» jurnali bosh muxarriri bilan bo’lgan muloqotida «Kuch– bilim va tafakkurda», degan konseptual ahamiyatga ega bo’lgan fikrlariga monand ravishda amalga oshirilmokda.

3-MAVZU: MA'NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI, ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Reja:

1. ***Ma'naviy meros madaniyat qadiryatlar va mafkura ma'naviyatning tarkibiy qismlari.***
2. ***Milliy g'oya va milliy mafkura ularning o'zaro munosabatlari.***
3. ***Ma'naviyat va iqtisod ularning o'zaro bog'liqligi.***
4. ***Ma'naviyatni siyosat xuquq va hokimiyatdagi urni.***

Adabiyotlar:

1. Karimov.I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Toshkent.Ma'naviyat-2008y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998 y.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., O'zbekiston, 1998 y.
4. Karimov I.A. Milliy mafkura – kelajak poydevori. Xalq so'zi, 2000 yil, 7-aprel
5. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning musaxkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblari. «Fidokor», 2000 yil 8 iyun.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998 y.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Tosh. O'zbekiston, 2000 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura, siyosat. T., O'zbekiston, 1993 y.
9. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish–farovonlik poydevori. «O'zbekiston ovozi», 2000 yil.
10. I.A.Karimov.Jaxon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. O'zbekiston. 2009.
11. B.Ziyomuhammadov.Komillikka eltuvchi kitob.Toshkent, "Turon-iqbol"-2006.
12. B.Ochilova. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar vorisiylik. Toshkent, "Istiqlol"-2009.

Nazorat savollari

1. Me'ros nima? uning jamiyat taraqqiyotida to'tgan o'rni?
2. Madaniyatni nima uchun umuminsoniy hodisa sanaymiz?
3. Qadriyat tushunchasini izohlang?
4. Manaviyat va mafkuraning o'zaro bog'liqligi va ahamiyati?

1-masalaning bayoni. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining muxim omili bo'lar ekan,u nafaqat bugungi madaniy boyliklarga, qadryatlarga, zamonaviy tamoyillarga, shu bilan birga halqimizning ko'p asrlik manaviy merosiga ham tayanadi. Jamiyat rivojida "Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'xna tarixiy yodgorliklar eng muhim

omillardan biri bo’lib hizmat qiladi”[11] deydi yurtboshimiz. Biz shu o’rinda meros o’zi nima degan savoliga javob bersak. Meros-insoniyattning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boylik majmuidir. Meros o’z navbatida madaniy va ma’naviy merosga bo’linadi. Ma’daniy merosga kishilikning kelgusi taraqqiyotiga,ma’naviy yuksalishiga hizmat qiladi, unga ijobiy ta’sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo’lgan tomonlar xisobga olinadi. O’tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo’lavermaydi, chunki o’tmishdan qolgan narsalarning hammasi ham qadriyat ahamiyatiga ega emas. Shunga asosan madaniy merosga ta’rif beramiz.

Madaniy meros deb o’tmish avloddan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o’tgan, saralangan, insoniyatning xozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy madaniyat majmuiga aytiladi. Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni meros sifatida qabo’l qilib oladi. Tarixiy vorislik-jamiyat va uning madaniyati ravnaqi shartidir.

“Ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan ma’naviy meros shu qadar ulkan, shu qadar keng qamrovliki, ularning barchasini umimiy xususiyatlarinigina taxlil qilish, bu merosni vorislik asosida ma’naviyatimizning kelgusi rivoji uchun ibrat va asos qilib olishimiz mumkin”[1] deydi B.Ochilova.

Madaniy va ma’naviy merosni bir-biridan farqi bo’lsada,madaniy merosni barpo etishning zamirida ma’naviyat-ya’ni insonning ma’naviy-ruxiy bilimlari, qobiliyati, iste’dodi, aqli, empirik va nazariy bilim faoliyatlari yotadi. Madaniy meros o’z ko’lami jihatdan ma’naviy meros tushunchasidan kengroq. Madaniy merosda ko’proq umimiylik ustunroq bo’lsa, ma’naviy merosda xususiylik ustunroq. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o’z ichiga qamrab olsa,ma’naviy meros ma’naviy madaniyat yutuqlarini o’z ichiga qamrab oladi.

Ma’naviy meros deb o’zoq va yaqin o’tmishdagi,hozirgi davrdagi ma’naviy jixatdan g’oyat qimmatli,o’chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan,butun ijtimoiy manfaati vaextiyoji ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytiladi. Ma’naviy meros manaviy qadriyat sifatida namoyon bo’lib, unga ilm-fan, jumladan falsafa, adabiyot, san’at, axloq, dindagi real, dunyoviyta’limotlar, hurfikrlilik va boshqalar kiradi.

O’zbek xalqi o’z ma’naviy merosi bilan xaqli ravishda faxrlanadi. Faqat qo’lyozma va toshbosma asarlarning o’zidan respublikamizda necha o’ng minglab asrab qolingan bo’lib, ular Toshkentda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti,qo’lyozmalar instituti, diniy nazorat va O’zbekiston Milliy universiteti fondlarida saqlanmoqda. Bo’lar fanning barcha muxim soxalariga: matematika, astranomiya, kimyo, tibbiyot, meneralogiya, fikh, falsafa, tarix, adabiyotga oid asarlardir. “Ota-bobolarimizning asrlar davomida to’plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o’zida mujassam etgan bu nodir qo’lyozmalarni jiddiy o’rganish davri keldi”[2] . O’zbekistonning boy ma’naviy merosi shakllanayotgan yangi ma’naviyatimizni negizini, poydevorini tashkil qiladi. Ma’naviy meros xalqning

[1] И.А.Каримов Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тош, “Шарқ” 1998 й

[1] Б.Очилова, Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тош, “Истиқлол” 2009 й
[2] И.А.Каримов, Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тош. “Шарқ” 1998 й 4-бет.

muqaddas xotirasi bo'lib, uning kishilik tarixi va ma'naviy taraqqiyotidagi to'tgan o'rnini belgilab beradi. "Ma'naviyat jamiyatning ma'naviy boyligida o'z ifodasini topadi. U asta-sekin to'planib uyg'unlashib borish asosida, vorislik asosida rivojlanadi"[1].

Qadimgi yozuvlar, bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, ulug' shoir va mutaffakirlarning yaratgan dunyoviy va badiiy asarlar Qur'on Karim, Hadislar, Yassaviy va Baqurg'oniylar yaratgan diniy-axloqiy ruxdagi asarlar, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojiblar yaratgan axloqiy pand nasixat turidagi asarlar, Najmiddin Kubro, Baxovuddin Naqshbandiy yaratgan inson ichki dunyosi, ruxiyatiga qaratilgan ta'limotlar, Navoining o'lmas ijod xazinasi va boshqalar bizning boy ma'naviy merosimiz hisoblanadi.

Madaniyat (qultura)-parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi, mumtoz lotin tilida madaniyat yerga ishlov berish ma'nosida ishlatib kelingan. Shuningdek ml.av. 45 yili Rim notig'i, mashxur faylasuf Siseron madaniyat atamasini aqlga ishlov berish ma'nosida ishlatgan. Uning fikricha, dexqon yerga ishlov bergani kabi inson ham so'z, aqlgaishlov berib turishi zarur. Madaniyat tushunchasi bilimdon, ma'rifatli, yuksak tarbiyali insonlarni ta'riflashda ham ishlatiladi. Madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Madaniyat jamiyat taraqqiyotida quydagi vazifalarni bajaradi;

1) Bilish funksiyasi.Madaniyat ko'p asrlik inson faoliyati davrida olamdagi narsa va hodisalarni bilish va ularni o'zlashtirish jarayonida to'plangan tarixiy tajriba mujassamlangan.

2) Axborot o'zatish vazifasi.Madaniyat bir avloddan ikkinchi avlodga ijtimoiy tajriba yetkazish shaklidir,ya'nitarixiy vorislik vazifasini bajaradi.

3) Muloqot vazifasi. Moddiy va ma'naviy–tarixiy yodgorliklarda o'z aksini topgan ma'lumotlarni qabo'l qilish jarayonida biz o'tmishdagi avlodlar turmushi, ularning didi,madaniy darajasi, shuningdek mashxur asarlarni bunyod etgan mualliflar bilan tanishib, davrning nafasidan xabardor bo'lamiz.

4) Madaniyat, inson ahloq-odobi, xatti-harakatini baholash va tartibga solish vazifasini bajaradi.

5) Madaniyat kishilarni insonparvarlik ruxida tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Madaniyat insonning moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va o'zlashtirishdagi faoliyatini ifodalaydi. U inson akl-idroki, ise'dodi va mexnati maxsulidir. Yuqorida aytilganidek, madaniyat juda murakkab ko'p kirrali ma'naviy-ijtimoiy xodisa bo'lib, ijtimoiy hayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy oladi. Sirasini aytganda, xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va madaniy-ma'naviy boyliklar madaniyatga kiradi. Madaniyat deyilganda, mexnat kurollarini yaratish va ulardan foydalanish, fan-texnika yutuklari va ularni ishlab chikarishga joriy qilish, kishilarning ishlab chikarish va ijtimoiy kunikmalari, mexnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo'lga qo'yish, axoli urtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma'lumot, umumiy, umumiy majburiy va oliy ta'limni amalga oshirish, adabiyot va san'at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy g'oyalar va shu

[1] М.Хайруллаев Ўзбекистоннинг миллий истиқлол мафкураси Тош. "Ўзбекистон" 1993 й 29-бет.

kabilar nazarda tutiladi. Ko'rinadiki, madaniyat odamzod akl-idrokining eng yuksak chukqilarigacha bo'lgan narsalarning hammasini kamrab oladi. U inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas, shu bilan birga kishilarning mexnat jarayonida voke' bo'ladigan bilim boyliklari, tajribalari, kobiliyatlari, ishlab chikarish va kasb malakalari, o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

Jamiyat moddiy ishlab chikarishining ikki amaliy turi-moddiy va ma'naviy ishlab chikarishga qarab madaniyat ham yirik ikki turga moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat deganda mexnat kurollarini, mexnat kunikmalarini, shuningdek ishlab chikarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy boyliklarni anglaymiz. Moddiy madaniyatga moddiy boyliklarning butun majmui, ularni ishlab chikarish vositalari: ishlab chikarish jarayonida yaratilgan texnika, texnologiya, texnik inshootlar, ijtimoiy mexnatni uyushtirish shakli, kurilish va dexkonchilikni yo'lga qo'yish va boshqalar kiradi. Shularga qarab, moddiy madaniyatni bir kator turlarga bo'lamiz. Chunonchi, ishlab chikarish va texnika madaniyati, dexkonchilik madaniyati, mexnatni tashkil etish madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandachilik madaniyati va boshqalar.

Madaniyatning ikkinchi turi-bu ma'naviy madaniyatdir. Ma'naviy madaniyatga insonning akli va ma'nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma'naviy madaniyat fan, falsafa, san'at, adabiyot, ahloq, din, xuquq, siyosat, maorif, ma'rifat va xakozolar yigindisidan tashkil topadigan insonning tashki va ichki ma'naviyati, ruxiyati olamidir.

Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mexnat unumdorligi ortadi, ishlab chikaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy kiyofasi shakllanadi, ahloq odobi, did va farosati, estetik zavki, ijodiy kuchi va kobiliyatlari taraqqiy etadi.

Umuman kishilik jamiyatini madaniyatsiz, xususan ma'naviy madaniyatsiz tasavvur qilish kiyin. Jamiyat, inson bor ekan u ma'lum madaniyatga ega, busiz bo'lishi mumkin emas.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o'zaro alokadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chikarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mexnat kurolini, moddiy boylikning biror turini inson akl-idrokisiz, tafakkurisiz, aqliy mexnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ham ma'naviyat yotadi. Xar kanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mexnati sintezi asosida yo'zaga keladi. Ma'naviy madaniyat voke'likni badiiy aks ettirish va o'zlashtirish vositasidir.

Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish bilan cheklanib kolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari, oila, maktab, oliygox, korxona, tashkilotlar, muassasalardagi o'zaro munosabatlari ham kiradi.

Ukituvchi moddiy va ma'naviy madaniyat haqida so'zlar ekan, talabalar dikkatini umuman madaniyat, xususan ma'naviy madaniyatni rivojlanish qonuniyatlariga tortishi joizdir.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qoidalaridan biri uning tuxtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiyat rivojlanib borishi bilan madaniyat ham sifat jixatidan o'zgaradi. Bu degan so'z, jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o'zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o'z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotining xar bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuklarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga kutaradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Shu urinda ukituvchi talabalarga, xar bir avlod o'zi uchun maxsus yangi moddiy baza tashkil etmasligini, ilm-fan va madaniyatni yangidan yaratmasligini, balki o'zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatdan meros sifatida foydalanishini aytib utishi lozim.

Madaniyat-umuminsoniy xodisa. U barchaga baravardir. Masalan, makomlar, adabiyot, me'morchilik durdonalari, fan-texnika yutuklari, transport va aloka vositalari barchaga tegishlidir. Xuddi shuningdek ma'naviy madaniyat ham milliy va umuminsoniy bo'ladi.

Milliy ma'naviyat, madaniyat tarixiy xodisa sifatida bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Urta Osiyo xalqlari ma'naviy va madaniyat tarixining ibtidosi asrlar ka'riga singib ketgan bo'lib, ularning necha ming yillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini bosib o'tganligini aniklash bugun uchun anchayin murakkab muammo.

Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim saltanatlar axli kabila-kabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan bark urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, asronomiya kabi fanlar madrasalarda ukitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, magribu mashrikka nom taratganini eslasak va bundan xar kancha g'ururlansak arziydi.

O'tmishda xalqimiz ma'naviy madaniyatning o'zviy qismi bo'lgan dini islomni rivojlantirishga ham o'zining munosib xissasini qushgan. Dunyoda eng mashxur xadisshunoslar oltita bo'lsa, shulardan turttasi bizning diyorimizdan chiqqan. 1998 yilda esa Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi bizning yurtda va butun islom dunyosida keng nishonlangan bo'lsa, 2000 yilda imom al-Moturudiy tavalludining 1130 yilligi, Burxoniddin Marginoniy tavalludining 910 yilligi nishonlandi.

Qadriyat-voqye'likdagi muayyan xodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-manaviy ahamiyatini qo'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sosiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, hodisa va voqyealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat,udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Falsafa fanlari doktori B. Ochilova qadriyatga shunday ta'rif beradi: "Qadriyat-bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli, tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar

yig’indisidir”[1]. U qadriyatlarni moxhyati va mazmuniga ko’ra bir nechta tasnifga ajratadi.Ular quydagicha:

1. “Inson va insoniyat-eng oliy qadriyatlardir.
2. Insoniyatning mavjud bo’lishi uchun zarur bo’lgan tabiiy imkoniyatlar, mehnat qurollari va mexnat mahsulotlarining birligi moddiy hayot qadriyatlari deyiladi.
3. Jamiyatning hayotiy faoliyati uchun zarur bo’lgan va insoniyatning taraqqiyot jarayonida yo’zaga kelgan ijtimoiy soha va to’zilmalar(oila,millat, sinf davlat) kabilarning majmuyi ijtimoiy hayot qadriyatlari tushunchasi bilan ifodalanadi.
4. Kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsafiy,axloqiy,estetik g’oya va ideallar yig’indisi ma’naviy hayot qadriyatlari deb ataladi.”[22]

Qadriyatlar umumbashariy,umuminsoniy,milliy, mintaqaviy ,shaxsiy bo’lishi mumkin. Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o’z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega tushuncha bo’lib, avvalo ishlab chiqarish, mehnat, sohasidagi faoliyat,insonlar o’rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, hatti-harakatlar majmuasi sifatida yo’zaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, hatti-harakatini ma’lum yo’nalishga buradigan, tegishli me’yorga soladigan ma’naviy hodisaga aylandi va aylanmoqda. Inson butun umri davomida son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi.

Umuminsoniy qadriyat, bu avvalo bashariyatning mavjud bo’lishi va yashab qolishini ta’minlaydigan tinchlik, umumjaxon sivilizasiyasi va madaniyati kabi tushunchalar bilan bevosita bog’liqdir. “Ayniqsa hozirgi termo-yadro asrida insoniyatning eng oliy qadriyati bu tinchlik va osoyishtalikni har qanday yo’l bilan bo’lsada saqlab qolishdir.”[3]

Umuminsoniy qadriyat-bu barcha xalqlar uchun birday qadrli bo’lgan: hayot kechirish, bilim olish, mehnat qilish, sevish-sevilish, zavqlanish, hohlagan faoliyat bilan shug’ullanish, o’z huquqlariga ega bo’lish va hokozo hayotiy zarur ijtimoiy voqyelikdir.

“Umuminsoniy qadriyat shuning uchun ham hamma odamlar orasida alohida ahamiyatga egaki, u insonlarning moddiy, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlari bilan barobar, ruxiy ehtiyojlarini ham qanoatlantiradi”.[1] Umuminsoniy qadriyatlar haqida gapirar ekanmiz hurmatli olima B.Ochilovani quydagi fikrlarini misol keltirsak: “Shunisi ibratliki, umuminsoniy qadriyatlar haqida so’zlaganda hyech qanday narsani o’ylab topishning, qandaydir yangi mafkura yoki yangi etiqod ramzini yaratib, sun’iy ravishda konstruksiya yasashning hojati yo’q. Barcha xalqlarda mavjud bo’lgani, boshqa gurux va tabaqalar uchun qimmatli, ularning jahon taraqqiyotiga qo’shgan hissasi bo’lgan narsalarni hurmat qilishni o’rganish kerak, xolos”[19]

Ma’naviy qadriyatlar kishining ma’naviy tubanlashuvi jarayoniga chinakkam extiyojlar va manfaatlarni soxtalari bilan almashtirishga qarama-qarshi turishning g’oyatda samarali vositasi bo’lib xizmat qiladi. Ma’navmy qadriyatlar kishilar ma’naviy faolyati maxsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasida yo’zaga kelgan, bilim, qarash, malakalar samarasidir. Ma’naviy qadriyatlarimiz sirasiga turli-

[1] Б.Очилова, Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тош, “Истиқлол” 2009 й.
[2] Б.Очилова, Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тош, “Истиқлол” 2009 й.
[3] Б.Очилова, Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тош, “Истиқлол” 2009 й.
[1] Б.Зиёмухаммедов, Комилликка элтувчи китоб. Тош, “Тўрон -Иқбол” 2006 й. 75-бет
[19] Б.Очилова, Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тош, “Истиқлол” 2009 й.

tuman bayramlar milliy urf-odat va an’analar, chiroyli axloq va odob musiqa va boshqalar kiradi. Xaqiqiy ma’naviyatlilik inson ongida tafakkuridadir.

Moddiy qadriyatlar-kishilar moddiy yextiyojlarini qondirib, o’ziga xos xususiyati va shakllariga ko’ra odamlarga alohida his-tuyg’u uyg’otuvchi moddiy narsalarga aytiladi. Ularga buyuk inshootlar bog’ va xiyobonlar, antiqa uy-ro’zg’or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo’lgan uy anjomlari, qurol-yarog’, ovqat, shaxsiy buyumlar va shunga uxshash narsalar kiradi.

Masalan O’zbekning mehnatsevarligi, mexmon do’stligi, hush-hulqligi va muloyimligi, g’ayratli va itoatkorligi, turli toifadagi odamlar bilan o’zaro inoqlashib ketaolishi, kechirimliligi, muloxaza va tafakkur bilan ish qurishi, tinchlik sevarligi ularning milliy qadritlari hisoblanadi. Bu “O’zbekchilik” degan so’z bilan ifodalanib, o’zbeklarning fazilati.

Ma’naviyat va mafkura bir-birlari bilan mustaxkam boglangandir. Ma’naviyat insonning ruxiyati, o’zini-o’zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo’lsa, mafkura-ma’lum bir davlat, jamiyat, millat, sinf va ijtimoiy guruxlar xuquqiy, falsafiy, badiiy, diniy g’oya, nazariya va qarashlar tizimi xisoblanadi.

Mafkuraning ma’naviyatda to’tgan o’rni shundaki, u inson, jamiyat, yoxud millat yoki guruxlarning intilishlari, ruxiyatlari va kayfiyatlarini o’zida mujassamlashtiradi. Ma’naviyat singari mafkuraning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nixoyatda kattadir.

Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, xar kanday jamiyatni sog’lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o’z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-ruxiy kuch-kuvvat beradigan poydevor bo’lib kelgan»[1]. Mafkura jamiyat taraqqiyotida qo’yidagi vazifalarni bajaradi: birinchidan, davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalaridagi vazifalarni o’zida mujassamlashtiradi; ikkinchidan, bir davlat, bir mamlakat mikyosida barcha fukarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruxlarni bir g’oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashki siyosat g’oyalarini o’zida mujassamlashtirib, uni fukarolarga targib etadi; turtinchidan, davlat doirasida yashayotgan fukarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatlarini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yunaltiradi; beshinchidan, xalqning orzu-umidlarini o’zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo’lgan muammolarni xal qilish uchun butun jamiyat va fukarolarni harakatga keltiradi; oltinchidan, mafkura jamiyatda ma’lum siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fukaro hayotidagi ana shunday roliga qaramay, mustaqillikning daslabki yillarida respublikamizda umuman mafkuraga uning mohiyatini tushunganlar ham, tushunmaganlar ham qarshi kurash boshlab yuborgan edilar. Ya’ni xech kanday mafkuraga ega bo’lmagan, mafkuraviy bushlikka asoslangan, o’z g’oyasiga ega bo’lmagan jamiyat qurish kabi qarashlarni ilgari sura boshladilar. Bu jarayon respublikamiz Prezidentining 1993 yil 23 aprelidagi respublikaning bir gurux adiblari bilan uchrashuvida “Milliy istiqlol mafkurasi”ni yaratish vazifasini kun tartibiga kuyg’unicha davom etib keldi.

[1] И.А.Каримов. Ўзбекситон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тош, “Ўзбекистон” 1996 й.

O’zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Tafakkur” jurnali bosh muxarriri va “Fidokor” gazetasi muxbirining savollariga javoblarida milliy g’oya, milliy mafkuraning O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi to’tgan o’rni, ahamiyati bayon qilib berganligini alohida ta’kidlash joiz: “Mafkura xar kanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo’lmasa odam, jamiyat, davlat o’z yo’lini yuqotishi mukarrar. Ikkinchidan, kayerdaki mafkuraviy bushlik vujudga kelsa, usha yerda begona mafkura xukmronlik qilishi tayin”[2]. Buni xar bir inson, O’zbekiston fukarosi chuqur anglashi, magzi-magziga yetib olishi kerak. Negaki, jamiyatning, jamiyat a’zolarining mustaxkam va ravshan mafkurasi, g’oyasi, maqsadi bo’lmasa, inkirozga yo’z tutadi.

Insoniyat tarixida davlatlar va jamiyatlar paydo bo’libdiki, ularga egizak xolda mafkuraviy qarashlar ham shakllangan. Boisi mafkurasiz davlat yoki jamiyat bamisoli xech bir maqsad-rejasiz, tavakkal qilib yo’lga chiqqan odamga uxshaydi. Yo’lga chikdingmi - manzil, maqsad anik bo’lmogi kerak. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mafkura muammosiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda “Tafakkur” jurnali bosh muxarriri savollariga javoblarida mafkurani milliy g’oya xalqni-xalq, millatni-millat qiladigan, uning istikbol yo’llarini yuksak maqsad va e’tikod nurlari bilan yoritadigan qudratli ma’naviy omil, deb ta’rifladilar. “Turkiston” va “Fidokor” gazetalari muxbirlari savollariga javoblarida bu g’oyalar yanada rivojlantirildi, mafkura muammosi kun tartibiga prezidentimiz tomonidan yanada jiddiy qo’yildi. Bunga sabab “... xozirgi zamondagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun o’zluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo’layotgan kurashlar ko’p narsani xal qiladi”[1]. Mana shuning uchun ham Islom Karimov muntazam ravishda mafkura dunyosida bushlikka yo’l qo’yib bo’lmasligiga, shunday xolat yo’z bergan takdirda bush qolgan mafkura maydonida bizga begona, orzu-intilishimizga mutlako yot g’oyalar urin egallashga urinishi shubxasiz ekanligiga hammamizning dikkatimizni takror-takror qaratib kelayotganliklari bejiz emas.

Prezidentimiz mafkura-umummilliy, umumxalq ahamiyatiga ega g’oya bo’lib, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, umumsafarbarlikka da’vat etuvchi kuch ekanligini ta’kidladilar. Inson, uning qadr-qimmati, farovonligi, Vatanimizning yorkin kelajagi bizning milliy g’oyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil etadi.

Prezidentimiz I. Karimov milliy istiqlol mafkuramiz, avvalo xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruxiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-tokat, adolat, ma’rifat tuyg’ularini ongimizga singdirishi lozimligini ta’kidladilar.

Shu bilan birga, bu mafkura xalqimizda, o’zining qudrati va himoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jaxon hamjamiyatidagi taraqqiy etgan davlatlar orasida teng xuquqli munosib urin egallashiga doimiy intilish xissini tarbiyalamogi kerak.

Yurtboshimiz milliy g’oya, milliy mafkura nimalarni o’zida mujassamlashtirishi va kanday talablarga javob berishi kerakligini ta’kidlab, qo’yidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-muloxazalarni bildirgan edilar:

---

[2] И.А.Каримов. ўша асар Тош, “Ўзбекистон” 1996 й.

[1] И.А.Каримов. Ўзбекситон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тош, “Ўзбекистон” 1996 й.

Birinchidan, milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni kamrab olishi shart.

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, xar kanday toifalar va guruxlarning intilishlari va umidlaridan, xar kanday insonning e'tikodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayrok atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini umumsafarbarlikka da'vat etuvchi kuch ekanligini ta'kidladilar.

Uchinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadokat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarida madadkor bo'lishi zarur.

Turtinchidan, u Vatanimiznig shonli O'tmishi va buyuk kelajagini o'zviy boglab turishga o'zimizni ulug' ajdodlarimiz bokiy merosining munosib vorislari deb xis qilishi, shu bilan birga, jaxon va zamonning umumbashariy yutuklariga erishmokka yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Mustaqillik bizni porlok rivojlanish imkoniyatlariga ega kildi. Xalqimiz katta orzu-maqsadlar va intilishlar bilan yashayapti. Xuquqiy davlat, adolatli fukarolik jamiyati - oldimizda turgan nurafshon manzildir. Ammo bu manzillar o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi, uni o'z-o'zidan mashakkatsiz, izlanishlarsiz, yaratuvchilik, ijodkorlik ishlarisiz egallanmaydi. Yangi jamiyat yuksak darajada rivojlangan ongni, ma'naviy kamolotni yanada baland bosqichga kutarilishini takazo etadi. Ilgor demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy mustaqillik mafkuramiz ana shu yangi ma'naviyatning xal kiluvchi mezonlaridan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chikadigan bo'lsak, ma'naviyat mafkurasiz rivojlana olmasligini kuramiz. Chunki, inson ruxiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.

Xullas, mafkura - umummillatga, umumxalqka, butun jamiyatga taallukli ulkan g'oyalar birligidir. Ammo uning ildizlari xar bir insonning qalbida, vijdonida, iymonida, akl-idroki va tafakkurida. Shu bois, haqikiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

2-masala bayoni: Mazkur mavzuning birinchi masalasi bayonida asosiy e'tiborni Mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyot borasida tanlab olgan bozor iqtisodiyoti yo'lining to'g'riligi, hayotiyligi masalasiga, bu borada erishilgan yutuklar va xal etilishi lozim bo'lgan muammolarga qaratish lozim.

Inson oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyga muxtoj. Xayvonot dunyosi ham oziq-ovqatga muxtojlik sezadi. Inson ishlab chikarish orkali o'z extiyojlarini kondiradi, xayvonlar esa xech nima ishlab chikarmaydilar. Insonlarning moddiy ishlab chikarish jarayonlari va bu borada yo'zaga keladigan munosabatlarni iqtisodiyot fani urganadi. Abu Ali ibn Sino fanlarni tasnif qilar ekan, iqtisodiyotni xujalik yuritish sohasidagi amaliy fanlar katoriga kiritadi. Urta asrlarda ilmlar tasnifi bilan shugullangan Abu Abdullox al Xorazmiy ham iqtisodiyotni xujalik yuritish sohasidagi amaliy falsafiy fan doirasiga kiritadi.

Ishlab chikarishning usishi va kishilar, mamlakatlar urtasidagi alokalar bozor munosabatlarini keltirib chikargan. Urta Osiyoda bozor munosabatlari kadim

zamonlardan boshlab shakllangan. Tarixiy hujjatlarning guvoxlik berishicha, bundan ming yillar muqaddam Buxoro va Xiva savdog'arlari odamlar ko'zini kuvnatib, xayron koldirgan tovarlar va buyumlarni Xindison va Xitoyga, rossiya va garbiy Ovrupa mamlakatlariga yetkazib borganlar. Urta Osiyoda bozor munosabatlarining kadimdan rivoj topganiga «Buyuk Ipak yo'li» yaqqol misol bo'la oladi. Shunday ekan, xozirgi zamon tilida ishlatilayotgan bozor iqtisodi va uning mohiyati nimag' Uni qisqacha ifodalaydigan bo'lsak, u qo'yidagilarni anglatadi:

Bozor iqtisodi degan so'z birinchi navbatda mulokot, gaplashish, kelishish, savdolashish, ikki tomonga to'g'ri keladigan umumiy narxni, rakamni, xulosani topish demakdir.

Bozor iqtisodining asosiy sharti va talabi – mumkin kadar ko'prok va mumkin kadar sifatlirok, rakobatbardosh maxsulot ishlab chikarishdir. Xuddi shu talablarni amalga oshirishning eng qulay sharoitlarini kapitalizm davri yo'zaga keltirdi. Natijada insoniyat keyingi besh asr ichida undan oldingi hamma tarixdagidan ko'p moddiy va ma'naviy qadriyatlar yarata oldi. Bozor iqtisodi xukmron mamlakatlar moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chikarishning haqikiy kaynar bo'logiga aylandi. Bu davrda insoniyatning haqikiy aqliy salohiyati, yaratuvchilik imkoniyatlari namoyon bo'ldi.

Jaxon tajribasi, shu jumladan o'zimizning mamlakatimiz tajribasi ham iqtisodiyot faqat uning o'zigagina xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanib borganligini ko'rsatadi. Bozor munosabatlarining qonunlarini nazar-pisand kilmaslik, bo'zish iqtisodiyotni ogir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunonchi, sobiq Ittifokda 70 yildan ortikrok davr mobaynida bozor iqtisodiyotiga alokasi bo'lmagan iqtisodiyotni yaratishga urinib kurildi. Bu sobiq musabid to'zumga va uning xalqiga juda qimmatga tushdi.

Iqtisodiyotning ham o'z obyektiv qonun-qoidalari, sir-asrorlari borki, ular bilan xisoblashmaslikning xech bir iloji yo'q. Xar doim iqtisod o'z yo'lidan boraveradi, uni tuxtatish mumkin emas. Kimki iqtisod qonunlarini nazar-pisand kilmasa, uning kosasi okarmaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan sung, u kaysi yo'ldan borishi kerak, degan masala oldimizda kundalang bo'lib turdi. Yurtboshimiz Islom Karimov mustaqillikka erishishimizning birinchi kunlaridanok jaxondagi turli mamlakatlarning tajribalarini chuqur va xar tomonlama urganib, Mustaqil O'zbekistonning bundan buyongi taraqqiyot yo'li bozor iqtisodiyoti munosabatlari yo'lidan borish ekanligiga qat'iy ishonch xosil etdi.

Ammo bozor munosabatlarining kaysi yo'li, kaysi shakli biz uchun makbo'l, kaysi birini o'zimizning bundan buyongi taraqqiyotimiz uchun tanlab olishimiz kerakligi masalasi oldimizda turgan muammo edi. Bozor munosabatlariga utish Angliyada 200 yil, boshqa mamlakatlarda 100-150 yil mobaynida, Yaponiya, Korea mamlakatlarida 20-30 yil davomida amalga oshgan va shakllangan.

Yuqorida aytganimizdek, bozor munosabatlariga utish davr talabi. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q. Buni respublikamiz axli to'g'ri anglab yetdi. Ammo kutib utirishga vakt yo'q. Vakt, davr nixoyatda tigiz. Tezkorlik bilan Mustaqil respublikamizning bozor munosabatlariga kanday qilib, kaysi usulda utishini tanlab olish, bunda jaxonning barcha ilgor tajribalarini umumlashtirish va foydalanishni xal etish lozim edi. Buning uddasidan chikdik. Bunda Prezidentimiz Islom Karimov katta shijoat ko'rsatdi. Bozor munosabatlariga utishning jaxonda orttirilgan barcha ijobiy tajribalarini urganib, xalqimizning tarixiy taraqqiyotiga, ruxiyatiga, milliy xususiyati,

iklim shart-sharoitlariga, mamlakatimizning jugrofiy mavkeiga asoslangan o'zimizga xos va mos yo'lni belgilab oldik.

Ushbu yo'lning, konsepsiyaning qoidalari Prezidentimiz kitoblarida, maqolalarida va nutklarida, mamlakat parlamenti kabo'l qilgan qonunlarda, xususan Islom Karimovning «O'zbekistonning bozor munosabatlariga utishining o'ziga xos yo'li» asarida xar tomonlama asoslanib, bayon qilib berilgan. Bu «O'zbekiston yo'li»-«Islom Karimov yo'li» sifatida jaxon buyicha yuksak baxolanib kelinmokda. Ushbu tanlangan yo'lning mohiyati O'zbekiston respublikasining Prezidenti Islom Karimov ishlab chiqqan va ilgari surgan besh tamoyilda o'z ifodasini topgan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, endilikda boshqa mamlakatlarda ham tan olindi.

Bu tamoyillar qo'yidagilar:

Birinchidan, iqtisodiyot siyosatdan usuvor bo'lishi kerak va buning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli bo'lishi;

Ikkinchidan, davlat asosiy isloxotchi bo'lishi;

Uchinchidan, qonun va qonunlarga rioya qilishning hamma narsadan ustunligi;

Turtinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat;

beshinchidan, bozor munosabatlariga utish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

Yuqoridagi besh tamoyilni qisqa izoxlaydigan bo'lsak, ular qo'yidagilarni anglatadi:

Birinchidan, iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga buysundirilganda, u barbod bo'ladi. Buni Shurolar misolida qurishimiz mumkin. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilishi, unga tazyik utkazish darajasiga kutarilmasligi kerak. Ham ichki, ham tashki iqtisodiy munosabatlar xar kanday mafkuradan xoli bo'lishi lozim. Bozorning qoidasi shunday: kimning maxsuloti yaxshirok va arzonrok bo'lsa, usha maxsulotga talab hammadan kura ko'prok bo'ladi. Bu yerda xech kanday siyosat yoki mafkura o'z ta'sirini utkaza olmaydi.

2-masalani bayoni. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Zardusht eramizdan avvalgi 660 yilda Xorazmda dunyoga kelgan. Otasi savodli bo’lib, karomatguy bo’lgan ekan. Zardusht 20 yoshidan boshlab yakka xudolikni targib qilgan. 28 yoshida shuxrat kozonadi, lekin uning targibotlari maxalliy xukmdorlarga yokmaydi. Uni osishga xukm etadilar. Zardusht o’zi bilan 300 ga yakin safdoshlarini olib xozirgi Afgoniston tomonga yo’l oladi va o’z g’oyalarini targib etadi. U 77 yil umr ko’rgan.

Zardushtiylikning paydo bo’lishi eramizdan oldingi X asrga to’g’ri keladi. Uning muqaddas kitobi «Avesto» ham birdan yo’zaga kelgan emas. U bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Zardusht «Avesto»ning kadimiy nusxalarini urganib, tuplab bir kitob xoliga keltirgan. U 30 ta koxin bilan uch yil davomida «Avesto»ning bilimlarini yigib, bir tizimga solgan va 12 ming xukiz terisiga zarxal xarflar bilan yozdirgan.

Avesto qo’yidagi besh kismdan iborat:

1. Vendidod - 22 bobdan iborat bo’lib, unda Axura Mazda Yerdagi barcha mavjudotning yaratuvchisi ekanligi bayon etiladi.

2. Visparad - 24 bobdan iborat bo’lib, ibodat qushiklaridan tashkil topgan. Zulmat kuchlariga qarshi kuchlar kuylanadi.

3. Yasna - 72 bobdan iborat bo’lib, kurbonlik vaktida, marosimida aytiladigan qushiklardan tashkil topgan.

4. Yasht - 22 qushikdan iborat bo’lib, zardushtiylik ma’budalari madxi kuylangan.

5. Xurda Avesto - Kichik Avesto - kuyosh, oy va boshqa xudo hamda ma’budalar sharafiga aytilgan kichik ibodat matnlaridan iborat.

Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto» haqida qisqa ma’lumot berdik. Bu kitobning ko’p qismi Iskandar Zulkarnayn va arablar isilosi davrida yuqolib ketgan. Bizgacha yetib kelgan nusxasi 1374 yilda kuchirilgan bo’lib, xozirda Kopengagendagi kutubxonada saklanib kelinmokda.

Zardushtning o’zi tarixiy shaxs ekanligi ham munozarali, baxsli masala. Biz ayrim mualliflar fikriga qushilib, unga tarixiy shaxs sifatida yondoshdik.

Zardusht sarik tuya mingan, degan ma’noni anglatadi. «Avesto» ta’limotiga kura, olamda ikkita kuch, yaxshilik va yomonlik, yoruglik va zulmat, issiklik va sovuklik kabi qarama-qarshi kuchlar mavjud bo’lib, ular abadiy murosasiz kurashib keladilar.

Yaxshilik va yoruglik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qiladi. Bu kurashda yoruglikning zulmat, yaxshilikning yomonlik usidan galabasiga ishonch bildiriladi.

Endi zardushtiylikda va uning muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviyat va ma'rifat masalalari va ularning bizning bugungi kun uchun ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

«Avesto»da mexnat nixoyatda ulug'lanadi. Mexnatni yaxshilik, moddiy noz-ne'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun avvalo mexnat qilishi, o'z quli bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uktiriladi. «Avesto»da: «Don ekkan kishi takvodorlik urugini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tikodini olga suradi, imonni oziqlantirib turadi..», deyiladi. Bunga amal qilish un ming marta ibodat qilish bilan barobar, yo'zlab kurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mexnat qilish – yerdagi yovo'zlikni yuqotishdir, deb qaraladi. «G'alla yerdan unib chiqqanda, -deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, galla urib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, galla yanchib un qilinayotganda ular maxv bo'ladi...» deb mexnat ulug'lanadi.

«Avesto»da inson ahloq-odobi, ma'naviyati qo'yidagi uchlikda: Gumata - yaxshi fikr, Gugta-yaxshi so'z, Gvarshta-yaxshi ishda ifodalanadi. «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon- shavkat baxsh etaman», -deb ta'kidlaydi Axura Mazda.

Yaxshi fikr deganda yakin kishilarga mehribonlik, muxtojlik va xavf-xatar osida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

Yaxshi so'zlar deganda esa o'z va'dasiga rioya qilish, so'zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo'lishga, karzini o'z vaktida tulash, ugrilik va talonchilik kilmaslik, bo'zuklikdan o'zini tiyish va xakozolar tushunilgan.

Yaxshi ishlar deganda insonning o'z xatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so'zlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yo'l-yo'riklarga ogishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik ahloq-odobi xayvonlarga nisbatan ham beshafqat bo'lishni kat'iyan man etadi. Xayvonlarni kaltaklash va kiynash - gunox deb xisoblanadi. Kishilarni foydali xayvonlar haqida gamxurlik qilishga, ularga o'z vaktida ovqat berib turishga, yirtkich xayvonlardan kuriklashga da'vat etadi. «Avesto»da tozalik, poklikka alohida e'tibor qaratilgan. Xovo'zdan yuvilmagan, iflos ko'zada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish kat'iyan koralangan.

«Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, kattik nazorat qilingan, karindosh-urug, aka-ukaning kuda-anda bo'lishi koralangan.

Xozirgi medisina fani aka-uka, yakin karindoshlar urtasidagi kudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog'lom, tula-tukis bo'lib tugilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tulik aniklagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allakachon aniklaganlari xozirgi zamon kishisini lol koldiradi. Kolaversa, yakin kishilarning nikox masalalarida ma'naviy jixatlar ham borki, bunga inson qalbi yo'l bermasligi kerak.

Ko'rinadiki, Urta Osiyoda keng tarkalgan kadimiy Zardushtiylikda oila va nikox masalalari, inson muammosiga muxim ahamiyat berilgan.

Insonning jismoniy va ma'naviy pokligi zardushtiylik ahloqining eng kadimiy talablaridandir. Oila va nikox yaratguvchining talabiga mos kelganligi bois uni bo'zish takiklangan. Agarda oilada er yoki xotin ahloqsizlik, ya'ni bo'zukchilik gunoxi sodir etsa, unday kishilar tayok bilan jazolangan. Shu orkali oila musaxkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta’limotidan ko’rinib turibdiki, Sharkda kadimdan oila muqaddas xisoblangan. Uni mustaxkamlab, darz ketishiga yo’l kuymaganlar. Zardushtiylikda kabristonlar axoli turar joyidan chetda, tepalik joyda bo’lishi kerakligi, u yerga mevali daraxt utkazish, ustirish mumkin emasligi, archa, kayragoch kabi mevasiz daraxt ustirish kerakligi ta’kidlanadi. «Avesto»da axolining ko’payishiga ham ahamiyat berilgan. Kasddan erga chikmaydigan kiz kopga solinib, 50 darra urilgan. Kasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar boglab yurish buyurilgan.

«Avesto»da qadimgi tabiblarning kasamyodi va tabobat ramzi Ilon va jom berilgan. Demak, tabib kasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma’naviyatimiz kadimiyligini ko’rsatuvchi dalillardan biridir. Kitobda ma’rifatga, ilm va xunarni boshqalarga urgatish kerakligi ham uktirilgan.

Xulosa shuki, «Avesto» kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik ma’naviy merosi izlari o’z aksini topgan. Unda joxillik, zuravonlik, tuxmat kabi yomon xislatlar koralanadi. Sof kungilli bo’lish, xiyonat kilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, xakorat kilmaslik kabi ma’naviy xislatlar targib etiladi.

Vatanimiz hududlarida zardushtiylik bilan bir qatorda Moniylik dini ham milodimizning III-asri o’rtalaridan boshlab keng tarqala boshlagan dinlardan biridir. Moniylikning asoschisi Moniy ibn Fatak (216-277) dir. U 216 yilda taysafun (Ktesifon) yaqinida tavallud topgan. Shu bilan birga Moniy 230 yillarda Eron. Markaziy Osiyo, Hindiston bo’ylab safar qilib zardushtiylik, buddiylik, braxmanlik dinlari bilan va turli diniy ta’limotlar bilan tanishadi. 240 yillardan boshlab Moniy o’zining mustaqil ta’limotini targ’ib qila boshlaydi. O’z ichiga zardushtiylik, buddiylik, braxmanlik, hristianlik dinlarining ba’zi tomonlarini olgan bu ta’limot boshqa mamlakatlarda ham qiziqish uyg’ota boshlaydi. Jumladan, sosoniylar sulolasidan bo’lgan Eron shohi Shopur I bu ta’limotni quvvatlab, Moniyni Eronga taklif etadi. Moniy 242 yilda Shopur I ning taxtga o’tirib toj kiyish marosimi paytida birinchi marta o’z ta’limotini bayon etib va’z o’qiydi. Shopur I ushbu moniylik ta’limotini xristianlik va maxalliy dinlarga qarshi qo’ymoqchi bo’ladi. Biroq zardusht koxinlari bu diniy ta’limotga shubxa bilan qarab unga keskin qarshi chiqadilar. Zardusht koxinlarining kuchayishi tufayli Moniy muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Moniy markaziy Osiyo yerlarida, shu jumladan O’zbekiston xududida faoliyat ko’rsatadi.

Moniy 273- yilda Eronga qaytdi va Shoh Bahrom I ning topshirig’i bilan

275-yilda hibsga olinib zindonband qilinadi va 277-yilda qatl etiladi. Moniy bir necha kitoblar muallifidir. Jumladan, “Shoburaqon”, ”Kanzulahyo’”, (Tirilganlar xazinasi), “Jabborlar haqida”, ”Sirlar kitobi”, “Avangelion”, “Kefalaya”, “Bungoxik” (Bungohang) kitoblari uning qalamiga mansubdir. Moniy ta’limoti uning o’limidan keyin ham keng tarqaldi. U VIII asrda Uyg’ur xonligida hukmron dinga aylandi. Moniy ta’limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta’limotiga asoslangan bo’lib, keng xalq ommasining manfaatiga mos kelar edi. Moniylik ta’limotida dunyo - ziyo (yoruglik) va zulmat (korangulik) ning abadiy kurash maydonidan iborat, mana shu kurash maydonida insonning asosiy vazifasi yovo’zlikni yo’q qilish uchun yaxshilik, ezgulikka kumaklashishdan iborat degan ma’naviy-ahloqiy ta’limot ilgari suriladi.

Moniy ta’limotiga kura, inson sof musaffolikka, o’z gunoxlaridan xolilikka faqat tarkidunyo qilib hayot kechirishi orkaligina erishishi mumkin, deb qaraladi. Moniylik

ahloqi dindorlardan imkoni boricha kam ovqat yeyishni, ro'za tutishni (demak ro'za tutish odati islomdan avvval ham bo'lgan), o'z turmushi, hayoti uchun kerakligidan ortikcha mol-mulkka, boylikka yo'l kuymaslikni, mutadil, urtacha, dabdabasiz hayot kechirishni targib etadi. Moniy o'z muridlari, izdoshlarini dunyoviy ishlarda «surbet» bo'lmaslikka va dunyoda ko'p narsalarga intilmaslikka da'vat qiladi. «Zero ulimdan keyin xech kimsada ro'zgor asboblari bilan xovli ham, uy ham kolmaydi». Boshqacha aytganda, inson hayoti davomida orttirgan boyliklarini o'zi bilan olib keta olmaydi, ularning hammasi undan keyin qolib ketadi. Moniy aytadi: «Men o'z umrimda ko'p xokimlarni kurdim, ular dunyoda ahloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo oxirida gam-alamlarga, tubanlikka duchor bo'ldilar». Demak, Moniyning bu so'zlaridan biz ham ibrat olishimiz foydadan xoli emas.

Eramizning V asr oxiri VI asr boshlarida Eronda «mazdakizm» deb atalgan boshqa diniy-falsafiy ta'limot yo'zaga kelib, u Markaziy Osiyoda ham keng yoyildi. Mazdakizm feodal munosabatlarning rivoji va u bilan bog'liq xolda xalq axvolining ogirlashuvi va ikki urtada ziddiyatlar va kurashning kuchayishi oqibatida yo'zaga kelgan.

Mazdakizmning Moniylik ta'limoti bilan ko'p uxshash tomonlari bor. U Moniylik ta'limotini tuldirib, uning zoxidlik - noumidlik g'oyalarini dunyoga umid bilan qarash g'oyalariga almashtiradi.

Mazdak Eronning Nishopur shaxrida tugilgan. Dexkonlar ko'zgoloniga yo'lboshchilik qilganligi uchun 529 yilda Anushurvon tomonidan katl etilgan. Mazdak feodal mol-mulkini umumiylashtirishni, feodallar xukmronligini yuqotishni talab etadi.

Moniylikdagi kabi mazdakizmda ham dunyoni tushunish negizida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik, yoruglik va zulmat kurashi yotadi deb qaraladi. Bu kurashda yaxshilik yomonlik usidan, yoruglik zulmat usidan galaba qiladi, deb ishonch bildiriladi. Mazdakning aytishicha, yomonlik va zulmat kuchlari xukmronlik qilar ekan, kishilar ularga nisbatan befarq bo'lishlari kerak emas, balki yaxshilik kuchlariga yordam berishlari kerak.

Mazdakning fikriga kura, ijtimoiy tengsizlik kishilar urtasida ziknalik, ugrilik, yomonlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman falokat va baxtsizliklar kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Shu boisdan bunday yovo'zliklarni keltirib chikaruvchi asosning o'zini tugatish kerak, deb xisoblaydi. Olloh hammaga mol mulkni teng bo'lgan, ammo boylar xudbinlik yo'llariga utib (o'zim bo'lay), barcha boylikni o'ziniki qilib olish yo'liga o'tgan. Kambag'allar ham mol-mulkka egalik qilish xuquqiga ega, shuning uchun boy-badavlat kishilar mol-mulkining bir qismini ular urtasida taksimlab berish odilona ish bo'ladi degan g'oya ilgari suriladi. Albatta Mazdakning bunday qarashlari xukmron tabaka manfaatlariga zid edi. Mana shuning uchun ham Mazdak va uning tarafdorlari ta'kib osiga olindi va ular shafqatsizlarcha jazolandilar.

Mazdakizm ma'naviy-ahloqiy ta'limotida ham xuddi Zardushtiylik ta'limotidagi kabi xayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish, urish man etiladi.

Xulosa shuki, Moniylik va mazdakizm Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy yuksalishida, ayniqsa ularning adolatsizlik, zulm, zurlik, shafqatsizlikka qarshi kurashiga o'z ta'sirini utkazgan.

3-masalani bayoni. Islom dini ko'p xalqlar orasida keng tarkalgan dinlardan biridir. Bu dinga e'tikod etuvchilar - musulmonlar jaxonda kariyib 1 milliard 400 million kishini tashkil etadi.

«Islom» so’zi arabcha bo’lib «xudog’a o’zini topshirish», «Itoat», «Buysunish» ma’nosini beradi. Shundan bu dinga ishonuvchilar -«Muslim» deb ataladi. Uning ko’pchilik shakli «Muslimun» bo’lib, o’zbeklarda «Musulmon», kirgiz va kozoklarda «Musurmon» deb ataladi.

Islom dini Arabiston yarim orolida VI asrning oxiri va VII asrning boshlarida kelib chiqqan. Uning asoschisi paygambar Muhammad (570-632) Makkada kuraysh kabilasiga mansub bo’lgan Xoshimiylar xonadonida tugilgan. U 609-610 yillarda Makkada yakka xudog’a e’tikod qilish to’g’risida targibot boshlagan. Ammo zodagonlarning qarshiligiga uchragach, 622 yilda o’z tarafdorlari bilan Madina (Yasrib) ga kuchadi (arabcha xijrat qiladi). Shu yildan musulmonlarning xijriy yil xisobi boshlanadi.

630 yilga kelib, Makka ham musulmonlar quliga utadi va musulmon davlati shakllanadi. Muhammad vafotidan keyin bu davlatni uning urinbosarlari, ya’ni noiblari (xalifalar) boshqaradilar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Daslab arab xalifaligi katta territoriyani egallagan edi. O’rta Osiyo yerlari Movarounnaxr (daryo ortidagi yerlar) VIII asr boshlarida IX asr urtalarigacha arablar tomonidan istilo qilinib, ular bilan birga Islom dini kirib keldi. Ana shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda Islom mintaka madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati o’ziga xos ravishda shakllandi va taraqqiyot bosqichini boshdan kechirdi.

Islom diniy ta’limotining asoslari – Qur’on va xadis tuplamlarida, shuningdek, VIII-XII asrlar davomida vujudga kelgan iloxiyot adabiyotlarida o’z ifodasini topgan.

Qur’oni Karim iloxiy kitob bo’lib, u farishta Jabroil alayxissalom tomonidan Muhammadga nozil etilgan. Bu muqaddas kitob Yer yo’zi musulmonlarining dasturulamali, diniy axkomlar manbaidir. Qur’oni Karim saxifalarini bir kitobga jamlash xalifa Abu Bakr davrida boshlanib xalifa xazrati Usmon davrida yakunlangan va turt nusxada kuchirilgan. Ana shu kuchirilgan daslabki nusxalardan biri Movarounnaxr musulmonlari diniy idorasida saklab kelingan, xozirda esa buyuk bobokalonimiz nomi bilan bog’liq Toshkentdagi Temuriylar davri mo’zeyida saklanmokda. Bunday muqaddas kitobning yurtimizda bo’lishi Ollohning bizning yurtimizga bo’lgan inoyati deb bilmok lozim. Qur’oni Karimda 114 sura, 6236 ta oyat bor. Mustaqillik sharofati bilan turli marosimlarimiz Qur’oni Karim kiroatlaridan boshlanmokda. Bu O’tmishda bir orzu edi, xolos.

Iloxiyotda Islom dini uch elementdan - iymon, Islom, exsondan iborat deb e’tirof etilgan. Iymon talablari 7 ta akidani - Ollohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, paygambarlarga, oxirat kuniga, takdirning iloxiyligiga va ulgandan keyin tirilishga ishonish talablarini o’z ichiga oladi. Islom talablariga, ya’ni din asoslari - arkon ad-din deb nom olgan 5 ta amaliy marosimchilik talablari kiradi. Bo’lar - kalima keltirish, namoz ukish, ro’za tutish, zakot berish va imkoniyati topilsa Xaj qilish talablari. Exson akidalarga sidkidildan ishonish va marosimlarni ado etishdir.

Islomning kishilar ongi va turmush tarziga ta’sir etishi, ular hayotidan musaxkam urin olishini ta’minlovchi diniy marosimchilik -xatna, ro’za xayiti, kurbonlik va kurbon xayiti, movlid, ashuro va boshqalar ham shakllangan. Bundan tashkari, maxalliy xalqlarda islomgacha mavjud bo’lgan urf-odatlar, jumladan kinna soldirish, fol ochirish, dam soldirish, muqaddas joylarga, avliyolarga siginish kabi odatlar ham islom marosimlariga moslashib ketgan.

Xadislar Islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba. Xadislar tuplami sunnat deb ataladi. Xadisi shariflarda Muhammad alayxissalomning so’zlari, qilgan ish faoliyatlari va saxobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon ettirilgan.

Xadisi shariflarni yigib kitob shakliga keltirish, asosan paygambarimiz alayxissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan.

Bu sharafli ish xijratning uchinchi asriga kelib keng quloch yozdi va u hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining usha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bogdod, Kufa, Basra, Damashk, Buxoro, Samarqand, Urgench, Termiz kabi shaharlarda xadis ilmi bilan shugullanuvchi muxaddislar ko’p bo’lgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalganlari oltita bo’lib, bo’larni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Davud, imom At-Termiziy, imom An-Nasoiy va imom ibn Mojja to’zishgan. Bu buyuk muxaddislarning turt nafari turonzaminlik bo’lgani bizning faxrimizdir. 1998 yilda Imom Al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi butun musulmon dunyosi, shu jumladan yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqil O’zbekistonda bu munosabat bilan xalqaro anjuman utkazildi. Muxaddislik shu kadar sharafli va sermashakkat ish bo’lganki u muxaddisdan akl-zakovatni, kuch-kuvvat, fidoyilik, yuksak iktidor va xofizani talab qiladi. Masalan, imom Buxoriy jami 600 ming xadis tuplab, shulardan 100 ming «Saxix» va 200 ming «gayri saxix» xadislarini yod bilganliklari aytiladi.

Islomda ahloqiy-xuquqiy qonun-qoidalar majmui shariat XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat qonun-qoidalari Qur’on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, xuukiy va ahloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar «Xidoyat», «Viqoya», «Muxtasari xidoya», «Muxtasari vikoya» nomli kitoblarda jamlangan.

Shariatda qonunlar muqaddas xisoblanib, unga xar bir mumin-musulmon ijtimoiy xolatidan qat’iy nazar Ollohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etilgan.

Yuqorida Islom, uning muqaddas iloxiy kitobi qur’oni Karim, xadislar va shariat haqida ba’zi ma’lumotlarni keltirdik. Endi umuman islom dinida, xususan qur’oni Karim, xadislar va shariatda ahloq-odob, ma’rifat haqidagi qarashlarning ba’zi jixatlari to’g’risida fikr yuritamiz.

Qur’oni karim, xadislar va shariat ko’rsatmalari inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotining asosi bo’lgan ahloq-odob tarbiyasining barcha kirralarini o’z ichiga olgan. Sirasini aytganda, xadislar ma’naviy-ahloqiy tarbiyaga oid bo’lgan fikrlarning mukammmal tuplamidir. Qur’oni karim, xadislarni, shariat ko’rsatmalarini urganar ekanmiz, ularda ahloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon bilan bog’liq bo’lgan birorta ham muxim masala e’tibordan chetda kolmaganini kuramiz. Ayniqsa islom xarom va halol masalasiga musulmonlar e’tiborini qaratadi. Shariatda Olloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Xarom esa aksincha, qilinishiga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Odatda, xalqimiz halol va xaromni yeyiladigan va ichiladigan narsalarga ishlatib kelgan. Shariatda ijozat etilgan hamma narsalar, yeyiladigan oziq-ovqatlar, qilinadigan ishlar halol deb xisoblangan. Ijozat etilmagan narsalar, ishlar va amallar esa xaromdir. Olloh xarom etilgan ishlarni kiluvchilarga bu dunyoda yoki kiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan.

Halol qilingan narsalar va ishlar ko’pchilikka ma’lum, u haqda ko’p eshitganmiz. Xarom qilingan ishlarni eslatib utish va eslatib turish joizdir. Bo’lardan ayrimlari

qo’yidagilar: sog’ bo’la turib ishsiz yurish, zinokorlik, ota-onaga oq bo’lish, savdo-sotiqda g’irromlik qilish, birovning xaqqiga, omonatiga xiyonat qilish, kasamxurlik, sudxurlik, ugirlik, karokchilik, mayxurlik, giybat, tuxmat, buxton, josuslik, kotillik, poraxurlik va boshqalar kiradi. Xullas, xarom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.

Islomda ota-onaga mehr-muxabbat, gamxurlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadokat masalalariga alohida e’tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qul urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo’lish, mehr-shafqatlilik, to’g’rilik, rosguylik, sofdil bo’lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chakirish g’oyalari ilgari surilgan.

Yuqoridagi inson ma’naviyati xususiyatlari kabi masalalarni mazkur kursning uchinchi bobida alohida mavzularda kurib chiqish nazarda tutilgani sababli ular haqida ushbu ma’ro’za davomida batafsil tuxtab utishni lozim topmadik. Xadislarda ahloqiy kamolot masalalarida aytilgan ba’zi fikrlardan namuna keltirish bilangina cheklandik xolos.

Munofiklik belgisi uchtadir: Yolgon so’zlash, va’dasining usidan chikmaslik va omonatga xiyonat qilishdir;

Omonat kuygan kishining omonatini o’z vaktida ado eting;

Xaqqingizga xiyonat qilgan kishiga siz xiyonat kilmang;

Kachonki bir gunox qilib kuysangiz, uni yuvish uchun orkasidan bir savobli ish qiling.

O’zimdan keyin koladigan ummatlarim uchun uch narsadan kurkaman:

1. Nafsu xavoga berilib, yo’ldan ozishdan;

2. Nafsoniy va shaxvoniy xissiyotga berilib ketishidan;

3. Ilmu ma’rifatga ega bo’la turib gofillarning ishini tutishidan;

Beshta narsadan oldin beshta narsani ganimat biling:

Ulimdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bandlikdan avval bush vaktni, keksalikdan avval yoshlikni, fakirlikdan oldin boylikni.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, sung esa otangga yaxshilik kil.

Ota-onalarning keksalik vaktida xar ikkisini, yoki biri bo’lmaganda boshqasini rozi qilib jannatiy bo’lib olmagan farzand xor bo’lsin, xor bo’lsin va yana xor bo’lsin.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do’zaxga maxkumdir. Xadisi muborakdan keltirilgan ushbu misralarning ma’naviy jixatlariga izox berishning xech bir xojati yo’q.

Islomda ilm-fanni egallash, ma’rifatli bo’lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta’kidlanadi. Beshikdan to kabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishining o’zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xadislardagi «Sadakaning afzali mumin kishi ilm urganib, sung boshqa muminlarga ham urgatishdir», «Ilm ibodatdan afzaldir» kabi fikrlar ham taxlilga muxtoj emas.

Qur’oni karimda «Ilm» so’zi asosida «Alima» - bilmok fe’l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadkikotlarda qayd etilgan. Paygambarimiz Muhammad alayxissalomga ilk nozil bo’lgan oyat ham «Ikra...» «Uki» so’zidan boshlanadi. Ushbu oyat shunday: «Uki! Sening uta qaramli Parvardigoring kalam vositasi bilan ta’lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni urgatadi» deb nozil qilingan. Ko’rinadiki, islom e’tikodi avval boshdanok insonni ukib-urganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishiga targib etadi.

Islom ma’naviyatida insonning yer yo’zida xalifa qilib belgilanishi uning yana bir muxim jixati xisoblanadi. Qur’oni karimning juda ko’p oyatlarida insonning aziz va

mukarram qilib yaratilgani, unga yer va osmondagi barcha narsalar buysundirib qo'yilganligi alohida uktirib utiladi.

Inson Ollohning xalifasi sifatida bilim egasi, yorug dunyoning barcha bilimlariga uning idroki yetadi. Faqat kibrga berilib ketmasa, o'zini hammadan ortik kuya boshlamasa bas. Parvardigor bizni inson qilib yaratgan ekan, akl-xush, ilmu-amal bergan ekan, demak, biz inson sifatida tafakkur qilib, dunyoviy ilmlarni - dunyoni urganib, dunyo orkali Ollohning zotini, ilmlarini kashf etib yashashimiz kerak. Din - ruxiyatimiz tarbiyachisi, ilm-dunyoni va oxiratni bilish kuroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamogi kerak. Bizning bobolarimizning yo'li ana shunday bo'lgan. Bir misol keltiramiz. rivoyat qilishlaricha, Abu Ali Ibn Sino bilan mashxur shayx Abusaid Abo'lxayr uchrashibdilar. Ular bir kecha bir-birlariga xech narsa demay «suxbatlashib» chiqibdilar. Ertalab Shayxning shogirdlari undan Ibn Sino haqida nima deysiz, deb suraganlarida, Abusaid Abo'lxayr: «Men nimaiki vajd (intuisiya) bilan bilgan bo'lsam, u akl bilan bilib olgan», debdi. Ibn Sino esa o'z shogirdlariga: «Men nimaiki akl bilan bilgan bo'lsam, u kungnil bilan idrok etadi», deb aytgan ekan. Ko'rinadiki, Ibn Sino dunyoviy ilmlar olimi, Abusaid Abo'lxayr esa - tasavvuf shayxi, iloxiyot olimi. Ammo ular bir-birini tushungan va xar ikki ilm ham kerakligini anglaganlar.

Yoki olaylik, Mirzo Ulug'bek bilan Xuja Axror Valiyni. Ular zamondosh, bir shaharda yashaganlar. Ulug'bek - munajjim va shox, uning shogirdlari anik fanlar vakillari. Xuja Axror esa mu'tabar din arbobi, ruxoniy zot. Ammo ular bir-birlariga xalakit bergan emaslar, aksincha, biri ilmiy ma'rifatni, ikkinchisi bo'lsa ruxoniy ma'rifatni rivojlantirib, bir-biriga kumak berganlar.

Al-Xorazmiy, Al-Fargoniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, Gazzoliy, Hamadoniy, Gijduvoniy va boshqa ulug' zotlarning hayot tarzi, ilm uchun fidoyiligi, e'tikod-iymonining pokligi bilan bizlarga ibratdir. Bo'larning hammasi ko'rsatadiki, dindorlik ham ma'rifatni, yuksak ma'naviyatni talab qiladi. Kishi kancha chuqur ilm egasi bo'lsa, olam va odam mohiyatini anglasa, uning Ollohni anglashi, iymoni ham shuncha musaxkam bo'ladi.

Gap xox diniy, xox dunyoviy ma'rifatni to'g'ri va chuqur anglashda, xar ikkovini ham egallamay nodon, joxil bo'lib kolmaslikdadir.

Xar ikki ilmni egallagan kishi ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat akida emas, avvalo, ma'rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad paygambarimizgacha bo'lgan davr arablarda «joxiliya» davri deb ataladi. «Joxiliya» nodonlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o'rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atni rivojlantirdi, o'ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi. Bizning ulug' bobolarimiz islom ma'naviyati va ma'rifati taraqqiyotiga ulkan xissa qushib, kalom ilmi, fikx, tasavvuf ta'limotini rivojlantirdilar.

Yakin O'tmishning yomon asoratlaridan biri shuki, sobiq shuro to'zumida dunyoviy ilm va diniy-falsafiy ta'limot bir-biriga qarama-qarshi qo'yildi. Ular bir-birini inkor etadigan xodisalar tarzida talkin etildi. Diniy tafakkur dunyoviy ilm rivojiga monelik ko'rsatadigan chirkin bid'at sifatida koralandi.

Biz bugun bunday qarashlarning tubdan zararli va tarixan asossiz ekanligini ochik aytishimiz mumkin. Dunyoviy va diniy ilm yuqorida ko'rsatganimizdek, O'tmish asrlarda doimo hamkor va hamnafas bo'lib kelganligini tarixning o'zi tasdiklaydi.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir katorda Imom Buxoriy tuplagan xadislar, Nakshbandiy ta'limoti, Termiziy ugitlari, Yassaviy xikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo'ldik.

Qur'oni Karim va paygambarimiz xadislarining eng muxim va salmokli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilganligidir. Ulardagi ota-onaga, ilmga munosabat, sabr-bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, mexmondo'stlik, yetimparvarlik, vafo va sadokat, halol lukmani sharaflash, kamtarlik, kamsukumlilik, samimiyat, rosguylik va boshqa chin insoniylik xislatlarining birinchi uringa qo'yilishi barcha insoniyat uchun bebaxo umuminsoniy ma'naviy boylik tizimini tashkil etadi.

Jismoniy va ma'naviy poklikka intilish islom ahloqining, rasulullox xadislarining yana bir muxim mavzu yunalishidir. Taxorat, gusl masalalari tashki ozodalik talablari bo'lsa, xaromdan, yolgon so'z, giybat, tuxmat, zinokorlik, o'zga haqiga xiyonat, noxaklik va zulmga yo'l kuymaslik, ulardan qat'iy saklanish ichki, ma'naviy poklikka oid talablardir. Bo'larning hammasi qur'oni Karim hamda rasulullox xadislarida va ularga asoslangan shariatda juda qat'iy qilib qo'yilgan.

Xullas, islom barcha muminlarni to'g'ri yo'lga chorlovchi, insonparvar din ekanligini anglab yetishimiz zarur. Shundagina dindan ma'naviy va ma'rifiy tarbiyada foydalanish zaruratiga to'g'ri yondoshamiz.

4-masalani bayoni. Shark xalqlari tafakko'rini asrlar davomida nurafshon etib, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir utkazgan tasavvuf (sufizm) ta'limoti 8-asr urtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zoxidlik (tarkidunyochilik - bu dunyo xoyu-xavasidan voz kechish) harakati ko'rinishida bo'lib Bagdod, Basra, Kufa, Damashk shaharlarida keng yoyilgan.

Asli tasavvuf so'zi «Sufiy» so'zidan, «Sufiy» so'zi esa arabcha «Suf» so'zidan yasalgan. Suf deb arablar jundan bo'lgan matoni aytadilar. Daslabki davrlarda sufiylik yo'lini to'tgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan tiqilgan chakmon (u xirka deb ham aytilgan) yoki pusin kiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmon kiyib yuruvchilar, ya'ni sufiylar deb ataganlar. Sufiy boshqa odamlardan o'zini pok va garibona turmush kechirishi, doimiy toat-ibodatda bo'lishi va faqat iloxiy ruxga qushilishni maqsad qilib qo'yishi bilan tubdan farq qiladi. Sufiy uchun na dunyodan, na oxiratdan ta'ma bo'lmasligi kerak. Yagona isak bu Ollohning diydoriga yetishishdan iborat. Fakirlik tuyg'usiga ega inson na birovga banda-yu, na birovga xoja, u yolgiz Ollohga banda, u yolgiz Ollohga extiyoj sezadi. Hamma narsadan voz kechish, oxir oqibatda o'zlikdan kechish – sufiylik ta'limotining ma'nisi mana shu. Buyuk sufiy Boyazid Bisomiy aytadilarki: o'zingdan utding, Ollohga yetding. Xazrat xoja Baxouddin aytadilarki: Bizning xech narsamiz yo'q, lekin xech narsadan kamimiz yo'q. Usha «xech»... narsa ketidan yugurib gam tashvishda ham emasmiz. Egnimizda janda, orkamizda gurison, agar ulsak xech bir motam kerak emas.

Tasavvuf - sufiylik insonni urganar ekan, avvalo, kishining kungliga, diliga tayanadi, kungilni, qalbni tarbiyalashga, kungil kishisini voyaga yetkazishga intiladi, chunki Olloh faqat kishining pokiza qalbidagina jilva qiladi.

Tasavvufda insondagi jamiki xudbinlklar, illatlar, razolat dunyosiga xirs qo'yish jism extiyoji va nafs ta'masidan kelib chikadi, deb urgatiladi. Komil inson bo'lish uchun avvalo, jism va nafs extiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini nafsiga qul qilib kuyadi. Darvesh, sufiy nafsni rad etadi. Nafs barcha

falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botkogidan, tubanlik jaridan kutkarib, uni poklashning birdan-bir yo'li nafsning extiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muxabbatidan voz kechish va Olloh muxabbatiga kungil boglash darkor. Sufiylikda buni dunyo mohiyatini va o'zligini, insoniylikni anglash yo'li deb qaralgan. O'zligini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklari utkinchi ekanligini anglaydi. Xoja Baxovuddin aytadilar: «o'z nafsining yomonligini tanish o'zligini tanishdir».

Demak, tasavvuf ilmi - inson haqidagi ilmdir. U inson qalbiga saykal berish ilmi. Biz bu ilmdan 70 yil davomida bexabar edik. Inchunun, biz necha zamonlar insondan bexabar koldik va ne zamonlar qalbimizdan fayz ketdi. O'tmishdagi Xoja Axmad Yassaviy, Xoja Baxovuddin Nakshbandiylar yurtimiz va xalqimizning fayzi kamoli edilar. Istiqlol tufayli shu nur, shu fayz bizga kaytdi.

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati bekiyos bo'lgan. Xoja Hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Maturidiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxolik Gijduvoniy, Xoja Axmad Yassaviy, Sulaymon Bokirgoniy, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Ali romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoniy, Baxouddin Nakshband kabi siymolar iloxiy ma'rifat yo'lining raxnamolari bo'ldilar. Ular yaratgan ta'limot va ilgari surgan ma'naviy-ahloqiy g'oyalar xozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yuqotgan emas. Chunonchi, Axmad Yassaviy xikmatlarida ilgari surilgan ahloqiy pand-nasixatlardan molparaslikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bo'lishga chakirishda foydalanish urinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb xisoblagan. Nafsga maglub shox - qul, nafsdan ustunlikka erishgan garib - shoxdir, deb aytadi. Nafs inson uchun katta yovdir. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim bo'lmagan kishining g'ururi va insoniy qadr-qimmatini xech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan. O'z xikmatlaridan birida shunday deydi:

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumrox bo'lur.
Yotsa - tursa shayton bilan hamrox bo'lur....

U nafs bandalariga qarata «Nafsni tebgil, nafsni tebgil ey badkirdor» deb murojaat etadi, va

«Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi,
Termultirib xaloyikka zor ayladi», - deb nafs bandalarini tankid etadi. Nafs insondagi butunlikni, iymonni sindiradi, ma'naviy jixatdan jarlikka qulatadi. Shu bois «Nafsni tanib mexnat yetsa roxat», - deb xitob qiladi. Bu g'oyalar bizning xozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun g'oyat muxim.

Movarounnaxr tasavvuf ta'limotida Xoja Baxouddin Nakshband-ning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ham qayd etishimiz lozim. Nakshbandiya ta'limoti xayratlanarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ma'no va mohiyatga, hayotiy mazmunga ega.

Nakshbandiya ma'naviy-ahloqiy ta'limotida xur fikrlikka keng urin berilgan. Bu sulukdagilar mexnat qilish, ilm olish, o'z mexnati evaziga halol yashash, noz-ne'matlarni ko'pchilik bilan baham qurish, fakirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo qurishni afzal bilganlar.

Baxovuddin Nakshband - aybsiz odam yo'q, shuning uchun agar aybsiz dus axtarsak dussiz kolamiz, - der edilar.

Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta’kidlab, sham kabi bo’lgin va odamlarga yoruglik ber, o’zing esa koronguda bo’l, degan ekanlar.

Xoja Baxovuddinning «Kungil Ollohda bo’lsinu, quling esa ishda» xikmatlarining inson ma’naviy dunyosi takomilidagi ahamiyati bekiyosdir.

Tasavvuf tarikatlari haqida so’zlaganda Najmiddin Kubro asos solgan kubroviya haqida ham tuxtab utishni maslaxat beramiz. Biz Najmiddin Kubro siymosida faqat tarikat boshchisini emas, balki o’z vatanini, xalqini dildan sevgan ingsonni ham kuramiz. 1221 yilda bosqinchi mugul galalari kadami Xorazmga yetib boradi. Muhammad Xorazmshox mamlakatni, fukaroni o’z xoliga tashlab kochadi. Shu kaltis damlarda Urganchni himoya qilishga 76 yoshlik Najmiddin Kubro boshchilik qiladi va jangda kaxramonlarcha shaxid bo’ladi. Uning siymosi xalq kaxramoni sifatida asrlar osha yashab kelmoqda.

Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya tarikatining qoidalari unta bo’lib, ularda bu tarikat yo’lini to’tgan sufiyning ichki ma’naviy dunyosi kanday bo’lishi ko’rsatilgan. Insonning sabr-tokatli bo’lishi, boylik va mol-mulkka mukkasidan ketmaslik, xar kanday paskashlik, riyo, makr va xiyla-nayrangga bormaslik, xayvoniy xususiyat – shaxvoniy xirslarga berilmaslik g’oyalari ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi - inson haqidagi ilmdir. Inson qalbiga saykal berish ilmi. U inson odobini - ya’ni ma’naviyatini yanada kuchaytirgan butun islom ahloqining eng muxim qadriyatlarini bir nuktaga jamladi. Shu tarika tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chikdi.

Shunday qilib, O’zbekiston respublikasi Prezidentining Toshkent Islom Universitetini tashkil etish to’g’risidagi farmoni va shu farmonga sharxda ta’kidlanganidek: «Islom ommalashuvi va rivoji sifatida vujudga kelgan tasavvuf ham Urta Osiyo sharoitida Yassaviya, Kubroviya, Nakshbandiya tarikatlarini vujudga keltirdiki, ular butun urta Shark va Janubiy Osiyo mamlakatlarining asrlar davomida ma’naviy, madaniy rivojlanishida muxim rol uynadi»[1].

Ushbu masalaning bayonini, yakin O’tmishda, Shurolar zamonida dinga va diniy qadriyatlarga, diniy kitoblarga, ulamolarga bo’lgan salbiy munosabatlardan boshlashni maslaxat beramiz. Shunda talabalar mustaqillikning bizga bergan oliy ne’mati ma’naviy va ma’rifiy merosimizni qaytarib berganligi ekanini tushunib yetadilar. Yakin O’tmishda namoz ukish, diniy marosimlarni utash takiklangan edi. Masjidlar, aziz-avliyolarning ziyoratgoxlariga qulf urilgan edi. Odamlarning uylaridagi Qur’on, Xadis, turli diniy adabiyotlar, xatto arab yozuvidagi boshqa kitoblar terib olinib, yokib yuborilgan edi. Mana buni «joxiliya», nodonlik desa bo’ladi. Kanchadan-kancha odamlarimiz xozirgi emin-erkin kunlarni kumsab, ammo kurolmay, armon bilan utib ketdilar. Shu bois biz mustaqillik keltirgan ne’matlarga xar kancha shukronalik aytsak arziydi. Mustaqillik davrida islomiy qadriyatlar tiklandi, iymon-e’tikodimiz o’zimizga kaytdi. Bu savobli, ezgu ishlarga karvonboshi xurmatli Prezidentimiz Islom Karimov ekanini xar dakikada eslab turishimiz lozim. Prezidentimiz ma’naviyat va ma’rifatga oid nutk, ma’ro’za va asarlarida islomning ma’naviy-ahloqiy, ma’rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o’rni, ahamiyatini muntazam uktirib kelmoqdalar.

Xususan, bu masalalarga Prezidentimiz Islom Karimovning «Istiqlol va ma’naviyat» tuplami, «O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy isikbolining asosiy

[22]“Халқ сўзи” газетаси, 1998 й., 8 апрель.

tamoyillari», «O'zbekiston iqtisodiy isloxatlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Olloh qalbimizda, yuragimizda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» kabi asar va risolalarda javob topishimiz mumkin.

«Islom dini, – deb ta'kidlaydi Islom Karimov «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javobida, – hayotimizning tub zamiriga chuqur singib ketgan. Bu – inkor etib bo'lmaydigan haqikat. Milliy qadriyatlarimizning zamonlar osha bezavol yashab kelishiga sabab – avvalo muqaddas dinimiz xisobidan»[1]. Bu xolat xalqimizga, xususan yoshlarimizga milliy g'oyani singdirishda Islolm omilidan okilona foydalanishni takozo etadi.

Ana shularni xisobga olgan xolda Mustaqil mamlakatimizda islom dini omilidan, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi katta imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmokda. Avvalo, masjidlarga, aziz-avliyolar yotgan makbaralarga solingan qulflar olib tashlandi. Karovsiz qolgan masjidlar ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Aziz-avliyolar yotgan, O'tmishda karovsiz xolga kelgan joylar obodonlashtirildi, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yo'zaga keltirildi. ramazon va kurbon xayitlari dam olish kuni deb e'lon qilindi. Xar yili minglab fukarolarimizning xaj va umraga borib kelishlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib berildi. Bu O'tmishda faqat xayoliy orzu va armon edi. Ulug' allomalar - Iso Termiziy, haqim Termiziy, Baxouddin Nakshband, Axmad Yassaviy, Zamaxshariy, Abduxolik Gijduvoniy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Matrudiy, al-Marginoniy va boshqa ulug' zotlarning yubileylari bo'lib utdi, 1998 yilda esa Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi nishonlandi. Qur'oni Karim, Xadislar va boshqa diniy kitoblar nashr qilindi, qilinmokda. O'tmishda birorta ham diniy ulamoning yubileyi utkazilmas edi, diniy kitoblarni nashr etish takiklangan edi, yuqorida aytganimizdek, borlari ham yo'q qilingan edi. 1999 yilda Toshkent Islom Universiteti tashkil etildi. Mustaqillik yillari islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar bajarildi. Islom va islomiy qadriyatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib koldi. Prezidentimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda: «Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz...Dinga xurmat va e'tikod – biz uchun ulmas qadriyatdir»[2].

Sunggi yillarda bizning diyorimizda ham taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni kurolmaydigan «vaxobiylik» va «xizbut-taxrir» kabi okimlarning gurux va tudalari paydo bo'lib koldi. Bunday tudalar o'zlaricha masjidlarda gavgo kutarib, utish davrining kiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlarning ongini zaxarlamokdalar. Mustaqillikning bergan erkinligini suiise'mol kilmokdalar. Bu mutaassib dindorlar o'zlarini «vaxobiy» yoki «dinni tozalovchilar», «fundamentalislar» deb yuritib, aslida esa birinchi navbatda islomning o'ziga zarba bermokdalar. Vaxobiylar bir yarim ming yillik ilm-fan, madaniyat tarixidan voz kechish, Imom Buxoriy, Imom Gazzoliy, Imom Abu Xanifa, Burxoniddin Marginoniy, Axmad al-Fargoniy, Navoiy, Jomiy, Ulug'bek, Baxouddin Nakshband va boshqa unlab mutafakkirlar, sufiylar, olimlar merosidan voz kechish, ularning asarlarini yokib yuborishni, makbaralarini bo'zib tashlashni tavsiya kilmokdalar. Ular, umuman, inson akli, inson qalbi bilan yaratilgan jamiki ma'naviy

[23]Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 25-бет

[2] Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – провард мақсадимиз. Тошкент, "Ўзбекистон", 2000 й., 26-бет.

boyliklarni uloktirib tashlashga da’vat etmokdalar. Axir bu vaxshiylik, nodonlik, joxillikning o’ziku. Ma’naviyatli va ma’rifatli kishi, buni mutlako kabo’l kilmaydi.

Vaxobiylik bizni orkaga, jaxolatga tortadigan, islomni, islom axlini bo’zadigan xavfli okim. «Dinni tozalash», «sof dinga kaytish» nikobi osida tashvikotlar olib borib, odamlarni taxlikaga solish, konli jinoyatlar qilish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf osiga kuyayotganlardan milliy qadriyatlarimizni avaylab - asrashimiz lozim.

Diyorimizda din nikobi osida ish kurayotgan eksremislar, akidaparaslar mavjud konsitusiyaviy to’zumga qarshi borib, xokimiyatni egallash va O’zbekistonda Islom davlati qurish, xalqni kurkuvga solib, xukumatga ishonchsizlik uygotish uchun turli jinoyatlar va terrorisik harakatlar sodir etish yo’li bilan el tinchligini bo’zishga urinmokdalar. Ularning asl maqsadi xukumatparaslik, ya’ni davlatni qulga olishdan iborat. Mustaqil yurtimizda ularga o’z vaktida zarba berildi va ularning payi kirkildi.

Xalqimiz endi – erkinligini qulga kiritgan, o’zligini angalb yetgan bir zamonda allakanday kimsalarga ergashib yana jaxolat va qullik to’zogiga qaytadimig’ Albatta yo’q. Ammo hamma gap xar kanday taxdid yoki taxlika oldida vaximaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda, ogox va sergak bo’lishda. Ayniqsa yoshlarimizni ularning zararli ta’siridan asrab qolish xozirgi tarbiya ishimizning asosiy yunalishi bo’lib qolishi lozim. Yoshlarimiz doimo va xar on ogox va yana ogox, sergak bo’lishlari zamon talabi. Buning yoshlarimiz ongiga mustaqillik g’oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari bakuvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar kadam tashlaydigan insonlar bo’lib yetishsin. Ana shunda joxil akidaparasning «da’vati» ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlako begona g’oyalar ham ularga o’z ta’sirini utkaza olmaydi.

Muxtaram Prezidentimizning «Turkiston-press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida ta’kidlaganlaridek: «Biz o’z dinimiz va e’tikodimizdan xech kachon voz kechmaymiz. Shu bilan birga muqaddas dinimiz sha’niga dog’ tushirmokchi bo’lgan kimsalar bilan xech kachon murosa kilolmaymiz. Men O’zbekiston raxbari sifatida kandaydir yovo’z kuchlar islom dinimizni, ota-bobolarimiz e’tikodini, musulmon fukarolarimizni taxkirlashiga, jamiyatimizga xavf tugdirishiga xech kachon yo’l kuymayman»[1]

Prezidentimiz aytganidek, xar birimiz hamisha, xar soniyada ogox bo’lishimiz lozim. Bu Mustaqil yurt xar bir fukarosining muqaddas burchi bo’lmogi lozim. «.. muqaddas dinimiz sha’niga dog’ tushirmokchi bo’lgan, undan garazli siyosiy maqsadlarda foydalanishni isaydigan kimsalar va kuchlar bilan xech kachon murosa kilolmaymiz»[2].

Yurtimizda keyingi vaktlarda ruy berayotgan ayrim salbiy xodisalar, nojuya xatti-harakatlar, yozuv ishlar, avvalo, mafkuraviy bushlik tufayli sodir bo’lmokda[3]

Xar bir fukaro shuni anglab yetishi kerakki, O’zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o’ziga xos va mos yo’li bo’lgani kabi madaniy-ma’naviy rivojlanishida ham o’z yo’li bor. Bu o’ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma’naviy tarbiyada foydalanishimizda ham qurishimiz mumkin. Bu yo’l Prezidentimiz asarlarida bayon qilib berilgan. Uning mohiyati, mu’tadil dindorlik, islom

[1] Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. “Халқ сўзи” газетаси, 1999 й., 6 март
[2] Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаётимиз – провард мақсадимиз. 26-бет
[3] Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 9-бет

ma’rifatini rivojlantirish, ichki-botiniy olamni poklab, Ollohni dilda saklab, aklu tafakkur, ilmu irfon bilan kamolot sari borish, o’z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamkadam olga borish.

Xulosa shuki, mustaqillik bergan xidoyat yo’lini turli unsurlardan asrash, ularga berilmaslik lozim.

MA’NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY - ILMIY VA AMALIY ZAMINLARI

2-mashg’ulot:

1-masala bayoni: Tarixga nazar tashlasak, ajdodlarimizdan bizga yuksak ma’rifat, ulkan madaniy-ma’naviy meros qolganki, ular bugun ham beqiyos qadr-qimmatga ega. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o’zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o’z-o’zidan yo’z bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an’analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mavjud bo’lmog’i kerak”.

Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan. Sharqu G’arbni o’zaro bog’lagan, buyuk sivilizasiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o’rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu ulamolar, shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko’plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma’naviy mulki hisoblanadi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishida Buyuk ipak yo’li alohida rol o’ynadi.

Ma’lumki, Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi chuqur asoslarga borib taqaladi. Bunda Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo’lining muhim savdo yo’llari chorrahasida joylashganligining ahamiyati kattadir. Chunki, Buyuk Ipak yo’li xalqlarning o’zaro madaniy aloqalariga ham imkon yaratgan. U orqali O’rta Osiyolik olimlar Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim tibbiyoti qo’lga kiritgan yutuqlar bilan tanishish imkoniga ega bo’lgan. Ayniqsa, O’rta asrlarda Buyuk Ipak yo’lida Movarounnahrning ustuvor mavqyega ega bo’lishi Sug’d ilm-fanining, jumladan, tibbiyot ilmining rivojlanishi uchun asosiy omil bo’lgan. Shu davrdan e’tiboran, tibbiyot ilmi bilan bevosita bog’liq bo’lgan farmasevtika sohasi ham shakllana boshlagan. Bu davrga kelib O’rta Osiyo shaharlarida maxsus dorixona va shifoxonalar mavjud bo’lgani Poykentda olib borilgan qazishmalar davomida tasdiqlangan.

Qadimiy shaharda ochilgan xonalarning birida tibbiyotda va farmasevtikada qo’llanadigan asboblar jamlanmasi qayd etilgan. Topilmaning ahamiyati shundaki, ular orasida bugungi kunda tibbiyotda murakkab jarrohlik amaliyotlarida qo’llanadigan asboblarga o’xshash asboblar uchraydi. Bu o’rta asrlarda O’rta Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi natijasida murakkab jarrohlik amaliyotlari ham o’tkazilganligini tasdiqlaydi.

Arablar bosqinidan keyin O’rta Osiyolik olimlar Aleksandriya kutubxonalarida saqlanayotgan tibbiyotga oid kitoblar bilan tanisha boshladilar. Ularning kitoblari arab

tiliga tarjima qilindi. Bunday imkoniyatdan foydalangan olimlar orasidan tibbiyot sohasi rivojiga katta hissa qo'shgan Abu Mansur Hasan ibn Nuh al-Qamariy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Hasan Alquttoniy Marvaziy, Hakim Azraqiy, Badruddin Muhammad ibn Bahrom Qalonasiy kabi tabiblar yetishib chiqishdi.

Abu Mansur Hasan ibn Nuh al-Qamariy X asrda Buxoroda yashab ijod etgan. U zamonasining yirik olimi Abu Bakir Zakariyo Roziy bilan suhbatdosh bo'lib, u bilan tajriba almashgan. Buyuk tabib Ibn Sino ham undan dars olgan, uning tabobatdagi tajribasini o'rgangan. Al-Qamariyning "Kitob ilal al-ilal" ("Bemorlar kasalliklari kitobi"), "Majmuayi kabir dar adviyayi mufrada" ("Yakka dorilarning katta to'plami"), "Muolijati mansuriy", "Risola dar iloji amrozi sadr" ("Ko'krak kasalliklari davosi haqida risola"), "Maqola dar marazi istisqo" ("Istisqo kasalligi haqida maqola") kabi bir qator asarlari tibbiyot tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi va Ibn Sinodek yirik siymoning yetishib chiqishiga zamin hozirladi.

Bundan tashqari, Al-Qamariyning "Risola dar hamiyoti doira", "G'ino va Muno", "Maqola dar buhron" kabi asarlari ham bo'lgan. U "G'ino va Muno" asarida zamonasidagi kasalliklarning turlari va ularni davolash yo'llari haqida so'zlaydi.

Al-Qamariydan saboq olib yetuk darajaga yetishgan iste'dodli olim Abu Ali ibn Sino tibbiyot fanida katta burilish yasadi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari besh jilddan iborat bo'lgan. "Tib konunlari" 1024 yilda yozib tugallangan. U XX asrning o'zida turli tillarda 36 marta nashr qilingan. Asarning qimmati shunchalik yuqori bo'lganki, XII asrdayoq kremonlik Gerard tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Shundan so'ng ushbu asar o'zoq asrlar davomida Yevropa universitetlarida tibbiyot faqultetlarida asosiy qo'llanma vazifasini bajargan.

Ibn Sino faqatgina tib ilmidagina emas, balki falsafa, astronomiya, kimyo, fizika, geografiya, musiqa va adabiyot sohalarida ham keng ijod qilgan. Uning hozirgacha bu ilm sohalarida yaratilgan 300 dan ortiq ilmiy asarlari fanga ma'lum.

O'rta Osiyolik yana bir qomusiy olim Marvaziy tib ilmidan tashqari, astronomiya ilmida ham mashhur bo'lgan. U tib ilmiga bag'ishlab "Rasoiyl fit-tib" ("Tabobat haqida risolalar") asarini yozgan.

Tib ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan yana bir tabib Badruddin Muhammad ibn Bahrom Qalonasiy asli samarqandlik bo'lgan. U dorichilik sohasida ko'p izlanishlar olib boradi. Dorishunoslikka bag'ishlab "Qarobodin" degan maxsus asar ham yozadi. Bu asar 49 bobdan iborat bo'lib, "Qarobadini Qalonasiy" nomi bilan mashhur. Qalonasiy o'zining asarini yozishda Ibn Sino, Mansuriy, Jurjoniy kabi allomalarning medisina va dorichilikka oid asarlaridan keng foydalangan.

Buyuk Ipak yo'li orqali Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, g'oya va kashfiyotlarini o'rganish uchun zarur shart-sharoitalr yaratildi. IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi va "Baytulhikma", ya'ni "Donishmandlik uyi" o'z vaqtida shuhrat qozondi. XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida faoliyat ko'rsatgan olimlar o'sha vaqtda butun dunyoga mashhur bo'ldilar.

Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ilmiy-madaniy yuksalish IX-XII va XIV-XV asrlarda Sharq uyg'onish davri (Renessansi) sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etilgan.

Shu tarixiy davrda Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz.

IX-XII asrlar o'z mazmuni, salmog'i jihatidan O'rta Osiyo uyg'onish davri sifatida tarixga kiradi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarida dunyoviy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va dunyodagi davlatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'rta asrlarda Xorazm Ma'mun akademiyasi kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi to'zilmalarga ega bo'lgan va unda yo'zdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularga Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarni misol keltirish mumkin.

Yurtimizda YuNESKO ishtirokida Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi keng nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yorqin namunasidir. Hozir bu qadimiy va navqiron ilm maskanida Xorazm tarixi, uning o'ziga xos madaniyati, ekologiyasi, yer va suv resurslarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

O'sha davrdagi eng buyuk mutafakkir olimlardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi. Butun dunyo Xorazmiyning ilm-fan rivoji yo'lidagi hissasini yuksak qadrlaydi, uni voyaga yetkazgan zaminga alohida ehtirom bilan qaraydi.

Uyg'onish davrining buyuk namoyondalaridan biri matematik, astronom, geograf va algebra fani asoschisi Muhammad Xorazmiyning "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" asaridan "Algebra" so'zi olingan.

IX asrda Bag'dod shahrida xalifa Ma'mun tomonidan barpo qilingan rasadxona ko'p tomondan, ya'ni o'rnatilgan asbob-uskunalar, qurilish jihatlari bilan ancha mukammal bo'lgan. Shuningdek, bu rasadxonani qurishda o'sha davrning yetuk olimlari va ustalari o'zaro hamkorlikda ishlaganlar. Ushbu rasadxonaning barpo qilinishida ulug' vatandoshimiz Muhammad Xorazmiyning xizmatlari katta bo'lganligi manbalarda alohida qayd qilingan.

Muhammad Muso Xorazmiy "Yerning surati kitobi", "Kitob al-jabr va al-Muqobola" va boshqa o'nlab buyuk asarlar yaratdi. Lekin olim asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Xorazmiyning insoniyat tarixidagi va oldidagi eng buyuk xizmati shuki, uning "Kitob al-jabr va al-Muqobola" asari hozirgi zamon algebra faniga asos soldi va shu tariqa matematika fanining keyingi asrlardagi rivojini, xususan, keyingi asrlarda paydo bo'lgan texnika fanlari taraqqiyotini ta'minlab berdi.

861 yilda Ahmad Farg'oniy Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan.

Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon shning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi matlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va

rlari “algoritm” va “algebra” kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.
Islom Karimov

Ahmad Farg’oniyning hayoti haqida o’rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo’lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abo’l Faraj Bar brey (XIII asr) kabi Sharq fihristchilari uni o’z asarlarida eslatadilar.

Ahmad Farg’oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”) XII asrdayoq Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so’ng uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G’arbda bir necha asr davomida juda mashhur bo’lib ketgan.

“Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik sifatida o’qitilib kelindi. Ahmad Farg’oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493 yilda nashr etilgan bo’lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. Yevropa Uyg’onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo’lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ro’zalarni al-Farg’oniy kitoblaridan o’qigan. Allomaning nomini buyuk Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslashgan.

Yevropaning yirik sharqshunos olimlaridan Dalambr, Brokelman, X.Zuter, I.Krachkovskiy, A.Yushkevich va B.Rozenfeldlar al-Farg’oniyning ijodini o’rgangan va bu olimning faoliyatiga yuqori baho berganlar.

Ahmad Farg’oniyning “Usturlob yasash haqida kitob” nomli asari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Usturlob bilan amal qilish haqida kitob”ning birgina qo’lyozmasi Rampurda (Hindiston), “Al-Farg’oniy jadvallari” qo’lyozmasi Patnada (Hindiston), “Oyning Yer ostida va ustida bo’lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” qo’lyozmalari Gota va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” qo’lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. O’n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga allomaning nomi berilgan. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad Farg’oniy va Mirzo Ulug’bek nomi bilan ataladi.

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning ijodi Yevropa Uyg’onish davridagi va undan ancha keyingi davrlardagi fan va madaniyat rivojida sezilarli rol o’ynadi.

Farg’oniyning nomi Abu Rayhon Beruniy va Muhammad Xorazmiy kabi butun Sharq va G’arbda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo’shgan olim sifatida G’arb va Sharq mualliflari asarlarida, avvalo, allomaning ona yurti – hozirgi O’zbekistonda ham g’urur va iftixor bilan tilga olinadi.

Ahmad Farg’oniyning “Astronomiya asoslari” asari o’n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSh kabi ko’plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini ko’rsatadi. Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yo’z yil o’tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb “Er meridianining bir darajasi miqdori haqidagi Ahmad Farg’oniy hisoblarining to’g’riligiga to’la ishonch hosil qildim”, deya dastxat qoldirgan. O’n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. YuNESKO qaroriga muvofiq 1998 yilda Ahmad Farg’oniy tavalludining 1200 yilligi xalqaro

miqyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizasiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi, Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniy nomi berildi.

Milodning 748 yilida hozirgi Termiz shahrida tavallud topgan Muhammad ibn Ali Hakim at-Termiziy ham astronomiya ilmida chuqur iz qoldirgan. Matematika bilan shug'ullangan bu olim kalendar yaratishda ham mashhur bo'lgan. Bu allomadan bizgacha "Bayan risolayi solnoma" ("Solnoma risolasi bayoni") asari yetib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy. Bu buyuk olim to'g'risida eng tugal ta'rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergan: "Dunyoda tog'lar ko'p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho'qqi borki, bu cho'qqini insoniyat hyech qachon zabt etolmaydi. Bu – Beruniydir".

Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi.

Bu ulug' zot qanchalar ulkan olim bo'lganligini, buyuk tafakkurga ega ekanligini tasavvurga sig'dirib bo'lmaydi. Abu Rayhon Beruniy o'rta asrlardagi buyuk qomusiy olimlarning peshqadami edi. Uning bu qadar buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Beruniyning olimlik salohiyatiga mashhur sharqshunos tadqiqotchilar «...uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir», deb baho bergan edi. Shuningdek, bu asar bundan ming yil avval yozilgan bo'lsa-da, shunchalar mukammal bitilganki, minerallar va ularning hozirgi eng zamonaviy laboratoriyalardagina aniqlanishi mumkin bo'lgan xossalari shu darajada aniq berilgan. Bundan aql lol qoladi. Holbuki, mineralogiya Abu Rayhon Beruniy shug'ullangan o'nlab fan sohalarining biri edi, xolos.

Beruniy Xorazm, Kat, Gurganj bilan bog'liq joylar, shahar va qishloqlarning jo'g'rofiy kengliklarini va ular orasidagi masofalarni aniqlab, ushbu joylar tushirilgan Yer kurrasi modelini yasadi. Bu insoniyat tarixida ilk bor yaratilgan yarim shar ko'rinishidagi o'ziga xos globus edi. Beruniy o'z tadqiqotlarida hozirgi Amerika qit'asining mavjudligiga ham ishora qilgan allomadir.

Abu Rayhon Beruniyning buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mashhur sharqshunos olim A.M.Beleniskiy Beruniyning "Mineralogiya" asarini arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Mana shu tarjima jarayonida bu asar ta'sirida A.M.Beleniskiy turli minerallar to'g'risida 14 ta ilmiy maqola yozgan. Olimning ta'kidlashicha, bu asar bundan ming yil avval yozilgan bo'lsa-da, shunchalar mukammal bitilganki, minerallar va ularning hozirgi eng zamonaviy laboratoriyalardagina aniqlanishi mumkin bo'lgan xossalari shu darajada aniq berilgan. Bundan aql lol qoladi.

Abu Rayhon Beruniy 973 yili Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tavallud topgan va bolalik va o'spirinlik yillarini o'z vatanida o'tkazib, o'sha yerda turli ilmlarni o'rgandi va yoshligidanoq olim sifatida shakllandi. Beruniy dastavval zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oladi. U yoshligidanoq olim bo'lishga intilib, haqiqiy ilm bir necha tillarni bilishni taqozo etishini juda erta anglab yetgan va shu bois o'zining ona tilidan tashqari arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini chuqur o'rgangan.

Beruniy o’zining birinchi astronomik tajribalarini 16 yoshida Kat shahrida boshlagan. Beruniy Jurjon saroyida xizmat qilgan davrida uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari yaratiladi. Bu asar muallifning ko’p qirrali ilm sohibi ekanini namoyish etdi va unga juda katta shuhrat keltirdi. Beruniy Jurjonda 10 dan ortiq yirik asarlarini bitishga muyassar bo’lgan. Beruniy 1005 yilda vatani Xorazmga qaytadi. Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma’mun ibn Ma’mun Beruniyni o’z saroyida katta izzat-hurmat bilan qabo’l qilgan. Beruniyning ushbu turlicha fanlardagi ijodi va muvaffaqiyati uning tom ma’noda qudratli shaxs va cheksiz bilim sohibi ekanligini ko’rsatdi va uning nomini mangulikka muhrladi.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo’lib dengizlar nazariyasi va Yerning rsimon globusini yaratish yo’zasidan o’ziga xos yangi g’oyalarni taklif etdi, Yer iusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo’shliq holatini izohlab berdi, Kolumb ohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit’a mavjudligi haqidagi ashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo’lish nazariyasini ishlab qdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy lar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas.

Islom Karimov

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo’lib turuvchi tropik o’simlik “Avisenniya” deb atalgan. Ko’plab mamlakatlarda ko’chalar, o’quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo’yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta’sis etilgan.

Prezidentimiz Islom Karimov 1998 yil 6 noyabrda YuNESKOning xalqaro Abu Ali ibn Sino oltin medali bilan taqdirlandi. Bu oliy mukofot xalqimizning umumbashariy sivilizasiya taraqqiyotiga qo’shgan hissasi va xizmatining tan olinishi, davlatimiz tomonidan tarixiy, madaniy, ma’naviy merosni asrab-avaylash, sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida amalga oshirilgan ishlarning munosib bahosi bo’ldi.

Yevropada Avisenna nomi bilan tanilgan, o’z faoliyatida 450 dan ortiq asar yozgan qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino ta’limotlari ham bugun o’z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko’plab olimlar uning asarlarini o’qib, hayratlangan. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” deb atalgan o’zining bebaho fundamental asari Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo’lgan va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida o’qitilgan.

X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyni zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo’lgani bois, “Sharq Aristoteli” deb ataganlar. U ko’plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari “Mohiyat xususida so’z”, “Fanlarning paydo bo’lishi haqida kitob”, “Tafakkur mohiyati” va boshqa asarlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko’plab Yevropa va Sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo’lib kelmoqda.

Bu alloma yashagan davrda hali astrologiya bilan astronomiya o’rtasida aniq chegara mavjud emas edi. Al-Farobiy o’zining “Risolat fi ma yasixhu va ma lam yasaxhi fi ahkam an-nujum” (“Traktat o dostovernom i nedostovernom v nauke, o zvezdax”) va “Ixsa al-ulum” (“Opisaniye nauki”) asarlarni yozib astronomiya bilan astrologiya o’rtasidagi aniq chegarani ko’rsatgan.

XIV-XV asrdagi ijtimoiy va madaniy yuksalish ham o’z mazmun-mohiyati bilan IX-XII asrlardagi Uyg’onish davrining o’zviy davomi bo’ldi. O’z davrida rasadxona qurdirib, astronomik maktab yaratgan, “Ziji jadidi Ko’ragoniy”, “To’rt ulus tarixi” kabi asarlarini bizga yozib qoldirgan Mirzo Ulug’bek merosi bugungi ilm-fan rivojida muhim poydevor bo’lib xizmat qilmoqda.

Mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosida bugungi dunyoda ma’naviy sohadagi muammolarni hal etishda o’ziga xos manba bo’lib xizmat qilmoqda. Tarixda o’chmas iz qoldirgan bunday mutafakkirlar nomlarini ko’plab qayd etish mumkin. Eng muhimi, ularning bizga qoldirgan merosini yanada boyitadigan muhit, tizim yaratilgan va ularning ishlarini davom ettiradigan avlod voyaga yetmoqda va o’zini namoyon qilmoqda.

O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining butun bir avlodi haqida so’z yuritar ekanmiz, Amir Temur va Temuriylar davri deb nom olgan davr haqida, nomi ilm-ma’rifat osmonida bamisoli yorqin yo’ldo’z bo’lib porlab kelayotgan Mirzo Ulug’bek va uning Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari ko’plab safdoshlari va shogirdlari xususida eslamasdan o’tolmaymiz.

Shu o’rinda buyuk bobolarimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to’xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo’lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o’zidan ham amaliy, ham nazariy meros qolgan ilmu fani madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo’l ochdi.

Umumjahon madaniy taraqqiyotini buyuk ilmiy kashfiyotlar bilan boyitgan Mirzo Ulug’bek Samarqandni dunyoga dong’i ketgan ilm-fan, madaniyat va ma’rifat markaziga aylantirdi. Bobosi Amir Temur, otasi Shoxruh Mirzo kabi ilm-fan, san’at va hunar ahliga homiylik qilibgina qolmasdan, shaxsan o’zi ham ilm va ta’lim ishlari bilan faol shug’ullandi. Saltanatda avval qator madrasalar, so’ngra dunyoda tengi yo’q rasadxona qurib, ularda o’z davrining taniqli olimlari ishtirokida yuqori saviyadagi ta’lim va tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Samarqand Ulug’bek davrida nafaqat Movarounnahr, balki butun temuriylar saltanatining yirik ilmiy-madaniy markaziga aylandi. Bu yerda ko’plab taniqli olimlar yetishib chiqdi va ular o’z davrining nodir kashfiyotlarini amalga oshirdilar.

Mirzo Ulug’bek yurtimizning bir qator shaharlarida madrasalar qurdirgan, Samarqandda o’ziga xos ilmiy muhit, hozirgi tilda aytganda, akademiya tashkil etgan. U yerda 200 dan ortiq olim faoliyat yuritgan. Falakiyot ilmining nazariy va amaliy masalalari to’la qamrab olingan Ulug’bekning “Zij”i o’rta asrlardayoq Osiyo va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Yevropalik astronom olimlar uni lotin, franso’z, ingliz tillariga tarjima qilgan, sharhlar bitgan. “Ziji Ulug’bek”, “Ziji jadidi Ko’ragoniy” nomlari bilan shuhrat qozongan bu asarda 1018 yo’ldo’zning o’rni va holati aniqlab berilgan. Yo’ldo’zlarning balandligi va ular orasidagi masofa, quyosh va oyning harakati, ularning tutilish vaqtlari bayon qilingan. Bu hisob-kitoblar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan ko’zatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Ulug’bek hisobi bo’yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 9 daqiqa 6 soniyaga teng. “Bu haqda so’z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996 yili Parijda YuNESKOning o’sha paytdagi Bosh direktori Federiko Mayor janoblari bilan bo’lgan bir suhbat yodimga tushadi, – deb yozadi Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida. – O’shanda janob Mayor

Ulug’bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yo’ldo’zlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko’rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga qarab, yo’q janob Federiko Mayor, Ulug’bek xato qilgan bo’lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo’lishi mumkin, degan edim”.

Mirzo Ulug’bek nomi haqli ravishda Kopernik, Jordano Bruno, Galiley va boshqa ulug’ ilm-fan daholari qatorida turadi. Mirzo Ulug’bekning XV asrda to’zgan astronomiya jadvalida 1018 ta yo’ldo’zning holati va joylashuvi bayon qilingan bo’lib, bu asar astronomik o’lchovlar bo’yicha 16 asr davomida yaratilgan birinchi yangi katalog edi.

Istiqlol yillarida Mirzo Ulug’bekning hayoti va faoliyatini o’rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 1994 yil mamlakatimizda Ulug’bek yili, deb e’lon qilindi. O’sha yili Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Parij shahridagi YuNESKO qarorgohida buyuk allomaning ilmiy merosi va uning ahamiyatiga bag’ishlangan xalqaro anjuman o’tkazildi.

Mirzo Ulug’bek siymosi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtimizda Ulug’bek nomi berilgan tuman, ma’naviyat maskanlari, mahallalar, ko’chalar ko’p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Ulug’bekning muborak ismini qo’yishadi. Bo’larning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Abu Abdulloh Ro’dakiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko’plab buyuk faylasuflar, shoir va ma’rifatparvarlarning ijodiy merosida donishmandlik va borliq olamni gumanistik anglashning juda ulkan, bitmas-tuganmas xazinasi saqlanib kelmoqda. Bu meros haqiqatan ham jahon ahamiyatiga molik bebaho boylik hisoblanadi.

Dunyo tarixidagi birinchi turkiy tillar lug’ati bo’lmish “Devoni lug’atit-turk” kitobi muallifi Mahmud Koshg’ariy bo’lib, u o’z asarida yuksak mahorat bilan to’plashga erishgan so’z boyligining tom ma’nodagi oltin zarralarini — turkiy maqol va she’rlarni ham keltirib o’tgan. Koshg’ariy turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorining birinchi tadqiqotchisi hisoblanadi.

Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan buyuk tilshunos, adabiyotshunos, geograf va faylasuf alloma — Mahmud Zamahshariy hayotlik davridayoq keng shuhrat qozongan. U, shuningdek, tarixdagi birinchi ko’p tilli lug’at — arabcha-forscha-turkiy lug’atning asoschisi bo’lgan. Albatta, biz barchamiz o’rta asrlarda Sharqda yashab ijod qilgan, o’sha davr voqyealaridan guvohlik beradigan bebaho asarlar yaratgan buyuk tarixchilar avlodiga, eng avvalo, Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro’, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa allomalarga o’zimizning cheksiz hurmat-ehtiromimizni bildirishimiz ham qarz, ham farzdir.

2-masalaning bayoni. O’zbekiston mustaqilligi, uning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti milliy davlatchilikning rivojlanish tendensiyasi davlatchilik g’oyasining davlatchilik ma’rifati bilan o’zviy bog’liq holda rivojlantirishni talab etmoqda. Buninng uchun esa biz, ajdodlarimizning, buyuk sarkardalarning hamda siyosiy arboblarning prinsiplarini o’rganib borishimiz zarur. Ana shu ma’noda Temur va Temuriylar

davridagi milliy davlatchilik g'oyasi biz shakllantirmoqchi bo'lgan davlatchilik mafkurasining tarihiy asosi bo'lib hizmat qiladi.

Binobarin, sohibqiron bobomiz jahonda qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan, bepoyon mamlakatni ijtimoiy adolat va qonunchilik asosida boshqarilishini yo'lga qo'ygan buyuk davlat arbobidir. Shaxsan uning o'zi odob-ahloq, imon-e'tiqod, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, ijtimoiy adolat bobida yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymodir. Uning saltanati yuksak ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi. Sohibqironning ma'naviyat va ma'rifat haqidagi ta'limoti asoslari, murakkab va serqirra hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati uning "Tarjimai holi"da va "To'zuklari"da chuqur bayon etilgan.

Temurning insonparvarligi, millatsevarligi, ma'naviyat va ma'rifatning jonkuyar homiysi sifatidagi insoniy fazilatlarini uning farzandlariga qoldirgan vasiyat so'zlarida yaqqolroq ko'rishimiz mumkin. "O'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va "To'zuklar"imni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tadbiq eting".

Millatning dardlarga darmon bo'lmoq qutlug' vazifangiz. Adolat va ozodlik dasturingiz, raxbaringiz bo'lsin, deydi ulug' sarkarda. "Amir Temur umr bo'yi aml qilgan tamoyillardan birinchisi-har yerda va har vaqt islom dinini quvvatlaganligi, ikkinchisi, davlat ishlarini mamlakatning ustunlarin tashkil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan quvvatlab, maslahatlab, kengashib olib borganligidir. Uchinchi tamoyil Amir Temurning saltanat ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr toqat bilan yurgizlaganligi, ko'p narsalarni bilib tursada, o'zini bilmaslikka olganligi, do'st dushman bilan murosa-madora qilganligidan iborat. Turtinchisi, davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga to'ra va to'zukka tayanib va asoslanib boshqarishgni tashkil etsa, beshinchisi, amirlar va sipohiylar bilan yahshi munosabatda bo'lib, ularga izzat hurmat ko'rsatib martabalarini ulug'lab ish to'tganligidir.

Oltinchisi, adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim, -deydi Amir Temur – gunohkorlarga ham, begunoxga ham rahm qilib, haqqoniyat yo'zasidan hukm chiqardim. Hayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim... fuqaro va qul ostimdagilarga rahimdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim... Menga yomonliklar qilib, boshim o'zra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim, martabalarini oshirdim".[1] Amir Temur - buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, notik, ruxshunos, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashxuri jaxon qilgan inson. Amir Temurning tarixi ko'p jildlik kitoblar yozishga arziydi. Mustaqillikka erishgunimizga kadar buni amalga oshirish imkoniga ega emas edik. Chunki kommunisik g'oya bunga yo'l bermadi. Amir Temirning o'zi taxkirlanib tuxmatu malomatlarga koldi.

Shukrlar bo'lsinki, mustaqillik tufayli ko'p ming yillik boy tariximizni, shu jumladan ulug' bobomiz Amir Temurni urganish imkoniga ega bo'ldik.

Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida Shaxrisabzning Xuja Ilgor kishlogida tavallud topdi. Temurning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat ogir ijtimoiy-siyosiy buxron iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi.

[1] Б.Очилова Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тошкент, "Истиқлол", 2009 й., 199-бет

O’zok va mashakkatli kurashlardan sung Amir Temur o’z rakiblarini yengib, xokimiyatni qulga kiritdi. Mayda, tarkok feodallarni birlashtirib, markazlashgan davlat bunyod etdi, mamlakatda iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar kildi.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benixoyat katta. Birinchidan u mamlakatda yuqorida aytganimizdek kuchayib ketgan feodal tarkoklikka barham berib, el-yurtni o’z tugi osiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik feodal davlatini yaratdi. Bu bilan xunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga musaxkam zamin yaratib berdi. Bugun «Temur va Temuriylar madaniyati», «Temuriylar davlati», «Temuriylar madaniyati», «Ulug’bek va Samarqand asranomiya maktabi», «Navoiy» va «Bobur» kabi kutlug so’zlarni nafaqat o’zbekning, balki jaxon xalqlari asarlari saxifalarida uchratar ekanmiz, bu gaplarning zaminida albatta Amir Temurning ulkan xizmatlari yotadi. Ikkinchidan, Amir Temur, o’zi bilibmi-bilmasdanmi, lekin bir kator xalqlar va yurtlarni musamlakachilar zulmidan ozod bo’lishiga yordam berdi. Masalan, usha davrning eng qudratli xukmdorlaridan xisoblangan Boyazid Yildirimni tor-mor keltirib, Bolkon yarim oroli va Yevropa xalqlariga ozodlik bagishladi; Oltin Urda xoni Tuxtamishni ikki marta tor-mor etib, rossiyani mugullar xukmronligidan kutulishini kariyb 300 yilga tezlashtirdi.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni kunt bilan ukisak, urgansak, uning ko’p yaxshi xislatlari: to’g’rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muxabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Amir Temurning «Temur to’zuklari», Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshoxning «Temur haqidagi xabarlarda takdir ajoyibotlari» va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasixatlari va ugitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo’ladi. Bo’lar el-yurt va fukarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qushnichilikka rioya qilish va nixoyat, mardlik va kaxramonlik haqidagi ugitlardir.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari bekiyos. Amir Temur va uning avlodlari sa’yi-harakatlari bilan kurilgan madrasalar, masjidlar, xanokoxlar, saroylar, bozorlar, kal’alar, kanallar va boshqa inshootlarning son-sanogi yo’q. Amir Temurning bevosita raxnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Guri Amir, Axmad Yassaviy, Zangi Ota makbaralari, Oksaroy va Shoxi Zinda me’moriy mujizalari, Bogi Chinor, Bogi Dilqusho, Bogi Bexisht, Bogi Baland singari unlab go’zal saroy-boglar va shu kabi boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.

Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning guvoxlik berishicha, Amir Temur «Obodonlikka yaraydigan biror karich yerning ham zoye bo’lishini ravo kurmasdi».

Tarix bu kuxna dunyoda juda ko’p jaxongirlarni ko’rgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashgul bo’lgan. Uning «kay bir joydan bir gisht olsam, o’rniga un gisht kuydirdim, bir daraxt kesirsam, o’rniga unta kuchat ektirdim», degan so’zlari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdigidir. «Agar bizning qudratimizni bilmokchi bo’lsangiz, ko’rgan binolarimizga boking» deganda Amir Temur, avvalo, o’z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yanglishmaymiz.

Xar kanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifatsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron xokimiyatga kelishi bilan chikargan daslabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafakalar tayinlash bilan boshlagan. Kaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur avvalo usha yerlik olimu fozillar bilan uchrashar, ular bilan suxbat kurar, turli mavzularda baxslashar edi.

Tarix, tibbiyot, matematika, asronomiya, me’morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun bu tabiiy xol edi. Mazkur fazilat sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug’bekka o’tgani shubxasiz. Mirzo Ulug’bekning davlat arbobi bo’lish bilan birga buyuk olim darajasiga yetishishida bobosi Amir Temurning xizmati benixoya katta bo’lgan. U Ulug’bekdagi noyob kobiliyatni boshdanok paykab, safarlarda ham yonida olib yurib, dunyoning mashxur olimlari tarbiyasidan baxramand etgan. Amir Temur ma’naviyatini belgilovchi bosh mezon uning butun umr buyi amal qilgan «Kuch - adolatda!» degan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmuni mujassamlashgan, desak yanglishmaymiz. Amir Temurning ma’naviy va ma’rifiy qarashlari uning o’z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga koldirgan ugitlari «Temur to’zuklari»da mujassamlashgan. Bu bebaxo tarixiy asarda, xokimlar va vazirlarning vazifalari, o’z ishiga munosabati, axoli turli katlami - raiyatning xak-xuquqini himoya qilish, sipoxlarga munosabat kabi hayotiy ma’naviy-ahloqiy qonun-qoidalar o’z ifodasini topgan.

Sohibqironning «Temur to’zuklari»dan qo’yidagi satrlarni mamnuniyat bilan ukish mumkin:

«Yo’z ming otlik askar qila olmagan ishni bir to’g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin».

«Zolimlardan mazlumlar xaqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofik odamlar urtasida muxokama kildim va bir gunoxkorning o’rniga boshqasiga jabr-zulm utkazmadim».

«Kimki birovning molini zurlik bilan tortib olgan bo’lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko’zini kur kilsa, qulok va burun kessa, sharob ichsa, zino kilsa, devondagi shariat kozisi yoki axdos kozisiga olib borib topshirsinlar».

Qo’yidagi to’zuklarda Amir Temurning kechirimli xislatlari namoyon bo’lgan. Buni u boshqalardan ham talab qilgan. Kechirimli bo’lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaladi:

«Menga yomonlik qilib, boshim o’zra shamshir kutarib, ishimga ko’p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, xurmatlab yomon kilmishlarini xotiramdan uchirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo’l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubxayu kurkuv bo’lsa, unut bo’lardi».

«Menga xasad qilib, uldirishga kasd qilgan kishilarga shunchalik sovga-in’omlar berib, muruvvatu exson ko’rsatdimki, bu yaxshiliklarni kurib, xijolat teriga gark bo’ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish to’tgan do’stlarim oldimga panox tilab kelganlarida, ularni o’zimning taxtu davlatimga sherik qilib, xech kachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim».

«Xech kimdan uch olish payida bo’lmadim. To’zimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim...»

«Agar dushmaning bosh urib panoxingga kelsa, raxm qilib yaxshilik va muruvvat ko’rsat».

Amir Temurning do’stlik haqidagi pandu-nasixatlari ham xali-xano’z biz uchun ibratdir.

«Sodiq va vafodor do’st ulkim, o’z do’stidan ranjimaydi, do’stining dushmanini o’z dushmani deb biladi. Agar kerak bo’lsa, do’sti uchun jonini ham ayamaydi».

Amir Temurning umr buyi obodonchilik, kurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambag'alparvarligini uning qo'yidagi ugitlaridan ham bilish mumkin:

«Kimki biron saxroni obod kilsa, yoki koriz ko'rsa yo biror bog kukartirsa, yoxud biror xarob bo'lib yotgan yerni obod kilsa, birinchi yili undan xech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofik xiroj yigsinlar».

«Katta-kichik xar bir shahar, xar bir kishlokda masjid, madrasa va xonakoxlar bino kilsinlar, fakiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona kurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar...».

Amir Temurning qo'yidagi so'zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida kaygurishga chorlab keldi:

«Millatning dardlariga darmon bo'lmok vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, raxbaringiz bo'lsin». Bu jumlalarda Amir Temur ma'naviyati jamul-jam bo'lgan bo'lsa ne ajab.

Temur va Temuriylar davri, umuman Shark, xususan Urta Osiyo ilm-fani, madaniyati, ma'naviyati, adabiyot va san'ati rivojida muxim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Bu davrdagi ma'naviy-ma'rifiy hayotdagi kutarilish va yo'qsalishining manbai, boshlanishi IX-XII asrlarga borib takaladi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi Urta Osiyoning madaniy, ma'naviy va ma'rifiy kamoloti IX-XII asr madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatining davomidir. Urta Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi xuddi shu davrda shakllandi va ijod etdi. Butun dunyoga nomlari mashxur tarixchilar Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshox Samarqandiy; olimlar - Ulug'bek, Ali qushchi, kozizoda rumiy; faylasuf shoirlar – Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy; musavvirlar – Kamoliddin Bexzod, Kosim Ali, Mirak Nakkosh; xattotlar – Sulton Ali Mashxadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning hammasi usha davr va o'zlarigacha bo'lgan insoniyat ma'naviyati, ma'rifati va madaniyati yutugining barcha sohalarini mukammal bilib va o'zlashtirib olgan, o'zlari tanlagan sohalarning xali xech kim tomonidan zabt etilmagan chukqilarini egallagan ulug' siymolar, komusiy ilm, akl egalari bo'lganlar.

Shuning uchun ham ularning boy, serkirra ijodlari, tengi yo'q va takrorlanmas ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlari asrlardan asrlarga, davrlardan davrlarga eson-omon utib, barcha algov-dalgovlarga bardosh berib bizlargacha yetib keldi.

Kamoliddin Bexzod va uning shogirdlari ijodida yuksak bosqichga kutarilgan musavvirlik san'ati Shark uygonish davrining yutuklaridan biridir. Bexzod o'zining takrorlanmas ijodi, go'zal miniatyura san'ati va ajoyib maxorati bilan nafaqat Sharkda, balki butun dunyoda ham uchmas iz koldirgandir. «Ikkinchi Moniy», «Shark rafaeli» deb yuksak darajada e'zozlangan Bexzod mashxur so'z san'atkorlari – Jomiy, Xusayn Boykaro, Shayboniyxon va boshqalarning siymolarini yaratgan yuksak ma'naviyat egasidir.

Temuriylar davri ilm-fan, madaniyat, ma'rifat rivoji Mirzo Ulug'bek (1394-1449) ning nomi bilan chambarchas boglanib ketgan. U davlat arbobi, fan, ma'rifat xomiysi, buyuk olim va munajjim.

U o'zi bunyod ettirgan rasadxona va ilm-ma'rifat markaziga turli sohalarda ish olib boruvchi 100 dan ortik ilm axllarini tuplab, keng jabxada ilmiy ko'zatish ishlarini olib borgan. Bo'lar Kozizoda rumiy, Giyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Mavlono

Axmad, Muhammad Xavofiy, Abo'l Ali Birjondiy, Mirim Chalabiy, Muiniddin Koshiy kabi zamonaning zabardas olimlari bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek shu asosda Samarqandda «Samarqand akademiyasi» -«Ulug'bek akademiyasi»ga asos solgan edi. «Ziji jadidi Kuragoniy» («Kuragoniyning yangi asronomik jadvali») va «Turt ulus tarixi» nomli asarlarning muallifidir.

Tarixchi olim Davlatshox Samarqandiyning yozishicha «Ulug'bek geometriya borasida Evklidga, asronomiya sohasida Ptolomeyga uxshardi».

Mirzo Ulug'bek fan xomiysi bo'lishi bilan birga, mamlakatda ma'rifat rivojiga ham katta ahamiyat bergan allomadir. U Movarounnaxrda bir emas uch madrasa kurdirdi. Bo'lardan biri Samarqandda (1417-1420); ikkinchisi Buxoroda (1417) va uchinchisi Gijduvonda (1433) dir. Xatto, Buxorodagi madrasa peshtokiga xadisdan: «Ilm olish xar bir mumin va muslima uchun farzdir», - deb yozdirib kuydi.

Ulug'bek ko'prok buyuk olim, ilm-fan, ma'rifat xomiysi bo'lgani uchun ham yanada qadrlidir. U geometriya, matematika, asronomiya, tarix, adabiyot, mantik, musika ilmlarini bilgan. Qur'on, xadis va fikx ilmlaridan ham yaxshi xabardor bo'lgan allomadir. XV asrda anik fanlarning, xususan asronomiyaning rivojida Ulug'bekning xizmatlari bekiyosdir. Uning daxosi bugun ham insoniyatga xizmat kilmokda.

Temuriylar davri ma'naviyati va ma'rifati rivoji o'zlarining ongli hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati, xalqlar osoyishtaligi, obodonlik ishlari, ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga bagishlagan ikki buyuk mutafakkir Abduraxmon Jomiy (1414-1492) va Mir Alisher Navoiy (1441-1501) larning nomi bilan chambarchas bog'liqdir.

Abduraxmon Jomiy Urta Osiyo xalqlari ma'naviy olamida, badiiy tafakkur osmonida yorkin nur sochib, uchmas iz koldirgan mutafakkirlardan biridir.

Abduraxmon Jomiy temuriylar davri dunyoqarashi, mafkurasi bo'lmish nakshbandiychilikka ixlos kuygan, uni kabo'l qilgan, o'zi shu yo'ldan borgan va uning g'oyalarini targib etgan. Nakshbandiychilik adolatni, o'z mexnati asosida bunyod etilgan halol lukmani ma'qullagan, dabdabali hayotni rad etgan, girrom yo'llar bilan mol-mulk tuplashni koralagan. Bu ta'limot insonparvarlik, rosguylik, halollik, mexnatsevarlik, ma'naviy poklik, kamtarlik, samimiylik kabi chin insoniy fazilatlarni ulug'lagan. Uning «Dil ba yoru, das ba kor» - «Kungil Ollohdayu, qul mexnatda» shiori Jomiy va Navoiy kabi mutafakkirlarni o'ziga jalb etgan. Shu sababli bu ikki ulug' siymo, so'z san'atkorlari nakshbandiychilik yo'lini kabo'l qilganlar va o'z ijodlarida uning g'oyalarini tarannum etganlar.

Abduraxmon Jomiy «Xiradnomai Iskandar» («Iskandar aklnomasi») asarida el-ulus dardi bilan yashovchi, uning arzu-dodiga qulok tutuvchi xukmdor siymosini yaratadi. Xukmdor adolatli va odil bo'lishi lozim deb, odillik va adolatni nurga uxshatadi.

Agar chiksa adolatning kuyoshi,
Taralgay xar tomon nuri ziyosi.
Agar zulm etsa zolim, bu sitamdan
Jaxon bo'lgay karo, yo'q intixosi
- deb xitob qiladi.

Jomiy el-ulusga, insonga yaxshilik qilish, ularga nisbatan muruvvat ko'rsatish inson nomini ulug'laydi, deb shoxlarni, xukmdorlarni shunga chakiradi:

Ey toju muxrga kungil boglagan,
Kachongacha toju muxr koladig'
Mulku boylik bari ketadi bir kun
Na zamon, na zamin, na naxr koladi.
Qulingdan kelgancha yaxshilik kilgil
Jaxonda senga shul mehr koladi...

- deb yozgan Jomiy nechoglik xak ekanligini anglab yetmogimiz darkor.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, mutafakkir, davlat arbobi, o'zbek adabiyoti va tilining asoschisi Alisher Navoiy Urta Osiyoning ma'naviy va ma'rifiy fikr taraqqiyotida alohida urin tutadi. U adabiyot, san'atning turli sohalariga oid kirkdan ortik asar yaratdi. «Chor devon», «Hamsa», «Maxbubo'l-qulub», «Muxokamatul-lugatayn», «Majolisun-nafis», «Lisonut-tayr» va boshqalar shular jumlasidandir.

Navoiy o'z asarlarida zolim, musabid, nodon, maishatparas shox va xukmdorlarni koralab, ularga qarshi insonparvar, xalqparvar, odil, adolatli xukmdor obrazini kuyadi.

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq gamidin gami, - bayti

Navoiy ma'naviyati va insonparvarligining markaziy nuktasi desak, xech yanglishmaymiz. Navoiy butun umri buyicha insonparvarlikni, odamiylikni kuylab, uni ulug'lab o'tgan. Kishilar gamida bo'lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo'lgan. Uning kabrida mana bu so'zlar bitib qo'yilgan: «Shoxi garibon», ya'ni gariblar, yolgizlar, fakirlar shoxi.

Navoiy saxovat va muruvvatda benazir inson bo'lgan. O'zining joylardagi yer-suvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini tulaligicha xayriya ishlariga sarflagan.

Birgina Xirot shaxrida o'zining jamgarmasi xisobidan kanchadan-kancha binolar, inshootlar barpo etgan. Injil kanalining janub tomonida katta tibbiyot ukuv yurti va shifoxona barpo ettirgan, ularga tanikli tabib va dorishunoslarni jalb etgan. Ixlosiya madrasasi yonida katta saroy kurdirib, undagi mexmonxonada kambag'al beva-bechoralarni tekin ovqat bilan ta'minlagan. Muxtoj kishilarga xar yili ikki ming pusin va kiyim-kechak tarkatgan. Bundan tashkari kanal kazdirib, Mashxad shaxriga suv keltirgan.

Navoiyning bundan kariyb 550 yil avval ilgari surgan g'oyalari asrlar osha ahamiyatini, hayotiyligini yuqotgani yo'q, Prezidentimiz Islom Karimovning insonparvarlik, xalqlar tinchligi uchun olib borayotgan kurashi bilan hamoxang bo'lib yangramokda.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fan, ma'rifat, ma'naviyat va madaniyati jaxon sivilizasiyasi rivojiga ulkan xissa bo'lib qushildi. Bunda ulug' bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari bekiyos va benazirdir. Buni hammamiz, ayniqsa Siz talaba yoshlar to'g'ri anglamogingiz lozim, ul ulug' zot ila faxrlanishimiz barchamizning burchimiz.

Milliy mustaqillik tufayli jaxon ma'naviyati va ma'rifati saxnida o'z urinlariga ega bo'lgan piru-komil ajdodlarimizni va ular koldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni teran anglash, urganish va ulug'lash imkoniyati yo'zaga keldi. Inchunun, ota-bobolarimiz, xususan buyuk davlat arbobi, ma'rifat xomiysi, yuksak ma'naviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari koldirgan, abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda

xalqimiz, Siz kabi talaba yoshlarning ruxiy-ma'naviy poklanishi va milliy o'zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir.

Biz bugun yashatayotgan Mustaqil O'zbekiston davlatidagi tarixiy shaharlar, go'zal makonlarning ko'pchiligi Amir Temur va temuriylar davrida vujudga keldi. Temuriylar davri xar sohada chinakam uygonish davri bo'ldi. 150 yillik musamlakachilik, 70 yillik qaramlik va tobelik yillarida shunday buyuk zot, dunyoga mashxur davlat arbobi, ulug' bunyodkor Amir Temur shaxsiyatining asl mohiyatiga xolis va xaqqoniy baxo berish imkonidan maxrum bo'lib yashadik. Shuro to'zumi sohibqiron haqidagi haqikatni xalqdan yashirib keldi. Bobokalonimiz to'g'risida ikki ogiz ilik so'z aytilgan barcha manbalar ko'zdan yashirildi, takiklandi yoki soxtalashtirildi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Amir Temur nomi tariximiz saxifalaridan kora buyok bilan uchirildi, unutishga maxkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yuqotish, uni qaramlikka, tobe'likka kundirish edi». Yoki Prezidentimizning yana qo'yidagi so'zlarini eslaylik: «Shuro davrida bizga Amir Temurni bosqinchi, zolim, konxur jallod, borib turgan joxil, deb uktirib kelishdi..... Amir Temur haqidagi bu uydirma - sof siyosiy maqsadlarni ko'zlagan tuxmatdan iborat. Bilasizmi, bu ishlarning tagidagi maqsad bitta bo'lgan: ya'ni, bizning o'zligimizni, tariximizni unuttirish, bizni mankurtga aylantirish. Shuning uchun ham biz Amir Temurning xurmatini joyiga kuyar ekanmiz, birinchi galda shu savobli ish orkali xalqimizning, millatimizning izzat-xurmatini joyiga kuygan bo'lamiz. Buni xech kachon uno'tmaslik zarur. O'zligimizni anglashimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashimiz ham karz, ham farz».

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq Prezidentimiz Islom Karimov boy ma'naviy merosimiz, dinu-iymonimiz, qadriyatlarimiz, shu jumladan ulug' bobomiz sohibqiron Amir Temur nomini, u haqdagi tarixiy haqikatni tiklashga shaxsan raxnamolik qilib kelmoqda. O'zbekiston Mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir. Xorijda siymosi yillar davomida teatr saxnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Shark tillarida esa 900 ga yakin kitoblar yozilgan, ko'pdan-ko'p suvratlari ishlangan, qisqasi, dunyoga mashxur bo'lgan ulug' zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib urin oldi.

Istiqlolimiz endi kurtak otayotgan davrda Toshkentning kok markazidagi xiyobonda sohibqironga urnatilgan muxtasham xaykal mustaqillik poydevoriga qo'yilgan oltin gisht bo'ldi.

Oradan sal utib, 1994 yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996 yilda esa sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan dunyo mikyosida ulkan tadbirlar utkazildi. Parijdagi YuNESKO qarorgoxida utkazilgan yubiley tantanalari jaxon mikyosida, ayniqsa muxim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining qaroriga kura «Amir Temur» xayriya jamgarmasi tashkil etildi. Dunyoning tanikli siyosat arboblari, olimlari, yozuvchilari, tarixchilari ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar utkazildi. Prezident farmoni bilan yuksak mukofot - «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi. Temuriylar tarixi davlat mo'zeyinig barpo etilishi respublikamiz, xalqimiz hayotida muxim vokea bo'ldi. Yubiley munosabati bilan ko'plab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqalar nashr etildi. Shu urinda Amir Temurning o'zi yaratgan «Temur to'zuklari» risolasini, akademik Buriboy Axmedovning «Amir Temur» tarixiy romanini, Erkin Azimovning «Amir Temur saltanati» risolasini, Abdulla Oripovning «Sohibqiron» she'riy dramasini Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin

Shomiylarning «Zafarnoma» asarlarini, F. Ashrafiyning «Temuriylar davri miniatyurasi» kabi nashrlarni alohida qayd etish mumkin. Bo'larning hammasiga mustaqillik tufayli erishdik. Yuqorida aytganimizdek, o'zoq yillar davomida musamlaka va qaramlik iskanjasi osida kun kechirgan xalqimiz Amir Temur kabi o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavkeini munosib uringa qo'yish imkonidan maxrum edi. Bunga intilgan va bu yo'lda tirnoq qonatgan olim, faylasuf, tadqiqotchiga millatchi, O'tmishni ideallashtiruvchi degan tamga bosilar edi. Ollohga shukurlar bo'lsinkim, Mustaqillik tufayli bo'larning hammasiga barham berildi. Mustaqillikning mana shu nurafshon kunlarida yurtimiz o'zra Amir Temurning ruxi bizdan rozi bo'lib kezib yurgan bo'lsa ne ajab!

Bo'larning hammasi Prezidentimiz Islom Karimov raxnamoligida mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ma'naviy tiklanishi borasida olib borilayotgan keng jabxadagi xayrli ishlardan bir nishona xolos.

3-masalani bayoni. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. Shuning uchun biz bu urinda masala bayonini ma'rifat va ma'rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izoxlashdan boshlashni lozim topdik.

Ma'rifatning lugaviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmok, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan xozirgi davrda bilim va ilmga intilgan xar bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma'lum sohasini, xuddi shuningdek matematika, fizika, biologiya, medisina va boshqalarning ham ma'lum yunalishlarini egallaydilar.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orkali amalga oshiriladi. Demak ma'rifat - bilim va madaniyatning qushma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish kuroli, vositasidir.

Ma'rifat asosan umumiy va urta maxsus bilim beruvchi maktab va ukuv yurtlarida tarkatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yo'qsaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orkali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirogini yokuvchi; ma'rifat xomiysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga utishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, ok-korani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, o'zoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shugullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatninng, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muxim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik, kurkuv va xadikni bartaraf etadi, insonga bekiyos iloxiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uygokligida deb biladilar va ma'rifat

uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma’rifatga intilib yashagan. Bu ulkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan xissa qushgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi axlini xayratga solganlar. Bunga 1998 yilda Axmad al Fargoniy tavalludining 1200 yilligi va xadis ilmi sultoni Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi keng nishonlanganligini misol qilib ko’rsatishimiz mumkin.

O’tmishda ijod etgan allomalarimiz al Farobiy, al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug’bek va boshqalar nafaqat ilm chukqilarini egallab kolmay, uni - ya’ni ma’rifatni keng targib etganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy O’tmish va ulkan merosga ega. Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar kori Abdurashidxon ugli, Abdulkodir Shakuriy, Ashurali Zoxiriy, Saidrasul Saidaziziy, Isxokxon Ibrat va Axmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va koloklikdan xalos etishning yagona yo’li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar musabid to’zum va jaxolatga, ma’naviy qullik va zulm-zuravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma’rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilmu urfoni, madaniyati bilan tanishib, musamlaka ulkani, uning kishanlarini ilm chirogi bilangina ozodlik sari boshlamok, parchalamok mumkin ekanini chuqur xis etdilar. Shu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlantirishda ham amaliy, ham nazariy jixatdan azmu shijoat namunasini ko’rsatdilar.

Ko’rinadiki, jadidchilik, ma’rifatchilik ham millatni ma’rifatli qilish, ma’naviyatini yo’qsaltirish maqsadlarida yo’zaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir.

Jadidchilik - yangilanish, yangi usul ma’nosini anglatadi. U yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo’llari tarafdorlarining umumiy nomi.

Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari: Turkistonni urta asrchilik, feodal koloklik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli kadim»ni inkor etgan xolda ulkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konsitusion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili makomini berish, milliy qushin to’zish va boshqalardan iborat.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yo’zaga kelgan, o’zbek xalqi tarixida yangi saxifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo’lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g’oyalar yetakchilik qilgan. Ulkani musamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun kuydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni usirish zarurligini paykadilar. Shu orkali milliy uygonish yasamokchi bo’ldilar. Buni esa ta’lim va tarbiyada - ma’rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo’lida xormay-tolmay ishladilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nixoyatda katta bo’lgan. Bu davrlarda jamiyatning ma’naviy inkirozi chuqurlashgan bo’lib, milliy madaniyatni kutarmay, umuminsoniy qadriyatlardan baxramand bo’lmay ma’rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo’lga kuygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo’lmas edi. Jadidlar, ya’ni ma’rifatchilar millatning ma’naviy kamoloti yo’lida o’zining butun kuchi va ise’dodini safarbar etishga tayyor bo’lgan fidoyilar edi.

Jadidlar millatni koloklik, xurofot botkogidan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orkali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida islox qilish g'oyasini ilgari surganlar va bu borada o'zlari amaliy harakat namunasini ko'rsatganlar.

Xullas, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uygonish va milliy ong yo'qsalishida katta rol uynagan.

Jadidchilik g'oyalarini uning yorkin vakillaridan Bexbudiy, Fitrat, Chulpon, Abdulla Kodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarkori, Fayzullo Xujayev, Sufizoda, Tavallo, Isxokjon Ibrat kabilar g'oyat ogir sharoitlarda targib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yo'qsaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l kuymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar ogir moddiy kiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiklarga qaramay, millatning ma'naviy yo'qsalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat kildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yo'qsaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Bexbudiy, Fitrat, Munavvarkori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, ukuv qullanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda xatto o'z mablaglarini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning xozirgi Mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nixoyatda zarur. Biz erkin fukarolik jamiyatini qurishni, barpo etishni orzu kilmokdamiz va shunga intilmokdamiz. Bu ulug'vor vazifalarni xal etish, Prezidentimiz Islom Karimov «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblari, ya'ni «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan kurmokdamiz»da: «Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu ulug'vor va murakkab vazifalarni xal qilish, eng avvvalo, ta'lim tarbiya, ma'rifat masalasiga borib takaladi. Bu masalaga keng jamoatchilik dikkatini jalb etish kerak. Matbuot orkali, televideniye orkali odamlarda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarbiyalash, maktab-maorif tarmoklariga xomiylik, saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytirish zarur»[1], - deb ta'kidlaganlarida yuqorida biz kalamga olgan fidoyi, saxiy, millatparvar insonlar kabi bo'lishga bizni chorlayotgan bo'lsalar, ne ajab!

Jadidlar harakatining Turkistondagi namoyandasi, uning nazariy asoschilaridan biri Maxmudxuja Bexbudiydir (1879-1919).

Bexbudiy Samarqand shaxrida ruxoniy oilasida tugilgan. Yoshligidan ilm-fanga kizikadi, xisob, xuquq, din, arab va fors tillaridan chuqur sabok oladi.

U xaj ziyoratini ado etib, Makka va Madinaga boradi. Misr va Turkiya shaharlarida bo'ladi. Peterburg, Minsk, Kozon, Ufa va Orenburg kabi rossiya shaharlarida bo'lib yangi davr madaniyati bilan yakindan tanishadi.

Maxmudxuja Bexbudiy, bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi ukuv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani urtaga tashladi. U qo'yidagi uch qoidani olga surdi: 1) zamon talablaridan kelib chiqib ish qurish; 2) millat takdiri va isikbolini belgilovchi milliy qadrlarni yetishtirish; 3) milliy bikiklikdan chiqib, dunyo mikyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlarda jaxon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Asrimiz boshlarida ilgari

[1] "Туркистон" газетаси, 1999 й., 2 февраль сони.

surilgan bu qarashlar xozirgi davrimiz uchun mosligi bilan ham ahamiyatlidir. Uning bunday ilgor fikrlari Mustaqil respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning zamonaviy qadrlar tayyorlash borasida olib borayotgan siyosati bilan hamoxangdir. Bunga Bexbudiy orzu-umidlarining ruyobga chiqishi, deb qaramok lozim. Bexbudiy ma'rifatning ozodlikka olib borishdagi rolini yaxshi tushundi. U shunday yozadi: «Maorif bo'limida ishlayturgon musulmonlarning boshini silangiz... urtadan nikobni kutaringiz, Turkiston bolalarini ilmsiz kuymangizlar. Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar...»[2] Maxmudxuja Bexbudiy erksevarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ta'kib osiga olindi va uldirildi.

Jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri Munavvarkori Abdurashid ugli (1878-1931). U Toshkentda tugilgan. Munavvarkori ham boshqa jadidchilar kabi Vatan ravnaki va millat taraqqiyotining asosiy omili deb xalqni savodli va ma'rifatli qilishni tushunadi. U ana shu fikrdan kelib chiqib, Toshkentda 1901 yilda yangi uslubdagi maktabni ochadi, unga raxbarlik qilib, musulmon bolalarni ukitadi. O'z zamonasi uchun makbo'l bo'lgan «Adibi avval», «Adibi Soniy», «Yer yo'zi» kabi darsliklar yozadi. U ko'prok yetimlarni, beva-bechoralarning bolalarini ukitishga ahamiyat beradi.

Munavvarkori ta'lim-tarbiya ishlarini islox kilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini kutarmay jamiyatda katta o'zgarishlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib yetadi.

Munavvarkorining millat taraqqiyoti uchun olib borgan g'oyalari tufayli sobiq zuravon Shurolar xukumati uni ta'kib osiga oldi. 1931 yil 25 aprelda esa otib tashlandi.

Milliy uygonishga chorlovchi g'oyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vaqili Abdulla Avloniydir. U millatning ma'naviy inkirozda bo'lishini tankid kildi, barchani savodli bo'lish, zamonaviy fan, madaniy yutuklarni egallashga chakirdi. Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, raxbari, najotidir» degan g'oyasi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma'rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston axlini ilm-ma'rifat ziyosidan baxramand qilishda unitilmas xizmatlar ko'rsatdi. «Turkiy Gulison yoxud ahloq» kitobida ma'rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqyotida to'tgan o'rni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Allomaning qarashlarini urganish – bugun o'zligimizga kaytish jarayoni kechayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Biz shu urinda allomaning asaridan qo'yidagilarni qayd etishni lozim topdik. «Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki ilm bizga o'z axvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatur. Zexnimizni, fikrimizni qilich kabi utkir kilur, savobni gunoxdan, halolni xaromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga raxnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Bizlarni ilm jaxolat koronguligidan kutkarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chikarur. Allox taologa muxabbat va e'tikodimizni orttirur...

Alxosil, butun hayotimiz, salomatimiz, ximmatimiz, gayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur»[1].

Jadidchilarning kismati chor xukumati, Vaktli xokimiyat va ayniqsa, sobiq Shurolar to'zumi davrida nixoyatda fojiali bo'ldi. Ularning ko'pchiligiga yuqorida

[2] Ш.Турдиев. Махмудхўжа Беҳбудий. "Мулоқот", журнали, 1994 й. 3-4-сонлар, 47-бет

[1] Иброҳимов А., Султонов Ҳ., Жўраев Н. Ватан туйғуси. Тошкент., "Ўзбекистон", 1996 й., 350-бет

bayon qilingan talablari uchun millatchi, «panturkis» degan tamga bosilib, katagon qilindi, jadidlar g'oyalari va harakatiga kora chizik tortildi. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jaxon mikyosida tanilishini yana bir asrga orkaga surdi. Jadidchilik bir asr davomida avval kommunisik g'oyaning tazyikida, keyinchalik esa iskanjasida bo'lib, tula ravishda namoyon bo'la olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini urganishga intilganlar ham tazyik osiga olindi. Uni urganishga intilganlar ham ta'kib qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, Mustaqilligi, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g'oyalari ulmas g'oyalar bo'lgani uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Mavzu ma'rifatga, ya'ni ilm-bilimga ham tegishli bo'lgani uchun ma'ro'za matni nixoyasida bir kator xadis va xikmatlarni keltirib utishni lozim topdik, zero u foydadan xoli bo'lmas, degan umiddamiz.

***

-Beshikdan to kabrgacha ilm izlang!

***

-Ilm – fansiz davlat kurib bo'lmaydi.

***

-Dil va aklning tarbiyasi ilm bilan rivojlanib, kamol topadi.

***

-Ilm tufayli odamlar nodonlik, jaxolat botkogidan chiqib, o'z imkonlarini kamolga yetkazadilar.

***

-Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilm talab qilinglar.

***

-Ilmning tikanli va zaxmatli yo'llariga bardosh berib uta olgan odamgina iymoni komil inson bo'la oladi, Ollloxning rizoligiga erishib, ulug'lik tulporiga minadi.

***

-Ilm urganish xar bir mumin farzidir.

***

-Bir soatgina ilm urganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zasidan afzal.

***

-Ilm aklning chirogi va jilovidir.

***

-Sadakaning afzali mumin kishi avval ilm urganib, keyin boshqalarga ham urgatishidir.

***

-Ko'rinadiki, odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U akl-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga kodir.

***

-Bilingki, bilim, uylab kurilsa, misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan insonni tiyib turadi. Bilim egasi o'z tilaklariga yetadi, orzu - maqsadiga erishadi.

***

Ilm egalarining foydasi xar doim ko’pchilikka tegib turadi. Ular elda aziz bo’lib, xurmatga sazovor bo’ladilar. Shu tufayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yashaganlar. Ular ma’rifat chiroklarini mash’ala singari yokkanlar. Yuksak ma’naviyat va ilm-ma’rifat tufayli Turonzamin yer yo’zida shuhrat kozongan.

5. MUSAMLAKACHILIK VA QARAMLIK SHAROITIDA MA'NAVIYAT.

Reja;

1. Chorizmning milliy ma'naviyatimizga nisbatan musamlakachilik siyosatining mohiyati.

2. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi sharoitida mintaqa xalqlari ma'naviyatiga yetkazgan zararlari va ularning oqibatlari..

3. Oktyabr to'ntarishi va yagona mafkura xukmronligini vujudga kelishi hamda uning milliy ma'naviyatga salbiy ta'siri.

4. Musamlakachilik va sovet qaramligi sharoitida o'zbek xalqining milliy ozodlik, tarixiy va milliy qadriyatlarni tiklash uchun olib borgan kurashlari va ularning ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti.2008. 2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T., O'zbekiston, 1994y.
3. Karimov I. A. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub isloxotlar yo'lidir. T., O'zbekiston, 1996 y.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Shark,1998 y.
5. Ibroximov A., Sultonov X., Jurayev N. Vatan tuyg'usi. T., O'zbekiston, 1996 y.
6. O'zbekiston: qaramlik va mustaqillik yillarida.T., Ukituvchi, 1996 y.
7. Mustaqillik: izoxli ilmiy-ommabop lugat.T., Shark, 1998 y.
8. B.Ochilova. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. Toshkent, "Istiqlol"-2009.
9.B.Ziyomuhammadov. Komillikka eltuvchi kitob. Toshkent. "Turon-Iqbol",2006.

Nazorat savollari

1. Nima uchun mustamlakachilar halqni tarihidan, ma'naviyatidan mahrum qilishga intildilar?
2. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoda olib borgan mustamlakachilik siyosatining oqibatlari nimalarga olib keldi?
3. Sho'rolar davrida islom diniga va diniy qadriyatlarga qanday munosabat bildirildi?
4. Ruslashtirish siyosatining mohiyati nimadan iborat?
5. Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

1-masalaning bayoni. "Ma'naviyatimiz mezonlarini bo'zilishi va qadrsizlanishining asosiy sabablaridan biri fikrimizcha o'zligimizni tom ma'noda anglab yetmaslikda deb bilamiz. Chunki, sobiq sho'rolar to'zumi davrida bunga imkon ham

berilmagan edi”[1]. Haqiqatan ham sobiq sho’rolar davrida, mustakamchilik davrida ma’naviyatning rivoji haqida gap ham bo’lishi mumkin emas edi. “Ma’lumki 1937-1953-yillarda sobiq SSSR hududida muthish ommaviy siyosiy qatag’onlar amalga oshirilgan edi. O’zbekiston bo’yicha qariyb 100 ming kishi qatag’onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr qimmat toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat arbob va ziyolilar, balki yo’zlab insonlar, yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarning vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o’z oilasidan judo bo’lgani, ayollar bevalikka, go’daklar yetimlikka mahkum etilganini minglab mirishkor dehqonlarining quloq sifatida olis o’lkalarga surgun qilganini inobatga olsak, halqimiz boshiga tushgan bu fojianing yanada yaqqol namoyon bo’ladi”[2]. Faqat sho’rolar davri emas balki chor Rossiyasi zulmi ostida ezilgan O’rta Osiyo halqlari 130 yillik mustamlaka davrida milliy ma’naviyatini yo’qotish darajasiga keldi. Chorizmning Turkistondagi siyosati milliy tuyg’uni poymol etishga, milliy qadriyatlarni toptashga va millatni yo’qotishga qaratilgan edi. Tarixdan ma’lumki, bir xalqni o’ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o’zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi. Bosib olingan mamlakat xalqlari madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo’g’ib qo’yish istilochi, bosqinchi mamlakatlar tomonidan musamlakachilik tartiblarini saklab turish va musaxkamlashning azaliy, tarix sinovidan o’tgan an’anaviy yo’llaridan biri bo’lib xisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat kildirilgan xalqlarni bora-bora o’ziga singdirib yuborishni, buning uchun o’z mafkurasi va g’oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga shikast yetkazish, milliy tili, milliy urf-odatlari va milliy qadriyatlari rivojiga yo’l bermaslikni o’z siyosatining asosiy maqsadi deb biladi. Xitoy donishmandi Konfusiy bundan 2700 yil oldin o’z imperatoriga shunday maslaxat bergan ekan: «Xokonim, agar biror mamlaktni bosib olib, u yerda o’zok xukmronlik kilmokchi bo’lsangiz, dastavval usha yerda yashayotgan xalqni o’z tarixiy madaniyatidan maxrum eting, ma’naviy buxronni kuchaytiring. O’z madaniyatidan bebaxra bo’lib, ma’naviy kashshoklik xolatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o’raladi, sizga qarshilik ko’rsata olmaydi. Bunday xolga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish kiyin bo’lmaydi»[1]. Madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlar kamolotiga yo’l bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo’llaridan biri ekanligini istilochi va bosqinchilar doimo juda yaxshi bilgan. Shuning uchun ham musamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan gaplarni oldindan rejalashtirib qo’yishadi.

Madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat zarbaga uchrab, xalqning, mamlakatning ma’naviyati va ma’rifati barbod bo’laversa, odamlar o’z-o’zidan e’tikodsiz bo’lib ketadi. Unday ulkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy mankurtlik, beparvolik boshlanadi. Oxir-oqibatda milliy g’urur, iftixor, milliy qadriyatlar asa-sekin zaiflasha boshlaydi. Ana shunday ulkani, mamlakatni, uning xalqini musamlakachilik kishanlarida ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish mumkin.

Chingizxon ham Urta Osiyo zaminini isilo qilayotganida o’z sarkardalariga: Shaharlarga nodon, irodasiz, axmok kishilarni boshlik etib tayinlanglar, ularni qullab-

[1] Б.Очилова. Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тошкент. “Истиқлол” , 2009 й., 163-бет

[2] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008 й., 97-бет.

[1] Гусейнов А.А. Великие моралисты М., 1995, 36-бет

kuvvatlanglar va kuklarga kutarib maktay beringlar, maxalliy xalqlarning aklli, bilimli, obru-e'tiborli kishilarini yo'q qilinglar, deb topshirik berar ekan. Bu siyosatning ham chuqur uylangan sabablari bo'lgan. O'z madaniyatidan, obru-e'tiborli, dono vakillaridan judo bo'lgan xalq ma'naviy raxnamosiz qolib kovusha va uyusha olmaydi.

Tarix shundan guvoxlik beradiki, hamma vakt, hamma yerda bosqinchi xukmdorlar bosib olingan mamlakatlar xududlarida Xitoy donishmandi va Chingizxon aytgan tarzda siyosat yurgizdilar. Bundan Urta Osiyo xalqlari ham musasno emas. Ilm-fan va madaniyat, ma'naviyatning eng rivojlangan markazlaridan bo'lgan Turkistonni zuravonlik yo'li bilan bosib olgan chor xukumati yerli axolini qaramlik va qullik, siyosiy qaraxtlik va ruxiy kashshoklik xolatida ushlab turishni musamlakachilik siyosatining markaziy masalalaridan biri deb xisobladi. Ana shu yovo'z va makkorona siyosatni amalga oshirishning asosiy yo'l-yuriklarini ishlab chiqish uchun ishni nimadan boshlash kerakligi haqida taklif-muloxaza va xulosalar berish topshirigi bilan chor xukumati ko'pchilik olimlar va boshqa soha kishilarini rossiyadan Turkistonga yubordi.

Bosib olingan mamlakatda ilm-fan, ma'na-viyat, madaniyat isilochi mamlakatga nisbatan bir necha bor ustun bo'lsa, unday joylarda musamlakichilik tartibini saklab turish oson kechmaydi. Bizning ulka esa bosqinchi chor rossiyasiga nisbatan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy taraqqiyot jixatidan ancha ustun turardi. Chor xukumati olimlar maslaxatiga amal qilib, bizning ulkada kanday qilib bo'lmasin, o'zlarining yerli xalqdan ustunliklarini isbotlashga va shu tarika «o'zil-kesil» galabaga erishishga asoydil kirishdilar.

2-masalaning bayoni. O'tmishdagi bosqinchilar singari chor bosqinchilari ham bu sohadagi amaliy ishni Turkiston xalqini bir necha ming yillik tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan maxrum qilish, ruxan, ma'nan mayib-majrux qilishdan boshladilar. Bu chuqur uylab, o'zoqni ko'zlab va rejalashtirib qo'yilgan mash'um siyosat edi. Bu siyosatning zamirida chor xukumatining manfaatini xar tomonlama himoya qilish va Turkiston xalqlarini, shu jumladan o'zbek xalqini milliy o'zligini anglashdan butqul maxrum qilib O'tmishini uno'tgan, vatanparvarlik tuyg'usidan judo bo'lgan, istikbolini kurolmaydigan odamlar guruxiga aylantirish muddaosi turgan.

Ma'naviyat va ma'rifat xalqning o'z O'tmishini bilishi va isikbolini tushunib yetishiga yordam beradi, Vatanni sevish va u bilan faxrlanishga da'vat etadi, dushmanlarga, bosqinchi va musamlakachilarga qarshi murosasiz kurash olib borishga, erk va adolat uchun jasorat ko'rsatishga undaydi.

Ma'naviyat va ma'rifatdan maxrum xalq milliy jixatdan o'zini anglab ololmaydi, takdirga tan berib yashashni o'ziga ep kuradi. Chor amaldorlari buni yaxshi anglagan xolda o'z musamlaka asoratiga solgan Turkiston xalqlarini ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatdan bebaxra koldirish masalasiga alohida ahamiyat berdilar, bu yo'lda xech tap tortmay insofu diyonatni, raxm-shafqatni butunlay unutdilar.

Chor rossiyasining Turkistondagi siyosati milliy tuyg'uni poymol etishga, milliy qadriyatlarni toptashga, butqul yo'qotib yuborishga qaratilgan edi. Chorizm bu ulkada savodsizlik, bilimsizlik xolatini vujudga keltirish va uni musaxkamlashdan manfaatdor edi.

Chorizm musamlakachilik siyosatini Sharkda kon va qilich bilan joriy qilgan generallardan biri M.D.Skobelev: «Millatni yo'q qilish uchun uni kirish shart emas, uning madaniyatini, tilini, san'atini yo'q kilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga

uchraydi», - deb «bashorat» qilgan edi[1]. Uning ana shu «dono» ko'rsatmasi Turkistondagi ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatga nisbatan amalga oshirilgan jaxolat va yovo'zliklar uchun qullanma bo'lib xizmat kildi. Chorizm Turkiston xalqlarini savodsizlik, bilimsizlik xolatida ushlab turishdan manfaatdor edi. Uning maqsadi gaflat uykusida yotgan, zamonaviy fan-texnika, ma'rifat yutuklaridan bexabar, milliy ongi pas, milliy g'ururi toptalgan xalqni talash, ezishdan iborat edi. Chor xukumatining musamlaka ulkalardagi gumashtalari «yarim podsho» Kaufman, general-gubernator Kuropatkin, jallod Golovanovga uxshaganlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Kukon, Toshkentdagi buyuk asori-atikalarni, masjidu-madrasalarni, arklaru tarixiy-madaniy yodgorliklarni tupga tutib yer bilan yakson kildilar. Axir kanday qilib qul osidagi mazlum xalqlar madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati, tarixi bosqinchi-jallodlarnikidan baland bo'lishi kerak! Bunga ular tokat qila olmas edi! Ularning usuli yo'q qilish, madaniyatni, til va tarixni, Turkiston xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi g'ururlanadigan, iftixor qiladigan nimaiki bo'lsa, hamma-hammasini, tag-tugi bilan ayamay yakson qilish edi.

Chor xukumatining Turkistondagi musamlakachilik siyosatining tub mohiyatida kanday maqsad va muddao yotganligini xalqimizning bilimli, madaniyatli, ziyrak, okilu dono farzandlari allkachon tushunib yetgan edilar. Chor xukumati musamlakachilik siyosatini fosh etgan, xalqni erk va ozodlikka, bilim va madaniyatga chorlagan, milliy qadriyatlarimizni qullab kuvvatlagan, shu yo'lda jafo chekib xalok bo'lgan buyuk qalb egasi Abdurauf Fitrat o'zining «Turkistonda ruslar» risolasida: «Kurdim, kezdim, eshitdim, ukidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir... rus kapitalislari bilan rus poplarining sodiq ishonchli korovullari bo'lgon eski rusiya xukumati ellik yil orasida Turkistondagi turk bolalarining foydalariga biror ish kurdimi, kurmokchi bo'ldimi. Mana shu savolga - «Yo'q!»dan boshqa bir javobimiz yo'qdir. Yurtimiz ellik bir yil idorai askariy osida turdigi uchun biz Ovruponing madaniy millatlari bilan qurisholmadik, ularning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan isifoda kilolmadik. Bizning ko'zlarimizni ochirmaslik fikri uchun fikri ochik tatar karindoshlarimizning daxi Turkistondan yer olmok va Turkistonda maktab ochmoklari man etildi.

Bizning diniy va milliy xissiyotlarimizni uldirmok tilagi bilan Ustroutov kabi mutaasib poplarning idorasinda gazeta chikarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni anglamok uchun o'z tarafimizdan ochilgan maktablar va gazitalar boglandi, sha'riy maxkamalarimizning xuquq va salohiyatlaridan buyuk bir kisi gasb etildi. Maxkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, xatto vagon arbalarinda Turkiston yerlisining xuquqi Turkiston musofiri bo'lgon rus va armanidan tubanda tutildi»[1], - deb yozgan edi. Abdurauf Fitratning qalb nidosi bo'lgan ushbu so'zlarda musamlakachilik siyosatining barcha tomonlari fosh etilgandi.

Shunday qilib, chor xukumatining Turkiston xalqlariga nisbatan to'tgan musamlakachilik siyosati bu xalqlar urtasidagi xar kanday davlat kurtaklarini yo'q qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy taraqqiyotini bugish, ularga erkinlik bermaslik, milliy qadriyatlarini yerga urish, kamsitish, milliy g'ururlarini, ma'naviyatini poymol etish, kurkuvda ushlashdan iborat edi.

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 10-бет.

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 4-бет

3-masalaning bayoni. Rossiyada Oktyabr tuntarishidan keyin, sovet xokimiyatining daslabki yillarida boshqa jumxuriyatlarda bo'lganidek, O'zbekistonda ham, albatta madaniy, ma'rifiy taraqqiyot bo'ldi, tabiiy va ijtimoiy fanlar anchagina usdi, milliy ziyolilar safi kengaydi, iqtisodda, ijtimoiy, siyosiy hayotda ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Bundan ko'z yumish mumkin emas. Lekin O'zbekiston Mustaqilligiga kadar bo'lgan yetmish turt yil ichida madaniy-ma'rifiy taraqqiyotimiz imkoniyatlaridan tula foydalana olmadik. Markaz tomonidan yurgizilgan davlat siyosati tufayli milliy ongimiz, milliy tilimiz, tariximiz, urf-odatlarimiz rivojlanishiga yo'l bermaydigan govlar paydo bo'ldi. Agar Chor rossiyasi bizning ma'naviyatimizni turgunlikda, koloklikda tutishga uringan bo'lsa, bolshevik-shovinislar maxalliy xalqlarni o'z milliy madaniyatidan butqul begonalashtirish siyosatini tutdilar. O'zbek xalqining madaniyati va ma'naviyatiga, milliy ongi rivojlanishiga tuskinlik qilish sobiq Sovet jamiyati davrida chorizm zamonidagidan kura kuchaysa-kuchaydiyu, ammo kamaymadi. Shuro davlati milliy chekka ulka xalqlarini ezish, boyliklarini talash maqsadida chorizm musamlakachilik siyosatini oshkora davom ettirdi. Shuro to'zumi milliy birdamlik, milliy tuyg'u rivojlanishi va yo'qsalishiga millatchilik deb qaradi.

Shuro zamonida xalqimizning ming yillik tarixi, e'tikodi rad etildi, o'rniga «shaxsga siginish» balosi rubaru bo'ldi.

Prezidentimiz Islom Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» risolasida ta'kidlaganidek: «.... Shurolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish ragbatlantirilmas edi, xukmron mafkura manfaatlariga xizmat kilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yirok saklanardi».

Insonlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini ta'minlashga kumak-lashadigan muqaddas kitob Qur'oni Karim, Xadisi Sharif, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Az-Zamaxshariy, Baxouddin Nakshband singari ulamoyu fo'zalolarning mu'tabar asarlari xalqdan yashirildi, ularga ut qo'yildi, suvlarga okizildi. Qaramlik va mutelik yillarida sodir bo'lgan bu daxshatli vokea va xodisalar o'zbek xalqining milliy ma'naviyati muayyan darajada tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi. Shuro xukumati va to'zumi kurila boshlagan daslabki yillaridayok, avvalo butun ziyolilar va xatto eski o'zbek yozuvini biladigan (mulla deb nom olgan) kishilar ham kamoklarga junatildi. Keyinchalik esa uyda arab alifbosi yozuvidagi kitob va qulyozmalarni saklagan odamlar kattik ta'kib osiga olindi. Xullas, o'zbek xalqining ilgor qismi - ziyolilarga, ma'rifat xomiylariga juda katta zarba berildi. Bu katagonlik xatti-harakati o'tgan yetmish yil davomida u yoki bu darajada doimiy va o'zviy ravishda davom etdi.

Milliy ma'naviy qadriyatlardan biri milliy urf-odatlar, an'analar, diniy-tarbiyaviy marosimlar, xalq bayram va sayillari kabilarga qilingan xujum o'zbek xalqi boshiga tushgan ogir dard bo'ldi.

Umuman olganda, shuro yillari davomida o'zbek xalqi erkin fikrlash xuquqidan maxrum etildi. Bu esa, o'z navbatida, xalqning ma'naviyatiga salbiy ta'sir kildi.

Yuqorida qayd etganimizdek, 30-yillarning urtalariga borib, milliy ma'naviyatimizni tulik sindirib, yanchib tashlashga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirila boshlandi. Asl ziyo egalari otib, bukib tashlandi. Bo'lar katoriga Chulpon, Abdulla Kodiriy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir kabi xalqimizning, millatimizning, uning ma'naviyatining unlab, yo'zlab asl uglonlarini kiritishimiz mumkin.

Qaramlik va mutelik yillari o’zlarini ilmning hamma sohasini yakkayu yagona bilagoni deb atagan kommunisik mafkura targibotchilari o’z faoliyatlarida O’tmishdan qolgan barcha ma’naviy merosni butunlay inkor etish yo’liga utib oldilar. Navoiy, Bobur, Ulug’bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari allomalar feodalizm davri namoyandalari, deb e’lon qilinib, ularning meroslarini urganish takiklandi. Buyuk allomalarning yubileylarini utkazish esa millatchilik kayfiyatlarini kuchaytiruvchi omil sifatida baxolandi.

Urta Osiyo xalqlarining urta asrlarda jaxon fani, madaniyati taraqqiyotiga qushgan xissasi haqida gapirish tarixni ideallashtirish deb ko’rsatildi. O’tmishning ulkan merosi, bebaxo milliy ma’naviyat qadriyati bo’lgan qulyozmalarni urganish, nashr qilish imkoniyati chegaralab qo’yildi.

O’zbekistonda barcha dinlarning, birinchi navbatda, islom dinining ko’zga ko’ringan yirik vakillari birin-ketin kamaldi, surgun qilindi, imi-jimida otib tashlandi. Chorak kam bir asr davomida diniy-ma’naviy tarbiyaga urin berilmadi. Diniy ahloq va madaniyatning zarari haqida aytilmagan gap kolmadi.

Daxshatlisi shu bo’ldiki, islom dinini «fosh etish» maqsadida aziz-avliyolarning mozorlariga ut qo’yildi, makbaralari ostin-ustin qilindi. Kommunislar, raxbar xodimlar ota-onalari, yakin kishilari janozasiga borishdan kurkib qolishdi. Yurak yutib borganlar partiyadan uchirilib, ishdan olindi.

Xalq urtasida daxriylikni targib qilish va dinga qarshi murosasiz kurash nikobi ostida urta asr me’morchiligining takrorlanmas namunasi bo’lgan, milliy nakshlar bilan jilovlanib turgan minglab masjidlar, yo’zlab madrasalar, xalqimizning milliy g’ururi xisoblangan muxtasham kasrlar, tarixiy obidalar, xonlar, amirlarning saroylari vaxshiylik va yovo’zlik bilan bo’zib tashlanib, omborxonalarga, paxta kuritadigan joylarga aylantirildi. Bu kabi xunuk ishlar «feodal O’tmish, esqilik sarkitlaridan tozalash» degan kizil so’zlar bilan nikoblandi.

4-masalaning bayoni. Mustaqillik tufayli diniy qadriyatlarga bo’lgan bunday salbiy munosabatlarga barham berildi.

O’tmish xalq ogzaki ijodi ma’naviyatimizning ilk sarchashmasi sanaladi. Totalitar to’zum davrida xalqimizning kadimiy qadriyatlari, xalq ogzaki ijodining yuksak namunasi sifatida asrlardan-asrlarga ma’naviy meros bo’lib utib kelayotgan afsona, rivoyat, ertak, maqollarga, «Alpomish», «Gurugli», «rustam», «Avazxon», «Xasanxon», «Ravshanxon» kabi dostonlarga bir yoklama munosabatda bo’lindi, ularga zamonasozlik, sinfiylik, partiyaviylik nuktai nazaridan turib baxo berildi. O’zbek xalq ogzaki ijodiyotining xar bir asariga ikki sinf, ikki madaniyat nazariyasi asosida baxo berildi, kommunisik mafkura nuktai nazaridan kelib chiqqan xolda yondashildi. Ulardagi milliy va umuminsoniy qadriyat va g’oyalar nazar-pisand qilinmadi. Chunonchi, «Alpomish» dosonida xonlar, beklar maktaladi, bosqinchilik va zuravonlik targib qilinadi, islom diniga mansub bo’lmagan boshqa xalqlarga yomon munosabat tasvirlanadi, degan ayblar tunkaladi. Dostonning bosh kaxramoni Alpomish mexnatkash xalqning olijanob fazilatlarini va orzu-umidlarini o’zida ifoda etmaydi, aksincha, u xokim, konxur bek, tipik zuravon va zolim sifatida harakat qiladi, deb da’vo qilindi.

Pirovard natijada doston kitob dukonlari peshtaxtalaridan, kutubxona javonlaridan yigishtirib olindi. Sirasini aytganda, bu o’zbek xalqiga tuxmat, uni boy O’tmishidan ajratib tashlash, milliy qadriyatlarni yerga urishdir. Mustaqillik tufayli ma’naviy merosimizning bu sohasiga nisbatan bo’lgan salbiy munosabatlarga o’zil-kesil

barham berildi. Buning yaqqol isboti 1999 yilda «Alpomish» dosoni yaratilganligining 1000 yilligi yurtimizda keng nishonlanganligidir.

Til - xar bir xalq va millatning milliy o'zligini namoyon qilishda muxim vositadir. Ja'miki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.... Ona tili – bu millatning ruxidir. O'z tilini yuqotgan xar kanday millat o'zligidan judo buishi mukarrar! Shaxs ma'naviy kamolotining zarur shartlaridan biri o'z ona tilini bilishidir. Til bilmaydigan odam xalqning dilini ham bilmaydi. Biron-bir sabab tufayli milliy til yuqolsa millat bora-bora yuqolib ketadi, milliy o'ziga xosligini yuqotadi. Shunday bo'lgach, biron-bir milliy tilning yuqolishi usha xalqning mukarrar ravishda xalok bo'lishiga olib keladi.

Sobiq Sovet xukumati xukmronlik qilgan 70 yildan ko'prok vakt davomida milliy chekka ulka xalqlari, jumladan o'zbeklarning milliy tili, tarixi va madaniyati rivojlanishiga tuskinlik qilishi uchun ishlatilmagan xiylayu-nayrang kolmadi! Shaxsga siginish yillarida millatlarning bir-biriga qushilib, yagona Sovet xalqiga aylanishi haqida «nazariyalar» paydo bo'ldi. «Milliy tillar yuqoladi, yagona til bo'ladi», deb «bashorat» qilindi. Bunday soxta nazariya Stalin tomonidan urtaga tashlangan edi. 1930 yildan boshlab kariyb oltmish yil davomida sobiq markaz millatlar va milliy tillarni qushib yuborish siyosatini zur berib hayotga joriy etishga urindi. Baynalmilallik bayrogi ostida milliy tillar rivojlanishi cheklab qo'yildi. O'zbek tiliga nisbatan qilingan ijtimoiy adolatsizlik, ayniqsa, daxshatli tus oldi. Bu narsa davlat siyosati darajasiga kutarilib amalga oshirildi. Uning lugat tarkibiga ruscha baynalmilal so'zlar sun'iy ravishda tikishtirildi. Natijada ogzaki va yozma nutkimiz ortik darajada bo'zildi.

Ijtimoiy hayotda o'zbek tilidan foydalanish kengayib borish o'rniga asta-sekin torayib bordi. Korxonalarda, ilmiy muassasalarda, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, tabobatda, aloka tashkilotlarida o'zbek tilidan foydalanishda ko'pol xatolarga yo'l qo'yildi. O'zbek tili fukaro xavo flotida, ichki ishlarda, armiyada surib chikarildi, undan foydalanilmadi. O'zbek tili dars soatlari yil sayin ukuv muassasalarida qisqarib bordi.

Axvol shu darajaga borib yetdiki, barcha yiginlar, majlislar, yozishmalar rus tilida olib borildi, dissertasiyalar, kitoblar, risolalar, maqolalar, arizalar, shikoyat va iltimosnomalar rus tilida yoziladigan bo'ldi, aks xolda ular mutasaddi tashkilot idoralarida kabo'l qilinmadi.

O'zbek tili chetga surib tashlandi, uning mavkei benixoya pasayib ketdi. Natijada, rus tilini bilmaydigan odam mas'ul idoralarda ishlamaydi, degan tushuncha yo'zaga keldi. Aslida ham axvol shunday edi, hayot va ish sharoitimiz faqat rus tilini bilishni talab qilardi. Natijada o'zbeklar orasida o'zbek tilini bilmaydiganlar, o'zbekcha yozolmaydiganlar va o'zbekcha fikrlay olmaydiganlar ko'payib ketdi. Xatto o'z ona tilini bilmaslik ayb sanalmaydigan bo'ldi.

Ma'muriy buyrukbozlik ish usullari avjiga mingan, hamma narsa, xar bir katta yo kichik masala markazning ko'rsatmasi, roziligi bilan xal qilinadigan yillarda (tobelik va qaramlik o'zining yuqori chukkisiga chiqqan davr) o'zbek tili o'rnini rus tili egalladi, desak xato kilmaymiz. Ba'zi raxbarlar butunlay yerli axolidan iborat majlislarda ham ruscha so'zlab, buni o'zlari uchun madaniyatlilik alomati, faxr-iftixor deb bilish darajasiga yetdilar. rus tilini bilish, shu tilda chiroyli so'zlash ma'naviy kamolatning chukkisi, madaniyatlilik belgisi deb kabo'l qilindi. Natijada o'z ona tiliga mensimay qaraydigan kishilar paydo bo'ldi. Bu, ayniqsa yoshlar orasida avj ola boshladi. Buni jamiyatning, millatning, uning ma'naviyatining eng katta fojiasi deb tushunmok lozim.

O’zbek tili Urta Osiyodagi eng kadimiy va boy tillardan biridir. «Umuman, turkiy tillar yirik ikki okimda rivojlandi, - deb yozadi I.Kuchkortoyev, - uning biri turk tili bo’lsa, ikkinchisi o’zbek tilidir. roman tillarini rivojlantirishda lotin tili kanday rol uynagan bo’lsa, Urta Osiyo va Kozogison mintakasidagi turkiy tillarni rivojlantirishda o’zbek tili shunday rol uynadi»[1].

O’zbek tilining imkoniyatlari shu kadar kengki, bu tilda turli so’z to’zish, chiroyli so’zlash, asarlar yaratish mumkin. Bunga adabiyot va san’atimizning boy tarixi, xazinasi yorkin guvox sanaladi.

Millatni himoya qilish uchun uning tilini himoya qilish, asrash, rivojlantirish zarur. Buni esa davlat bajaradi. Til davlat himoyasiga olinmas ekan, u rivojlana olmaydi. Til xokimiyat bilan tirik. Mustaqillikka erishgunimizga kadar o’zbek tilini muxofaza qilish zarurati yo’zaga keldi. O’zbek tiliga davlat tili makomi berilishi oson-sillik kechmadi. Uni himoya etish va qonuniy mavkeini tiklash uchun bo’lgan kurashda shoir va yozuvchilar, olimlar, muallimlar, xuquqshunoslar, hamma-hamma faol ishtirok etdi. Eng muximi bu kurashda xalq uygondi.

Til muammosi singari nixoyatda noziq, kaltis va jiddiy masalani ijobiy xal etish uchun jumxuriyatimizda Islom Karimov raxbarligida keng mikyosda tashqiliy, g’oyaviy-siyosiy va keng qulamli tarbiyaviy ishlar olib borildi.

O’zoq davom etgan baxslar, tortishuvlar, munozara va muxokamalardan sung O’zbekiston Oliy Kengashi un birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda «O’zbekiston SSRning davlat tili haqida» qonun kabo’l qilindi. Natijada Sovet davrida milliy til masalasida yo’l qo’yilgan xato va kamchiliklarni to’zatish uchun keng yo’l ochildi.

Qonunga binoan, o’zbek tili O’zbekiston respublikasining davlat tili, deb e’lon qilindi. Bu xol xalqimizni bexad kuvontirib, dilini yayratib yubordi, milliy g’ururini kuchaytirdi.

Ammo shuni ham qayd etish lozimki, Mustaqil respublikamizning dunyoga yo’z tutishida yoshlarimizning, ayniqsa Siz kabi talabalarning xorijiy mamlakat xalqlari tilini bilishingiz muxim ahamiyat kasb etadi. Davlat tili haqidagi qonunning kabo’l qilinishi boshqa tillarni bilish, urganishni rad etmaydi. Boshqa tillarni bilish - xar bir ma’lumotli kishining kurkidir. Xalqlar urtasida birlik, ahillik, mehr-oqibat, xurmat, turli alokalar til va madaniyatni bilishdan boshlanadi.

O’zbekiston respublikasida xozirgi paytda yoshlar maktablar va oliy ukuv yurtlarida rus, ingliz, nemis, franso’z, ispan tillari bilan bir katorda Shark xalqlari tillarini ham katta kizikish bilan urganmokdalar. Arab, fors, xind, xitoy tillarini urganish natijasida aksariyat qismi arab va fors tillarida yozilgan kadimiy qulyozmalarimizni bemalol ukib-urganadigan yetuk mutaxassislarga ega bo’lamiz.

Musabid to’zum siyosati talabi va zuravonligi asosida ma’naviyatimizning muxim kirrasi imlomiz ketma-ket uch marta o’zgartirildi. 1929 yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga utildi. Oradan un ikki yil utgach, kirill alifbosi kabo’l qilindi. Shu tarika xalqimiz o’zining 1000-1200 yillik kuxna tarixidan, O’tmishidan, ma’naviy merosidan maxrum bo’ldi. Ota-bobolarimizdan qolgan kitoblar, asosan arab va fors tillarida yozilgan. Imloning o’zgartirilishi natijasida usha kitoblarni ukiy olmaydigan bo’lib koldik. Yakin O’tmishimizning riyokor siyosati natijasida mugul bosqini keltirgan yuqotishdan ham kura kattarok ma’naviy falokatga uchradik. Bu tariximizni,

[1] Тил - миллат қалби. “Мулоқот”, журнали, 1991 й., 10-сон, 17-бет

madaniyatimizni, milliy ma’naviy merosimizni yuqotishga urinishning yangicha yo’li edi.

Insofu-diyonatni yuqotgan kommunisik mafkura yalovbardorlari, arab va lotin alifbosini yuqotib maqsadlariga erishib bo’lgach, o’zbek xalqi «inkilobgacha» savodsiz edi, yozuvi ham, maktabi ham, kitobi ham, olimu ulamolari ham bo’lgan emas, tili rivojlanmagan degan safsatani butun dunyoga yoydilar. Bu xalqimiz sha’niga agdarilgan girt tuxmatdir. Bu ulkadan yetishib chiqqan ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat namoyandalarini ilgari Sizlar bilan kurib o’tganmiz... Ulkamiz kadimdan ma’naviyat va ma’rifat yuksak darajada rivojlangan xudud bo’lganligi bilan faxrlanishimiz lozim.

Biz yuqorida musamlakachilik, qaramlik sharoitida o’zbek xalqining boy ma’naviy va ma’rifiy merosiga munosabat va uning ijtimoiy oqibatlarining ba’zi jixatlarinigina kurib utdik. O’tmishda toptalgan, taxkirlangan ma’naviy va ma’rifiy merosimizga mustaqillik yillarida munosabat tubdan o’zgardi. Milliy ma’naviy merosimiz qayta tiklanib, xalqimiz qalbida chuqur ildiz otmokda. Mustaqillik tufayli bu borada amalga oshirilgan barcha ijobiy ishlarimiz oldingi mavzularda u yoki bu jixatdan yoritilganligini xisobga olib, mazkur ma’ro’zada bu masalaga tuxtalmadik.

6-mavzu: MILLIY VA UMUMINSONIY MA’NAVIYAT, ULARNING O’ZARO MUNOSABATI.

Reja:

1. ***Milliy ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.***
2. ***Milliy ma’naviyatimizning umuminsoniy mohiyati.***
3. ***Umuminsoniy ma’naviyat va uning taraqqiyoti..***

Milliy ma’naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu tushunchani bilib olishni «millat» tushunchasini izoxlashdan boshlash maqsadga muvofik.

«Millat» so’zi «o’zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma’noni bildiradi. «Millat» so’zi arab tilida qo’yidagi uch ma’noni anglatadi: birinchi - din, mazxab; ikkinchi - ummat; uchinchi - xalq, kavm. Millat so’zi qur’oni Karimda ham qullanilgan. Qur’onda xar bir millat vaqili o’z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, o’z millatidan, kavmidan kechib, boshqa millatga utib olishi esa gunox deb ta’riflangan.

Yevropa adabiyotida qullaniladigan «natsiya» so’zi esa kabila, xalq degan ma’noni bildiradi.

Binobarin, bu ikki tushunchada ham asosan muayyan etnik birliklarning o’ziga xosligini bildiruvchi ma’no yotadi.

Oldingi ma’ro’zalarda ta’kidlanganidek, insonlar, jamiyat rivojlanib borgan sari ma’naviy munosabat, alokalar rivojlanib boraveradi va ular jamiyat taraqqiyotida katta rol uynab kelgan.

Ma’naviyatni uch guruxga bo’lish mumkin:

Birinchisi-milliy ma’naviyat, ikkinchisi-mintakaviy ma’naviyat, uchinchisi - umuminsoniy ma’naviyat.

Milliy ma’naviyat- muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo’lgan g’oyat qimmatli ma’naviy boyliklardir.

Mintakaviy (regional) ma’naviyat-muayyan jugrofiy mintaka millatlariga xos, ular uchun umumiy bo’lgan ma’naviy boyliklardir. Masalan, Urta Osiyo xalqlarining

ma’naviyatidagi; yoki yanada kengrok doirada oladigan bo’lsak, Shark va Garb ma’naviyatidagi mushtaraklik, uxshashlikni olishimiz mumkin.

Mintakaviy ma’naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yakinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jixatlar namoyon bo’ladi.

Umuminsoniy ma’naviyat - butun insoniyatga, jaxon xalqlariga tegishli bo’lgan ma’naviy-ahloqiy boyliklardir.

Milliy ma’naviyat - boshqa millat ma’naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma’naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma’naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma’naviyatda boshqa xalqlarning ma’naviyati aynan takrorlanmaydi. Shunday bo’lganda edi milliy ma’naviyat bo’lmas edi va biz bu haqda so’zlamas ham edik.

Milliy ma’naviyat, avvalo tarixiy xodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog’liq. Unda ba’zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo’lishi mumkin. Milliy ma’naviy kamolot zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yo’z beradi. Bunda esa u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan esa ma’lum darajada tanazzulga yo’z tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix xodisalari, shaxslar, vokealar utib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ammo ma’naviyat yo’qsalib, boyib, tobora kengrok qulam va teranrok mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma’naviy tanazzulga yo’z to’tgan fojiaviy sharoitlarda ham milliy ma’naviyat yuqolmaydi, qulami va mazmuni jixatdan o’zi yetishgan kamolot bosqichini yuqotmaydi. Milliy ma’naviyat erishgan kamolot bosqichini yuqotish uchun (shu jumladan, umuman milliy ma’naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma’naviy merosni maxv etish, insonlar xotirasini tamomila uchirib tashlash, ulardan xatto irsiy xotirani ham barbod qilib - mankurtga aylantirish kerak bo’ladi. Bunday xoldan Sizu - Bizni Ollohning o’zi asrasin!

Millat mavjud ekan, milliy ma’naviyat bo’ladi. Milliy ma’naviyatni yuqotish mumkin emas. Milliy ma’naviyatni yuqotish uchun kanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma’naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Xulosa shuki, inson qalbidagi milliylikni yuqotish mumkin emas.

Ko’rinadiki, milliy ma’naviyat xodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saklab turgan ko’p ulchamli voke’likdir. Inson ma’naviy olami ulchamlari cheksiz bo’lib, uni xech bir narsa bilan ulchash, kiyoslash mumkin emas. Milliy ma’naviyat avvalo milliy ongda rivojlanishi bilan harakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muxim bugimi sifatida olib qaramokdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o’zlikni anglash sari yetaklaydi.

Milliy ma’naviyatning asosiy belgi va o’zagi-milliy ahloq sanaladi. Bizning milliy ahloqimizdagi belgilar boshqa xalqlar ahloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo’ladi.

Milliy ma’naviyatda-milliy xis, tuyg’u, ruxiyat ham muxim urin egallaydi. Chunonchi, zamona takozosi bilan boshqa yurtga safarga borgudek bo’lsak va usha yerda milliy kuy, qushikni eshitgudek bo’lsak, bizning vujudimizni ajib bir xis, tuyg’u kamrab oladi va undan ruxiy xo’zur olamiz, qanoat xosil etamiz. Ya’ni ma’naviy ozukalanamiz.

Milliy ma’naviyatda-milliy manfaat ham muxim rol uynaydi. Sobiq Shurolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yuyganlar va milliy manfaat yo’zasidan harakat qilgan kishilarni, raxbarlar va yozuvchilarni millatchi deb badnom etganlar.

O’zbek xalqi uchun umuminsoniy ma’naviyat bilan birga milliy ma’naviyat va uning boyliklari ham g’oyat qimmatlidir. Bo’larga o’zbek xalqining o’zi yaratgan, boyitgan, saklab kelayotgan, avloddan-avlodga utib, boyib, saykal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma’naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan ahloqiy an’ana, marosimlar, ahloqiy pand-nasixatlar va xokazolar kiradi.

O’rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o’zbeklarda qadrlangan, o’zbekona ahloq, odobga oid ma’naviy fazilatlar haqida ko’plab qimmatli fikr, ma’lumotlar mavjuddir. Zaxiriddin Muhammad Bobur o’zining «Boburnoma» asarida o’zbeklarga xos bo’lgan ko’plab ma’naviy-ahloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bo’lar iymon va e’tikodlilik, andishalilik, oilaga muxabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat kilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, karindosh-uruglariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe’llik, shirinso’zlik, mardlik, odillik, xayolilik, saxiylik, odamiylik, ok kungillilik, mexnatsevarlik va boshqalardir.

O’rta Osiyoga sayoxatga kelgan Xerman Vamberi «Buxoro yoxud Mavorounnaxr tarixi» asarida Oltin Urdadagi o’zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqda ogir vazminligini, okkungillilik va samimiyligini, kamgapligini, sadokatliligini, dovyurakligini, shinavandligini, oilaviy munosabatlarda pokligini, muloxazaliligi, andisha bilan to’g’ri so’zlashishini, ota-onaga xurmati va e’tikodi kuchliligini, birinchi bo’lib utirmaslik va birinchi bo’lib so’zlashmasligini, mugombirlikni bilmasligini, dinga e’tikodi kuchli bo’lib, bu jixatdan anatoliyali turklarga uxshashligini ko’rsatgan.

O’zbek xalqining xozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari O’tmish milliy ma’naviyatining davomi bo’lib ularga dustlik, urtoklik, mexmondo’stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, ahloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o’zini tuta bilishlik, xayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchakchaklik, xushfe’llik, mardlik, samimiylik, lutfi qaramlilik, ro’zgorparvarlik, shirinso’zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muxabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostguylik, halollik, oru-nomuslilik, to’g’rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, xojatbarorlik, ota-ona va kattalarni xurmat qilish, mexnatsevarlik, O’tmishga xurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g’urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy - ahloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan uning ma’naviy dunyosida milliy jixatlar doim saklanib koladi. O’zbeklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarning o’ziga xos sharkona ahloqiy fazilatlari, ota-ona, farzandlar, kuni-qushnilar, maxalla-kuy alokalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog’liq ma’naviyati faqat O’tmish sadosi emas, balki xozirgi kun uchun ham xosdir.

O’zga millatlarning ma’naviy qadriyatlari kanchalik ta’sir ko’rsatmasin kattalarga, ota-onaga xurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mexnatsevarlik, mexmondo’stlik singari milliy ma’naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga utib kon-konimizga singib ketgan. Ayollarimiz kanchalik zamonaviylashmasinlar, ular xayo, ibo, nomus bobida, oila, karindosh-uruglarga nisbatan munosabat bobida sharkona, o’zbekona fazilatlarni tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saklanib koladi va rivojlanaveradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug’larni va kichiklarning izzatini o’z o’rniga qo’yish, xurmat qilish ham milliy ma’naviyatimizga kiradi. Bu yo’l istiqlol va isikbol muammolarini O’tmishning boy tajribasi bilan boglashga yakindan yordam beradi.

Odatda kishilar ko’pincha ikki ishda katta xatoga yo’l kuyadilar. Birinchisi-yoshlarni xali yosh deb, ularga ishonmaganida, ikkinchisi-keksalarni kariya deb chetga surib kuyganida. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog’liq bo’lgan katta tashabbus, kuch va gayrat bo’ladi. Keksalar esa hayot yo’lida ko’p issik va sovuk kunlarni boshdan kechirib, boy tajriba orttirgani uchun ularda o’zokni uylab, bosiklik bilan ish qilish, yetti ulchab bir kesish singari ma’naviy boylik va yetuk tafakkur salohiyati bor. O’zbeklarning «kari bilganni pari bilmas», degan xikmatida ko’p ma’no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, gayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan boglangandagina yaxshi ijobiy samara beradi. Keksa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma’naviy kamolot va ibrat maktabidir. Keksa avlodning hayot tajribasini mensimaslik hamma davrlarda ham jamiyat uchun falokatli oqibatlarga olib kelgan. Chunonchi, 1920-30 yillarda xali hayotda biror ogir sabokni kurmagan, baland-pastni bilmagan 15-17 yoshlik komsomollar ko’plab ishbilarmon, mexnatsevar dexkonlarni qulok qilish, molu-mulkini musodara etib, o’zoq yerlarga badarga qilish vazifasini o’z zimmasiga olgani ham katta iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy buxronlarga sabab bo’ldi. Xozir ham keksalarning qadriga yetmaydigan, ularni mensimaydigan yoshlar oz emas. Bu o’zbek milliy ma’naviyatidagi salbiy bir xol, ko’rinish. Uning oldini olish zarur.

Sovet totalitar to’zumi sharoitida ma’naviy-ahloqiy fazilatlarning milliy jixatlari, an’analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ularni ma’naviy koloklik ifodasi sifatida talkin etildi. Shark xalqlarining, jumladan o’zbek xalqining ming yillik ma’naviy boyliklarini o’zida mujassamlashtirgan xadislar, shariat xukmlari diniy xurofat sifatida koralandi.

Xalqimizning ahloq, andisha, sharmu-xayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to’g’risidagi ma’naviy qadriyatlariga zid bo’lgan yevropacha an’analar yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir utkazdi. Shu tufayli ma’naviy tubanlik yo’zaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma’naviyatimizga zid bo’lgan bagritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), kotillik (o’z farzandini uldirib yashirish), xudbinlik, maishiy bo’zuklik, giyoxvandlik kabi ma’naviy kiyofa yo’zaga kelib, ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma’rifatparvar fidoiylar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda xukmron bo’lgan ma’naviy inkiroz haqida gapirib, bu ogir vaziyatdan ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, ahloqni yusaltirish orkaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, - degan edi Abdulla Avloniy, - bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo xalokat, yo saodat - yo falokat masalasidir».

Bu fikrlarning ahamiyati xozirda ham kamaygani yo’q. O’zbek millati faqat milliy ma’naviy kamolat orkaligina yo’zaga kela boshlagan milliy-ma’naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Sovet totalitar to’zumi barbod bo’lishi, O’zbekistonning o’z Mustaqilligini qulga kiritishi jamiyatimiz ma’naviyatida chuqurlashib borayotgan inkirozning oldini olish uchun tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo’ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma’naviy poklanish, unglanish, tiklanish jarayoni yo’z berdi. Yosh avlodni, Siz kabi talaba yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruxida tarbiyalash, milliy g’urur tuyg’usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik,

mexnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish xozirgi kundagi milliy-ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir. Shu urinda milliy-ma'naviy tarbiya va uning asosiy yunalishlari va mohiyatini aniklab olish zarur.

Milliy tarbiya - u yoki bu millatni, elatni tashkil kiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir.

Milliy tarbiyaning asosiy yunalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, vatanparvarlikni, mexnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, merosni, urf-odatni, qadriyatlarni, fan, texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishni rivojlantirish, mehr-oqibat, iymon-e'tikod, or-nomus, insof-diyonat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruxiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

Milliy tarbiyaning yana bir yunalishi – ota-ona, karindosh-uruglarning xurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o'zga millatlar va elatlar vakillarining manfaatlarini xisobga olish kabilar tashkil etadi.

Xullas, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-xayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizning ko'p jixatdan ajratib turadigan bagrikenglik, mexmondustlik, okkungillilik xususiyatlari haqida o'zok gapirish mumkin.

Xech birimizni xalqimizga xos ana shunday fazilatlar tark etishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, umuminsoniy ma'naviyat - butun insoniyatga, jaxon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviyat o'zok va yakin O'tmishdagi xozirda esa ma'naviy jixatdan juda qimmatli, inson qalbida uchmas iz koldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, extiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviy boyliklariga esa ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuklari, adabiyot va san'at asarlari, kashfiyot va ixtirolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, xurfikrlik, umuminsoniy ahloqiy me'yorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini xech kachon yuqotmaydi. Oltin zanglamas, kuyosh koraymas deganlaridek, umuminsoniy ma'naviyat ham doim kadimiy va navkiron bo'lib turaveradi. Ular umumbashariy ma'naviyat deb ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, xar bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda gamxurlik qilish kabi ma'naviy mas'uliyat o'z ahamiyatini doim saklab kolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qushnichilik kabi ma'naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mexnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, dustlik, halollik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma'naviyat sanalib, u xar bir xalq, millatda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

O'zidan kattalarni, ota va onani xurmat qilish, farzandlar haqida gamxurlik qilish ham umuminsoniy ma'naviy jixatlari bilan ajralib turishini yoddan chikarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalmilalchilik ham umuminsoniy ma'naviyat tizimidan urin olgandir.

Yuqoridagi ma'naviyat tushunchalarining millati yo'q. U hamma millat, xalq uchun bab-barobar tegishlidir. Ammo ularning hammasi faqat muyayan milliy shaklda

namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyatda biz milliy ma'naviyatning eng olijanob, eng yuksak ko'rsatkichlarining umumjaxon mikiyosida mujassamlashgan birligini kuramiz.

O'z taraqqiyoti uchun xar bir millat umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buningsiz zamonaviy ilgor millat haqida orzu qilish mumkinmas. Umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik kobigidan chetga chiqishga, olamni kengrok qurish va ko'zatishga undaydi.

Agar milliy ma'naviyat bo'lmasa umuminsoniy ma'naviyat yo'q, umuminsoniy ma'naviyatsiz esa xozirgi zamon ilgor millatlari yo'q. Millatlar umumjaxon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Islom Karimov aytganidek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan boglanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan xissa qushgan. Turli millat vakillariga xurmat, ular bilan bahamjixat yashash, diniy bagrikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilgor tajribalari va madaniyatini urganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam»[1]. Umumjaxon, umuminsoniy ma'naviyat esa xozirgi zamon ilgor millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida esa milliy va umuminsoniy ma'naviyatning ana shu dialektik bog'liqligini xisobga olishimiz davr talabi. Buni esa Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyat to'g'risidagi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda xisobga olganligining guvoximiz. Xususan, Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jaxon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas», – deb ta'kidlagan edi. Mustaqillikni musaxkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma'naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish negiziga kurmogimiz lozim.

Bozor munosabatlariga utish davrida ko'p millatli davlatlar uchun milliy siyosatni to'g'ri, anik ko'zlangan maqsad asosida olib borish juda muximdir. Bu esa taraqqiyotning jadallashuviga yordam beradi. Millatlarning va ular madaniyatlarining bir-biriga ta'sir ko'rsatishi ko'p millatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qilib kelgan.

Millatlar urtasidagi turli munosabatlarni uyg'unlashtirish sobiq Sovet Ittifoki xududida yangi Mustaqil milliy davlatlar qaror topayotgan davrda, ayniqsa, muxim ahamiyat kasb etmokda. Bu masalaga ziyraklik va noziqlik bilan yondashishni talab qiladigan dolzarb masaladir. Ko'p millatli davlatlarda milliy masalani barcha millat va xalqlar manfaatlarini xisobga olmasdan xal etishga urinish yomon, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuktai nazardan qaraydigan bo'lsak, ko'p elatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O'zbekiston respublikasi uchun ham millatlararo munosabat juda muximdir. Bu xududda asosiy millat – o'zbeklar bilan bir katorda o'z madaniyati, an'analari va ma'naviyatiga ega bo'lgan yo'zdan ortik millat vakillari istikomat qiladilar. Ularning mamlakat axolisi umumiy tarkibidagi ulushi 20 foizdan oshikni

1 Каримов И.А. Донишманд халкимизнинг мустахкам иродасига ишонаман. "Фидокор" газетаси, 2000 й., 8 июнь.

tashkil etadi. Bozor munosabatlariga utish davrining daslabki bosqichlarida demokratik va siyosiy isloxatlarning borishini umumiy baxolab, aytish mumkinki, O'zbekistonda millatlararo munosabatlar masalasiga alohida, extiyotkorlik bilan yondashilmokda.

O'zining tarkibi va mazmuni jixatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saklab qolishda bizning qonun bazamiz yakindan yordam bermokda.

O'zbekiston respublikasining Konsitusiyasida: «O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston respublikasining fukarolari tashkil etadi», -deb ta'kidlanadi. O'zbekiston respublikasining «Fukarolar saylov xuquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston respublikasining hamma fukarolariga «...ijtimoiy kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy mavkei, irkiy va millatga mansubligidan...qat'iy nazar» teng saylov xuquqini beradi.

O'zbekiston xududida yashaydigan etnik ozchilikning xuquqlarini himoya qilish davlat konsepsiyasi O'zbekiston Konsitusiyasida yaqqol belgilab berilgan. Unda aytilganidek, «O'zbekiston respublikasi o'z xududida isikomat kiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini xurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». Mustaqillik yillari millatlararo ma'naviy va madaniy-ma'rifiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi ana shu qonun doirasida rivojlantirilib kelinmokda. Shu yillar maboynida milliy uygonish jarayoni faqat o'zbeklar orasidagina kechib kelmayotir. O'zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik - madaniy, ma'naviy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yo'z bermokda. 1989 yildayok jamoat tashkilotlari - milliy-madaniy markazlar tashkil etila boshlagan edi. Xozir respublikada 80 dan ortik milliy-madaniy markaz mavjud. Bo'lardan ba'zilarining ruyxatini keltiramiz:

O'zbekiston respublikasining koreys madaniy markazlari assosiasiyasi (1993 y); kozok madaniy markazi (1995 y); kirgiz madaniy markazi (1995 y); O'zbekiston nemislarining «Videgerburt» madaniy markazi (1994 y); rus madaniy markazi (1994 y); O'zbekiston «Axisxa» turk madaniy markazi (1997 y) va boshqalar. O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jixatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol uynamokda.

Bizning jamiyatimiz etnik guruxlar va millatlar urtasida shu xududda yashaydigan xar kanday odamga o'zini erkin va teng xuquqli deb xis qilishi imkonini beradigan o'zaro munosabatlar urnatishga intilmokda. Yurtimizda milliy ayirmachilikning xar kanday ko'rinishlari koralab kelinmokda. Milliy kalondimoglik g'oyat zararli, biz ulardan yirok bo'lishimiz kerak... Chunonchi milliy kalondimoglik kasaliga yo'likkan kishilar o'z milliy ma'naviyatini bilib, boshqa millat ma'naviyatini tan olmaydilar. Bunday munosabat tamomila noto'g'ri. Ular jaxon xalqlari ma'naviy merosi urtasidagi alokadorlikni, bir-birini boyitishini bilmaydilar.

Milliy maxdudlik, xudbinlik kasaliga chalingan kimsalar esa - mening millatim ma'naviyati, madaniyati bo'lmaganda jaxon madaniyati, ma'naviyati bo'lmas edi, degan g'oyat zararli qarashni, g'oyani ilgari surib, himoya etadilar. Mustaqillik sharoitida bunday zararli g'oyalarni ilgari surish va himoya etishga intilish millatlararo munosabatlarning negiziga putur yetkazadi, milliy totuvlikka raxna soladi. Biz kanchalik o'z madaniyatimiz, ma'naviyatimizni xurmat kilmaylik, shu bilan birga boshqa millatlar, jaxon xalqlari ma'naviyatiga ham xurmat bilan qarashimiz lozim.

Bizning maqsadimiz «Yurtimizda istikomat kiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash».

7-mavzu: MA'NAVIY TUYG'U VA QADRIYATLAR

Reja:

1. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr qimmati – oliy qadriyat

2.Vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usi – yuksak qadriyat

3. Iymon tushunchasi. Iymonli shaxs ma'naviy kiyofasi tushunchasi moxhyati

4.Tarixiy jarayonlarni anglash va yon atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga daxldorlik xissi.

5. Milliy o'zlikni anglashning mohiyati.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Tosh, "Ma'naviyat", 2008 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., Shark, 1999 y.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Xalq so'zi, 1999 y, 6 mart.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T., O'zbekiston, 2000 y.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «O'zbekiston», 2000 y.
7. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. T., O'zbekiston, 1994 y.
8. Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaatlari xar narsadan ulug'. Xalq so'zi, 1998 yil 11 noyabr.
9. Karimov I.A. Adolat xar ishda hamroximiz va dasturimiz bo'lsin. Xalq so'zi, 1998 yil 14 noyabr.
10. Karimov I.A. Biz fidoyi vatanparvarlarga tayanamiz. Xalq so'zi, 1993 yil 19 fevral.
11. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Tosh., O'kituvchi, 1997 y.
12. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. T., 1996 y.
13. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 2000 y.
14. Vatan va millat muqaddasdir. T., Ukituvchi, 1996 y.
15. Ibroximov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. Tosh., O'zbekiston, 1996 y.
16. B.Ochilova, Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. Tosh, Istiqlol, 2009 y.

Nazorat savollari:

1. Komil inson tushunchasini izoxlang?
2. Ma'naviy barkamol inson deganda nimani tushunasiz?
3. Sog'lom avlod Davlat dasturi haqida nimani bilasiz?
4. Komil insonning asosiy fazilatlari qaysilar?
5. Imonli diyonatli shaxsningma'naviy fazilatlari?

1-Masala bayoni. Istiqlol tufayli jumhuriyatimizda keyingi yillarda insonning shahsiy huquqlari, erkinliklari va qadriyatlarini muxofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Imzosiz xatlar yozish, bo'hton, tuhmat uyushtirish yo'li bilan kishilarni nohaq bezovta qilish, ularning qadr-qimmati va or-nomusiga tajovo'z qilishlar mamlakatimizda qonun yo'li bilan taqiqlangan. Asosli, adolatli tanqid uchun o'ch olishga harakat qiladigan shahslar, kimligidan qat'i nazar, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Vazifasini suiste'mol qilgan mansabdorlar g'ayriqonuniy xatti harakatlari uchun qonun oldida javob beradi.

Nog'ironlar, ruhiy kasalmand kishilar, mehnat qobiliyatini yuqotgan, boquvchisidan mahrum bo'lib qolganlar, yolg'iz ayollar, qariyalarning haq- huquqlari davlat yo'li bilan muxofaza qilinadi, ularga moddiy, ma'naviy yordam ko'rsatiladi. Bizda odamlarning shahsiy hayotlari, uy – joyining daxlsizligi, telefon so'zlashuvlari, yozishmalar, pochta va telegraf orqali jo'natilgan narsalarning sir saqlanishi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari fuqarolar or nomusi, qadr-qimmatini saqlash va muxofaza etishga muxim vazifalardan biri sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 57 moddasiga muvofiq fuqarolar o'z hayotlari va sog'liklariga, mulklariga va shahsiy erkinliklariga, or - nomuslariga va qadr-qimmatlariga tajovo'zlardan sud orqali ximoya qilinish huquqiga egadirlar.

Kishilarning turmush farovonligini oshirish, ularning talab ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish masalasida ham O'zbekistonda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Inson turmush farovonligini yaxshilashning eng asosiy masalalaridan biri ularni uy joy, ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi, radio va televideniye bilan ta'minlashdir. O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan bu borada dastlabki jiddiy qadamlar kuyildi. Qishloq aholisiga shahsiy xo'jaliklarni kengaytirish va uy joy qurish uchun yer va mablag'lar ajratildi, qurilish materiallari bilan yordam berildi.

Mustabid to'zum oliy qadriyat hisoblanuvchi inson va uning hayotiga ham jiddiy xavf solgan edi. Sir emaski, chorizm va bolshevizm mustamlakachilari maxalliy xalqning millatparvar ziyolilarini, atoqli davlat arboblarini, yetuk milliy qadriyatlarni birma bir qatag'on qilishdan mustamlakachilni tartiblarini saqlab turishning eng makkorona, tarix sinovidan o'tgan nozik yo'llaridan biri sifatida foydalandi. Katagonlik — milliy kadrlarni qiyratishga, xalqlarni qo'rqitib olishga, milliy ongi va g'ururining o'sishiga yo'l bermaslikka qaratilgan davlat siyosatidir.

20 yillarning oxirlaridan boshlab qatag'on qilish hamma joyga balo qazodek yoyildi. Kimda kim shubha ostiga olingan bo'lsa, aybi bormi, yuqmi, xaqmi yoki nohaqmi, so'rab surishtirib utirilmay yo'q qilinaverdi.

O'ta mash'um yillarda hyech kim o'zini xavfsizman, deb hisoblay olmagan, kechasi uyida tinch uxlay olmagan, kishilar noxaqdan «xalq dushmani», «millatchi», «josus», «yot unsur» degan tavqi la'natni olib turmaga tushgan. Odam odamdan qo'rqqan, bir biriga ishonmagan. Hamma ruhiy iztirob va dahshat ichida yashagan. Yejov va Beriya ayg'oqchilari istagan odamdan xohlagan paytlarida istaganlaricha «ayb» va «jinoyat» topib, yo'q aybni bor qilib, begunoh odamlarning taqdirini hal etganlar, o'n, o'n besh yilga qamatganlar, otishga hukm qilaverganlar. qamoqxonalarda odamlar chidab bo'lmas xaqorat va tazyiq ostida, qilmagan ishlarini qildim, deb bo'yinga olishga, qalbaki ko'rsatmalarga imzo chekishga majbur bo'lganlar. Bunday

daxshatli fojialar O’zbekistonni ham chetlab o’tmadi. 1937—1939 yillarida O’zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining «uchlik»lari (troyka) tomonidan 41 ming nafardan ko’proq kishi sudlandi, 6 ming 920 kishi otib tashlandi. Bunday bedodlik 50 yillarga qadar davom etdi. Umuman, 1939—1953 yillarda bitta bizning jumhuriyatimizning o’zidagina 61 ming 799 kishi qamaldi. Shulardan 56 ming 112 kishi turli muddat bilan ozodlikdan maxrum etishga xukm qilindi. 7 ming 100 kishi esa otib tashlandi»[24].

Sosializm bayrog’iga «hamma narsa inson uchun, insonning baxt saodati uchun» degan so’zlar yozib qo’yilgan edi. Amalda esa bu shior oddiy insonlar uchun emas, balki markaz va joylardagi raxbarlar manfaati uchun xizmat qilib keldi. Oddiy insonlar uchun sosializm yangi tashvish, yangi muammolarni tug’dirib, ular hayotini yanada murakkablashtirib yubordi.

Garchi so’zda, sosializm jamiyatda ishlab chiqarish vositalari xalq qo’lida, qashshoqlikka barham berilgan, deb aytilsa da, amalda esa kishilar o’z qo’li bilan ishlab chiqarayotgan mahsulotlardan foydalanish huquqidan maxrum qilinib, turmush darajalari yildan yilga pasayib ketaverdi.

So’zda sosializm chinakam demokratik jamiyat, unda kishilarning hamma erkinliklari va hukuqlarini ximoya qilish kafolatlanadi, ular fikr, mafkuraviy e’tiqodlarni ifodalash hamda uni tarqatish xukuqiga egadir, deb kelindi, amalda esa kishilar bundan ham mahrum qilindi. Oddiy mehnatkashlarning, ba’zi bir millatlar va ellatlarning haq huquqlari cheklab, butun butun xalqlar qatag’on qilindi. 1941 — 1946 yillarda Shimoliy Kavkaz va Qrim aholisi — Qalmoqlar, chechenlar, ingushlar, qarachoylar, qrim tatarlari va boshqalar zo’ravonlik yo’li bilan o’z yurtlaridan Sharqda tomon ko’chirildi. Ko’chirilgan musulmonlarning umumiy soni taxminan 3 million kishini tashkil qiladi. «Jazolangan» xalqlar vakillarining hisob kitobiga ko’ra ko’chirish chorida 1 millionga yaqin bolalar, ayollar, qariyalar, kasallar olamdan ko’z yumgan [25]. Majburan ravishda o’z xududlaridan badarg’a qilingan xalqlarga nisbatan asossiz ravishda cheklashlar joriy etildi, ularning barcha xaq huquqlari va erkinliklari kamsitildi. Bo’lar esa, o’tmishda ijtimoiy siyosiy qadriyatlarning ham oyoq osti qilinganidan dalolat beradi.

Qatag’on dahshatli dovuldek qanchadan qancha davlat arboblari, olimlar, madaniyat xodimlari, ziyolilarimizning gulini—eng saralarini birma bir supurib ketdi. O’zbek xalqining sevimli va ardoqli farzandlari Fayzulla Xo’jayev va Akmal Ikromovning taqdiri hammamizga ma’lum. Xalqimizning iste’dodli vakillari bo’lgan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Chulpon, Usmon Nosir, Elbek Shokir Sulaymon, G’ulom Zafariy, Sanjar Siddiq, A’zam Ayub, Muhammad Hasan va boshqalar qatag’on qurboni bo’ldilar.

Turg’unlik davri deb atalgan 70 yillar va 80 yillar boshlarida, keyinchalik 1984—1990 yillarda ham sodir bo’lgan qatag’onlik o’zining moxhyati va ko’lami jihatidan millatimiz boshidan kechirgan jabr jafolarning dahshatlisi edi. Bu davrlarda gap ayrim kishilarpi qoralash, qatag’on qilish ustida emas, balki butun bir millatni badnom etish, qadr qimmatini yerga urish ustida boradi. «O’zbek mafiyasi», «O’zbeklar ishi», «Paxta ishi», «Buxoro ishi» singari haqoratomo’z atamalar paydo bo’lganligini, o’zbek xalqi

[24] Ўзбекистон овози, 1991 йил 15 сентябрь

[25] Қаранг: Аргументы и факты, 1989 йил 5-сон.

peshonasiga o’g’ri, poraxur, ishyoqmas, tekintomoq degan tamg’alar yog’ishtirishga harakat qilinganligini aytmasdan o’tib bo’lmaydi.

Milliy o’zligimizni anglab olishimizga yo’l bermaslik maqsadida mustamlakachilar tomonidan olib borilgan zo’ravonlik siyosati natijasida milliy g’ururimiz, urf odatlarimiz, insoniy qadriyatlarimiz yerga urildi. Soxta baynalmilalchilik shovqinlari ostida xalqimiz xaq huquqi, erki, izzat nafsi, tili, tarixi, madaniyati tazyiq ostiga olindi. Oshkora zo’ravonlik ur yiqit, ta’qib va tazyikda, milliy xo’rlash va kamsitishga asoslangan mustabid siyosatning mash’um oqibati sifatida ba’zi odamlarda bora bora itoatkorlik karaxtlik tupog’ilik laqmalik ildiz ota boshladi. Xalq ichida alamonlashuv boshlandi. Mardlik va jasorat, hur fikr va g’urur, sadoqat va e’tiqod, iroda va qadriyat singari muqaddas tushunchalar kishilarda, ayniqsa yoshlarda asta sekin so’na boshladi. Milliy ruhga zimdan zarba berilaverdi. Ana shunday og’ir va murakkab bir sharoitda baxtimizga O’zbekistoi Respublikasi Davlat mustaqilligi e’lon qilindi. U yo’z yildan ko’proq vaqt davomida ezilgan, kamsitilgan, sha’ni va g’ururi yerga taptalgan xalqimiz ezgu niyatiii ro’yobga chiqarish uchun keng imkoniyat va sharoit yaratib berdi.

Aslida ham, Inson va uning qadri muammosi – falsafaning azaliy mavzularidan biridir. Odam zotining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o’rni, inson fazilatlari, shaxsiy xususiyati, to’g’risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida turgan. Fan sohasida odamning jismoniy to’zilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o’rganish hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa, shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma’naviy qiyofasi va kamoloti bilan bog’liq jihatlari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzot uchun o’ziga o’xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o’rni, qadri, o’tmishi va kelajagi bilan bog’liq muammolar, azal-azaldan eng asosiy tadqiqot va ko’zatish obyekti bo’lib kelgan.

Insonning o’zini qadriyat sifatida talqin qilish bilan, uning qadri va shaxsiy darajadagi qadriyatlar tizimi to’g’risidagi masalalar bir biridan farq qiladi. Bu borada uch xil yo’nalishda fikr yuritish mumkin, ya’ni:

-har bir inson, shaxsni – qadriyat sifatida qarash mumkin. Bundan insonning o’zi, uning tabiiy, tarixiy jarayondagi mavjudligi, tirik jonzotlar orasida yagona ijtimoiy vujud ekanligi e’tiborga olinadi. Bu boradagi tahlil aniq insonga qaratilgan bo’lib, uni maxsus tadqiqot mavzusining obyektiga aylantiradi.

-insonning qadri, ya’ni uni ijtimoiy jarayonlardagi o’rnini, atrof-muhit va boshqa kishilar uchun ahamiyatini, jamiyatdagi maqyei va boshqalarning tadqiq qilish ham mumkin. Bu boradagi tahlil insonning tarixiy-ijtimoiy ahamiyatini o’rganishga asoslanadi;

-shaxsning ma’naviy olami, qiyofasi, qiziqishlari, talab va ehtiyojlari, faoliyati bilan bog’liq qadriyatlar tizimini ham tahlil qilish mumkin, bunda asosiy e’tibor qadriyatlarning shaxsiy (alohida, yakka) darajada namoyon bo’lish shakllari va xususiyatlariga qaratiladi.

Inson tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xislatlar, sinflar va xususiyatlarga ega bo’lgan, ma’naviy-axloqiy jihatlarni qiyofasida aks ettirgan ijtimoiy mavjudod sifatida jamiyatdagi asosiy qadrli subyektdir. Shu bilan birga u, olamga ijtimoiy munosabatda bo’lish, odamlar bilan muomal va aloqaga kirishish, mehnat qilish asosiy moddiy va ma’naviy boyliklarni vujudga keltirish, tafakkuri, xis-tuyg’ulari, fikrlarini tili vositasida ifodalash kabi xususiyatlarga ega bo’lgan umumijtimoiy vujud hamdir.

Inson jamiyatsiz yashay olmaganidek, jamiyat ham insonsiz mavjud bo'lmaydi. Har qanday jamiyat o'zini tashkil qilib turgan qishilarning faoliyati, o'zaro munosabati va umrgo'zaronligi bilan tirikdir. Shu ma'noda inson- har qanday jamiyat bor bo'lishini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy elementdir. Bunday ta'minlanib turish insonning individual – shaxsiy ishtirok orqali, ya'ni biror guruh, qatlam, sinf, qavm, elat, xalq yoki millat doirasidagi faoliyati, amalga oshirgan ishlari, yaratgan boyliklari, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, xatti-xarakatining ahamiyati sifatida kamolotga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko'rinadi.

Odamzotning shaxsga aylanishi, o'z qadrini va o'zgalar qadrini anglash jarayoni o'zoq yillar davom etadi. Dastlab norasida go'dak uchun ona ko'kragi, suti, allasi eng asosiy qadriyat bo'lsa, ona qo'lidan tushgan, ana ko'kragidan ajralgan bola uchun esa, asta-sekin atrof-muhitga, o'zi yashayogan makon, o'zga kishilar va o'zi ham qadriyatga aylanib boradi. Bu davrda u o'z shaxsiy ehtiyoji va maqsadlarini o'ziga xos qadriyat ko'zgusi orqali ko'radi, o'ziga kerakli va zurur narsalarni muhayyo qilishlarini ko'proq hoxlaydigan, talab qiladigan bo'lib qoladi. Bolalar hayotining ko'pgina tadqiqotlari kamolotning bu muhim davrida (5-6 yosh) o'z qadrini oshirish va shaxsini sevish, ya'ni ularda bolalik egaizmi ko'proq mavjud bo'lishini ta'kidlaydilar.

Albatta inson ilk bolalik davrida qolib ketmaydi, ota-ona, qarindosh-urug', dastlabki o'qituvchilar uning qadriyatlar mezonini anglashida muhim o'rin tutadilar, shu tariqa inson kamolot sari boradi. Bu jarayonda yetuk shaxsga aylanish imkoniyati bo'lgan odamzot naslining har bir vaqtli oilaviy, ma'naviy-axloqiy. Milliy, ijtimoiy qadriyatlar ta'sirida tarbiyalanadi, shu bilan birga, uning shaxsiy jihatlari, qadrlanadigan sifatlari va xususiyatlari kamolotga yetib boradi.

Bu jarayonda shaxsning o'zi ham ijtimoyi qadrli vujud sifatida shakllanib, o'z qadrini namoyon qilib boradi.

Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarini takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, o'zgalar, jamiyat, zamon va undagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. "qarilik" iborasini insonga biologik ma'noda ishlatish mumkin, ammo bu tushunchani inson qadriga va qadriyatlariga nisbatan ishlatish nojoiz. Zero, qarilik qadrsizlanish bo'lmagani kabi yoshlik ham beqadrlik, degani emas!

O'z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma'naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to'g'ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. Ushbu ma'noda, Suqrotning "o'z-o'zingni angla!" – shiori g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. O'z qadrini anglashning obyektiv, ijtimoiy va shaxsiy tomonlari bir-biri bilan doimiy aloqadorlikdadir. Ular inson tabiatining turli jihatlaridir. Shaxsning qadri va yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy – tarixiy shart-sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Muhit va davr talablari shaxs qadrini shakllantirib, saiqallab boradi, uning o'z esa ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida, o'z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan naqadar aloqadorligi chuqurroq angla olish tomon boradi.

Hozirgi davrda muayyan kishining qadri qo'yidagilarga namoyon bo'lishi mumkin:

- tabiatga, tashqi olamda ro'y berayotgan jaranlarga nisbatan munosabati, ushbu jarayonlardagi o'rni va faoliyati;

-turli irq millat, ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan, rang-barang maqsadlar va qadriyatlarga intiladigan kishilarga munosabati;

-o'z-o'ziga, oila, turmush, jamov va jamiyatdagi o'rniga nisbatan munosabati;

-mehnat, ishlab chiqarish va iqtisod borasidagi jarayonlarda ishtiroki, jamiyatdagi moddiy ehtiyojlarni qondirish va moddiy boyliklarni yaratish jarayoniga qo'shayotgan hissasi;

-siyosiy o'zgarishlar, jamiyatni demokratiyalashtirishda qatnashishi, bu jarayonda qanday maqsadlarni ko'zlayotganligi;

-jamiyatda qaror topgan qadriyatlar tizimi tez o'zgarib ketgan hozirgi davrda qanday pozisiyani egallashi, o'zini qanday tutishini, bu jarayonda ishtirok etishi bilan bog'liq faoliyati;

-hozirgi davrdagi unversial texnologiyalar, ishlab chiqarish va boshqarish vositalarining zamonaviy talablariga hozirjavobligi, bu boradagi malakasi, qobiliyati va ko'nikmalarini takomillashtirish uchun amalga oshirayotgan xatti-xarakatlar;

-tabiiy barkamollik, jismonan sog'lomlik va iqtisodiy ta'minlanganlik borasidagi talab va ehtiyojlarni ma'naviy-axloqiy kamoloti va amaliy faoliyati bilan uyg'unlashtira olishi;

- ma'naviy barkamolligi, axloqiy kamoloti va nafasati, bilimi, qobiliyati, iste'dodi, iqtidori va ulardan qanday maqsadlarda foydalanayotganligi;

-o'zining shaxsiy, milliy, diniy, irqiy, sinfiy va boshqa sohalardagi manfaat va maqsadlarini, talab va ehtiyojlarini, intilish va faoliyatini umuminsoniylik talablariga moslashtira olganligi;

-mahdudlik, manqurtlik, maxalliychilik, millatchilik, xurofot va boshqa bid'atlarning mohiyatini to'g'ri anglab olganligi, ularga nisbatan munosabati va boshqalar.

Yuqoridagi jihatlarni xisobga olgan shaxs qadrini baholash va shu asosda aniq shaxslarning tiplarini aniqlash imkoniga ega bo'lish mumkin.

2-masala bayoni: Hozirgi davr mustaqil davlatlar jahon hamjamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi moddiy omillar bilan birga ma'naviy omillarning roli ortib borayotganligi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tezlashuvi bilan xarakterlanadi.

Mustaqil davlatning vujudga kelishi, xalqlarning milliy istiqlolga erishuvi xalqning milliy-vatanparvarlik hissiyotini, milliy g'urur,milliy iftixor tuyg'ularini yanada jo'sh urdirib yubordi. Mustaqil davlatlarda, xususan, O'zbekistonda fuqorolarning sifat jihatdan yangi vatanparvarligi qaror topdi. Bu-vatanparvarlik bilan insonparvarlikning omuxta bo'lib ketganligi bilan xarakterlanadi.

O'zini bilmagan, buyuk davlatchilik ruhi bilan sug'orilgan ayrim kimsalar jamiyat hayotidagi bu jarayonlarni millatchilik g'alabasi deb talqin qilishga urinmoqdalar. Prezidentimiz I.A.Karimov bu xususida shunday deydi: "O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi

va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarga, sharhlarda va muayyan xatti-harakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda"[1].

Buyuk davlatchilik shovinizmi nima? Uning hozirgi ko'rinishlari nimalardan iborat? "Tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo,mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin"[2].

Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emasliklikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari xarbiy imperiyalardir."[3]

Vatanparvarlik va millatchilik haqidagi nazariya va manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, uning murakkab ijtimoiy hodisa ekanini ko'ramiz. Masalan bu masalani buyuk mutafakkirlar ham hal qilolmaganlar. Fixte va Gegel ham vatanparvarlikni joziba kuchini, hayotiyligini unchalik aniqlab yetmaganlar. Shunga qaramasdan, ular vatanparvarlik mamlakatni birlashtiradi, deb hisoblaganlar. Fixte "Vatanparvarlik va uning aksi"degan maqolasida vatanparvarlikni fan taraqqiyoti bilan bog'lagan, fan bilan omuxta bo'lgan vatanparvarlik o'sha davrdagi tarqoq Germaniyani birlashtirishga yordam beradi, degan edi. Shu bilan birga u faqat nemislargina vatanni sevishga qobiliyatli deb, millatchilikka yo'l qo'yadi. Demak, Fixte vatanparvarlik bilan millatchilikni bir-biridan farq qila olmagan.

Gegel ham vatanparvarlik moxhyatini tushunib yetmadi. Gegel vatanparlikni ozodlikni bo'g'uvchi mutlaq davlatni tan olish bilan bog'lab tushuntiradi.

Vatanparlik-fuqorolarning Vatan oldidagi burchlarini anglashning tabiiy holati. Millatchilik-voqye'likning meyor doirasiga to'g'ri kelmaydigan, alohida g'ayritabiiy holati, o'z millatiga oid qadriyatlarga notanqidiy, nomunosib munosabatdir, boshqa millat qadryatlarini inkor etishdir.

Vatanparvarlik tabiatning ilmiy talqini unga umumdemokratik va umuminsoniy qadriyatlar sifatida qarashdan iborat. Ota yurtga muxabbat, yerni e'zozlash, ona tilini xurmatlash, millatning ilg'or madaniy an'analarini ko'z qorachig'ida asrashga intilish. Bu narsa vatanparlikning milliy-etnik jixatini tashkil etadi.

Vatanparvarlik tushunchasi davr o'tishi bilan shaklan va mazmunan o'zgarib borgan: mayda burjuaziya va proletar vatanparvarligi tarixan mavjud bo'lganligi sir emas.

O'zbekistonda milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi tamomila yangi hodisa-istiqlol vatanparvarligi ongini keltirib chiqaradi. Milliy ongning uyg'onishi, mamlakat boyliklari o'z egasini topishi, yangi mulkdor sinflarning vujudga kelishi bilan "shu vatan meniki", "yer va suvlar meniki"va xokazo hissiyotlar shakllana boshladi.

Kishilarga munosib turmushning yaratilishi, jamiyatning ijtimoiy muhofazaga daxldor qismini ijtimoiy himoya qilinishi kishilarda misli ko'rilmagan faollik, vatan ravnaqi himoyasi uchun jon fido qilishga tayyor bo'lgan ulug' bir ko'tarinkilik, istiqlolga yurtga yurtboshiga nisbatan chuqur mehru oqibatni vujudga keltirdiki,bu vatanparvarlikning yangi shakli,istiqlol vatanparvarligidir.

[1] И.А. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тош, "Ўзбекистон" 1997-йил.
[2] И.А. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тош, "Ўзбекистон" 1997-йил.
[3] И.А. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тош, "Ўзбекистон" 1997-йил.

Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-ikbol beradigan zamindir. Abdulla Avloniy aytganidek: «Xar bir kishining tugilib usgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Xar kim tugilgan, usgan joyini jonidan ortik suyar... Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortik suyganimiz kabi, arablar arabisonlarini, kumlik issik chullarini, eskimuslar shimol taraflar, eng sovuk kor va mo'zlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, xavosi yaxshi turonlik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab xijrat kilurlar edi.»[1]

Vatan-bu xalqning O'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan-muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi.

U insonning kindik koni tuqilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma'naviy kamolot va fukarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat uchogidir.

Inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambag'ali ham bo'lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in'om etilmaydi, karzga berilmaydi. Vatan xar bir fukaro uchun muqaddas va betakrordir. Prezidentimiz Islom Karimov keltirgan iboradek, «Vatan-sajdagox kabi muqaddasdir». Vatanni eng oliy ne'mat singari boshimiz o'zra baland kutarib, xar on va xar soniyada uning tuprog'ini ko'zlarga surtib, unga ta'zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir. Muqaddas xadisi shariflarda «Vatanni sevmok iymondandir», deyilgan. Ya'ni iymoni but, vijdoni pok xar bir inson vatanni sevadi, uni ganimlar ko'zidan asraydi, uning yashnashi va yashashi, xurligi uchun kurashadi.

Vatan mehrini, vatan sexrini, uning mu'tabarligiyu ulug'vorligini so'z bilan ifodalash kiyin.

Xar bir barkamol inson vatan kamoloti va isikboli, el-yurtining ozodligi va Mustaqilligi uchun hamma narsani, xatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fo'zuliyning, mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo'lgan takdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim, deb aytgan so'zlari xar birimiz uchun bebaxo ugitdir.

Shurolar davrida milliy manfaat, vatanga, ona zaminga mehr-muxabbat degan xis-tuyg'ular asa-sekin suna boshladi. «Vatan» tushunchasi mavxum bir umumiy xolga kelib qolgandi. Hamma narsa-«Umumsovet» manfaatiga qaratilgandi. Xar bir millat, xalq ming yillardan beri yashab kelayotgan o'z vatani uchun kaygurishga xakli emasdi.

Oxir oqibat shunga yetdiki, sobiq Sovet davrida bu mamlakatda yashayotgan xalqlar, shu jumladan o'zbeklar ham o'z vatanida bevatan bo'lib yashashga majbur bo'ldilar. Buni O'zbekiston xalq shoiri Erkin Voxidov «Vatan umidi» she'rida shunday ifodalaydi:

Agarchi ismim Erkin,
Erki yo'q, bandi kishan bo'ldim.
Ko'zim bog'liq, dilim bog'liq,
Tilim yo'q, besuxan bo'ldim...
Muazzam Sayxunu Jayxun -
Labida tashnalab koldim,
Kiyintirdim jaxonni,

[1] Э.Умаров, М.Абдуллаев. Маънавият асослари. Тош, "Чўлпон" 2006-йил.

Jismim uryon, bekafan bo'ldim.
Chekubdur Boburu Furkat
Vatan xajrida afgonlar,
Men ersam, ne gurbatkim,
Vatanda bevatan bo'ldim.
Olisda, ox diyorim deb
Sog'ingan, ey vatandoshim,
Dema sen, o'zni bebaxt,
Baxti yo'q aslida man bo'ldim...

Inson uchun na davlat va saltanat, na toju taxt, xech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng kelolmaydi. Vatandan judolik-inson uchun katta baxtsizlikdir.

Inson isagan joyda bir parcha nonga kornini tuygazishi mumkin. Lekin Vatanning o'rnini xech narsa bosolmaydi. Vatanda yashash haqikiy baxtdir.

Mustaqillik tufayli biz o'zimizning haqikiy vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne'matidir. Vatani Mustaqil xalqning o'zi ham Mustaqil bo'ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o'z qulida bo'ladi.

Tarix o'zbek xalqining xozirgi Siz kabi avlodi zimmasiga g'oyat buyuk vazifani yo'qladi. Bu Vatanimiz kuch-qudratini musaxkamlash, uning dovrugini olam o'zra yoyish, shuxratiga shuxrat qushishdir. Bunda esa vatan, Prezidentimiz aytganidek, Siz kabi fidoyi vatanparvarlarga tayanadi. Xar birimiz o'zimizning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatimiz, halol mexnatimiz bilan o'zimizdan keyingi avlodlarga ozod va obod vatanni koldirishimiz kelgusi avlodlar, nasl-nasablarimiz oldidagi burchimizdir.

Milliy mustaqillik - xalqimizda, ayniqsa usib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuyg'ularining tiklanishida muxim ahamiyat kasb etdi. Xozirda vatanparvarlik o'zining kanday kirralari bilan namoyon bo'layotirg' Vatanparvarlikning mohiyati nimalarda, kanday amaliy ishlar faoliyatida namoyon bo'ladig' Umuman vatanparvarlik nima, uni kanday tushunmok kerak, u haqda donishmandlar nima deganlar. Qo'yida ana shular haqida baxs yuritmokchimiz. Avvalo, xozirgi o'zbek vatanparvarligi ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O'zbekistonga xozir xar dakikada ulush qushmok, vatanga muxabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoklash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishi, qirrasi.

Vatanparvarlikni eng oliy tuyg'u sifatida O'tmish mutafakkirlari alohida qayd etganlar va o'zlari ham unga sodiq qolganlar. Endi ana shu qaydlardan ba'zilarini eslab utamiz.

Siseron (rumo notigi va faylasufi). Bizga ota-onalar, bolalar, yakin xesh-akrobalar qimmatlidir, lekin muxabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so'zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, kaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikqilanar ekan!

Gegel (nemis faylasufi). Ma'rifatli xalqlarning haqikiy jasorati Vatan yo'lida kurbon bo'lishga xozir ekanliklarida aks etadi.

Bayron (ingliz shoiri). Kimki o'z yurtini sevmasa, u xech nimani seva olmaydi.

Belinskiy (rus tankidchisi). Kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas.

Gyugo (franso'z adibi). O'z vataniga dog' tushirish - uni sotish degan so'z.

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jush uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muxabbat xissi odamning qalbida tabiiy ravishda tugiladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muxabbat tuyg'usini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz kanchalik chuqur bo'lsa, tugilib usgan yurtga muxabbat ham shu kadar cheksiz bo'ladi»[1].

Vatanparvarlik deganda esa yana qo'yidagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- kadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z korachigiday asrash va avlodlarga takdim etish;
- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;
- ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;
- shunday ajoyib xalqka, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;
- Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi koni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan baxodirlarni, ayovsiz janglarda xalok bo'lgan kaxramonlar nomini yod etish;
- asrimizning yigirmanchi, uttizinchi, kirkinchi, elliginchi va nixoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan katagonlarda kamok va surgun azoblarini boshidan kechirgan va xalok bo'lgan minglab millatimiz gullarini uno'tmaslik;
- bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tikod bilan yashash, unga hamisha sadokatli bo'lishdir.

Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z korachigiday asrash, boyliklariga boylik qushishga o'z ulushimizni qushish, ilm-fan chukqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida xissa qushish:

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;
- vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi uringa qo'yishdir.

Vatanparvarlik haqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so'zlamasdan iloj yo'q. Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan musaxkam urin olayotganligi nixoyatda kuvonchlidir. O'zbekiston respublikasining Davlat bayrogi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgoxi oldida 180 tadan ortik Mustaqil davlatlar bayroklari katorida magrur xilpirab turishini qurish va xis etish nakadar katta baxt, insonni nakadar kuchli bir xissiyotga chulgab oladi... Prezidentimiz Islom Karimov juda to'g'ri ta'kidlab o'tganidek: «O'zbekiston fukarolari uchun mustaqillikning muqaddas

[1] И.А. Каримов. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Тош, "Ўзбекистон" 2000 йил. 22-бет

ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayrogi, Davlat Madxiyasi azizdir. Ular ona vatan - O'zbekiston respublikasiga iftixor va cheksiz xurmat tuyg'usini tarbiyalaydi»[1].

Davlatimiz mukofotlari -«O'zbekiston kaxramoni» oliy unvoni, orden va medallar, faxriy unvonlar ham mamlakatimiz fukarolarida o'z Vatanidan g'ururlanish tuyg'ularini oshirishga xizmat qiladi.

O'z milliy valyutamiz sumimiz ham vatanparvarlik ramzidir.

Xullas, Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «O'zbekiston-muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan yer, o'zimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadokat ruxida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning xar karichiga mehru muxabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustivor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni kuvontiradi»[1].

Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg'undir. Vatanparvarlik uchun intilish, vatanparvarlik uchun kurashning zaminida insonparvarlik yotadi.

Mustaqil respublikamiz fukarolari, xususan yoshlari ruxiyatida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli va xuquqiy jamiyatni barpo etishning muxim kafolati sanaladi. Shuning uchun vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shaklantirish butun tarbiyaviy ishimizning muxim yunalishlaridan biri bo'lib kolmogi lozim. O'z millatiga sadokatli bo'lish millatparvarlik bilan hamoxang tushunchadir. Millatparvarlik bu xar bir inson uchun yuksak burch sanaladi. O'z millatini sevmagan inson o'zini ham, Vatanini ham seva olmaydi. Millatparvarlik o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish yoki kamsitish kabi (millatchilik va shovinizm) jirkanch harakatlardan tubdan farq kiluvchi tuyg'udir.

Millatparvarlik o'z millatining birligini musaxkamlash, o'z tili, urf-odatlari, an'analarini rivojlantirish, qadriyatlar va meroslarni ko'z qorachigiday asrash, o'z millatining kelajagi uchun xizmat kiluvchi akl-zakovat (intellektni), salohiyatni (potesial) rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirish yo'lida fidoyi bo'lishdir.

Milliy o'zlikni anglashning muxim omili bo'lgan millatparvarlik tuyg'usini shakllantirishda yakin O'tmishda millatimiz manfaatlarini ko'zlab millatparvarlikning yorkin namunasini ko'rsatgan millatimizning sodiq farzandlari amalga oshirgan ishlarni tashvikot qilish katta ahamiyatga ega. Bugun F. Xujayev, A.Ikromov, A. Kodiriy, U.Nosir, A.Fitrat, I.Muminov, X.Abdullayev, Sh. rashidov kabilarning nomlari millatparvarlikni o'zida yorkin mujassam etganligini yoshlarga tushuntirishimiz lozim. Ularning xar biri Shurolar to'zumining eng murakkab, eng kiyin sharoitida millatimizning manfaatini, qadr-qimmatini, or-nomusini, tarixini, madaniyatini va ma'rifatini himoya kildilar. Millatimizning Mustaqilligi uchun jon fido etdilar. Ulardan birlari millatimiz sharafini himoya qilibgina kolmay, uni jaxon o'zra ko'z-ko'z qilishda o'zlarini ayamadilar. Yana birlari esa ona zaminda millatimiz orasidan ulkan qadrlar yetishib chiqishiga jonbozlik ko'rsatdi, boshqa birlari esa, yurtimizdan tashib ketilgan xomashyolar o'rnini tulgizish uchun markazdan ko'prok texnika, texnologiya, fan yutuklarini, mablaglarini olib kelish yo'lida faollik ko'rsatdi.

---

[1] С. Отамуродов, С.Хусанов, Ж.Раматов. Маънавият асослари.. Тош, А.Кодирий номидаги "Халқ мероси" нашриёти 2002 йил. 164-бет

[1] С. Отамуродов, С.Хусанов, Ж.Раматов. Маънавият асослари.. Тош, А.Кодирий номидаги "Халқ мероси" нашриёти 2002 йил. 165-бет

Bugun Mustaqil O’zbekistonning jaxonda o’z munosib o’rnini topishi, millatimizmining qadr-qimmatini joyiga qo’yish ona zaminda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari bilan barqaror rivojlanish yo’lida faoliyat ko’rsatayotgan O’zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomi millatparvarlikning yorkin ifodasi sifatida xalqimiz qalbidan chuqur urin olgan.

3-masala bayoni: Insonning chin ma’nodagi insonligi - uning iymoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi va halolligi, kamtarligi va boshqalar bilan ulchanadi. Buni biz umumiy tarzda insoniylik tushunchasi bilan ifodalashimiz mumkin. Insoniylik esa faqat iymonli insonlardagina bo’ladi. Biz bu urinda hamma kishilar uchun umumiy tarzda tegishli bo’lgan masalalar usida baxoli qudrat fikr yuritamiz. Agar biz iymon tushunchasining mohiyatini to’g’ri anglab, tushunib olsak, iymonni izoxlovchisi bo’lgan diyonat, mehr-oqibat, poklik va halollik, kamtarlikning ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat iymonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat yo’lida bo’ladilar. Shuning uchun ham mazkur masalada iymon tushunchasini, uning mohiyatini keng kamrovli asosda bayon qilishni maqsadga muvofik deb bildik.

Iymon arabcha so’z bo’lib, lugaviy ma’nosi - ishonch demakdir. Shariatda esa janob paygambarimiz Muhammad alayxissalom Olloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan ikror bo’lib, dil bilan tasdiklashga iymon deyiladi. Ya’ni Qur’oni Karim va Xadisi Shariflar orkali Olloh to’g’risida, jannat, do’zax, kiyomat kabilar haqida berilgan xabarlarga ishonch - iymondir.

Ma’naviy-ahloqiy fazilat sifatida esa iymon faqat odamzotgagina xos ruxiy xodisa jumlasiga kiradi. Inson, odamzotdan tashkari xech bir maxlukotda iymonning o’rni-tagi ham yo’q. Binobarin, odamzot jamiki boshqa jonzotlardan biron bir narsaga ishonib, uni muqaddas deb bilishi, ya’ni iymon keltirishi bilan ajralib turadi. Iymon kishi ma’naviyatining, ahloqining uk ildizi, poydevori, negizidir. Iymondan maxrum kimsaning akli nechogli utkir, irodasi nakadar chung bo’lmasin va shular tufayli o’zligidan kanchalik magrurlanmasin, u chinakam insonlar katoriga xech kachon kiritilmagan, kiritilmaydi ham. Zero, iymonsiz odam na Ollohdan kurkadi va na bandalardan uyaladi. U o’z nafsining itoatkor quli bo’lib, xar kanday razolat va paskashliklardan kaytmaydi. Olloh hammamizni shundan asrasin. Buning uchun iymon yo’lini tutishimiz lozim.

Iymonning mohiyati azaldan olam va odamzotning kelib chiqishi, odamning olamdagi o’rni kanday, inson umrining ma’nosi nimada, zoti bashar nimaga da’vat etilgan, u nimalarga kodiru, nimalarga nokodir singari muammolar tashkil etib keladi.

Hamma dinlarda iymonga alohida e’tibor beriladi. Iymon barcha dinlarning ustuni sanaladi. Chunonchi, zardushtiylik iymoni uch tayanchga: niyat-fikrning sofligiga, so’zning sobitligiga, amallarning insoniyligiga suyanadi. Iymonli kishi ugrilik va talonchilikdan, o’zgalarning mol-mulkiga ko’z olaytirishdan, birovnig haqiga xiyonat qilishdan, boshqacha aytganda, o’zligiga, ya’ni o’z iymoniga xilof, zid ish qilishdan o’zini tiya biladigan komil insondir. Iymonli odamga yuqorida qayd etilgan xodisalarni kilma, gunox bo’ladi deb targib qilishning xojati yo’q.

Bundan 1400 yil muqaddam Ollohning irodasi bilan Muhammad alayxissalom faoliyatlari tufayli bunyodga kelgan islom ta’limotiga kura, iymon mohiyatini Qur’oni Karimning qo’yidagi surasi ochib beradi: «Amantu billaxi va malaikatixi va kutubixi va rosulixi val yavmal oxiri va kodari xayrixi va sharrixi minalloxi taolo val ba’si ba’dal

mavt xaqqun. Ashxadu alla ilaxa illalloxu va ashxadu anna Muhammadan abduxu va rasulux»[1]. Mazkur suraning ma'nosi esa taxminan shunday: «Chin kunglim ila iymon keltirdim: Ollohi taologa va uning farishtalariga va uning kitoblariga va uning paygambarlariga ham bu dunyo yo'q bo'lib oxirat kuni bo'lmogiga va kadarga, ya'ni yaxshi va yomon ishlar xar kaysisi iloxi taolodan bo'lmokligiga va ulgandan sung kabrdan tirilib va bo'larning hammasi haqikat ekaniga. Dilim birla guvoxlik berurman, albatta Ollohdan o'zga xech ma'bud yo'qdir. Yana guvoxlik beraman, albatta Muhammad Ollohi taoloning bandasi va barcha bandalariga din axkomlarini urgatmok uchun yuborgan paygambaridur».

Xozirgi kunda Yer yo'zida diniy iymonning bir talay turlari bo'lib, jaxon axllari aro keng taralgani turttadir: buddaviy iymon, iudaviy iymon, isoviy iymon, islomiy iymon. Bu iymon turlari mazmun jixatdan farqlansa-da, ammo mohiyatan birdir. U ham bo'lsa, biron-bir narsa va g'oyani benixoya sharifu muqaddas, azizu mukarram bilib, kundalik faoliyat va xulk-atvorda ana shu e'tikoddan kelib chiqib, xatti-harakat qilishdan iboratdir. Binobarin, jamiki iymon turi kishi amaliy faoliyat va xulk-atvori dasturi sifatida namoyon bo'ladi.

Diniy iymon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yo'zaga kelgan dunyoviy iymon ham bor.

Dunyoviy iymon mazmunini olam va odam haqida sunggi ikki yarim ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mexnat axlining tuplagan hayot tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy iymonning o'zagi odamiylikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, kirralar, jixatlar g'oyat turli-tumandir. Odamiylik deganda xalqimiz o'zoq tarixi davomida turli sinovlardan utib saykal topib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ahloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi. Odamiylik g'oyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlari hamda an'analariga, uning mislsiz boy ogzaki va yozma ijodiga, mumtoz adabiyotimiz va san'atimizga singib ketgan bo'lib, xozircha chuqur urganilib umumlashtirilgani yo'q. «Odam bo'lish oson, odamiy bo'lish kiyin», «Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l», «O'zingga ravo kurmaganni boshqaga ravo kurma», «Yomon o'z gamida, yaxshi - el gamida» singari xikmatlarda ajdodlarimiz ardoklagan insoniylik qadriyatlarining bir zarrasigina aks etgan, xolos.

Diniy va dunyoviy iymonning mohiyatida andak tafovut bo'lsa ham, ularning mazmuni va shaqliy to'zilishi bir xil. Chunonchi, diniy iymonda ko'prok Ollohga, dunyoviy iymonda esa odamiylikka, chin insoniylikka urgu beriladi. Ularning xar ikkovi ham aslida kishini chinakam, bosh xarflar bilan yoziluvchi INSON bo'lib tarbiya topishiga qaratilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, musamlakachilik va qaramlik, katagonlik yillari xalqimizning ming yillar davomida tarkib topgan ham diniy, ham dunyoviy-ahloqiy iymoniga kakshatgich zarba berildi. Olis moziydan kuvvat olib tobora ravnak topib kelayotgan diniy iymon nazariy jixatdan kommunisik mafkuraning ashaddiy dushmani deya e'lon etilib, amaliy jixatdan ayovsiz ta'kib va tazyik osiga olindi, turli yo'llar bilan taxkirlandi, iymoniga sodiq bo'lgan minglab dindorlar, avvalo, ruxoniylar jismonan yo'q qilib yuborildi.

[1] С. Отамуродов, С.Хусанов, Ж.Раматов. Маънавият асослари. Тош, А.Кодирий номидаги "Халқ мероси" нашриёти 2002 йил. 167-бет

Dunyoviy iymon esa mash’um sinfiylik mezoniga solinib soxtalashtirildi, bo’zib talkin etildi. Oqibat shunga olib keldiki, xatto eng yakin tugishganlar, ya’ni ota-ona, ona-bola, aka-uka, opa-singillar, hamma-hammasi bir-biriga ashaddiy dushman qilib qo’yildi. 70 yil mobaynida kishilarimiz ham diniy, ham dunyoviy iymoniga zid gayriinsoniy ruxda tarbiyalanib keldi. Millatimiz kishilari orasida o’z iymoniga qarshi zamona zuravonlariga yaltoqilik, xushomadguylik, chakimchilik, ta’magirlik, poraxurlik, girromlik, xiyonatkorlik, riyokorlik, xullas til bilan dilning, dil bilan amalning boshqa-boshqaligi, iymoniga zid singari ahloqiy illatlar bolalab ketdi. Diniy va dunyoviy iymon mayib-majrux xolatga keltirildi.

Iymon kishilik hayotida shu kadar xal etuvchi mavkega egaki, usiz chin ma’nodagi din ham, ahloq ham, inson ham, demakki jamiyat ham bo’lmaydi.

Yuqorida aytganimizdek, dunyoviy iymonda ko’prok inson ahloqidagi odamiylikka Urg’u beriladi. Kundalik hayotda iymon so’zi keng qullaniladi. Bunda ko’prok dunyoviy iymon ma’nosi ko’zda tutiladi. Chunonchi xalqimizda ayrim kishilarning o’ta ahloqsizlik xatti-harakatiga nisbatan «iymonsiz» degan xakoratomo’z ibora ishlatiladi. Bu xakorat zamirida Ollohga ishonch-e’tikodi yo’q, xudodan, dindan kaytgan, xudosiz ma’nolaridan tashkari vijdonsiz, vijdonfurush, yaramas, razil, diyonatsiz kabi dunyoviy iymon ham aks etgan. Bu shunday ashaddiy diniy va dunyoviy xakoratki, O’tmishda shu xakoratga asossiz duchor bo’lgan oriyatli kishilar xakorat etuvchi kimsa usidan koziga shikoyat qilishgacha borgan. Iymoni yo’q kishilar esa maxalla-kuyda, yakin kishilari orasida la’natlangan xisoblangan, unday kishilar bilan muomala qilinmagan, oxir-oqibatda oriyati dosh berolmasa kuchib ketishgacha borilgan...

Bizningcha, zamondoshimiz bo’lmish odamlarni, Siz kabi yoshlarni iymonli sifatida qo’yidagicha tavsiflashimiz mumkin: e’tikodli, o’zining anik maslagiga ega, takvodor, hamiyatli, oriyatli, or-nomusli, sharm-xayoli, vijdonli, andishali, insofli, kamtarin, halol va pok, to’g’ri so’z kabi fazilatlar soxibidir.

Demak, insoniylikning muxim shartlari - diyonatlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollikni iymon tushunchasi o’z ichiga oladi. Chunki, faqat iymon soxibi bo’lgan insondagina diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik bo’ladi. Iymonsiz kishilardan uni kutish mumkin emas. Ana shu va boshqa fazilatlar bo’lmagani uchun ham ba’zi odamlarga nisbatan iymonsiz so’zini ishlatamiz.

Endi iymonlilikning ba’zi kategoriyalarini qisqa izoxlashga utamiz. Ularning mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyatini chuqur anglab olmoklik va o’zimizning kundalik xatti-harakatimizda amal kilmoklik bizni xar damda yuksak insoniylikka, komillikka tomon eltadi, demakki iymonimiz musaxkamlana boradi. Iymonning boshi-takvo. Takvo-xar noto’g’ri ishga qul urishda-Ollohdan kurkish, yomon ishlardan saklanish. Ollohdan kurkuvchi banda oilada, jamiyatda halol yashaydi, xaromga qul urmaydi, oxiratda javob berishini uylab, birovning haqiga xiyonat kilmaydi, to’g’ri bo’ladi, poraxurlik kilmaydi, kasamxur bo’lmaydi, birovni aldamaydi, yolgon gapirmaydi, kishilarga, vatanga xiyonat kilmaydi va boshqalar. Iloxi hammamizga ham takvodor bo’lish nasib etsin. Bu o’zimizga bog’liq. Sharm-xayo ham iymonlilik belgisi sanaladi. Sharm-bu so’z xar bir odamning nojuya, yomon xatti-harakatlardan o’zini tiya olish, uyalish xissi. Xadisi shariflarda aytilishicha, odam, eng avvalo o’zidan uyalishi kerak. Nojuya, yomon kilmishi, xatti-harakati uchun o’zidan uyalgan odam o’zgaga ham nojuya xatti-harakatni ravo kurmaydi. O’zidan uyalmagan odamda sharm

bo’lmaydi. Demak, sharm odam o’z nojuya harakati uchun o’z vijdoni, diyonati oldida javob berish xissi, desak bo’ladi.

Xayo-bu o’zbekcha uyat demakdir. Xayosiz, bexayo deyilganda, uyatsiz ish qilganda xijolat chekmaydigan, odob-ahloqsiz kishi tushuniladi. Xayo erkak kishiga nisbatan ayollarda tabiatan ko’prok bo’ladi. Erkak kishi bemalol aytadigan ba’zi so’zlarni, ayollar turli andisha va uyalish tufayli ayta olmaydilar, xayo ularga yo’l bermaydi. Xayoli bo’lish, bu faqat uyatli so’zni aytmaslikda emas. U bundan ham kura kengrok ma’no va mazmunga ega. Sharm-xayoli bo’lish insonni xayvon singari tubanlashib ketishdan saklaydi. O’z nojuya xatti-harakatidan uyalish xissi faqat odamlargagina xos xususiyat. Farzandlarimizni sharm-xayoli qilib tarbiyalash oiladan boshlanadi. U milliy tarbiyaning muxim jixatini tashkil etadi.

Iymonli bo’lishning belgilaridan biri or-nomus xisoblanadi. Or qilish odamning o’ziga nomunosib yoki ep kurmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg’usidir. Or yana biror narsadan xazar qilishni ham bildiradi.

Oriyat esa or-nomusdan tashkari izzat-nafs, qadr tuyg’usidir. Odatda oriyatli odamlar o’zlari va oilalarining, tugishganlarining izzat-nafsi, qadri, xurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, xakorat qilinishi va xurmatsizlanishiga loqaydlarcha qarab turmaydi, turolmaydi.

Nomus-bu iffat, bokiralik ma’nolaridan tashkari kishining o’z mavkeini saqlash, ulug’lash va ardoklash, xijolat tortish tuyg’usini, oila va ajdodlar sha’niga dog’ tushirmaslik ma’nosini ifodalaydi. Ko’pincha, biror kishini, uning oila a’zolarini, ajdodlarini noxak xakoratlasalaru, u kishi bunga beparvo, loqaydlarcha tursa, undaylarga qarata senda or-nomus, oriyat bormi o’zi, deb xitob qilinadi. Bizning ota-bobolarimiz, xalqimiz kadimdan or-nomusli, oriyatli bo’lib kelgan, shuning uchun ular o’z yurtini, uning tuprog’ini, onalari va farzandlarini boshqa bosqinchilar tomonidan toptalishini o’zlari uchun or deb bilganlar. Ko’rinadiki, or-nomus, oriyat mohiyatida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg’ulari yashirinib yotadi.

Iymonli bo’lishning yana bir belgisi odamning diyonatli, vijdonli bo’lishidir. Diyonat va vijdon bir-biriga yakin tushuncha. Diyonat va vijdon odamlardagi insof tuyg’usiga hamoxangdir. Diyonat va vijdon kishining kundalik faoliyati, kilmishi, fe’l-atvori uchun avvvalo o’zi oldida, kolaversa oila, jamoat, jamiyat va vatan oldida ma’naviy mas’uliyat xis etishidir. Vijdonli, diyonatli kishi noxak, adolatsiz ishlardan g’azabga keladi, ularga qarshilik bildiradi; o’z faoliyatining yaxshi tomonlaridan qanoatlanib xursand bo’lsa, yomon tomonlaridan norozi bo’lib, ruxan eziladi, vijdon azobiga uchraydi. O’zini bilgan odamga vijdon azobidan ogirrok jazo yo’q. Shuning uchun xalqimizda vijdon azobi gur azobi degan maqol bor. Bu maqolning tagida chuqur ma’no yotadi.

Mehr-shafqatlilik ham iymonning belgilaridan biridir. Yuqoridagilar kabi mehr-shafqat ham xalqimizga xos xususiyat sanaladi. Mehr-shafqat odatda yetim-yesir, karovsiz qolgan kariyalar, gariblarga, nogironlarga nisbatan moddiy va ma’naviy yordam ko’rsatish tuyg’usi, desak bo’ladi. Bizning Mustaqil respublikamiz raxbariyati ota-bobolarimiz udumini davom ettirib, bozor munosabatlariga utish sharoitida ota-onasiz, karovsiz qolgan bolalar va xech kimi yo’q kariyalar, shuningdek nogironlarga nisbatan yuksak mehr-shafqatlilik namunasini ko’rsatayotir.

O’zbekiston mustaqillikka erishgan shu kunlarda odamlarda, ayniqsa yosh avlodda poklik va halollik odobini mustaqillik ruxida shakllantirish vazifasi turibdi.

Insonning insonligi uning pokligi va halolligi bilan ulchanadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz hamisha pok va halol bo'lishga da'vat etib kelishgan, halol bilan xaromni farqlash to'g'risida nasixat qilishgan. Bu musulmon odami, xususan o'zbek xalqi ahloq-odob qonuniyatining asosini, boshqacha aytganda iymonning negizini tashkil etadi. Poklik va halollik esa iymonning asosiy belgilaridan biridir. Poklik va halolliksiz iymonli bo'lish mumkin emas. Iymonli bo'lishning o'zi esa insonning pokligi va halolligiga yugrilgandir. Pok va halol bo'lmagan odamdan ezgulik chikmaydi, unda mehru-shafqat, oriyat, nomus, sharm va xayo bo'lmaydi. Ko'rinadiki, iymonning barcha belgilari asosida poklik va halollik yotar ekan. Mana shuning uchun ham bizning ota-bobolarimiz poklik va halollikka alohida e'tibor berganlar.

Halol bu insonlar uchun ruxsat qilingan yaxshi, ijobiy ishlar, xatti-harakatlar majmuasidir, mexnat evaziga topilgan narsalar, shuningdek pok va toza oziq-ovqatlar sirasidir. Halollikning yanada kengrok ma'nodagi jixatlari bu turmushdagi halollik, o'zaro muomala-munosabatdagi halollik, jamoa orasidagi halollik, savdo-sotiqdagi halollik, do'stlar urtasidagi halollik va shu kabilardir. Yuragi, qalbi pok va toza, halol yo'ldan yurgan insonlar hamisha xotirjam bo'ladi, kungli ravshan, doimo sixat-salomat yuradi. Xorazmlik komusiy olim, buyuk alloma Maxmud az-Zamaxshariy bu haqda shunday deb nasixat qiladi: «Halol va pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa xalokatga giriftordir».

Hayot, asosan oiladan boshlanadi. O'zbek xalqida «qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql bor. Demak, ota-ona pok va halol bo'lsa, farzandi ham shu ruxda kamol topadi. Farzanddagi yaxshi fe'l va amallar halol lukmadandir.

Xulosa shuki, poklik va halollik iymonli bo'lishning asosiy shartidir. Insondagi yaxshi yoki yomon illatlar uning iymoniga, ya'ni pokligi va halolligiga bog'liq. Inson iymonining pokligiga doimo shayton raxna solib, uni yo'ldan adashtirmokchi, noshar'iy yo'llarga solmokchi, halollik, poklik yo'lidan urmokchi bo'lib qalbida gulgula uygotishga harakat qiladi. Shuni yaxshi esda saqlashimiz kerakki, poklik va halollik yonida doimo uni shu yo'ldan ozdirmokchi bo'lgan shaytoniy vasvasa hamrox bo'lib yuradi. Ozgina iymon yo'lidan toyilishga moyillik bo'lsa, usha yerda darrov shaytoniy xissiyot bosh kutaradi va oxir oqibat inson qalbini zabt etishga intiladi. Shuning uchun doimo iymon, poklik va halollik yo'lida xushyor turishimiz kerak. Bu, ayniqsa bozor munosabatlariga utish davrida nixoyatda zarur.

Yuqorida iymonli odamning asosiy belgilari usida fikr yuritdik. Ularning xar birini inson uchun bir bezak, deb bilmok kerak. Shu urinda inson uchun nixoyatda zarur bo'lgan boshqa bir bezak usida tuxtab o'tmaslikning iloji yo'q. Busiz inson barkamol bo'la olmaydi. U ham bo'lsa kamtarlik belgisidir. Kamtarlik odamni bezaydi, obrusini oshiradi, do'stlarini ko'paytiradi.

Kamtarlik-inson ichki ma'naviy dunyosining namoyon bo'lishidir. Agar insonning konida, qalbida yumshoqlik, saxovat, odob-andisha, sharm-xayo, or-nomus, oriyat bo'lmasa, ming harakat qilmasin, baribir, odamlar ko'ziga kamtar bo'lib ko'rina olmaydi.

O'zbek xalqi urf-odatida, milliy qadriyatlarimizda takabburlik kiluvchilar, firibgarlar, maktanchoklar, manmanlar keskin koralanadi. Kamtarga kamol, manmanga zavol, degan ugitlar bexikmat emas.

4-masala bayoni: ***Tarixiy jarayonlarni anglash va yon atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga daxldorlik xissi.***

Daxldorlik ma'naviy fazilat. Inson daxldorlik tuyg'usi orqali o'z fenomenini namoyon qiladi. Boisi inson jamiyat va mamlakat hayotiga nisbatan daxldorlik tuyg'usi bilan yondoshar ekan o'zidagi betakror ma'naviy fazilatini ifoda etadi. Jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirish jarayonida ham shaxsdagi daxldorlik ahamiyati beqiyos.

Shuning uchun ham, muhtaram Yurtboshimiz jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni haqida shunday ta'kidlaydi: "Agarki mendan, hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqyeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo'lardim.Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hyech kimga hyech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi".

Odam bolasi olloh bergan ne'matlarning eng oliyi bo'lgan hayotga nisbatan befarq bo'lishga, atrofidagi narsa-buyumlarga, voqyea-hodisalarga loqaydlik bilan munosabat bildirishga haqqi bormikin? Kurrai zamin ichra birgina yer sayyorasiga tiriklikning hadya etilgani hazrati insonga bo'lgan yuksak e'tirofning namunasidir. Shu o'ylar asnosida savol tug'iladi, inson bolasi haqiqatdan shu qadar buyukmi, u sahovatining chegarasizligi, bag'rikengligi, odob-ahloqi, tarbiyasi bilan hayvon deb atalmish mahluqotlardan ajralib tura olayaptimi? Albatta, bu savollarga o'ylab ham o'tirmay "ha" deb javob beramiz. Xech bir jonzot yo'qki, u inson bolasi singari o'z fikrini nutq orqali ravon bayon etsa, tabiatni o'rganishga to'xtovsiz harakat qilsa, kutilishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlarning zararli oqibatlari haqida bosh qotirsa, o'zi yashab turgan hududini ozoda saqlasa.

Ammo hamma davrda bo'lgani kabi hozirgi kunda ham insonlar orasida ba'zida tabiatga, tarbiyaga, ijtimoiy hodisalarga nisbatan e'tiborsizlik, befarqlikni ko'zatayapmiz. Zero insoniyat avvalo o'tmishiga, ota-onasiga, vataniga, atrof-muhitga, ijtimoiy hayotga barobar daxldorligi-insoniy burchidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 47-moddasida ham aynan shu masalaga to'xtalib o'tilgan. Inson qachonki burch, mas'uliyat haqida fikr yuritsa, unda keyingina daxldorlik tuyg'usi shakllana boshlaydi. Daxldorlik tuyg'usi bu-burch, mas'uliyat, majburiyat kabi tushunchalarni o'z ichiga olib, befarqlik, loqaydlik, boshboshdoqlik singari illatlarga qarshi turishda o'rtaga chiqadi. Muayyan ijtimoiy makonda kechayotgan jarayonlar har bir kishiga u yoki bu holatda dahldor bo'ladi. Odamlarning voqyea-hodisalarga daxldorlik hissini tuyub yashashi, faoliyat yuritishi jamiyatni mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Daxldorlik va daxldorlik tuyg'usi bilan yashash qonuniyatli jarayon. Bu jamiyatning mohiyati, insoniyligi bilan bog'liq va undan kelib chiqadi. Daxldorlik tuyg'usi susaygan joyda jamiyat tanazzulga uchraydi.

Daxldorlik tuyg'usini bola tarbiyasiga singdirishning ahamiyati kattadir. Bu jarayonda atrofdagilarning vazifasi shundan iboratki, bola o'z qobiliyatini to'laligicha rivojlantirish uchun tarbiya muhitining yaratilmog'i, uning hayotini aql bilan tashkil etmoq, uning tabiiy belgilarini to'laroq namoyon qilishiga ko'maklashuvchi

mashg'ulotlarga jalb etilmog'i lozim. "Aytish mumkinki, "o'zbek oilalarida ma'naviy-ahloqiy muhitni shakllantirishda keksalar ayricha rol o'ynaydilar. Ular bolalarga halq urf-odatlari, ilg'or an'analarini o'rgatish bilan cheklanib qolmaydilar, o'z o'rnaklari bilan ham saboq beradilar". Bu narsa milliy tarbiyasi asosini tashkil qiladi.

Bu haqda Abdurauf Fitrat "Oila" asarida shunday yozadi: "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir. Qayerda oila munosabatida kuchli intizomga tayanilsa, mamlakat ham kuchli intizomli va tartibli bo'ladi".

Kishilarning voqyea-hodisalarga daxldor ekanligi siyosiy va huquqiy yo'l bilan belgilab quyilishi, hamda mana shu asosda ularning biror ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishi ta'minlanishi kifoya qilmaydi. Daxldorlik fenomeni shaxsning ongi va qalbidan joy olib, uning ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylangandagina – u haqiqiy insoniy daxldorlikka aylanadi. Mana shunday daxldorlikkina insonni-inson, jamiyatni-jamiyat qilishga xizmat qiladi.

Ana shunday jarayonda: "Millatning va xalqning ma'naviy kamolotiga, ma'rifatiga umumdavlat siyosati sifatida qarash lozim. Odamlar ongidagi milliy iftixor tuyg'usi bilan boshqa millatlarning tarixi, madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilishning dialektik uyg'unligini ta'minlash zarur. Jamiyat ongida hozirgi dunyoda ro'y berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik va mas'ullik hissini vujudga keltirish va doimo mustahkamlab borish darkor"ligi alohida uqtiriladi.

Daxldorlik tuyg'usi insonda avvalo oilada vorisiy namoyon bo'lishi mumkin. Milliy-ma'naviy, umuinsoniy xususiyatlarning ta'sir etib borishi asta-sekin shaxsdagi bu tuyg'uning shakllanishi jarayoniga olib keladi.

Marosimlar, tadbirlar urf-odatlarning targ'ib etilishi, nishonlanishi daxldorlik tuyg'usining takomilida muhim rol o'ynaydi. Shaxsni ma'naviy qiyofasini belgilashda, uni ijtimoiy faollashuviga ta'sir ko'rsatadi. Zero, yuragida daxldorlik tuyg'usi aks etgan fuqarolari bo'lgan jamiyatning tarixi, o'tmishi, buguni, tinchligi, urf-odatlari, marosimlari, ichki va tashqi munosabatlari, millat sifatidagi ahamiyati ortib boraveradi.

LOQAYDLIK – inson, jamiyat, millat ishiga beparvo va sovuqqonlik bilan yondashish, munosabat da bo'lishni ifodalovchi ma'naviy illat. Muayyan kishining gohida o'z hayoti, o'zgalar faoliyati, atrofda ro'y berayotgan voqyea-hodisalarga befarqligi va loqaydligini anglatuvchi t. Hayotiy pozisiyaning aniq emasligi, dolzarb vazifalardan o'zini olib qochish, el-yurt, jamiyat va millat tashvishlaridan chetda turish L. belgilaridir. Prezident I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: **"Temur to'zuklari"dagi "Tajribamda ko'rilganki, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan so'zlar bugungi kunda ham ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon...**

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha — qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi. Shu ma'noda, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Iroda bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin.

Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hyech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi. Lekin birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki ko'zatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ulardan hyech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi. L.ka qarshi kurash, zamon da'vatlariga hozirjavob va davr bilan hamnafas, ma'nan barkamol kishilarni tarbiyalash bu sohadagi dolzarb vazifadir.

5-masala bayoni: ***Milliy o'zlikni anglashning mohiyati.*** o'zlikni anglash shaxs ma'naviy barkamolligining asosiy mezonidir. Milliy o'zligini anglamagan shaxs ma'naviy jihatdan qashshoqdir. Zero, milliy o'zlikni anglash unga ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlaydi. Shu ma'noda, mazkur omil shaxs ma'naviy takomilining muhim mezoni hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash omilining ahamiyati quyidagi hollarda yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, millat manfaatlari, sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yo'zaga kelgan vaziyatlarda, uning barcha vakillari o'zaro jipslashadi; ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash ruhiy his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlari, intilishlari va maqsadlarini amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladigan salohiyati orqali bilish mumkin. Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning "portlashi" millatning xarakteri, xus-yatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyolilarning salohiyatiga bog'liq; uchinchidan, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida yo'zaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mam-tda iqt-y, ijtimoiy -siyosiy, mad-y-ma'r-y sohalarda sodir bo'lishi mumkin; to'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalash yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki uning abadiyligini ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir.

MA'NAVIY O'ZLIKNI ANGLASh - Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida ta'riflab berilgan, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga bel bog'lagan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarda yuksak ma'-yatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi, tarixiy xotirani tiklash, o'tmish avlodlarga munosib bo'lish, ular qoldirgan ma'naviy merosni asrab-avaylash va

takomillashtirish omili. M.o'.a. jamiyat ijtimoiy -siyosiy hayotini demokratlashtirish va yangilash, yangi tafakkurni shakllantirishning asosiy vositalaridan biridir. Ma'lumki, shaxsda ko'plab ijtimoiy -insoniy fazilatlar bilan birga M.o'.a. xus-yati ham mujassamdir. Bu g'oyat ko'p qirrali, murakkab, ayni paytda, ziddiyatli hayot ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun unga kompleks yondashish talab etiladi. Avvalo, M.o'.a. keng ma'nodagi milliy o'zlikni anglashning tarkibiy qismidir. Sh.u. ma'naviy o'zlikni anglash milliy taraqqiyotning nafaqat belgisi, xuddi sh-dek, maqsadi hamdir. Demak, M.o'.a. ijtimoiy fenomen sifatida milliy taraqqiyot maqsadi bilan uyg'unlikda talqin etilishi zarur. M.o'.a. subyekt (shaxs, millat, xalq)ning ekzistensional borliqda o'zining tarixiy-mad-y, ijtimoiy -axloqiy diniy-ruhiy, badiiy-estetik qadriyatlariga, borliqni bilishda gnoseologik tajribalariga ega ekanini idrok etishidir. M.o'.a.da «xalq ruhi», «xalq qalbi» degan t.lar muhim o'rin tutadi. Sh.u. ham ma'-yat muammolarini tadqiq etgan mutaxassislar «ruh», «qalb» kategoriyalariga murojaat qiladilar. M.o'.a., avvalo, kishining o'z ruhi va qalbini idrok etishi bo'lib, ijtimoiy darajada u xalqning o'ziga xos ruhiy-ma'naviy birligini ifoda etadi. Milliy o'zlikni anglashga taalluqli hodisa sifatida esa M.o'.a. ma'lum bir millat vakillarining qalbiga, ruhiga yaqin umumiy boyliklar, qadriyatlar, tasavvurlar, an'analar, ruhiy-ma'naviy holatlar asosida kishilarni xalq, millat sifatida birlashtiradi, ularga xos umumiy belgilar baxsh etadi. Shu o'rinda Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Shu aziz Vatan barchamizniki» g'oyasi nafaqat mam-timizda yashovchi har bir kishini, balki butun millat, elatlarni birgalikda ozod va obod Vatan barpo etish yo'lida hamkorlik va hamjihatlikka undaydi. Odamlar har doim ma'lum bir g'oyalar atrofida birlashib, yirik ijtimoiy kuchga, harakatga aylangan. Inson o'zini ma'n-y-ijtimoiy kuch ekanligini ma'lum bir qarashlar, g'oyalar atrofida birlashib namoyon qilishi mumkinligini qadimdayoq anglab yetgan. M.o'.a. qanchalik keng, serqirra, inson va jamiyat hayotining barcha sohalari bilan bog'liq bo'lmasin, u milliy g'oyaga asoslanadi. Demak, milliy g'oya M.o'.a.ning o'zagidir. M.o'.a. xalqqa, millatga oid belgilar orqali ham o'z xus-yatini namoyon qiladi. Dunyoda o'zining ma'lum bir belgilariga ega bo'lmagan xalq, millat yo'q. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni yorqin namoyon etadi. M.o'.a.ni axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda M.o'.a. t.si ma'-yat bilan o'zviy bog'liqdir. Ma'-yatning bosh xus-yati va vazifasi shaxsda axloqiylikni, insonparvarlikni shakllantirishdir. M.o'.a. shaxsning ma'naviy dunyosi va shakllanishi kabi murakkab, goho ziddiyatli kechadigan, har doim ham bir mezon, me'yorlar bilan o'lchanavermaydigan hodisadir. Uning namoyon bo'lishi va shakllanishi har doim ham shaxsning, hatto muhitning ham ixtiyorida bo'lavermaydi. Ularga ko'zga ko'rinmas ijtimoiy munosabat lar, umumiy-axloqiy normalar, tarixan shakllangan an'analar, urf-o.lar, xalqaro vaziyat, axborotlar oqimi kabi omillar ham ta'sir etadi. M.o'.a. ma'-yatning shakllanish jarayoni kabi shaxsning butun umri davomida kechishi mumkin. Ammo bu ma'-yatda ham, M.o'.a.da ham, shaxsning ma'lum bir xalqqa, millatga taalluqli ekanini anglatuvchi muqim, xus-yat, belgilar yo'q ekanini anglatmaydi. Xalqni xalq, millatni millat qilib turgan belgilar uning a.lar davomida shakllangan muqim, barqaror tarixiy-mad-y qadriyatlari (tili, turmush tarzi, an'analari va b.) bilan mushtaraklikda namoyon bo'ladi. M.o'.a.ning o'zgarishi ana shu barqaror milliy-mad-y asosning nisbiy o'zgarishi ifodasidir. Milliy-mad-y asoslar ma'-yatda, milliy o'zlikni anglashda muqim saqlanib qoladi, aks holda shaxs ham, millat ham o'zligini, o'z xus-

yatlarini yo'qotadi. Xalq, millatning shakllanishi bilan birga M.o'.a. ham shakllanib boradi. Millatsiz M.o'.a. yo'q, M.o'.a.siz esa millatning bo'lishi dargumondir. Ular o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib berish maxsus sosial-psixologik yoki etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishni taqozo qiladi. Bu o'rinda biz shuni aytishimiz mumkinki, xalqning, millatning barqaror ijtimoiy etnik birlik sifatida tarix sahnasidan joy olishi ularning M.o'.a.iga va tarixiy-mad-y jarayonlarda uni namoyon etishiga bog'liqdir. M.o'.a. o'zoq tarixiy riv-sh jarayonida, ko'p avlodlarning ma'n-y, ilmiy, ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Millat shakllangan sayin, u aniq ko'rinishga, ma'lum bir tamoyillar, me'yorlar, modellar, qadriyatlar tarziga o'tib, milliy mad-tning o'zak qismiga aylanadi. Mas., o'zbek xalqi M.o'.a.ni «Avesto»dan boshlab, buyuk ajdodlarimiz merosidagi umuminsoniy qadriyatlardan izlashi bejiz emas. Chunki ushbu bebaho merosda xalqimizning orzu-umidlari, axloq, odob, ezgulik, adolat, porloq hayot haqidagi g'oyalari mujassamlashgan. Aynan ushbu qadriyatlar bugun o'zbek xalqining tarixiy-mad-y merosi, ma'naviy mad-tining o'zagi sifatida o'rganilmoqda. M.o'.a. negizida ma'naviy kamolotga yetishga intilish yotadi. Ma'naviy kamolotni nazarda to'tgan kishi tinmay o'z ustida ishlaydi, mukammallikka intiladi, ma'lum bir idealga yetishni maqsad qilib qo'yadi.

SHAXS VA MILLAT MA'NAVIY KAMOLOTINING UYG'UNLIGI.

Reja:

1. Shaxs va millat ma'naviyati bir-birini taqozo etuvchi hodisa

2.Mustaqil shaxs ma'naviy fazilatlari va mezonlari. Shaxs ma'naviyatining zohiriy va botiniy belgilari

3. Komil inson tushunchasi

4. Islom Karimov asarlarida barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari..

5. Shaxs ma'naviy qiyofasi – millat ma'naviy qiyofasi sifatida

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Tosh, "Ma'naviyat", 2008 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., Shark, 1999 y.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Xalq so'zi, 1999 y, 6 mart.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T., O'zbekiston, 2000 y.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «O'zbekiston», 2000 y.
7. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. T., O'zbekiston, 1994 y.
8. Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaatlari xar narsadan ulug'. Xalq so'zi, 1998 yil 11 noyabr.

9. Karimov I.A. Adolat xar ishda hamroximiz va dasturimiz bo'lsin. Xalq so'zi, 1998 yil 14 noyabr.
10.Karimov I.A. Biz fidoyi vatanparvarlarga tayanamiz. Xalq so'zi, 1993 yil 19 fevral.
11.Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Tosh., O'kituvchi, 1997 y.
12. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. T., 1996 y.
13. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 2000 y.
14. Vatan va millat muqaddasdir. T., Ukituvchi, 1996 y.
15. Ibroximov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. Tosh., O'zbekiston, 1996 y.
16.B.Ochilova, Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. Tosh, Istiqlol, 2009 y.
17. Ibroximov A., Sultonov X., Jurayev N. Vatan tuyg'usi. T., 1996 y.
18. Sa'dullayev D. Iymondan ayrilgan baxtli bo'lmas. Mulokot, №2, 1998y.

Nazorat savollari:

1. Komil inson tushunchasini izoxlang?
2. Ma'naviy barkamol inson deganda nimani tushunasiz?
3. Sog'lom avlod Davlat dasturi haqida nimani bilasiz?
4. Komil insonning asosiy fazilatlari qaysilar?

Birinchi masalaning bayoni: SHAXS MA'NAVIYATI – har bir kishining o'zini insoniyat farzandi, muayyan millat vakili, davlat fuqarosi deb bilgani holda o'z Vatani tuprog'i, suvi, havosi – jamiki boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, uning obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, izzatini joyiga qo'yish yo'lida chin vijdon, iymon, e'tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg'arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmuini anglatuvchi t. Sh.m. jamiyatda ijtimoiy hayotda shaxsning baxtli yashashi uchun to'g'ri fikrlash, so'z va amalning birligi, rost so'zlash, halol mehnat qilish, xush axloqqa ega bo'lishdan iboratdir. Sh.m. darajasi uning kishilik jamiyatining yuksak axloqiy qadriyatlariga qay darajada rioya qilib yashashi bilan belgilanadi. Axloq inson ma'-yatining muhim mezonlaridan biri bo'lgani bois Sh.m. deganda, avvalambor, uning axloqan barkamolligi, o'z faoliyatida ma'naviy qadriyatlarga, chunonchi, adolat, go'zallik va ezgulik g'oyalariga tayanib ish ko'rishi nazarda tutiladi. U insonni bunyodkorlik faoliyatiga, ezgu amallarga yetaklaydigan, jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'r-y, mad-y, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'liq mujassam etadigan kuch sifatida namoyon bo'ladi. Sh.m. deganda xalqimiz o'zoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqat ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ma'n-y-axloqiy qadriyatlar tushuniladi. Sh.m. xalqimizning turmush tarzi, urf-o.lari hamda an'analariga, uning boy og'zaki va yozma ijodi, mumtoz adabiyoti va san'atiga singib ketgan bo'lib, inson ma'naviy takomilida beqiyos ahamiyat kasb etadi. "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin", "Otang bolasi bo'lma,

odam bolasi bo’l”, “O’zingga ravo ko’rmaganni boshqaga ham ravo ko’rma”, “Yomon o’z g’amida, yaxshi – el g’amida” singari hikmatlarda ham ajdodlarimiz ardoqlab kelgan yuksak ma’naviy fazilatlar ifodalangan.

MILLIY MA’NAVIYAT – muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy riv-sh jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklari, u yashayotgan hudud, mad-y meros, milliy mad-t, til, milliy ong, millat tarixi, o’tmishi, turmushi va yashash tarzi, hayotining tartib-qoidalari hamda bu bilan bog’liq milliy xus-yatlar majmuini ifodalaydigan t. U umuminsoniy qadriyatlar tizimida millatga xos eng umumiy jihatlarni aks ettiradi. Bu masalaning mazmun-mohiyati “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida batafsil tahlil etilgan. Ushbu kitobga tayangan holda, M.m. tizimining quyida tarkibiy qismlarini ajratib ko’rsatish mumkin: 1. Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o’ziga xosligi, tarixiy o’zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi. 2. Millat tarixi, o’tmishi, kelajagi va ma’naviy merosi. 3. Milliy hudud, jamiyat va undagi jarayonlar, moddiy va mad-y yashash sharoitlari, iqt-y asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog’liq jihatlar. 4. Urf-o., an’ana, marosimlar, turmush tarzi va b.dagi milliylik, ular bilan bog’liq o’ziga xos xus-yatlar. 5. Milliy til, milliy mad-t va ma’-yat, milliy ong va milliy ruh, milliy tuyg’ular va g’oyalar. Bu qadriyatlar muayyan millat kishilari uchun umumiy bo’lib hisoblanadi. M.m. muayyan millatga mansub qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog’lovchi xalqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda o’z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda M.m. bilan bog’liq jihatlarni nazarda tutadi. Millat – har qanday M.m.ning egasi, M.m. tizimi tayanadigan ijtimoiy asosdir. Millatning tanazzuli – M.m.ning tanazzulidir! Insoniyat tarixida Bobil, Vizantiya, Mayya imperiyalarini vujudga keltirgan xalqlar bo’lgani ma’lum, «buyuk sivilizasiyalar» deb yuritiladigan bu etnoslar keyinchalik turli xalqlar, millatlar, elatlar bilan qorishib, o’zlarining umumiy-tarixiy birligini yo’qotgan yoki tarixiy tanazzul jarayonlari, urush va nizolar oqibatida qirilib ketgan. Amazonka bo’ylari va Meksika o’rmonlarida hozirgacha vayronalari saqlanib qolgan mayya xalqi to’g’risida shunday xulosa qilish mumkin. Qad. davrning eng buyuk mad-tlaridan birini yaratgan bu xalq tanazzulga uchragan, uning yozuvi unutilgan, 100ga yaqin shaharlari vayronaga aylangan va shu tariqa buyuk tamaddun beshiklaridan birining chirog’i so’ngan. Har bir millat o’z qadriyatlarining yaratuvchisigina emas, balki uni asrab-avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o’zi mas’uldir. Hatto biror imperiya yoki davlatga qaram bo’lgan millatning M.m.ni saqlash tuyg’usi yo’qolib ketmaydi. Millatni M.m.ning obyekti va subyekti sifatida tushunish, u bilan bog’liq M.m. tizimini ilmiy tahlil qilishga ijtimoiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa M.m.ning namoyon bo’lishi, uning tarixiy riv-sh jarayonida o’tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi. M.m. kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo’ladi, kishining ongiga, hayot tarziga o’ziga xos tarzda ta’sir qiladi. M.m. kishilarning o’zaro munosabat larida, ijtimoiy faoliyatida ko’zga tashlanadi hamda ana shu munosabat , faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo’ladi. M.m. va ularning aloqadorligi ifodasi bo’lgan qadriyatlar tizimi, millatning o’zi bilan birga tarix silsilasi, zamona zayli, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Bu qadriyatlar ko’proq millatning etnik xus-yatlari va etnik makoni bilan bog’liq. Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-etnik

qadriyatlari ravnaqi bilan o’zviy aloqadorlikda davom etadi. M.m., o’z tabiatiga ko’ra, tor doirada saqlanib qolmaydi, balki turmush jarayonida muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlari yutuqlari bilan boyib boradi. Umuminsoniylik tuyg’usi faqat o’z xalqi qadriyatini ardoqlash, targ’ib-tashviq etish bilan cheklanmaydi, balki u har bir xalq, elat, urug’ qadriyatlarini qanday holatda bo’lsa, shundayligicha qabo’l qilib, ularni hurmat qilishni taqozo etadi. Har bir millatning o’zi qadrlaydigan mad-ti, tili, a’analari, urf-o.lari, marosimlari va odob me’yorlari bor. Dunyoda aholisi son jihatidan ko’p yoki kamroq xalq bo’lishi mumkin, ammo mad-y va ma’naviy sohada bir-biridan kam yoki ortiq millat yo’q. Har bir millatning o’ziga xos o’tmishi, mad-y va ma’naviy qadriyatlari, milliy qahramonlari bor. Boshqa millatning o’zga millat faoliyatini baholovchi hakam bo’lishga haqqi yo’q. Biror bir ta’limot davlat shakli yoki yashash usulini qabo’l qila olmagani uchun muayyan millatni ayblab bo’lmaydi. Shu ma’noda, umuminsoniylik tuyg’usi fqat bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo’li bilan emas, balki barcha millat va elatlar qadriyatlarini asrab-avaylash, hurmat qilish va olamdagi milliy rang-baranglikning tabiiy rang-baranglik bilan o’zviy aloqada ekanligini anglash yo’li orqali boyib boradi. M.m. millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o’tmishi, kelajagi, mad-ti, ma’-yati, urf-o.lari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va b. bilan o’zviy bog’langan. Ular xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan o’zviy aloqada namoyon bo’ladi, o’ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – qon-qardoshlik, mad-y-ma’naviy yaqinlik, o’tmish va ma’naviy meros, ona yurt tuyg’usi va b. nisbatan barqaror bo’lib hisoblanadi. Millatning o’ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o’zgarib borishi bilan bog’liq eng asosiy qadriyati uning genofondidir. Genofond – faqat irsiyat orqali o’tadigan tabiiy o’ziga xoslik emas, balki tarixiy belgilar, xus-yatlar, rang-baranglik va o’zgaruvchanlikni ham o’zida ifodalaydi. Sh.u. biror xalq, millat, elatni yo’qotish uchun qilingan tajovo’zning «genosid» deb atalishi bejiz emas. Millatning genofondi uning eng asosiy tarixiy, M.m.idan biridir. Bu t. muayyan tabiiy-tarixiy yoki biologik birlikning ma’lum bir hududda o’zoq yashashi natijasida shakllangan va avlodlardan avlodlarga o’tadigan tabiiy, biologik xus-yatlari hamda jihatlarining yig’indisini ifodalaydi. Genofond t.si ayniqsa, qon-qarindosh millatlardan tarkib topgan xalqlarning tarixiy birlik sifatida ijtimoiy taraqqiyotning nisbatan o’zoq davrida mavjud bo’lishi mumkinligini aks ettiradi. Millat tarixiy o’zgarishlar, urush va qirg’inlar natijasida asta-sekin o’zgarishi, kamayib ketishi mumkin. Ammo uning genofondi o’zgarishi millatning nihoyatda tez o’zgarishiga, avlodlaridan meros qolgan tabiiy-tarixiy xislatlarining tez yo’qolib ketishiga olib keladi. Sobiq ittifoq davrida millatlarning genofondini saqlash muammolari to’g’risidagi masala bilan bog’liq tadqiqotlar olib borilmadi. Bu davrda «sosialistik eksperiment»lar jarayonida odamlar boshiga tushgan turli xil qatag’onlar, urushlar, butun-butun millatlarning o’z tarixiy vatanidan ko’chirilib yuborilishi, soxta shiorlar bilan «yo’z mingchilar», «sakson mingchilar» va b. harakatlar natijasida aholi katta qismining ko’chib yurishi, ekologik tangliklar va b. mam-tdagi xalqlar, millat va elatlarning genofondiga salbiy ta’sir qilmay qolmadi. O’z-nda hozirgi davrga kelib bu masalaga alohida jiddiy e’tibor berilayotgani, sog’lom avlodni tarbiyalash, millat genofondini sog’lomlashtirish umumdavlat miqyosidagi vazifaga aylangani bejiz emas. Chunki millatning genofondi uning betakrorligini anglatadi, bu betakrorlik esa ushbu millat tarixiy riv-shning muayyan davrlari bilan bog’langanligini ko’rsatadi. Bu

betakrorlikni umuminsoniylik jihatidan baholash – o’z millati qadriyatlarini xolisona targ’ib qilish, o’zga millatning qadriyatlariga putur yetkazmaslikka asoslanadi. ***Milliy makon va ma’-yat.*** M.m. kishilarning yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog’liqlikda shakllanadi. Ana shunday ma’naviy qadriyatlarning eng asosiysi tug’ilgan Vatan va ona yurtini sevish tuyg’usidir. Vatanni sevish tuyg’usi – inson tug’ilib voyaga yetgan, u mansub bo’lgan tarixiy birlikning o’tmishi bilan bog’langan ijtimoiy , iqt-y, mad-y muhitga va hududga nisbatan bo’lgan muhabbatdir. Bu butun insoniyatga xos umumiy tuyg’udir. Vatan tuyg’usida kishilarning o’zi mansub bo’lgan tarixiy birlik shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko’rsatgan hududga nisbatan ma’naviy qarzdorligi, burch va mas’uliyati bilan bog’liq ijtimoiy tuyg’ulari namoyon bo’ladi. ***Milliy til va ma’-yat.*** M.m. eng asosiy belgilaridan biri – millat uchun umumiy muomala vositasi bo’lgan milliy tildir. Mutaxassislar jahonda 5000 ga yaqin til borligini qayd etadi, ularni 15 ta katta oilaga bo’lib o’rganadi, tillarning takomillashuvi bilan birga, ular tarqalgan hududning maydoni ham o’zgarib borishini ta’kidlaydi. Mas., VII a.gacha Arabiston yarim orolining bir qismida tarqalgan arab tili, undan keyingi bir necha a. mobaynida Afrika va Osiyoning boshqa hududlariga ham tarqaladi. Xuddi shunday turkiy tillar ham Kichik Osiyodan Sharqiy Sibirgacha bo’lgan keng hududda tarqalgan. Shu bilan birga, qadimda Osiyoda keng tarqalgan xettlar tili esa butunlay yo’qolib ketgan. Turkiy xalqlarning tili biz uchun umummilliy qadriyatdir. Istiqlol yillarida Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo’lmish ona tilimiz o’zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo’ldi, ... davlat tilining hayotimizdagi o’rni va ta’sirini kuchaytirish, uni tom ma’noda milliy qadriyatga aylantirish yo’lida ilgari tasavvur ham qilib bo’lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi”. ***Milliy ma’-yat va qadriyatlar.*** Millatlarning ma’naviy merosi, an’analari, urf-o.lari, milliy adabiyoti, san’ati va b. bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajadagi namoyon bo’lish shakllari bog’langandir. Ularning asosida har bir millat, xalq yoki elatning tarixiy riv-sh jarayonida avlodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan mad-y xus-yatlari va jihatlari yotadi. Millat faqat muayyan hududda yashaydigan va bir xil tilda so’zlashadigan kishilardangina iborat emas, balki umumiy mad-y-ma’naviy jihat va xus-yatlar asosida mavjud bo’lib turgan tarixiy-ijtimoiy birlik hamdir. Mad-t insoniyat tarixining ilk davrlaridan buyon uning ajralmas hamrohi, insonning o’zi kabi qadimiydir. Har bir xalqning mad-ti o’ziga xos va betakror bo’lib, u rivojlanib, takomillashib boradi. Bu ayniqsa qon-qardosh xalqlar bilan bog’liq mad-y qadriyatlar rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Mad-y-ma’naviy soha bilan bog’liq M.m.larning amal qilishida uchta jihatni ajratib ko’rsatish mumkin: a) kishilarning ijtimoiy ongi bilan bog’liqlik; b) kishilarning munosabat i va faoliyati orqali amalga oshish; v) moddiy va ma’naviy sohadagi biror natija, yutuq, boylik va b. tarzida namoyon bo’lish. M.m. makon va zamonda mad-y sohadagi biror kashfiyot, yutuq, natija yoki ma’naviy boylik tarzida namoyon bo’lishi mumkin. Xalqning dahosi, ma’n-y-aqliy yetukligi, bilimlari, ilm-fanda erishgan yutuqlari ana shu natijalarda namoyon bo’adi. (Mas., Misr ehromlari, Buyuk Xitoy devori, Rim va Afina, Samarqand va Buxorodagi yodgorliklar, alloma va mutafakkirlarning kashfiyotlari va sh.k.) Har qanday millat kabi xalqimiz ham o’ziga xos, betakror M.m.ni yaratadi. M.m.ning egasi sifatida xalqimiz o’z qadriyatlarini asrab-avaylab, rivojlantirib va takomillashtirib kelmoqda. Bu borada respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik faoliyati Prezident I.A. Karimovning «Yuksak

ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ko’plab dalil va misollar orqali yaqqol ko’rsatib berilgan.

SHAXS MA’NAVIY BARKAMOLLIGI MEZONLARI — o’zlikni anglash, Vatan, yurt, jamiyat hayotiga daxldorlik, huquqiy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, fuqarolik burchiga sadoqat kabilarning inson faoliyati orqali namoyon bo’lishini ifodalaydi. Inson shaxs bo’lib tug’ilmaydi. U ijtimoiy munosabat lar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi, barkamollik darajasiga ko’tariladi. Sh.m.b.m.dan biri — o’zini o’zi anglash hisoblanadi. Chunki o’zligini anglamagan inson barkamol shaxs darajasiga ko’tarila olmaydi. U o’zini anglagandagina o’zgalarni anglashi va ijtimoiy munosabat larda «men»ini namoyon etishi mumkin. Demak, o’zlikni anglash shaxs ma’naviy barkamolligining asosiy mezonidir. Milliy o’zligini anglamagan shaxs ma’naviy jihatdan qashshoqdir. Zero, milliy o’zlikni anglash unga ma’naviy kuch-qudrat bag’ishlaydi. Shu ma’noda, mazkur omil shaxs ma’naviy takomilining muhim mezoni hisoblanadi. Milliy o’zlikni anglash omilining ahamiyati quyidagi hollarda yaqqol namoyon bo’ladi: birinchidan, milliy o’zlikni anglash rivojlangan bo’lsa, millat manfaatlari, sha’ni, qadr-qimmati, obro’-e’tibori, g’ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yo’zaga kelgan vaziyatlarda, uning barcha vakillari o’zaro jipslashadi; ikkinchidan, milliy o’zlikni anglash ruhiy his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlari, intilishlari va maqsadlarini amalga oshirish jarayonida namoyon bo’ladigan salohiyati orqali bilish mumkin. Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning “portlashi” millatning xarakteri, xus-yatlari, milliy g’oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyolilarning salohiyatiga bog’liq; uchinchidan, milliy o’zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida yo’zaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mam-tda iqt-y, ijtimoiy - siyosiy, mad-y-ma’r-y sohalarda sodir bo’lishi mumkin; to’rtinchidan, milliy o’zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalash yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki uning abadiyligini ta’minlab turuvchi mustahkam qo’rg’on hamdir. Sh.m.b.m.dan yana biri — huquqiy savodxonlik, huquqiy mad-tga ega bo’lish hisoblanadi. Huquqiy mad-t bu — qonunlarni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta’minlash, har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqaradigan mezondir. Huquqiy mad-t egasi bo’lgan kishi jamiyat talablari va qoidalariga hurmat bilan qaraydi, jamiyatni boshqarishda huquqiy malaka va bilimlariga tayangan holda faol ishtirok etadi. Sh.u. huquqiy savodxonlikka ega bo’lgan shaxsni tarbiyalash g’oyat muhim ijtimoiy vazifa hisoblanadi. **«O’z haq-huquqini taniydigan, o’z kuchi va qudratiga tayanib yashaydigan, atrofida ro’y berayotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo’ladigan, shu bilan xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish darkor»** (I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., O’zbekiston, 2000 yil, 12-b.). Shaxs ma’-yatining mezonlaridan yana biri qonunlarga itoatkorlik hisoblanadi. Ma’lumki, qonunlar xalqning bevosita yoki bilvosita ishtiroki asosida qabo’l qilinadi. Ularning qabo’l qilinishida mam-t fuqarolarining aksariyati, uchdan ikki qismining roziligi asos bo’ladi. Bu hol qabo’l qilinadigan qonunlarning legitimligini ta’minlaydi. Sh.u. ham qonunlarga itoat qilish, qonun asosida yashash va

mehnat qilish har bir insonning fuqarolik burchi hisoblanadi. Ammo hayotda ma'naviy jihatdan qashshoq insonlar bilib-bilmasdan, gohida esa ataylab qonunlarni bo'zishi, ulardan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishi hollari ham uchrab turadi. Bunday salbiy holatlarning ommaviy tus olishi mam-t taraqqiyotiga tahdid solishi, jamiyatning ichdan yemirilishiga sabab bo'lishi mumkin. Qonunlarga itoat qilib yashayotgan kishilar qancha ko'p bo'lsa, mam-t ijtimoiy -siyosiy barqarorligi shu qadar mustahkam bo'ladi va uning taraqqiyoti jadallashadi. Ular shaxs huquqiy mad-tining qay darajada rivojlanganiga bog'liq. Huquqiy mad-ti va savodxonlik darajasi yuksak bo'lgan kishilar mam-t fuqarolarining ko'pchilik qismini tashkil etishi, jamiyatning ijtimoiy -iqt-y, siyosiy, ma'n-y-ma'r-y taraqqiyotini hal qiluvchi omillardandir

Komil inson tushunchasi o'rta asrlarda ishlab chiqilgan bo'lib, musulmon Sharqida, asosan, islomiy nuqtai nazardan ta'riflab kelingan.Aslida "komil inson"tushunchasining dunyoviy mazmuni bor. Uning falsafiy ma'nosi umummilliy ahamiyatga ega va umuminsoniy qadriyat sifatida asrlar davomida sayqal topib rivojlanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizasiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik kayfiyatini tanqid qilgan edi. Shu nuqtai nazardan tasavvuf falsafasida komil inson konsepsiyasi alohida diqqatga sazovordir.

"Komil inson" tasavvuf adabiyotida ko'p marta tilga olinib munozaralarga sabab bo'lgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Ibn al-Arabiy, Husayn Voiz Koshifiy, Said Abdulqodir Geloniy, Aziziddin Nasafiylarning risolalarini tilga olib o'tish mumkin. Ibn al-Arabiy nazarida komil insonni Olloh ilohiy nurdan yaratgan. Islom ilmining bilimdonlari ko'rsatishicha,ilohiy nur barcha mavjudotlardan, hatto yer va osmondan ham avval yaratilgan. Arabiyning fikriga qaraganda, tangri taolo ilohiy nurdan aqli avvalni yaratdi va uning suvratini shaklini "komil inson" qiyofasida zuhur etdi. Shu ma'noda, Olloh odamni rahmon sifatida yaratdi, degan hadis mavjud"[1]. Ibn Arabiyning ta'kidlashicha, komil insonni yerdagi timsoli-hazrati payg'ambarimiz Muhammad Sallollohi alayhi Vasallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Alisher Navoiyning "Hayratul abror" idan olingan quydagi baytda Muhammad Alayhissalomning Odam Atodan burun borligi aytilgan: "Ulki odamdan burun ul bor erdi, Ham Nabi, ham sohibi asror edi". Hikmat zamirida Ollohning odamga bo'lgan buyuk muhabbati yotadi.

Dastlab olam, so'ngra odam yaraldi. Olamni yaratishdan mantiqan ko'zlangan maqsad odam edi. Odam-maqsad, olam-vosita edi. Buni Aziziddin Nasafiyning "Komil inson" risolasida ko'rish mumkin. U aytadiki, "inson olami sag'ir (kichik olam), ilohiy va moddiy olam birgalikda olami kabir"(ulug' olam)dir. Ulug' olamdagi jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjuddir, inson katta olamning kichraytirilgan nusxasidir. Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va iloxiy bilimlarni egallagan, ruxi mutlak ruxga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim tula pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi.

Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab xushyor tortadilar, dunyo bexudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga, o'z qilayotgan ishlariga

[1] Н.Комилов. Тасаввуф. Тош. "Ёзувчи" 1996 й 1-китоб.145-бет.

razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar. Komil insonlarning af'olu a'moli insonlar diliga kuvvat, ko'ziga nur bagishlagan.

Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo'lib, «Insoni komil» nomli risolasida komil insonga ta'rif berib shunday yozadi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tarikat va haqikatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin:

Bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda qo'yidagi turt narsa kamolatga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi ahloq va maorif». Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolgon, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vakt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga kutarila oladi. Komil inson - insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi. Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chikadigan mu'tabar zotdir. Insonlar komillikka ahloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Komillikning belgisi xak yo'lidan borib, xalqka foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan kanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, xak yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komil bo'ladi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharki ahloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qullanma vazifasini utagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab utamiz. Chunonchi, Kaykovusning «Kobusnoma», Sa'diyning «Gulison», «Buson», Amir Temurning «Temur to'zuklari», Abduraxmon Jomiyning «Baxorison», Alisher Navoiyning «Maxbubo'l-qulub», Xusayn Voiz Koshifiyning «Ahloqi muxsiniy» va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shox va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rosguylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharkona fazilatlari berilgan.

Alisher Navoiyning «Nasoyimul muxabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharkona fazilatlari sanab utilgan. Bo'lar katoriga ulug' mutafakkir qo'yidagilarni kiritadi: tavba, halol lukma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun utkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, xatto farzandlari, xizmatkorlariga ko'pollik kilmaslik, chuchuk tilli bo'lish - yaxshi, muloyim tilli bo'lish, raxmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, xalimlik, xushxulk bo'lish, rizo-rozilik bilan kun utkazish, sabrli bo'lish, sadokatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan kurkmaslik va boshqalar.

Shu tarika O'tmishda, komil insonning o'ziga xos ahloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish xar bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-ahloqiy ahamiyatga ega bo'lgan. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk xayr ruxida tarbiyalash, mehru muxabbat, vafo va sadokatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Xar zamon, xar laxzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovo'z, kabix ishlar, nojuya xatti-harakat va qiliklardan saklanishga kumaklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Komil inson iymon va e'tikodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamogimiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga utish sharoitida iymonli bo'lish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo'lish nechoglik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham

Prezidentimiz ma’naviy barkamol inson tarbiyasida yoshlarimizni elini, vatanini sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat berib kelayotir. Prezidentimizning qo’yidagi ta’rifida komil insonning asosiy xususiyatlari xar taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilib berilganligi dikkatga sazovordir: «Komil inson deganda, - deb yozadi Islom Karimov, - biz avvalo, ongi yuksak, Mustaqil fikrlay oladigan, xulk atvori bilan o’zgalarga ibrat bo’ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz»[1].

Uning shakllanganligi darajasini harakterlovchi eng muxim fazilatlar esa qo’yidagilardir: aqliy zukqolik, xuquqiy komillik, ahloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mexnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma’naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g’urur va boshqalar. Extiroslilik xislatlari: kutarinqilik, tantanavorlik, qulib turuvchanlik, xazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saklamaslik, olijanoblik, otashinlik, noziq tabiatlilik, xayolilik, xijolatpazlik, iffatlilik va xakozolar.

Bizningcha, ayni shu xislat va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog’lom va komil inson ruxida tarbiyalashda muxim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik ruxida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fukarolik burchini a’lo darajada xis etaditgan shaxs bo’lishi darkor. Sodda qilib aytganda, xar kaysi komil inson, xar birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi» deb emas, balki: «Men o’zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim»[22] deb uylashimiz va xar dam shu akida bilan yashashimiz kerak.

Yuqoridagilarni xozirgi Mustaqil hayotimiz, turmush tarzimiz, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan boglab komil inson chizgilariga qo’yidagi xislat va fazilatlar kirishini umumiy tarzda bayon etishimiz mumkin.

Komil insonning umumiy xislatlari: yoqimlilik, kurkamlik, jozibadorlik, salobatlilik, xurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug’sifatlik, o’ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Komil insonning ahloqiy fazilatlari: insonparvarlik, do’stlik, gamxurlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mexmondo’stlik, halollik, to’g’rilik, diyonatlilik, xaromdan xazar etish, mexnatsevarlik, vatanparvarlik va xakozolar.

Ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishkoklik, serharakatlilik, mas’uliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniklik, tejamkorlik, barkamollik, ta’masizlik, tavakkalchilik va boshqalar;

Zukkolik, idroklilik fazilatlari: zexnlilik, bama’nilik, xotirjamlik, sog’lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topkirlik, notiklik, tankidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, kizikuvchanlik, ishkibozlik kabilar. Avvalo shuni aytish kerakki, ma’naviy barkamol inson tushunchasining o’zi keng kamrovli, serkirra tushuncha. Ma’naviy barkamol inson-komil inson tushunchasi bilan hamoxangdir. Ayni vaktda ma’naviy barkamol inson tushunchasi sog’lom avlod tushunchasi bilan ham boglanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson ahloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo’lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha kirralarini kamrab

[1] И.А. Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ асари, Тошкент, “Шарқ” 1998-йил, 6-бет

[2] Комил инсон (пўплами), Тош, 1995-йил.

oladiugungi kunda ma’naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning daslabki kunlaridanoq bu masalaga katta va o’zluksiz e’tibor berib kelinmokda. O’zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning xar bir nutki va ma’ro’zalari, maqola va asarlarida yuksak ma’naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta’kidlanmokda. «Zero, -deb uktiradi Islom Karimov, -biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma’naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechoglik chuqur ildiz otishi bilan baxolaymiz»[1].

Insonparvarlik bu o’zbek xalqi milliy ruxiyatining ajralmas fazilatidir. U purma’no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o’zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko’zga tashlanadi. Qur’oni Karim insonparvarlik g’oyalari asosiga kurilgan. Muhammad alayxissalom xadislari shu g’oyalarga boy xikmatlar majmuasi sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga xurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o’zaro kumaklashuvda, hamdardlikda, boshqalar kaygusiga sherik bo’lib, kuvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuklaridan faxrlanishda ko’rinadi.

O’zbek xalqining turmush tarzi, mexnat faoliyati, o’zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qushnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga xurmati, sadokati kabi qadriyatlari insonparvarlik g’oyalari bilan sugorilgan. O’zbek xalqi bir umr mehr-shafqatli bo’lgan, barchaga yordam qulini cho’zgan. O’zbek xalqi o’zining insonparvarligini fashizmga qarshi kurash yillari yetim bolalarning boshini silab o’z tarbiyasiga olib yorkin namoyon etdi.

Islom Karimov asarlarida ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash g’oyalari, vatanparvarlik, insonparvarlik va o’z millatiga sadoqat mezonlari, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e’tiqod, poklik, halollik va vafodorlik kabi fazilatlar, milliy o’zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta’minlash kabilar ham “M.a.”ning asosiy mavzulari hisoblanadi. “M.a.” fani doirasida ma’naviy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat kabi mavzular, shaxs ma’-yatini rivojlantirish omillari va vositalariga ham alohida ahamiyat qaratiladi. Bugungi kunda “M.a.”ni o’rgatishda Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarda mazkur o’quv faniga doir barcha mavzularning mazmun-mohiyati va naz-y asoslari ko’plab dalillar va misollarga tayanib chuqur va har tomonlama ko’rsatib berilgan. Asardagi xulosa va mulohazalar, g’oya va qarashlarni ma’naviy yo’nalishdagi adabiyotlar, jumladan, “M.a.” bo’yicha darslik va qo’llanmalarga singdirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga qo’llash bu sohadagi barcha xodimlar va mutaxassislar uchun ustuvor vazifaga aylandi.

9-MAVZU; SHAXS MA’NAVIYATINING RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA VOSITALARI.

Reja;

1. Ma’naviy tarbiya, uning usul va vositalari.

[1] И.А. Каримов. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътикоди ва буюк келажакка ишончдир, Тош, “Ўзбекистон” 2000-йил, 6-бет

2. Shaxs ma'naviyati va uni rivojlantirishda ota-ona va oila ma'suliyati.

3. Ta'lim tizimi shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning muxim omili.

4. Adabiyot va san'at- shaxs ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muxim vositasi.

5. Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari va OAVning dolzarb vazifalari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat" 2008.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., Shark, 1999 y.

3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Xalq so'zi, 4 mart 1999y.

4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, O'zbekiston, 2000 y.

5. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari. (Davlat, jamiyat, oila va yoshlar muammolari respublika konferensiyasi materiallari). Toshkent: O'zbekiston, 1997 y.

6. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. T., O'zbekiston, 1997 y.

7. Soifnazarov I., Soifnazarova F. Ma'naviyatimizning umrbokiy sarchashmalari. T., Mexnat, 1997 y.

8. B.Ochilova Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. Toshkent, "Istiqlol"-2009.

Nazorat savollari

1. Ota-Onaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burchlari nimadan iborat?

2. Bola tarbiyasi nechchi bosqichga bo'linadi?

3. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim tizimining vazifalari nimalardan iborat?

4. Adabiyot va san'at shaxs ma'naviyatini shakllantirishda qanday omil bo'lib hizmat qiladi?

5. Bugungi kunda OAV ning shaxs ma'naviyatini rivojlantirishdagi roli va vazifalari nimadan iborat?

1-masalaning bayoni: Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakKo'rining o'zgarishi va yuksalishi bilan o'zviy bog'liqdir.

Shu boisdan ham, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqlol yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi.

Ma’naviy tarbiya inson va jamiyat hayotidagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizg’in bahs-munozaralarga sabab bo’lib kelayotgan bir masalaga alohida to’xtalib o’tish lozim, deb o’ylayman. Ya’ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o’rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba’zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud bo’lganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini ko’zatish qiyin emas.

Bashariyat tarixida yashab o’tgan ne-ne buyuk allomalar bu masala bo’yicha ko’plab asarlar yaratib qoldirgani ham shundan dalolat beradi.

Misol uchun, qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini olasizmi, o’rta asrlardagi Sharq va G’arb Uyg’onish davri namoyandalarini olasizmi, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi - ularning ilmiy merosida keng o’rin berilganini ko’rish mumkin.

Masalan, antik davr faylasuflari bo’lmish Sokrat va Platon, Epikur va Demokrit, xitoy donishmandi Konfusiy va boshqa allomalarning bu boradagi nazariy qarashlari fan tarixidan yaxshi ma’lum.

Albatta, bunday falsafiy yondashuvlarning har biri o’z davridagi mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sosial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday bahslar sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma’lum bir to’zum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Buning tasdig’ini o’zoqqa bormasdan yaqin tariximizda -sho’ro zamonida materialistik qarashni ustun qo’yish natijasida materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, degan tamoyilning hukmron dunyoqarash darajasiga ko’tarilgani, buning oqibatida insonning ma’naviy qadriyatlari, ayniqsa, uning milliy va diniy tuyg’ulariga bepisand qarab kelingani misolida ham ko’rish mumkin.

Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o’ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo’lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to’plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma’naviy obida alohida o’rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo’ri mahsuli bo’lmish bu noyob yodgorlikning zamon to’fonlaridan, qanchadan-qancha og’ir sinovlardan o’tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o’zida katta ma’no mujassam. Bunday o’lmas osori atiqalar bu ko’hna o’lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo’lganidan guvohlik beradi.

Ma’lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o’z afsonaviy qahramonlari, o’zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo’ladi. Xalqimiz azaldan o’z vujudi, o’z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo’lmoqqa intilib, o’z o’g’lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Shu ma’noda, xalq og’zaki ijodining noyob durdonasi bo’lmish «Alpomish» dostoni millatimizning o’zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o’tib

kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo’lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to’g’ri bo’ladi. Bu mumtoz asarda tarix to’fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o’zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag’rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o’z ifodasini topgan.

Milliy ma’naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram - sharqona yangi yil bo’lmish Navro’z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo’ladi.

Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o’tkazadigan Navro’z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko’p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo’lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo’lgan Navro’z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g’oyalardan bahramand bo’lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig’idir, desak, hyech qanday xato bo’lmaydi.

Ko’hna tariximizni shu ma’noda ko’z o’ngimizdan o’tkazib, tahlil qiladigan bo’lsak, muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishga to’g’ri keladi. Ya’ni, ota-bobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma’naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Shu o’rinda ma’naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog’liq bo’lgan yana bir mezon - muqaddas dinimiz haqida alohida to’xtalib o’tishni zarur, deb bilaman.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to’g’risidagi orzu-armonlarini o’zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g’oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko’p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo’lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o’ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo’lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko’payib borayotgani hyech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag’rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o’zini oqlagan qadriyat va an’analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o’rni va ahamiyati bilan bog’liq. Va xalqimizning ma’naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to’g’ri yo’l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta’sirini boshqa hyech qanday kuch bilan qiyoslab bo’lmaydi

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, bizga sobiq to'zumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimining eng noma'qul tomoni shundan iborat ediki, unda o'quv jarayonida o'quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashiga yo'l qo'yilmas edi. Har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, aksincha, ularning sobiq sovet tizimiga va soxta g'oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p hollarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Aksariyat yoshlar haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, ko'proq amalda diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayon o'zoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatdi. Men bunga ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida shaxsan amin bo'ldim. Shuning uchun ham bu og'ir, mas'uliyatli, ammo hal qilishni aslo paysalga solib bo'lmaydigan ishni qadam-baqadam, izchillik bilan bajarishga bel bog'ladik.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda men jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni, yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz, degan fikrni bildirgan edim.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.

Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining o'zviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabo'l qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga

erishish, hyech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hyech qanday xato bo'lmaydi.

2- masala bayoni "Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor .Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan,odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi"[1.] Farzandining kamolini ko'rish har bir ota-onaning ezgu orzusidir. Bu orzuni amalga oshirish har tomonlama oiladagi muhitga bog'liq. Oila shaxsiylik va ijtimoiylik birligidan iborat. Uning shaxsiyligi, nisbiy mustaqilligi har bir oilaning o'z maqomi borligi bilan xarakterlanadi. U o'z xo'jaligini yurgizishda mustaqil.O'z taqdirini o'zi belgilaydi, unga birov tashqaridan zo'rlik bilan aralasha olmaydi. Shu bilan birga u jamiyatning kichik bo'lagi bo'lganligi uchun ham jamiyatdan xoli, alohida yashay olmaydi. Shu ma'noda oila ijtimoiy hodisa bo'lib, unga ijtimoiy institut, ijtimoiy guruh deb qarash mumkin. Uning manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan mos tushadi. Oila ijtimoiy foydali funksiyalarni bajaradi, o'z a'zolarining jismoniy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qiladi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetmaslik, uni mutloqo shaxsiy ish deb qarash jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar orasida yuksak insoniy fazilatlarning qaror topishiga xalaqit beradi. Bizning huquqiy-demokratik davlatimizning ravnaqi oila farovonligi bilan bog'liq. Binobarin, "Oila-bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir", deydi yurtboshimiz.

O'zbekistonda oilaning o'ziga xos tomonlaridan biri uni tashkil etadigan a'zolarning ko'p sonli ekanligidir. Ularda turli avlod vakillari birga yashaydi. Shunday oilalar borki, ularda o'nlab farzandlar tarbiyalanadi. Bu esa bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy qadriyatlar, an'analardan bahramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. O'zbek xalqining eng kadimiy davrlardan boshlab xozirga kadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini xech kachon yuqotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromini, xurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan kura mehribon, aziz va mu'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchigi, bitmas-tuganmas boyligidir.

Ota-ona o'z farzandidan xech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-ahloqi buyicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan utish gunox xisoblanadi. Ota-onani qadrlash, ularning beulchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish, duolarini olish - bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muxim talablaridan biridir.

Buyuk bobomiz xazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani xurmat qilish «...farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek kil, xizmating kancha ortik bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaka kilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishni isasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan - birisini oy deb bil, ikkinchisini kuyosh. Ularning so'zlaridan tashkari bir narsa yozma, ular chizgan chizikdan tashkariga bir kadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» so'zidagi «dol» kabi komatingni ham kil».

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008 й., 56-бет.

Tan olishimiz kerakki, shurolar davrida keksalarni, ota-onalarni xurmat qilish haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshladi. Ba'zi yoshlarimizda o'zlaridan kattalarni, nuroniy kariyalarni xurmat qilish, ularning nasixatlariga qulok solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yuqolib ketayotgani sezilmokda. Extimol, boshqa millat kishilari bunga unchalik e'tibor berishmas, lekin biz, o'zbeklar buni xis kilmay ilojimiz yo'q.

Keksalar uchun ajratilgan uylarda farzandlari tirik, o'ziga tuq bo'lgan ota-onalar yashayotganligiga toqat qilib bo'lmaydi. Goxi-goxida bo'lsa ham, ota-onaga qo'l kutarish, undan ham og'irrok jinoyat qilish xollari sodir bo'lib turganligini eshitib turibmiz! Bu - oddiy nukson emas, balki uchiga chiqqan tubanlik, bag'ritoshlik, milliy qadriyatlarimizni oyok-osti qilish, o'z insoniyligini yuqotishdir. Milliy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining sha'niga dog' tushuradigan bunday yaramas xodisalar zamini, ildizi, sababi nimada, degan savol paydo bo'lishi tabiiy.

Shurolar davrida, avlod-ajdodlarimizning ugitlari, pand-nasixatlari, ajoyib an'analarimiz targib qilinish o'rniga nuqul koralandi, yomon otli qilindi, bid'at, xurofot, deb baxolandi. Milliy tarbiya borasidagi merosimiz urganilmadi, targib etilmadi. Ularning o'rniga ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, rusiya modelini kuklarga kutarib maktab, targib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatlarimizdan bebaxra qilib kuydik. Ana shu tufayli diniy-ahloqiy, oila, kuni-qushni, maxalla-kuylar ta'siri kabi ta'lim-tarbiyaning hayot sinovidan o'tgan bebaxo boyliklaridan judo bo'la boshladik. Mustaqilligimiz tufayli bo'larga chek qo'yildi, bunday salbiy illatlarni tugatish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmokda.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehr-sadokat kabi insonni inson sifatida ulug'laydigan, ahloqiy, ma'naviy jixatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz odamlar, ayniqsa yoshlar qalbidan urin ola boshlagani kuvonchli bir xoldir.

Mustaqil O'zbekiston respublikasining Asosiy qonuni - Konstitusiyada farzandlarning jamiyat, oila, ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mexnatga layokatli farzandlar o'z ota-onalari haqida gamxurlik qilishga majburdirlar.

Xullas, xar bir farzandning o'z ota-onasini e'zozlashi farzandlik burchi va jamiyat oldidagi mas'uliyati sanaladi. Ota-onani e'zozlashning qo'yidagi sharkona talablariga hammamiz amal qilishimiz ham farz, ham karz, farzandlik burchimizdir. Ota-onaga taom berish, ozoda qilib kiyintirib qo'yish, kasal bo'lganda shifokorga ko'rsatish, kerakli dori-darmonni keltirib berish, doimo xol-axvol, sixat-salomatliklarini surab turish, ota-ona oldida «ux» tortmaslik, gerdaymaslik lozim bo'ladi. Ota-ona norizo bo'lgan ishni kilmaslik, arok ichma, yomonga qushilma, desa uni kilmaslik va qushilmaslik kerak bo'ladi. Kuchada yurganda otadan oldin yurmaslik, otadan avval ovqatga, dasturxonga qul o'zatmaslik, otadan avval utirmaslik, otadan kura poygakda utirish, otaning oldida oyokni o'zatib yonboshlab olish bizning ahloq-odobimizga kirmaydi. Ota-ona chakirganda labbay deb javob qaytarish, nima ish qilayotgan bo'lsa, xech ikqilanmasdan darrov ularga javob berish farzandlik burchi xisoblanadi. Shunda ota-ona o'z farzandidan rozi bo'ladi. Ota-onaning roziligini olgan farzand baraka topadi, ishi ungidan keladi, oldiga kuygan maqsadiga erishadi. Ota-onasi norizo bo'lgan farzand kechgacha yugursa ham, ishining barakasi bo'lmaydi, biri ikkiga aylanmaydi.

Turmushga chiqish, uylanishda ota-onaning roziligini, ok fotixasini olishda xikmat ko'p. Yuqoridagilarning hammasi biz uchun bir xovuch oltin, xazina. Kelgusi hayotimiz uchun poydevor qo'yish demakdir. Bu dunyo qaytar dunyo, nima eksang shuni urasan, Siz ota-onangizga nima qilgan bo'lsangiz, u sizga farzandlaringizdan qaytadi. Bu ham tabiat qonuni bo'lsa ne ajab!

Endi ota-onani xurmat qilishning ulug'vorligi haqidagi ba'zi ibratli fikrlarni xadislardan keltirib utamiz. «Kaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat kilsa, Olloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat kilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan kaysi birini xafa kilsa, uni rozi kilmaguncha, Olloh taolo undan rozi bo'lmaydi»; «Kim ota-onasini rozi kilsa, unga tubo (jannatdagi daraxt) nasib bo'lib, Olloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi»; «Uch toifa kishilarning duosi, xech shubxasiz, Olloh taolo koshida makbo'ldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi»; «Ota-onalarning keksaygan vaktda xar ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin, va yana xor bo'lsin»; «Ota-onaga itoat qilish - tangriga itoat qilishdir. Uni oldida gunox qilish tangri oldida gunox ish qilish bilan barobardir» va boshqalar.

Yuqorida farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida fikr yuritdik. Ota-onaning ham farzand oldidagi burchi nixoyatda katta va mas'uliyatlidir. Farzandlarning kelajakda kanday ma'naviyat egasi bo'lishi ko'p jixatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog'liq. Xar bir ota-ona farzandi oldida o'z otalik, onalik burchini tulik xis etishi, unga javobgarligini ma'nan anglab yetishi kerak.

Sobiq shurolar davrida o'zoq vakt milliy va ma'naviy tarbiya chetga surib qo'yildi. Oqibatda bolalar tarbiyasida ota-ona mas'uliyati pasayib ketganligi xech kimga sir emas. Vaxolanki bola, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida ota-ona beradigan tarbiya juda muxim ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi qo'yidagi bosqichlarda amalga oshirilishini xar bir ota-ona yaxshi bilishi foydadan xoli bo'lmaydi. Birinchisi - nasl tarbiyasi, ya'ni bola tarbiyasi - bola tugilmasdan uch-turt yil oldin boshlanishi kerak. Ya'ni bo'lgusi ona va otaning sog'ligi, farzand tarbiyalashga mas'ulligini xisobga olish lozim bo'ladi. Bu - bola, farzand qurishni isagan ota-onaning bo'lajak farzandlari takdiriga mas'uliyat bilan qarab, o'zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi. Ikkinchi bosqich - xomiladorlik davridagi parvarish. Bu masala uta muxim, uta ahamiyatli bo'lib, bizda bu eng kolok soha bo'lib kelmoqda. rivojlangan mamlakatlarda xomiladorlik davri tugilajak inson takdirining 60 foizini belgilashi ko'zda tutiladi. Bu davrdagi chora-tadbirlar aksariyat ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. Uchinchi davr bola tugilgandan to 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Shu davrga kelib, bola ma'naviyatining asosiy kurtaklari shakllanib bo'ladi. Sung ana shu ma'naviy kurtaklarni parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Ma'naviy barkamollik, balki, beshikdagi allaning mazmunidan, bolani kiyintirish-u uni halol lukma bilan bokishdan boshlanishi mumkin. Xazrati Baxovuddin Nakshband aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar, amollar halol lukmadandir. Demak, ota-ona farzandini halol lukma bilan boksa, u farzand ma'nan pok va halol bo'lib voyaga yetadi. Biz shurolar zamonida buni unutayozdik, ahamiyat bermadik, boz usiga tarbiyani ham to'zum o'z manfaatlariga moslashtirib, uni o'z quliga oldi.

Xulosa shuki, bola tarbiyasini dono xalqimiz aytganidek, u xali tugilmasdan ota, ona va butun oila a'zolari hamjixatligida boshlashimiz lozim bo'ladi.

Olamda barcha narsa juft-juft bo’lib yaratilgan. Juft bo’lib yashash tabiat qonuni, takazosi. Lekin oila bo’lib yashash barcha maxlukotlar orasida faqat odam nasliga xosdir.

Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bugini, zarrachasi. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Er va xotin - ikki tirik vujudning, ikki olamning o’zaro ittifokidan paydo bo’lgan uchinchi bir olam - bu oiladir. Agar oila tinch-totuv, ahil bo’lsa, olam tinch va obod. Aks xolda, turmush do’zaxga aylanadi, oila zindonning o’zi bo’ladi, buning jabrini esa er va xotinning o’zigina emas, balki farzandlari, yakinlari ham tortadi.

Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muxabbatga, sadokat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muxim omil xisoblanadi.

Eng qadimgi odatimizga kura, o’zbek oilasi ham tuydan boshlanadi. Xalqimiz saxovatli xalq. Topganini el-yurt oldiga kuysam, deydi. Xalqimizni tuysevarlikda ayblab bo’lmaydi. Agar ayblasak, o’z-o’zimizni kamsitgan bo’lamiz. Tuy va ma’rakalarimizga urinsiz tosh otish insofdan emas. Lekin tuy baxona soxta obru olishga intilish, kimosharga isrofgarchilikka yo’l qo’yishni oklab bo’lmaydi. Tuy va ma’rakalarda musobaka emas, xayr-saxovat va ma’naviyat qadriyatlarini musaxkamlash ustivor bo’lgani yaxshi.

O’zbek oilasining tashkaridan sezilmaydigan o’ziga xos ichki qonun-qoidalari, ahloqiy, ma’naviy mezonlari bor. Qo’yida biz shulardan ba’zilari, turmush uchun zarurlari haqida tuxtab utishni lozim topdik, zero bu Siz kabi oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan xoli bo’lmas, degan niyatdamiz. Aytmokchi bo’lgan gaplarimizni eshitgan bo’lsangiz, yana bir bor eshitsangiz foydadan xoli emas.

Rizk-ro’z tongda xar bir odamga, oilaga ulashiladi. Kimki gaflat bosib, o’rnida yotaversa, rizkidan kuruk koladi, deyiladi. Barvakt turilsa, ish unumli, usha kun xayrli bo’ladi....

Yo’z-qulni yuvmasdan xol-axvol suralmaydi, yo’z-qulni yuvgandan sung kichiklar kattalarga salom beradilar, ayollar nonushta tayyorlaydilar, kizlar-kelinlar xovli, eshik oldini supurib, suv sepib kuyadilar...

Ish yoki ukishga oilaning tabarruk yoshlilaridan fotixa olib ketilishi ahloq-odob doirasiga kiradi, kaytganda, avval ularga uchrashib, salom beriladi, xol-axvol suraladi...

Oila odobiga kura katta yoshlilar bolalarga, balogatga yetgan farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochik-sochik xolda ko’rinmaydilar, bachkana qilik kilmaydilar, pardasiz so’zlarni aytmaydilar. Kuchaga uy kiyimida chikilmaydi va boshqalar. Aytaversak, o’zbek oilasining fazilatlari ko’p, qonunlarda belgilanmagan, ammo millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o’zlashtirishi ham farz va ham karzdir.

Shunday qilib, oila - jamiyatning asosiy bugini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murgak qalbida bir umr muxrlanib koladi. Oila musaxkam, tinch, farovon, sog’lom bo’lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, «Oilaning jamiyatdagi o’rni, tarbiyaviy-ahloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuktai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil

mafkura yaratolmaymiz»[1]. Ya'ni ma'naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffakiyatli amalga oshiraolmaymiz.

Shuning uchun ham mamlakatimizda oilani musaxkamlashga alohida e'tibor berilmokda. Jumladan, Asosiy qonunimizning «Oila» deb atalgan 14-bobida qo'yidagi qoidalarni ukish mumkin:

«63-modda. Oila jamiyatning asosiy buginidir hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish xuquqiga ega...

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga kadar bokish va tarbiyalashga majburdirlar...

65-modda. ...Onalik va bolalik davlat tomonidan muxofaza qilinadi» va boshqalar.

Mustaqil respublikamizda Oila munosabatlariga alohida ahamiyat berilayotganligini Oliy Majlisning birinchi chakirik un birinchi sessiyasida «Oila kodeksi» haqidagi qonunning kabo'l qilinishida ham qurishimiz mumkin. Davlatimizning oilaning rolini oshirishga qaratilgan siyosati albatta farzandlarimizning ma'naviyatini yo'qsaltirishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

3-**masalani bayoni.** "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil-bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir"[1]. Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda insoniyat oldida hal yetilishi zarur bo'lgan eng muhim vazifa bo'lib kelgan. Mustaqillikka erishgach islohotlarimizning eng muhim masalalaridan biri ta'lim sohasini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Bugungi kunda ta'limdagi o'zviylikni ta'minlash maqsadida maktab ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. 2004-yilning 19-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2008-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Dasturini tayorlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoishi e'lon qilindi. Unga ko'ra umumiy ta'lim maktablari moddiy-tehnika bazasining holatini o'rganish hamda 2004-2008-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha mahsus komissiya to'zish va uning vazifalari ko'rsatib berilgan. O'zbekistonni kelajagi har jihatdan o'zluksiz ta'limning holati bilan aloqadordir, chunki mutahassis hodimlar tayyorlash darajasi azaldan halqning iqtisodiy gullab yashnashi, ma'daniyati ma'naviyati va hattoki ruhiyatini ham belgilab kelgan.

Milliy dasturning e'tiborli tomoni yana shundaki, unda halqimiz va millatimiz mentalitetining mana shu jihatlarini alohida e'tiborga olganligi bilan kishilarimiz orzu-intilishlari, ihtiyoj va manfaatlarini qondirishga qaratilgandir. Shu o'rinda, masalaning yana bir ahamiyatli jihati bor. Agar biz tarihimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha zamonlarda ham halqimizning dunyoqarashi, o'ziga hos tafakkuri va turmush tarzida hususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga intilish doim kuchli bo'lgan. Bizning mintaqamizda azal-azaldan qulolchilik, ganchkorlik, temirchilik, o'ymakorlik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan kichik-kichik ustahona va do'konlar ko'p bo'lgan. Aholining asosiy qismi shu kasb hunarlar bilan shug'ullanib, ularning mahorati avloddan-avlodga o'tib kelgan. "Ta'lim tug'risida"gi Qonunda bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Ta'lim jarayonidagi tub islohotlar esa mana shu kasb-hunarlarni qayta tiklash, yoshlarga chuqur bilim va hunar o'rgatish asosida ularda ajdodlarimiz kasb-koriga ihlosmandlik fazilatlarini shakllantirishga

[1] Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 23-бет

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008 й. 60-бет.

hizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, muhim bir ijtimoiy masala ishsizlikni kamaytirish, ayniqsa, umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasini bir oz bo'lsada hal etishga imkon beradi. Yoshlar orasida turli oqimlarga ergashuvchilar, davlat qonunchiligini oyoq osti qilayotganlarning uchrayotgani chidab bo'lmaydigan holdir. Bu hol yoshlar tarbiyasida muhim muammolar borligini ko'rsatadi. Yoshlarning asosiy maqsadi, avvalo ilm-hunar o'rganishga, vatan oldidagi fuqorolik burchini o'tashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Oliy uquv yurtlari qoshida yoshlarni qiziqishini inobatga olib, komp'yuterlarni amaliy o'rganish va unga chiqa olish imkoniyatlarini barpo etish uchun kurslar, turli ijodiyot uylari tashkil etilmoqda. "Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga hizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak" deydi prezidentimiz I. A. Karimov. Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida malga oshirilayotgan ishlar huddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun prinsiplariga so'zsiz muvofiq keladi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da zikr etilgan o'zluksiz ta'limning milliy modeli (prinsipi) tamoillari mohiyatan ta'limning milliy-ma'rifiy, ilmiy, tarihiy, xalq an'analari, milliy merosimiz bilan uyg'unlikda olib borilishini anglatsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 4-bobida, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, unining zamonaviy tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq etish, milliy, tarihiy an'analar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan.

Demak, milliy modelga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash tabiiy ravishda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bu bejiz emas albatta "Zamonaviy ta'lim tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik, ta'lim tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi".[1] Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutaffakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiyadangina iborat bo'lmay balki ko'pgina hayotiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Milliy modelimiz bu-shaxs, davlat va jamiyat, o'zluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning o'zviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi. Ilg'or pedagogik tehnologiyalar hozirgi davrdagi ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlarga olib chiqadi. Pedagogik tehnologiyalar ta'lim berishning zamonaviy usullaridan eng muhimi bo'lib, ularni qo'llash, o'quvchi va talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi.

Shaxs ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy dunyoqarashini boyitishda ta'lim tizimi eng muhim omil bo'lib hizmat qilmoqda.

4-masalaning bayoni. "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar hotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Chulpon

[1] Б.Очилова. Миллий-маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Тошкент, "Истиқлол", 2009 й. 132-бет

aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi”.[1] Adabiyot va san’at asarlari Mustaqil respublikamiz fukarolari ma’naviy dunyosini boyitish, ularni go’zal narsalarning hammasidan baxramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma’naviy g’oyasi yuksak, badiiy jozibali adabiyot va san’at asarlari kishilar qalbiga tezrok yo’l topish, esetik xissiyotiga kuchli ta’sir qilish, hayotiy vokea-xodisalarni chuqur mushoxada etishga da’vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun adabiyot va san’at asarlarining kishilarni yuksak ma’naviy-ahloqiy ruxda tarbiyalashdagi badiiy ta’sir etishdek vositalik xususiyatidan imkoni boricha kengrok foydalanish muxim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san’at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarliligida, kishilar ichki - ruxiy dunyosiga emosional ta’sir ko’rsata olishidadir. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san’atning ana shu xususiyatini xisobga olish muximdir.

Ma’naviy tarbiyada o’zbek xalqining boy ma’naviy merosidan keng foydalanish uning ta’sirchanligi, samaradorligini oshirishda muxim omil bo’la oladi. Yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasida Yusuf xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Axmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Mashrab, Mukimiy, Furkat, Abdulla Kodiriy, Chulpon, Usmon Nosir kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruxiy dunyosini ma’naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga koldirgan boy badiiy-ma’naviy merosi o’zining chuqur falsafiy mazmuni, ahloqiy yunalishi bilan ajralib turadi.

Klassik san’atkorlarimiz asarlarida halollik va poklik, to’g’rilik, birovning haqiga ko’z olaytirmaslik, xiyonat kilmaslik, insonparvarlik, vatanparvalik, mexnatsevarlik, diyonatlilik, iymonlilik, halol lukma bilan kun qurish, ota-onani xurmat qilish kabi inson uchun zarur ma’naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan.

Ma’naviy tarbiyada Pirimqul Kodirov, Odil Yokubov, Said Axmad, Utkir Xoshimov, Toxir Malik kabi yozuvchilarimiz; Abdulla Oripov, Erkin Voxidov, Oydin Xojiyeva, Omon Matchon, rauf Parfi kabi shoirlarimizning asar va she’rlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi kaxramonlarning fe’l-atvori, ahloqi, ma’naviy dunyosi to’g’risida suxbat, munozara utkazish katta samara beradi.

“Qachonki milliy madaniyatimizning o’zviy qismi bo’lgan teatr san’ati hususida so’z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo’ja Behbudiyning “Teatr-bu ibrathonadir”, deb aytgan fikrini eslash o’rinlidir”.[1]

Ma’naviy tarbiyada kishilar ongi, ruxiyatiga ta’sir etishda teatr san’atining ham roli, o’rni va ahamiyati, ta’sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san’atini ikki tomoni charxlangan shamshirga uxshatishimiz mumkin. U bir tomoni bilan kishilar qalbiga yoruglik olib kirsa, uni yuksak ma’naviylik tomon yo’llasa, ikkinchi tomoni bilan esa inson qalbidagi nodonlik, jaxolat ya’ni ma’naviyatsizlikka va jaxolatga qarshi kurashadi.

Teatr san’ati boshqa san’at turlari kabi obrazli - badiiy tabiati bilan inson qalbiga emosional ta’sir ko’rsatish, uning ruxiy dunyosiga chuqur kirib borish, shu orkali ma’naviy dunyosini boyitish xususiyatiga ega. Mustaqillikni musaxkamlash, kishilarni yuksak ma’naviylik ruxida tarbiyalashda teatr san’atining ana shu xususiyatidan unumli foydalanish zamon talabi. Afsuski, kishilarimiz, shu jumladan yoshlarimizning teatr,

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008 й., 140-бет

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008 й., 144-бет

kino san’ati, yoki san’atning boshqa turlariga bo’lgan kizikishi unchalik yetarli darajada emasligi kishini ajablantiradi. Teatr vokeligimiz, kishilarimiz turmushi, intilishi, kizikishi, xatti-harakatlarini xayajon bilan aks ettiradigan maydondir. U bir vaktning o’zida ham so’z, ham musika, ham xatti-harakat orkali inson qalbiga ta’sir etish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun teatr va kino san’atining bu xususiyatidan ma’naviy tarbiyada foydalanish katta samara berishi shubxasiz. Faqat ulardan samarali foydalanish lozim bo’ladi.

Bunday asarlarni kishilar qalbiga kirib borishida televideniye imkoniyatlaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Kishilarimiz «Otalar so’zi - aklning ko’zi» kabi ko’rsatuvlarni sabrsizlik bilan ko’tganidek, ma’naviy yuksaklikka chorlaydigan, ya’ni jasorat va olijanoblikni, ma’naviy go’zallik va ahloqiy poklikni, ulug’vorlik, nafosat va ma’naviy qadriyatlarimizni targib etuvchi badiiy yuksak adabiyot va san’at asarlariga muxtojdir. Chunki, ular ma’naviyatimizni yo’qsaltiribgina kolmasdan, shuning bilan birga yoshlarimizga ilm egallashda, millat va vatanni taraqqiy ettirishda fidoyilik ko’rsatishda, zavk-shavk va ilxom bagishlaydigan vositalarning asosiylaridan biri xisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda va yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol g’oyalarini singdirishda respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining olib borayotgan amaliy ishlarini ham a’loxida ta’kidlash lozim bo’ladi. Uning viloyatlardagi va Toshkent shaxridagi bilimlarida samarali ishlar amalga oshirilmokda. Xususan, talaba yoshlar bilan respublikamizning ko’zga ko’ringan adabiyot va san’at arboblarining uchrashuvlarini tashkil qilish, ko’zga ko’ringan olimlar ishtirokida turli ilmiy-amaliy konferensiyalar uyushtirish kabi uta muxim ishlarni amalga oshirilmokda. Ayniqsa, bu kengash tomonidan ma’naviyat, tarbiya va ta’lim masalalariga bagishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop risolalarni bosib chiqarayotgani va ularni yoshlar urtasida keng targibot qilayotganligini alohida ta’kidlash lozim bo’ladi. Bu kengash o’z faoliyati bilan mamlakatimizda tarbiya borasida olib borilayotgan umumiy ishga o’z xissasini qushib kelmoqda.

5-masalaning bayoni. “Hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, hususan, televideniye va radiosiz umuman tasavvur etib bo’lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o’zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, hato bo’lmaydi. Shu sababli o’tkir ta’sir kuchiga ega bo’lgan televideniye va radio sohasini izchil taraqqiy ettirish jamiyatning doimiy e’tibor markazida bo’lishi tabiiy”[1]. OAV orqali avvalo insonlar siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, malaniy hayotda hamda dunyo hamjamiyati, davlatlararo munosabatlarda sodir bo’layotgan o’zgarishlardan habardor bo’ladi. Uni idrok etadi, munosabat bildiradi. “Axborot”, “Ommaviy axborot” atamalari XX-asrda keng ishlatila boshlandi. Axborot mamlakatlar va dunyo xalqlarida bo’layotgan voqyea va hodisalar to’g’risida xabarni yetkazish bilan harakterlanadi. Ommaviy axborot esa uning ko’lamini va keng jamoatchilikka yo’naltirilganligini bildiradi. XXI-asr “axborot asri” bo’lishi hamda axborotning asosiy “Resurs”ga aylanishi to’g’risidagi qarashlar reallikka aylanmoqda. Ayni paytda, ommaviy axborot vositalari, dunyoda mafkuraviy kurash yoki inson ongi va tafakKo’rini egallash, unga ta’sir ko’rsatish maydoni hamdir.

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008 й., 134-бет.

Ommaviy axborot vositalari turli xalqlar madaniy xayotiga, tafakkur tarziga, urf-odat, an'analari, qadriyatlariga ham ta'sir ko'rsatish va ko'proq ta'sir maydoniga ega bo'lish imkoniyatiga ega.

Dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yetakchi o'rin tutadi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynaganligi uchun ham ularga to'rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 67-moddasida: "OAV erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", deyiladi. Hozirgi kunda mustaqil davlatimizda ommaviy axborot vositalari va ularda xizmat qilayotgan ijodkorlarning erkin, keng qamrovli,oshkora faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Mustaqillik yillarida Oliy Majlis tomonidan bir qator Qonunlar qabo'l qilindiki, ular har bir ommaviy vositasi va har bir jurnalist uchun dasturilamaldir,o'ziga xos himoya vositasidir.

O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy vositadir. Ana shu qonun asosida ommaviy axborot vositalari rivojlanmoqda,saflari kengaymoqda. Atigi bir necha yil muqaddam mustaqil va elektron gazetalar, kabelli va xususiy televideniye hamda radiolar haqida o'ylab ko'rishning o'zi befoyda edi.

OAV O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning o'zligini, ularning ma'naviy-axloqiy ideallarini yoritishda, diniy bag'rikenglikni, millatlararo totuvlikni targ'ib-tashviq etishda muhim o'rin tutmoqda. Mamlakatimizda OAV va ma'naviy-marifiy qadriyatlarning asoslari deganda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq: diniy-ruxiy asoslari, yer va suvni asrab avaylash, oila va qarindoshlik munosabatlari odobi, hozirgi dunyo va axborot sivilizasiyalariga monandlik. Bu demokratik qadriyatlar bilan, ya'ni Inson huquqlariga rioya qilish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi, ilm-fan rivoji, axolining saloxiyatini oshirish bilan uyg'un holda amalga oshmoqda.

Unga alohida e'tiborni qaratish va fuqorolarda unga nisbatan "mafkuraviy immunitetni" shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etayotganligini inkor etib bo'lmaydi. OAV jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad-yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish,komil insonni tarbiyalash,ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi milliy istiqlol g'oyasi bilan sug'orilgan maqsadlarni xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchini shakllantirishda hamda xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodini uyg'otishda va qaror toptirishda muhim rol o'ynaydi. Dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro ishonch va barqarorlikni ta'minlashda hamda ma'rifiy jamiyat qurishda, dunyo axborot makonida o'z o'rniga ega bo'lishda,undan xolisona foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari - ukituvchilar, jurnalislar, yozuvchilar, vrachlar, artislar, barcha raxbarlar birdek mas'uldirlar. Mamlakatimizda tarbiyani xozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo'ladi.

2.2.2. LABORATORIYA MAShG'ULOTLARINING IShLANMALARI, TARQATMA MATERIALLAR, ULARNI O'TKAZISh VA QO'LLASh BO'YIChA METODIK TAVSIYaNOMALAR

1-MAVZU. Мустақиллик ва миллий-маънавий тикланиш концепцияси.

1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg'ulot shakli	Informasion – ko'rgazmali ma'ruza
Ma'ruza rejasi	Reja: 1. Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi. 2. I.A. Karimov asarlarida O'zbekistonning ma'naviy rivojlantirish konsepsiyasi va uning tadrijiy xarakteri. 3. Milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirish zaruriyati, ahamiyati va umummetodologik asoslari
Mashg'ulotning maqsadi: Mustaqillik hamda mustaqillik sharofati bilan ma'naviyat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, ma'naviyatni rivojlantirish – davlat siyosatida ustuvor soha ekanligi haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar	*O'quv faoliyati natijalari:*
Mustaqillik va istiqlol tushunchalari mazmunini yoritib beradi.	Mustaqillik va ma'naviyat tushunchasi mohiyatini aytib beradi.
I. Karimov asarlarida ma'naviyat masalalari talqini bilan tanishtiradi.	I.Karimov asarlarida ma'naviyat, uning asosiy tarkibiy qismlari va mezonlari sanab beradi va izoh beradi.
Ma'naviyat jamiyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini yoritib beradi.	Ma'naviyati yuksak jamiyat taraqqiy etishini tahlil qiladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, «Klaster», bahs-munozara, muammoli vaziyatlar usuli, FSMU texno-logiyasi.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O'qitish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini

	nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*talaba*
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. Har bir tinglovchiga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tarqatmalardan foydalanadi
	1.3. Mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining tayanch iboralari va ma’ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so’rov usulida ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollash-tiradi.	O’UM ga qaraydilar. O’z fikrini erkin namoyon etadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O’quv mashg’ulotining birinchi savoli bo’yicha ma’ruza qiladi. Ma’naviyatning ta’rifi to’g’risidagi mulohazalarni slaydlar orqali falsafiy tahlil qiladi. (1-ilova). Talabalarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi: 1. Mustaqillik nima? 2.Milliy mustaqillik sharoitida ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o’rni nimada? 3. Ma’naviyatning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi? Talabalarning fikrini tinglab, birinchi rejani umumlashtiradi.	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.
	2.2. Fanni o’rganish metodlarini slaydlar orqali tushuntiradi. (2-ilova) Har bir savolni kalit so’zlar orqali umumlashtirib beradi. Ba’zi bir kalit so’zlarning mohiyatini «Klaster» usulidan foydalanilgan holda yoritib beradi.	Tinglaydilar. Slaydga e’tibor qaratadi, yozib boradi. Klaster tuzadilar
	2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda FSMU texnologiyasidan foydalaniladi. FSMU texnologiyasida berilgan: «Yuksak ma’naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi bo’la oladimi?» - degan fikrlarni tinglab, qo’shimcha qiladi. Shu tariqa uchinchi savolni umumlashtirib, xulosalaydi.	Juft-juft bo’lib, jadvalni to’ldiradilar.
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi.	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10	3.1. Ma’ruzada qilingan har bir savol qanday hal qilinganligi to’g’risida umumiy yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning bilim va ko’nikmalari baholanadi.	O’zini qiziqtirgan savollar

minut)		beradi
	3.3. Kelgusi mashg’ulotga tayyorgarlik ko’rish bo’yicha topshiriqlar va foydala-niladigan adabiyotlar tavsiya etiladi.	Eshitadi va O’UM ga qaraydilar.

O’quv vizual materiallar

1-slayd

2-slayd

Президентимиз томонидан илгари сурилган бу концептуал ғоянинг назарий ва амалий аҳамияти

Шўролар даврида маънавиятни ривожлантиришга учинчи даражали омил сифатида қаралишининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маънавий-маърифий инқирозининг сабабларини ҳам кўрсатиб беради.

- Маънавиятни ривожлантирмасдан, шахснинг маънавий руҳиятини ўзгартирмасдан туриб жамиятда кўзланган мақсадни амалга ошириш мумкин эмаслигига асосий эътиборни қаратган.

3-slayd

Президентимиз миллий-маънавий тикланиш вазифасини амалга оширишга бағишланган концепцияларини ўзининг қуйидаги асарларида ижодий ривожлантирган, янги мазмун билан бойитган, тараққиётимизнинг янги босқичида юзага келаётган муаммоларни ҳал қилиш эҳтиёжларига мос равишда унинг янги йўналишларини белгилаб берган.

- «Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида»
- «Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари»
- «Амир Темур - фахримиз, ғуруримиз»
- «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари»

- «Баркамол авло Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори»
- «Тарихий хотирасиз келажак йўқ»
- «Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин”
- «Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз(«Туркистон» газетасининг мухбири саволларига жавоблари)»,
- «Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда («Туркистон-пресс» ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблари)»

- «Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда»,
- «Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуриш – пировард мақсадимиз»
- «Миллий мафкура – келажак пойдевори»
- «донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман («Фидокор» газетаси мухбири саволларига жавоблари)»

4-slayd

MUSTAQILLIK SHAROFATI BILAN AMALGA OSHIRILGAN MA'NAVIY TADBIRLAR

- **Baxouddin Nakshband tavalludining 675 yilligi;**
- **Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi**
- **1998 yilda Imom al-Buxoriy xazratlarining 1225 yilliklari**
- **Axmad al-Fargoniyning 1200 yilligi**
- **Amir Temur tavalludining 660 yilligi**
- **Mirzo Ulugbekning 600 yilligi**
- **Xiva va Buxoro shaxarlarining 2500 yillik tuylari 1997 yilda katta tantanalar bilan nishonlandi**
- **Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi**
- **«Alpomish» dostonining 1000 yilligi**
- **«Avesto»ning 2700 yilligi**
- **Muhammad Rizo Erniyozbek ugli Ogaxiyning 190 yilliklari 1999 yilda keng nishonlandi**

2-МАВЗУ. Маънавият асослари фанининг предмети, мақсади ва вазифалари

2.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Informasion – ko’rgazmali ma’ruza
Ma’ruza rejasi	Reja: 1.“Ma’naviyat” tushunchasi, mohiyati, ta’riflari va ularning o’zaro nisbatlari 2. Ma’naviyat asoslari fanining predmeti, asosiy kategoriyalari, rivojlanish qonuniyatlari. 3.Axloq.din falsafa madaniyat milliy meros-ma’naviyatning tarkibiy qismlari. 4. Milliy g’oya, mafkura va ma’naviyatning o’zaro ta’siri.
Mashg’ulotning maqsadi: Ma’naviyat hamda ma’naviyatning kategoriyalari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, ma’naviyatni rivojlantirish – davlat siyosatida ustuvor soha ekanligi haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar	*O’quv faoliyati natijalari:*
«Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti va «ma’naviyat» tushunchasi mazmunini yoritib beradi.	«Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti va «ma’naviyat» tushunchasi mohiyatini aytib beradi.
Ma’naviyatning asosiy tarkibiy qismlari va kategoriyalari bilan tanishtiradi.	Ma’naviyatning asosiy tarkibiy qismlari va kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlarini sanab beradi va izoh beradi.
Ma’naviyat jamiyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini yoritib beradi.	Ma’naviyati yuksak jamiyat taraqqiy etishini tahlil qiladi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, «Klaster», bahs-munozara, muammoli vaziyatlar usuli, FSMU texno-logiyasi.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O’qitish shakllari	Jamoa, to’g’ridan-to’g’ri va guruhlarda ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*talaba*
I-	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qila-di,	Mavzu nomini

bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.	yozib oladilar
	1.2. Har bir tinglovchiga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tarqatmalardan foydalanadi
	1.3. Mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining tayanch iboralari va ma’ruza reja-siga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so’rov usulida ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollash-tiradi.	O’UM ga qaraydilar. O’z fikrini erkin namoyon etadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O’quv mashg’ulotining birinchi sa-voli bo’yicha ma’ruza qiladi. Ma’na-viyatning ta’rifi to’g’risidagi mulohaza-larni slaydlar orqali falsafiy tahlil qiladi. (1-ilova). Talabalarni mulo-hazaga tortish maqsadida ularga savol-lar bilan murojaat qiladi: 1. Ma’naviyat nima? 2. Ma’naviyatning shaxs, millat, jamiyat hayotidagi o’rni nimada? 3. Ma’naviyatning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi? Talabalarning fik-rini tinglab, birinchi rejani umum-lashtiradi.	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.
	2.2. Fanni o’rganish metodlarini slayd-lar orqali tushuntiradi. (2-ilova) Har bir savolni kalit so’zlar orqali umumlashtirib beradi. Ba’zi bir kalit so’zlarning mohiyatini «Klaster» usuli-dan foydalanilgan holda yoritib beradi.	Tinglaydilar. Slaydga e’tibor qaratadi, yozib boradi. Klaster tuzadilar
	2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda FSMU texnologiyasidan foydalaniladi. FSMU texnologiyasida berilgan: «Yuksak ma’naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi bo’la oladimi?» - degan fikrlarni tinglab, qo’shimcha qiladi. Shu tariqa uchinchi savolni umumlashtirib, xulosalaydi.	Juft-juft bo’lib, jadvalni to’ldiradilar.
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi.	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Ma’ruzada qilingan har bir savol qanday hal qilinganligi to’g’risida umumiy yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning bilim va ko’nikma-lari baholanadi.	O’zini qiziqtirgan savollar beradi
	3.3. Kelgusi mashg’ulotga tayyorgarlik ko’rish bo’yicha topshiriqlar va foydala-niladigan adabiyotlar tavsiya etiladi.	Eshitadi va O’UM ga qaraydilar.

1-Ilova

O’quv vizual materiallar

1-savol. Ma’naviyatning ta’rifi to’g’risida mulohazalar

va uning falsafiy tahlili

1-slayd

«Ma’naviyat» tushunchasining falsafiy tahlili

Ma’naviyat – insonning ruhan poklanish,
qalban ulg’ayishga chorlaydigan odamning
ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini
butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch,
uning barcha qarashlarining mezonidir.
I.KARIMOV

Ma’naviyat – inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo’lib,
kishilar uning vositasida o’zlarini anglaydilar, jamiyatni,
tabiatni, ularning mavjudligi hamda taraqqiyoti
xususiyatlarini o’rganadilar, qonunlarini kashf etadilar
va ularga tayanib, o’z turmush sharoitlari, amaliy
faoliyatlari muammolarini hal etadilar
A.JALOLOV

Ma’naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir
kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati,
idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha.
A.IBROHIMOV, X.SULTONOV, N.JO’RAYEV

Ma’naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot
sifatidagi mohiyati, ya’ni insonning mehr-muruvvat,
adolat, to’g’rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus,
vatanparvarlik, go’zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka
nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy
xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik,
mushtaraklik kasb etgan majmuidir.
A.ERKAYeV

Маънавият фақат инсон, унинг борлиғи, орзу-интилишлари,
тафаккури, дунёқараши билан бевосита боғлиқ бўлган
инсоннинг ижтимоий-маданий мавжудот сифатидаги
маъсулиятидир.
Б. ОЧИЛОВА

2-savol. Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari,

uning rivojlanish qonuniyatlari

2-slayd

Ma’naviyatning tarkibiy qismlari



3-slayd

Ma’naviyatning shaxs, millat, taraqqiyot va jamiyat bilan o’zaro aloqadorligi



4-slayd

3-savol. Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari



4-savol. Ma’naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor soha

5-slayd

«Ma’naviyat asoslari» kursini o’rganish metodlari



2-Ilova

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi
FSMU texnologiyasi

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko’rsating.

(M) – Ko’rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o’rgatadi.

Yuksak ma’naviyat jamiyat taraqqiyotining asosi bo’la oladimi?

F	Fikringizni bayon eting.
S	Fikringizni bayoniga biror sabab ko’rsating.
M	Ko’rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
U	Fikringizni umumlashtiring.

2.2. Amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi

Talabalar soni 25 ta	*Vaqti 2 soat*
Mashg’ulot shakli	Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg’ulot.
Mashg’ulot rejasi	1. Ma’naviyat asoslari fanining predmeti, maqsad va vazifalari. 2. Ma’naviyat va ma’rifat tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati. 3. Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari, ularning rivojlanish qonuniyatlari. 4. Ma’naviyatni rivojlantirish davlat siyosatidagi ustivor soha.
Mashg’ulotning maqsadi: Ma’naviyat asoslari fani predmeti, uning asosiy muammolari va kelib chiqishining ijtimoiy iqtisodiy zaminlari haqida tasavvur hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar:	*O’quv faoliyati natijalari:*
Ma’naviyat paydo bo’lishining ijtimoiy iqtisodiy zaminlari haqida tasavvur hosil qilish.	Ma’naviyat kelib chiqishining ijtimoiy iqtisodiy zaminlarini yoritib bera oladi.
Ma’naviyat asoslari fani predmeti, uning asosiy muammolari haqida ma’lumot berish.	Ma’naviyat asoslari predmeti, uning asosiy muammolari haqida ma’lumot bera oladi.
O’zbekiston Respublikasida ma’naviyat masalasi va unga hozirgi davrda munosabat haqida ma’lumotlar berish.	O’zbekiston Respublikasida ma’naviyat fani va unga munosabat masalasi haqida asosli fikr yuritish.
Ma’naviyat to’g’risidagi mutafakkirlar fikrlarini bayon qilish.	Mutafakkirlar fikrlari orqali ma’naviyatni anglash.
O’qitish vositalari	Testlar, qog’oz, marker, doska, sxemalar, slaydlar.
O’qitish usullari	Topshiriqlar, «Nima uchun?» amaliy ishlash usuli, suhbat, dialog, diskussiya
O’qitish shakllari	Individual, guruh, jamoaviy ishlash.
O’qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O'qituvchi	*Talaba*
1-Bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
	1.2. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (1-Ilova)	Yozib oladilar.
	1.3. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. Savollar berib talabalarni faollashtiradi.	Topshiriqlar bilan tanishadi, yozib oladi.
2-Boskich. Asosiy bulim (65 daqiqa)	2.1. Mavzu savollari bo'yicha topshiriqlar beradi va guruhlarda ishlashni tashkil etadi. (2-Ilova) Guruhlarning javoblarini diqqat bilan tinglaydi, taqdimot yakunida fikrlarini umumlashtiradi.	Talabalarni kichik guruhlarga ajratadi. Topshiriqlar ustida ishlaydi. Taqdimotini tayyorlaydilar.
	2.2. Har bir guruhga 3-Ilovada taqdim etilgan jadvalni to'ldirishni tavsiya qiladi.	Individual yoki jamoada o'z fikrini bayon etadi. Taqdimo-tini o'tkazadilar.
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi. Yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	Taqdimot o'tkazadi. G'olib guruhlarni aniqlab, baholaydi.
3-Bosqich. Yakunlovchi (5 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun 4-ilovada taqdim etilgan topshiriqni beradi.	O'UM ga qaraydilar.

1-Ilova

Talabalarni baholash mezonlari ko'rsatkichlari

Guruh	*Baho*	*Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari*			
		O'tilgan mavzu-ni to'liq biladi	*Faollik*	*Misollar keltira oldi*	*Jami*
	Ball	*0,8*	*0,5*	*1,0*	*2,2*
1					
2					
3					

2– 2,2 ball – a'lo
1,7– 1,9 ball – yaxshi
1,3 – 1,6 ball – qoniqarli

2 - Ilova

1-o’quv topshiriq

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi.

1-guruh.

Savol: Ma’naviyat asoslari fanining predmeti, maqsad va vazifalarini tushuntirib bering?

2-guruh.

Savol: Ma’naviyat va ma’rifat tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati haqida ma’lumot bering.

3-guruh.

Savol: Ma’naviyatning asosiy kategoriyalari, ularning rivojllanish qonuniyatlarini yoriting.

4-guruh.

Savol: Ma’naviyatni rivojlantirish davlat siyosatidagi ustivor sohasi ekanligi haqida ma’lumot bering.

3-Ilova

«Nima uchun?» jadvalini to’ldiring?



4 -Ilova

Mustaqil tayyorgarlik ko’rish uchun topshiriqlar

1. Internet saydlarga kirib mavzuga doir hujjatlarni ko’rib chiqing.
2. Berilgan adabiyotlar ro’yxati bo’yicha mustaqil ishlang.
3. Prezident I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asari mavzusi bo’yicha referat tayyorlang.
4. Ma’naviyat haqida Jahon ensiklopediyasining atamali lug’atini o’rganib chiqing.

3-МАВЗУ. Маънавиятнинг тарихий, назарий – илмий ва амалий заминлари

3.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Informasion ma’lumotga ega bo’lgan ma’ruza
Ma’ruza rejasi	Reja: 1. Ma’naviyat tarixi: yondoshuvlar, davrlashtirish muammolari va milliy ma’naviyatimiz manbaalari 2.Inson ma’naviyatining ilk shaklanish jarayoni. Zardo’shtiylik ma’naviyati 3. Islom mintiqa madaniyatida milliy ma’naviyatimiz takomili va ma’rifat yo’llari 4.Tasavvuf, uning tariqatlaridagi ma’naviy-g’oyaviy masalalar
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Ma’naviyatning tarixiy, nazariy, ilmiy va amaliy zaminlari haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar	*O’quv faoliyati natijalari:*.
Ma’naviyatning tarixi, uni davrlashtirish muammolari hamda manbalarini o’rganish muhim ekanligini yoritib beradi.	Ma’naviyat tarixini o’rganish orqali jamiyat hayoti qay tarzda kechganligi haqida tushuncha hosil qiladi.
Ma’navyaitni tarixiylik, mantiqiylik va qiyosiylik usullari orqali tahlil qiladi.	Ma’naviyatimiz tarixiga xronologik nuqtai nazaridan yondoshadi.
Zardushtiylik ma’naviyati, madaniyati haqida ma’lumot beradi. Islom ma’naviyatidan bahs yuritadi.	Zardushtiylik inson ma’naviyatining ilk manbalaridan biri ekanligini tushuntiradi. Islom ma’naviyati va manbalarini izohlab beradi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, aqliy hujum, «Baliq skeleti» va «Kaskad» texnikalari, «Blis-so’rov» uslubi.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor, video-tasma..
O’qitish shakllari	Jamoa, juft-juft bo’lib ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*talaba*
I-bosqich. Mavzuga	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.	Mavzuni nomini yozib oladilar.

kirish. (10 minut)	1.2. Har bir tinglovchiga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tarqatmalardan foydalanadi.
	1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi.	O'UM ga qaraydilar. O'z fikrini erkin bayon etadilar.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza mashg'ulotini «Aqliy hujum» uslubi bilan boshlaydi. Talabalarda bilimlar mav-jud, uni bevosita mustahkamlash uchun «Iqtisodiyot nima?» deb savol beradi, umumlashtiradi.	O'UM ga qaraydilar. O'z fikrini erkin bayon etadilar.
	2.2. Birinchi rejada berilgan, mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'lini, «Kaskad» texnikasi orqali tushuntiradi (1-ilova). Talabalarning fikrini unum-lashtiradi.	Erkin o'z fikrlarini bildiradilar. Yozadilar.
	2.3. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishishning sharti ekanligini jonlantiruvchi savollar bilan yoritiladi: 1. Zardushtiylik ma'naviyati nima? 2. Islom ma'naviyati deganda nimani tushunasiz? 3. Tasavvuf nima? Javoblarni tinglab, ularni to'ldiradi va umumlashtiradi.	Javob beradilar. O'UM ga qaraydilar. Tinglaydilar.
	2.4. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda talabalarni erkin bahs-munozaraga tortish maqsadida «Baliq skeleti» texnikasidan foydalanilgan holda «Nima uchun ma'naviyat va iqti-sodiyot o'zaro bog'liq?» deb yozilgan tarqatma materiallar bilan ishlashni taklif qiladi. (2-ilova). Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni xulosalaydi. Video-lavha namoyish etadi.	Juft-juft bo'lib, organayzerni to'ldiradilar.
	2.5. Tayanch iboralarga qaytiladi (3-ilova). Talabalarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida «Blis–so'rov» o'tkazdi. (4-ilova).	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Javob beradilar.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Ma'ruzada qilingan har bir savol qanday hal qilinganligi to'g'risida yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning faolligi rag'batlantiriladi.	O'zini qiziqtirgan savollar beradi.
	3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati tavsiya etiladi. Uyga vazifa sifatida testlarni ko'rib chiqish topshiriladi (5-	O'UM ga qaraydilar.

	ilova).	

1-Ilova

«Kaskad» texnikasi

Ushbu texnologiya g’oyalar tizimini ishlab chiqishga ko’mak beradi: Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.



2-Ilova

«Baliq skeleti» texnikasi

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.



3-Ilova

1-slayd

Iboralar asosida vizual materiallar

1.	Iqtisodiyot	9.	O’zbekistonning iqtisodiy Salohiyati
2.	Ishlab chiqarish	10.	Intellektual salohiyat
3.	Bozor munosabati	11.	Davlat suvereniteti
4.	Bozor iqtisodi	12.	Yangini qurmay, eskini Buzmang
5.	Tadbirkorlik	13.	Eksport
6.	Taraqqiyotning o’zbek modeli	14.	Bozor iqtisodining sharti
7.	Qonun ustuvorligi	15.	Bozor iqtisodining talabi
8.	Turizm darajasi	16.	Ma’rifat

O’quv vizual materiallar

2-slayd

Ma’naviyatning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi



3-slayd

Iqtisodiy yo’nalishning ta’riflari



4-Ilova


Зардуштийликнинг юзага келиши сабаблари қуйидагилардан иборат:
Жамият ишлаб чиқариш кучларининг ривожланиши, синфлар ва давлатнинг юзага келиши натижасида эски муносабатларни акс эттирувчи ибтидоий дин шаклларнинг янги давр талабларига мос келмай қолиши;
Табиат кучлари, мавжудотлар ва руҳларни муқаддаслаштирувчи, вазифалари ноаниқ ғайритабиий кучларни ифодалайдиган уруғ-қабилавий дин, ўз қиёфасига эга, ишлаб чиқариш соҳаларига ҳомийлик қиладиган, куч ва имкониятларига кўра гуруҳлашган қудратли худолар билан алмаштириш зарурати;
Маънавий тажрибани умумлаштириш ва уларга илоҳий тус бериш билан жамият ва давлатни янада мустаҳкамлаш эҳтиёжи.

Ясна наски худоларга ҳамду сано, муножот ва қурбонлик қилиш дуоларидан тузилган. Унинг матни 72 бобга бўлинган бўлиб, бизгача тўлиқ етиб келмаган. Зардуштнинг шеърий услубда ёзган хатнома (гот)лари 17 боб ҳажмда шу қисмга киритилган

Яштлар наски – зардуштийларнинг худоларини мадҳ этувчи қўшиқ. Аҳура Мазда яратган маъбуд ва маъбудалар (Авестода язатлар деб юритилади) шаънига ўқиладиган дуо ва алқов шеърларидан тузилган. Наск 22 бобдан иборат бўлиб, шундан 10 таси сақланиб қолган.

Виспорад наски (барча боблар деган маънони англатади) яштларга қўшимча тарзда ёзилган бўлиб, 25 бобдан иборат. Унинг қисмлари бизгача тўлиқ етиб келмаган. Виспорад намоз вақтида ўқиладиган оят ва суралардан, оламни билишга оид панд-насиҳатлардан тузилган.

Вандидот (вийдаивадота сўзининг ўзгарган шакли бўлиб, девларга қарши қонун деган маънони англатади) 22 бобдан иборат бўлиб, улар бизгача тўлиқ етиб келган. Вандидот асосан девларни маҳв этишга мўлжалланган дуолар, покланиш тартиби, Аҳура Мазда ва Зардуштнинг савол-жавобларидан тузилган.

ЗАРДУШТИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ

Зардуштийлик таълимотига биноан, борлиқ ёруғлик ва зулмат, ҳаёт ва ўлим, адолат ва адолатсизликлар каби қарама-қаршиликлардан ташкил топган. Бу қарама-қаршиликлар табиат ва жамиятда турлича кўринишда намоён бўлади. Табиатда улар ҳаёт ва ўлим, иссиқлик ва совуқлик, ёруғлик ва зулмат кучларини ифода этади. Ижтимоий ҳаётда улар адолат ва адолатсизлик, қонунга итоаткорлик ва қонунларга бўйсунмаслик сингари кўринишларида намоён бўлади. Қарама-қаршиликлар воқеа ва ҳодисаларнинг манбаидир. Яхшилик ва ёмонлик, иссиқлик ва совуқлик каби кучлар ўртасида тўхтовсиз кураш боради. Бу кураш худолар даражасида ҳам мавжуд. Донишманд худо Аҳура Мазда – эзгулик ва яхшилик тимсоли. Аҳура Маздани Авестода йигирма сифатга эга илоҳ деб таърифланади. Бу Аҳура Мазданинг гўзал исмларидир.

Аҳура Маздага дунёдаги барча ёмонликларнинг тимсоли – Ахриман (ёвуз руҳ) қарши туради. Аҳура Мазда Ахриман (Анхра Майнйу)ни одамларнинг ибрат олишлари учун ўз жисмидан яратган. Шу боис у Аҳура Маздага қарши туради, дунёда ёмонлик, зулм ва зулматнинг яхшилик ва ёруғлик устидан ғалаба қилиши учун курашади. Донишманд худо дунё ва ундаги ҳаётни, ёруғликни, умуман, барча ижобий воқеликларни яратган бўлса, ёвуз руҳ ўлим, зулмат, совуқлик ва одамларга зиён-заҳмат етказувчи жонзодларни яратган.
Эзгулик илоҳи Аҳура Мазда ва ёвузлик руҳи Ахриман ўртасидаги кураш фақат уларнинг ўзларига хос эмас. Бу курашда уларнинг ёрдамчилари ҳам иштирок этади. Аҳура Мазда аввало олти нафар энг яқин ёрдамчиларига таянади. Жумладан, Воху Манаҳ (эзгу фикр) пода ва чорвани, Аша Ваҳишита (юксак ҳақиқат) оловни, Ҳашатра Варья (муносиб қудрат, ҳокимият) маъданларни, Сиэнта Армати (муқаддас итоат) ерни, Амэрэтат (мангулик) ўсимликлар дунёсини бошқарган.

Зардуштийлик таълимотида АХЛОҚ

Кишининг маънавий баркамоллиги қадрланади, одамларни имон-эътиқодли бўлишга даъват этилади. Фақат имонли одам эзгуликни ёвузликда фарқлай олади. Зардуштийлик имони фикрларни софлиги, сўзнинг собитлиги, амалларнинг ихлосонийлигига асосланади.

Одамлар тозаликка ва тартиб-интизомга қатъий ри қилишлари керак. Кишилардаги меҳр-шафқат, ота-она, оила ва Ватанга муҳаббат, миннатдорлик ҳис-туйғулари улуғланади. Ота-онадан фарзанд олдидаг бурчини бажаришлари талаб қилинади. Битта динга эътиқод қиладиган одамлар бир-бирларига ёрдам беришлари, ҳамжиҳатликда ва аҳилликда яшашлар лозим. Аҳура Мазда одамларни меҳнатни севиш, ер ишлов бериш ва чорвани кўпайтиришга даъват эта Дунёда моддий бойликларнинг кўпайиши зулм ва ёвузликнинг йўқолишига хизмат қилади.

Зардуштийлик таълимотида маънавий қадриятларни жамиятд топтириш муаммоси алоҳида аҳамиятга эга. Дин кишиларни ҳа яшашга даъват этса-да, ўз ҳаёт йўлларини эркин танлашларига тўсқинлик қилмайди. Одамлар ахлоқий танлов эркинлигига эг Худолар даражасида яхшилик ва ёмонлик тарафдорлари ўртас курашнинг натижасига одамларнинг қайси тарафни танлашла таъсир этади. Зардуштийликда инсонлар худолар ўртасидаги курашнинг ожиз кузатувчиси эмас, балки бу жараённинг муҳи иштирокчилари бўлади. Ҳар бир киши ҳаёт йўлини мустақил танлайди ва ахлоқий танлови учун нариги дунёда ва охиратда жавобгар бўлади. Одам ҳаёт йўлини эркин танласа-да, унинг та азалдан белгиланган.

Инсоният тарихи 12 минг йилдан иборат ва тўрт босқичга бўлинади. Уларнинг ҳар бири 3 минг йил давом этган.

Биринчи босқичда руҳ, ғоя ва нарсалар бўлмаган. Аста-секин ибтидоий бўшлиқдан кейинчалик ерда юзага келган нарса ва ҳодисаларнинг дастлабки бели

Иккинчи босқичда Донишманд худо (Аҳура Мазда) осмон, юлдуз, ой, қуёш, табиат, Одам Ато (Йима) ва биринчи муқаддас буқа (Геуш урван) кабиларни яратган. Йима (Фирдавсийнинг Шоҳнома» достонида Жамшид деб аталган) худо Аҳура Маздани илк бора тан олган киши. Йима инсониятнинг аждоди бўлиб, барча одамлар ундан тарқалган. Муқаддас буқадан ҳайвонот дунёси вужудга келган. Ахриман ҳам Аҳура Маздага қарама-қарши коинотда планеталар ва кометаларни, ерда чўллар, ваҳший ҳайвонлар, касаллик қўзғатувчи жонзодларни яратган. Қарама-қаршиликларнинг коинотдаги ва ердаги тўқнашувидан бутун борлиқ ҳаракатга келган

Учинчи босқичда Авестода қайд этилган персонажларнинг фаолияти бошланган. Йима одамлар ва чорвани оламнинг сув босиши фалокатидан қутқарган ҳамда Аҳура Мазда ёрдамида одамларга раҳбарлик қилган. Дунёда яхшиликнинг тантанасига хизмат қилган. Йима подшолигида одамлар шараф уйи (жаннат)да ёмонлик, адолатсизлик, ёвузлик, касаллик ва ўлимнинг нима эканлигини билмай, бахтли ҳаёт кечирганлар. Шу боис Йиманинг ҳукмронлик даври Авестода «олтин аср» деб аталади. Йима даврида одамлар ер ҳайдаб, деҳқончилик қилганлар ва чорва урчитганлар.
Вақт ўтиши билан Йима одамларга кўрсатган яхшиликларидан

Тўртинчи босқичнинг ҳар минг йилида дунёга учта халоскор (пайғамбар) келади. Уларнинг охиргиси – Осўшйант охиратда дунёга келиб, барча имонлиларнинг руҳларини биҳиштга етаклайди, гуноҳкор бандалар учун худо Ахура Маздадан мағфират сўрайди. Охиратда ёвуз руҳ енгилиб, яхшилик ёмонликнинг устидан узил-кесил ғалаба қилади. Дунё эритилган темир билан софланиб қайта қурилади. Ердаги ҳаёт тубдан ўзгаради. Яхшилик тантана қилади, ёмонлик ва ўлим йўқолади. Гуноҳкорлар ўзларининг содир этган ёмонликлари учун пушаймон бўлиб, худодан кечирим сўрайдилар. Янгиланган дунёда ёмонлик йўқ қилинганлиги сабабли гуноҳкорлар кечирилади, абадий роҳат-фароғат жамияти барпо этилади. Охиратда зиддиятларга тўла олам йўқ қилинса ҳам одамлар ундан қўрқмасликлари керак. Зеро, охиратда кишиларнинг азалий орзу-истаги ҳисобланувчи бахт, адолат, тинчлик ва тенгликка асосланган жамият қурилади. Дунё тамоман ўзгаради ва ундан ёмонликлар бутунлай йўқолади.

Ислом таълимоти

1) *Оллоҳга ишониш.* Ҳар бир мусулмон (арабчада – бўйин эгувчи, итоаткор деган маъноларни англатади) ягона Оллоҳни тан олиши ва унинг иродасига бўйсуниши шарт;

2) *Оллоҳнинг фаришталарига ишониш.* Мусулмон киши фаришталар (арабчада – малак, малоика) ва ёвуз кучлар (жинлар) мавжудлигига ишониши лозим. Уларнинг барчаси Оллоҳ томонидан яратилган бўлиб, унинг иродасини ифода этувчи жисмсиз мавжудотлардир.

3) *Оллоҳнинг китобларига ишониш.* Мусулмонлар Қуръонни абадий ва одамлар томонидан яратилмаган деб ҳисоблайдилар. Исломда Оллоҳ муқаддас таълимотини Муҳаммаддан олдин Мусо (Моисей) ва Исо (Иисус)ларга ваҳий қилган

4) *Оллоҳнинг пайғамбарларига ишониш.* Пайғамбарлар илоҳий ҳақиқатни бандаларга етказадилар, уларни ваъз, насиҳат билан ҳақ динга ва яхши ишларга чақирадилар. Қуръонда 25 нафар пайғамбарнинг исмлари қайд этилган, бироқ мусулмонлар Муҳаммадни барча пайғамбарнинг пайғамбари, деб ҳисоблайдилар.

5) *охират кунига ишониш.* Охиратда (арабчада – охирги кун, дунёнинг тугаш куни деган маъноларни англатади) Оллоҳ ва у ҳоҳлаганидан бошқа ҳеч нарса қолмайдиган кун.

6) ислом эътиқодини қабул қилувчи ҳар бир киши ўз тақдирининг Оллоҳ томонидан олдиндан белгилаб қўйилгани (тақдири азал)га ишониши лозим

7) *ўлгандан кейин қайта тирилишга ишониш.* Оллоҳнинг иродаси билан қайта тирилган одамларнинг «Маҳшар ери»да тўпланган куни қиёмат деб аталади.

Ислом маросимлари

Рўза ҳайит (арабчада – *Ийд ал-фитр*) Рамазон ойининг тугаганлиги шарафига ўтказиладиган мусулмонлар байрами. У 3 кун давом этади. Байрам намозгоҳда эрталаб намоз ўқиш, ўлганларни ёд олиб худойи, дуои фотиҳа қилиш, йўқсилларга садақа бериш билан бошланади. Барча мусулмонлар Рўза ҳайити кунлари хурсандчилик қиладилар, бир-бирларига совғалар инъом қиладилар.

Қурбон ҳайит – мусулмонларнинг Оллоҳ йўлида муайян жон-зодларни қурбонлик қилиш куни. У рўза ҳайитидан 70 кун ўтганидан сўнг нишонланади. Қурбон ҳайитнинг моҳияти шундаки, диний ривоятларга кўра, Иброҳим пайғамбар ўзининг чин эътиқодини исботлаш учун ўғли Исмоилни Оллоҳ йўлида қурбон қилмоқчи бўлганда, худо уни тўхтатиб қўй сўйишга буюрган. Исломда қурбонлик ҳаж маросимининг мажбурий элементларидан бирига айланган.

Меърож – Муҳаммаднинг мўъжизавий равишда Буроқда Маккадан Ҳуддусга ва ундан осмонга – Оллоҳ олдига қилган сафар куни. Муҳаммад Оллоҳ билан суҳбатда 99 мингта сўз айтган. Бу сафар шунчалик тез бўлганки, у қайтиб келганида ҳали ётган ўрни совимаган, ағдарилган кўзадаги сув ҳали тўкилиб улгурмаган. Муҳаммаднинг тунги парвози хотирасига бағишлаб ҳар йили ражаб ойи (қамарий тақвим бўйича еттинчи ой)нинг 27-кунида байрам ўтказилади.

Мавлуд (арабчада – туғилиш, пайғамбарнинг туғилган куни деган маъноларни англатади) – Муҳаммаднинг туғилган куни байрами. Бу кун масжидларда маросимлар ўтказилади, уларда пайғамбар шаънига мадҳиялардан иборат шеърлар ўқилади, руҳонийлар ваъзхонлик қиладилар, йўқсилларга садақа берилади. Ислом давлат дини сифатида тан олинган мамлакатларда Муҳаммад пайғамбарнинг таваллуд айёми дам олиш куни деб эълон қилинади.

№	Savollar	Javoblar
1.	I.Karimov Oliy Majlisning qaysi sessiyasida «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzusida ma’ruza qildi?	
2.	«Har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda umumiy gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma’naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo’lishi shart», - degan so’zlar I.Karimovning qaysi asarida keltirilgan?	
3.	«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Oliy Majlisning qaysi sessiyasida qabul qilindi?	
4.	Oltin zaxirasi bo’yicha O’zbekiston dunyoda nechanchi o’rinda turadi?	
5.	O’rta Osiyodagi barcha resurslarning necha foizi O’zbekiston hissasiga to’g’ri keladi?	
6.	O’zbekiston paxta mahsulotini eksport qiladigan mamlakatlar ichida nechanchi o’rinni egallaydi?	

Ma’naviyatdagi o’zaro munosabatlar va qonuniyatlar



O’quv vizual materiallar

2-Ilova

1-savol. Milliy ma’naviyat va uning xususiyatlari

1-slayd

Ma’naviyatning tarkibiy qismlari



2-slayd

Ma’naviyatning tarkibiy qismlariga ta’rif

Миллий маънавият муайян элат, миллатга унинг аждодларига хос бўлган ғоят қимматли маънавий бойликлар

Минтақавий маънавият – муайян жуғрофий минтақа миллатларига хос, улар учун умумий бўлган маънавий бойликлар

Умуминсоний маънавият – бутун инсониятга, жаҳон халқларига тегишли бўлган маънавий ахлоқий белгилар

3-slayd

Milliy ma’naviyat



4-slayd

Milliy ma’naviy boyliklar



	Milliy ma’naviyat	**Mintaqaviy ma’naviyat**	**Umumins oniy ma’naviyat**
Millatparvarlik			
Xalqparvarlik			
Vatanparvarlik			
Mehnatsevarlik			
Insoniylik			
Mehr-oqibat			
Iymon-e’tiqod			

Ota-onaga hurmat			
Milliy ong			
Milliy axloq			
Ekologik tarbiya			
Madaniyat			
Sihat-salomatlikni ta’minlash			
Sivilizasiyani saqlash			
Urushning oldini olish			
Terrorizmga qarshi kurash			
An’analar			
Ma’naviy merosga sodiqlik			
Mustaqillik			

4-Ilova

«INSERT» jadvali

Savol: Nima uchun demokratik jamiyat sharoitida milliy ma’naviyatga ehtiyoj sezilmoqda.

Javob variantlari	***V***	**+**	**-**	***?***

V – bilaman. + - yangi ma’lumot.

- - bilganlarimga zid. ? – meni o’ylantirmoqda.

3.2. Amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 30	*Vaqti* 2 soat .
Mashg’ulot shakli	Mavzu bo’yicha “Qanday?” organayzeridan foydalanilgan holda bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg’ulot.

Mashg'ulot rejasi	Reja: 1. Ma'naviy meros, madaniyat qadriyatlar va mafkura ma'naviyatning tarkibiy qismlari. 2. Milliy g'oya mafkura, ma'naviyat va ularning o'zaro nisbati. 3. Tarixiy jarayonlarni anglash va yon atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga daxldorlik hissi. 4. Ma'naviyat sohasining iqtisod, siyosat, xuquq sohalari bilan o'zaro bog'liqligi.
Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash hamda bilim va ko'nikmalar hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar:	*O'kuv faoliyati natijalari*:
Ma'naviyat va madaniyat tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni haqida ma'lumot berish.	Ma'naviyat va madaniyat tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
Ma'naviy meros-ma'naviyat rivojlanishining asosi. Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylik, ularning xususiyatlarini tahlil qilish.	Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylik, ularning xususiyatlarini farqini biladi va ularning xususiyatlarini anglaydi.
Ma'naviyat va mafkura, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari haqida ma'lumot berish.	Ma'naviyat va mafkura, ularning o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi bo'yicha ma'lumotlarni tizimlashtiradi
Iqtisodiyot va ma'naviyat birligining inson tafakkur va turmush tarzini shakllantirish hamda takomillashtirishdagi o'rni haqida izoh beradi.	Iqtisodiyot va ma'naviyat birligining inson tafakkur va turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni haqida ma'lumot bera oladi.
O'qitish usullari va texnika va texnika	Topshiriqlar, "Qanday?", amaliy ishlash usuli, suhbat.
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, slaydlar, kog'oz, marker, doska.
O'qitish shakllari	Individual, guruhlarda va jamoada ishlash.
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg'ulot texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	O'quv faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali	Mavzu nomini yozib oladilar.

	amalga oshirilishini e’lon qiladi.	
	1.2. Talabalarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova)	Yozib oladilar.
	1.3. Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.	Topshiriqlar bilan tanishadilar.
	1.4. Savollar berib suhbat tarzida talabalar bilimlarini jonlantiradi.	Yozib oladilar
2-Bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta guruhga ajratadi. Guruhlarga savol bilan murojaat qiladi. Savol: Ma’naviyat haqida nimalarni bilasiz?” Guruhlarda ishlashni tashkil etib, yordam beradi. Jadvalni to’ldirishni taklif etadi, taqdimotga tayyorlaydi. (2-Ilova)	3 ta kichik guruhlarga ajraladilar. Guruhlarda ishlaydilar, jadvalni to’ldirib, taqdimotni tayyorlaydilar.
	2.2. va 2.3 mavzu savollari bo’yicha bahs-munozara o’tkazadi. Mavzu bo’yicha muammoni xal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish, yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozisiyani shakllantirishga imkon beradi. Talabalarni faollashtirish maqsadida ularga jonlantiruvchi savollar bilan murojaat qiladi. (3-Ilova). Savollarni umumlashtirib, yakuniy xulosa chiqarishga imkon yaratadi	Mavzu savollari va g’oyasi bilan tanishadi, Bahs-munozara yuritib, fikr almashadi, taklif qiladi, muhokama qiladi, baholaydi va eng optimal fikrni tanlaydi
	. 2.4. “Qanday?” organayzeridan fodalangan holda “Ma’naviyatning milliy o’zlikni anglashdagi, inson tafakkur va turmush tarzini shakllantirish hamda takomillashtirishdagi o’rni qanday?” deb savol bilan murojaat qiladi. (4- Ilova)	Jamoa bo’lib “Qanday?” organayzerini to’ldiradilar.
3-Bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.	Savollar beradi.
	3.2. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag’batlantiradi.	Yozib oladilar. O’UM ga qaraydilar
	3.3. Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan test savollarini beradi. (5- ilova).	O’UM ga qaraydilar.

1-Ilova

Talabalarni baholash mezonlari ko’rsatkichlari

Guruh	*Bahо*	*Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari*			
		O’tilgan mavzuni to’liq biladi	*Faollik*	*Misollar keltira oldi*	*Jami*
	Ball	*0,8*	*0,5*	*1,0*	*2,2*

1					
2					
3					

2– 2,2 ball – a’lo
1,7 – 1,9 ball – yaxshi
1,3 – 1,6 ball – qoniqarli

2-Ilova

1-o’quv topshiriq **1- slayd**

Jadvalni to’ldiring

Ma’naviyat va madaniyat tushunchalarining mohiyati haqida nimalarni bi-lasiz?	Ma’naviy merosning tuzilishi va mazmuni	Ma’naviyat va mafkuraning shakllari

Jadvalni to’ldiring

2- slayd

Ma’naviyat	Milliy ma’naviyat	Umuminsoniy ma’naviyat	G’oya ma’naviyati	Mafkura ma’naviyati
.				



Jadvalni to’ldiring

3- slayd



3- Ilova

Jonlantiruvchi savollar

1.Маънавият ва маданият боғлиқлиги нима?
2.Маънавият ривожида ижтимоий муҳит таъсири қандай намоён бўлади?
3.Маънавият ва мафкура нима, унинг мазмуни ва аҳамияти?
4.Иқтисодиётнинг маънавият таркибидаги ўрни ва аҳамияти қандай?

4-Ilova

“Qanday?” iyerarxik diagrammasi



«Qanday» organayzerini to’ldiring



1-o’quv topshiriq

BBB jadvalini to’ldirish uchun tavsiyalar

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.

2. BBB jadvalini to’ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqamidan foydalaning.

Bilaman	**Bilishni istayman**	**Bilib oldim**
1	2	3

Jadvalni to’ldiring
(Ma’naviyatning ta’riflari**)**



3-MAВЗУ. Маънавиятнинг тарихий, назарий, илмий ва амалий заминлари (2-машғулот)

4.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Informasion - tematik ma’ruza.
Ma’ruza rejasi	Reja: 1. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy-ma’rifiy merosi, uning millat va jahon tamaddunidagi o’rni 2. Temuriylar davrida ma’naviyat 3. Milliy uyg’onish va jadidchilik ma’naviyati
Mashg’ulotning maqsadi: Ma’naviyatning tarixiy, nazariy, ilmiy va amaliy zaminlari haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar:	*O’quv faoliyati natijalari:*
Qadimgi O’rta Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayon-larini yoritish.	Qadimgi O’rta Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari izohlay oladi.
Islom ma’naviyati tushunchasi mazmunini yoritib beradi.	Islomda ma’naviyat tushunchasi va shaxs-ning ma’naviy muammolarini aytib beradi.
A. Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat yoritib beradi.	A. Temur va temuriylar sulolasi davri ma’naviyati mohiyatini ochib bera oladi.
Jadidchilik g’oyalari va ularning xalq ma’naviyatini ko’tarishda tutgan o’rnini nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qiladi.	Jadidchilik g’oyalari va ularning xalq ma’naviyatini ko’tarishda tutgan o’rnini izohlab beradi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, hamkorlikda o’qish, B.B.B. texnikasi.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O’qitish shakllari	Jamoa, to’g’ridan-to’g’ri va juft-juft bo’lib ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*talaba*
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Mashg’ulotning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsad va vazifalarini tushuntiradi.	O’UM ga Qaraydilar
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tarqatmalarni ko’rib chiqadi.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Ekranga BBB jadvali va u bilan ishlash qoidalari chiqariladi. BBB jadvalini ishchi daftarlarga ko’chirib olishni talab qiladi. Ma’ruza rejasiga asoslangan holda ikkinchi ustunni to’ldirishni vazifa qilib beradi (1-ilova).	BBB jadvalini chizib oladi. Ma’ruza rejasiga asosan ikkinchi ustunni to’ldiradi.
	2.2. “Insert” texnikasidan foyda-lanilgan holda, ma’ruzada belgi-langan belgilar asosida talabalarga quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi: 1) Nimani ular bilishadi? (ya’ni mustaqil gapirib bera olishadi) 2) Nima tushunarsiz bo’lib qoldi va o’zlashtirilmadi? 3) Qanday qo’shimcha ma’lumot talab qilinadi? Yuqoridagilardan kelib chiqib, uchinchi va to’rtinchi ustunni to’ldirish taklif etiladi, tayanch so’zlarning tartib raqamlari qo’yib chiqiladi (2-ilova)	Uchinchi va to’rtinchi ustun to’ldiriladi.
	2.3. Blis-so’rov orqali bir necha javoblar tinglanadi va juft-juft bo’lib ishlashni taklif qiladi.	Natijalarni o’qiydi.
	2.4. Talabalarning javoblarini umumlashtirib, juft-juft bo’lib ishlash uchun topshiriqlar beradi: 1) BBB jadvalining to’rtta ustunidagi javoblarni tahlil qiling; 2) o’zlashtirilmagan savollarni umumlashtiring; 3) birgalikda manbalardan javoblar izlab toping; 4) javob berishga tayyorgarlik ko’ring;	Topshiriqni bajaradi. Javob beradi.
	2.5. Javoblar tinglab bo’lingach, slaydlar yordamida o’quv mashg’ulotining yoritilmagan qismlari tushuntiriladi (3-ilova).	Tinglaydilar. O’UM ga qaraydilar
	2.6. Tayanch iboralarga qaytiladi, talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. BBB jadvalining, beshinchi ustunni to’ldirishni aytib o’tadi.	Har bir tayanch tu-shuncha va iboralar-ni muhokama qiladi. Jadval to’ldiriladi.

III-bosqich. Yakunlovchi. (10 min.)	3.1. Ma’ruzaning har bir savoliga umumiy yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning faolligi baholash mezonlari orqali baholanadi.	O’zini qiziqtirgan savollar beradi.
	3.3. Uyga vazifa beradi: “Mustaqil-lik va islom dini” mavzusida esse yozib keling.	Yozib oladilar

1(5.1)-Ilova

“Insert” texnikasining qoidasi:

1. Matnni o’qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni diqqat bilan o’rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo’yib chiqing:

V – bilaman;
+ – yangi ma’lumot;
– – bilganlarimga zid;
? – meni o’ylantirmoqda.

BBB texnikasining qoidasi.

1. “Insert” texnikasidan foydalanilgan holda matnni o’qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo’yilgan belgilar asosida BBB jadvalini to’ldiring.

1-o’quv topshiriq

BBB jadvali

	Mavzu savollari	*Bilaman*	*Bilishni istayman*	*Bilib oldim*
	2	**3**	**4**	**5**
.	Islom va ma’naviyat			
.	Tasavvuf tushunchasi va uning ma’naviy g’oyalari			
.	Islom ma’naviy qadriyatlari va axloq-odob normalarining umuminsoniy xarakteri			
.	Islom dinida umummilliy va umuminsoniy ma’naviyat masalalari.			

2-Ilova

Iboralar asosida vizual materiallar

.	Islom.	6.	Yassaviylik.

.	Musulmon.	7.	Qubroviylik.
.	Muhammad.	8.	Naqshbandiylik.
.	Qur’on.	9.	Mustaqillik.
.	Hadis.	0.	Diniy qadriyatlar.
.	Muhaddislar.	1.	Diniy aqidaparastlik.
.	Iymon.	2.	Terrorchilik.
.	Diniy va dunyoviy iymon.	3.	Xorijiylik.
.	Halol va harom.	4.	Sunniylik.
0.	Beshikdan to qabrgacha ilm izla.	5.	Shialik.
1.	Ilm ibodatdan afzaldir.	6.	Vijdon erkinligi.
2.	So’fiy.	7.	Ma’naviyat.
3.	Tasavvuf.	8.	Fundamentalizm.
4.	Tasavvuf va nafs.	9.	Ekstremizm.
5.	Tasavvuf inson qalbiga sayqal berish ilmi.	0.	Vahobiylik.

O’quv vizual materiallar

3-Ilova

1-slayd

Ma’naviyat tushunchasining mazmuni



2-slayd

I.A.Karimov risolalaridan

“Ислом – ота-боболаримизнинг дини – мусулмонларнинг онги, туриш-турмушининг моҳияти, ҳаётининг ўзидир».
Ислом КАРИМОВ

“Халқимизнинг минг йиллик тарихини, бугунги маънавий ҳаётини, дин-у диёнатимизни мухтасар ифодалаб айтиш мумкинки, Оллоҳ бизнинг қалбимизда, юрагимизда».

Ислом КАРИМОВ

“Динга ҳурмат ва эътиқод биз учун ўлмас қадриятдир».

Ислом КАРИМОВ

“Қадим-қадимдан бола тарбиясига ислом динининг таъсири жуда кучли бўлган. Чунки биз ўз динимизни қадрлаймиз, унга суянамиз. Нима учун деганда, соғлом одам соғлом фикрлайди, соғлом фикрлайдиган одамгина Худога иймон келтиради, эътиқоди соғлом бўлади. Шундай экан, соғлом авлод тарбияси дин учун ҳам жуда аҳамиятли».

Ислом КАРИМОВ

“Мен иймони бақувват одам деганда, аввало, виждони, ҳалол билан ҳаромнинг фарқига борадиган, бировнинг ҳақидан ҳазар қиладиган, бировга ноҳақ озор бермайдиган инсонларни кўз олдимга келтираман».

Ислом КАРИМОВ

3-slayd

Dunyoda keng tarqalgan dinlar



4-slayd

Islomdagi yo’nalish, mazhab va odimlar



Mavzu bo’yicha topshiriqlari

1-o’quv topshiriq

Konferensiya – ma’ruza darsida tayyorlanadigan ma’ruzalar ro’yxati

1. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi.

2. Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji.

3. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma’naviy merosning o’zbek xalqining ma’naviy tiklanishida tutgan o’rni.

4. «Temur tuzuklari» va ma’naviyat masalalari.

5. Amir Temur buyuk bunyodkor.

6. Amir Temur – ilm fan va madaniyat homiysi.

7. Amir Temurning buyuk avlodi.

8. Amir Temurning axloq masalasidagi qarashlari.

2-Ilova

Baxs-munozaraga qatnashuvchilarni baholash mezonlari

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari		*Ma'ruzachilarning ismi va sharifi*			
		1	*2*	*3*	*4*
.	Ma'ruzaning mazmuni: (1,5)				
	- mavzuga to'g'ri keladi (0,5)				
	- ketma-ket, mantiqan va aniq bayon etildi (0,5 ball)				
	- aniq xulosa chiqarildi (0,5)				
.	Ma'lumotlarni taqdim etishda vositalardan foydalanildi (ko'rgazma) (0,4)				
.	Reglamentga rioya etdi (0,1)				
	Jami:				
Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari		*Taqrizchilarning ismi va sharifi*			
		1	*2*	*3*	*4*
.	Ma'ruzaga qo'shimcha qiladi: (0,5).				
.	Ma'ruzaning ijobiy tomonlarini ko'rsatadi (0,6).				
.	Ma'ruzaning sayoz tomonlarini ko'rsatadi (0,6).				
.	Reglamentga rioya etadi (0,3).				
	Jami:				
Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari		*Opponentlarning ismi va sharifi*			
		1	*2*	*3*	*4*
.	Savollar:				
	- miqdori (har bir savolga 0,1 ball)				
	- mazmuni (0,3)				
.	Qo'shimchalar qismi (1,0 ball)				
	Jami:				

O’quv vizual materiallar

3-Ilova

1-savol. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi



2-slayd

Amir Temur davlatini boshqarishdagi 4 omil



4. Raiyat

3-slayd

2-savol. Temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma’naviy merosning o’zbek xalqining ma’naviy tiklanishida tutgan o’rni

«Temur tuzuklari»da aytilishicha davlat asosini 12 ta ijtimoiy toifa tashkil qiladi

1. Saidlar, payg’ambar avlodlari, ulamo, mashoyi, fozil kishilar
2. Ishbilarmon, donishmand kishilar
3. Xudojo’y, darvesh, qalandarlar
4. No’yonlar – amirlar, harbiy kishilar, mingboshilar.
5. Sipoh va raiyat
6. Maxsus ishonchli kishilar
7. Vazirlar va sarlatiblar
8. Hakimlar va tabiblar, munajjimlar va muhaddislar
9. Tafsir va hadis olimlari
10. Aqli hunar va san’atchilar,

hunarmand, kosiblar

11. So’fiylar

12. Tojir (savdogar) va sayyohlar

4-slayd

I.A.Karimov risolalari

«Kimki o’zbek nomini, o’zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo’shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo’lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak».
Islom KARIMOV

«Biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Mirzo Boburlarga voris bo’lamiz».
Islom KARIMOV

«Insof-iymon tuyg’usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyib yarmiga jahongir ersa-da, kuch-qudrat zo’rlik, zo’ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi».
Islom KARIMOV

«Amir Temur – bizning shon-shavkatimiz, g’urur-iftixorimizdir»
Islom KARIMOV

«Amir Temur va Samarqand tushunchalarini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo’lmaydi».
Islom KARIMOV

5-slayd

3-savol. A.Temur va temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma’naviy merosning o’zbek xalqining ma’naviy tiklanishida tutgan o’rni



4-Ilova

2-o’quv topshiriq

Bahs-munozara uchun savollar

1-savol. Amir Temur buyuk davlat arbobi, yuksak ma’naviyat sohibi.

1. Nima uchun Amir Temurni buyuk davlat arbobi va sarkarda deymiz?
2. Amir Temurning yuksak ma’naviyat egasi ekanligini izohlang.
3. Amir Temurning ma’naviy salohiyati qanday edi?
4. Temuriylar davriga ta’sir etgan omillar nima?
5. A.Temurning obodonchilik borasidagi faoliyati qanday edi?
6. Temuriylar davlatni qanday boshqargan?

2-savol. Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji.

1. Mirzo Ulug’bekning ilm-fan va ma’rifat rivojiga qo’shgan hissasi nimalardan iborat?
2. Ulug’bek Akademiyasida faoliyat ko’rsatgan olimlardan kimlarni bilasiz?
3. Nima uchun Alisher Navoiyni «So’z mulkining sultoni» deb ataymiz?
4. Alisher Navoiy ma’naviyatini ifodalovchi qanday xislatlarini bilasiz?
5. Temuriylar ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga qanday ta’sir ko’rsatdi?

3-savol. A.Temur va temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma’naviy merosning o’zbek xalqining ma’naviy tiklanishida tutgan o’rni.

1. «Temur tuzuklari» qanday asar?
2. «Temur tuzuklari» asaridagi adolat, to’g’rilik, halollik, do’stlarga sadoqat, vatanparvarlik to’g’risidagi fikrlardan misollar keltiring.
3. «Temur tuzuklari»da ma’naviyat masalalari qanday yoritilgan?

Yakuniy xulosalovchi savol:

Mustaqillik davrida Temuriylar davri ma’naviyatiga munosabat qanday o’zgardi?

3.2. Amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi

Talabalar soni 28 ta	*Vaqti 2 soat*
Mashg’ulot shakli	Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg’ulot.
Mashg’ulot rejasi	Reja: 1. Zardushtiylik va islom ma’naviyati, ulardagi uyg’unlik 2. Tasavvuf ma’naviyati va undagi shaxs ma’naviy-ruxiy kamolot bosqichlari 3. Temuriylar davri ma’naviy hayoti, ziddiyatlari va millat ma’naviyatiga ta’siri 4. XVI-XVIII asr xonliklar davrida ma’naviy-ma’rifiy xayot.
Mashg’ulotning maqsadi: Ma’naviyatning tarixiy, nazariy, ilmiy va amaliy zaminlari mavzusi bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta’minlash.	
Pedagogik vazifalar:	*O’quv faoliyati natijalari:*
Qadimgi xalq og’zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalari haqida ma’lumot berish.	Qadimgi xalq og’zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalari haqida biladi.
“Avesto”da inson va uning ma’naviyati masalalari. Moniylik va Mazdakiylik ta’limotlarida ma’naviyat masalalari haqida ma’lumot berish.	“Avesto”da inson va uning ma’naviyati masalalari. Moniylik va Mazdakiylik ta’limotlarida ma’naviyat masalalari haqida gapirib bera oladi.
Qur’oni Karim va Hadisi Shariflarda inson ma’naviyati va ma’rifati masalalarini tahlil qilish.	“Qur’oni Karim” va Hadisi Shariflarda inson ma’naviyati va ma’rifati masalalari haqida tasavvurga ega bo’ladi.
Temur va Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji ahamiyati haqida ma’lumot berish	Temur va Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji haqida dunyoqarashga ega bo’ladi.
Jadidlarning amaliy harakatlari va tarixiy taqdiri, Milliy taraqqiyotimiz rivoji haqida qarashlari tahlili.	Jadidlarning amaliy harakatlari va tarixiy taqdiri, Milliy taraqqiyotimiz rivoji haqida qarashlarini o’rganish asosida bilimga ega bo’lish.
O’qitish vositalari	Testlar, kog’oz, marker, doska, sxemalar, slaydlar.
O’qitish usullari	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat, dialog, diskussiya
O’qitish shakllari	Individual, guruh, jamoaviy ishlash.
O’qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini

	nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*Talaba*
1-Bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O’quv mashg’uloti mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natija-larini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
	1.2. Talabalarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (1-Ilova)	Yozib oladilar.
	1.3. Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. Savollar berib talabalarni faollashtiradi.	Topshiriqlar bilan tanishadi, yozib oladi.
2-Boskich. Asosiy bulim (65 daqiqa)	2.1. Mavzu savollari bo’yicha top-shiriqlar beradi va guruhlarda ishlashni tashkil etadi. (2-Ilova) Guruhlarning javoblarini diqqat bilan tinglaydi, taqdimot yakunida fikrlarini umumlashtiradi.	Talabalarni kichik guruhlarga ajratadi. Topshiriqlar ustida ishlaydi. Taqdimotini tayyorlaydilar.
	2.2. Har bir guruhga 3-Ilovada taqdim etilgan jadvalni to’ldirishni tavsiya qiladi.	Individual yoki jamoada o’z fikrini bayon etadi. Taqdimo-tini o’tkazadilar.
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog’ozlarga tushirib, taqdi-motini o’tkazishida yordam beradi. Yagona xulosa chiqarishga ko’mak be-radi va nihoyasida umumlashtiradi.	Taqdimot o’tkazadi. G’olib guruhlarni aniqlab, baholaydi.
3-Bosqich. Yakunlovchi (5 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag’batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun 4-ilovada taqdim etilgan topshiriqni beradi.	O’UMga qaraydilar.

1-Ilova

Talabalarni baholash mezonlari ko’rsatkichlari

Guruh	*Baho*	*Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari*			
		O’tilgan mavzuni to’liq biladi	*Faollik*	*Misollar keltira oldi*	*Jami*
	Ball	*0,8*	*0,5*	*1,0*	*2.3*
1					
2					
3					

2 – 2.3 ball – a’lo

1,6 – 1.9 ball – yaxshi
1.3 – 1.5 ball – qoniqarli

2-Ilova

1-o’quv topshiriq

1-guruh.

Savol: Qadimgi xalq og’zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalari Falsafaning boshqa fanlardan farqi va ularning o’xshashligi

2-guruh.

Savol: “Avesto”da inson va uning ma’naviyati masalalari. Moniylik va Mazdakiylik ta’limotlarida ma’naviyat masalalari Falsafaning boshqa fanlar bilan o’zaro munosabati?

3-guruh.

Savol: QuroriKarim va Hadisi Shariflarda inson ma’naviyati va ma’rifati masalalari. Tasavvvuf va uning ma’naviy jihatlari Falsafaning jamiyat hayotidagi o’rni va uning asosiy vazifalari

4-guruh.

Savol: Temur va Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji.Falsafa va milliy mafkura ularning bir-biriga ta’siri.

1. Qadimgi xalq og’zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalari. Falsafa va boshqa fanlar, ularning o’zaro munosabati.

5-guruh.

Savol: Jadidlarning amaliy harakatlari va tarixiy taqdiri.

3-Ilova

2-o’quv topshiriq
Jadvalni to’ldiring

Qadimgi xalq og’zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalarini yoriting.	**Zardo’shtiylik, moniylik va mazdakiylik ta’limotlarining ma’naviy jihatlarini yoriting?**	**Tasavvvuf va uning ma’naviy jihatlarini sanang?**	**Temur va Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivojining milliy ma’naviyatimizdagi o’rni nimadan iborat.**	**Jadidlarning amaliy harakatlari va tarixiy taqdirining ma’naviy – axloqiy jihatlarini sanang?**

Jadvalni to’ldiring



4 -Ilova

Mustaqil tayyorgarlik ko’rish uchun topshiriqlar

1. Internet saydlarga kirib mavzuga doir hujjatlarni ko’rib chiqing.
2. Berilgan adabiyotlar ro’yxati bo’yicha mustaqil ishlang.
3. Jadidlar va milliy mafkura mavzusi bo’yicha referat tayyorlang.
4. O’zbekiston milliy ensiklopediyasining mavzuga doir atamali lug’atini o’rganib chiqing.

4-MAVZU. ЧОР РОССИЯСИ ВА СОВЕТ ҚАРАМЛИГИ ШАРОИТИДА МАЪНАВИЯТ

4.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Konferensiya – ma’ruza.
Ma’ruza rejasi	1. Chorizmning milliy ma’naviyatimizga nisbatan mustamlakachilik siyosatining moxiyati 2. O’rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi sharoitida mintaqa xalqlari ma’naviyatiga yetkazgan zararlari va ularning oqibatlari 3. “Oktyabr tuntarishi” va yagona mafkura xukumronligini vujudga kelishi hamda uning milliy ma’naviyatga salbiy ta’siri 4. Mustamlakachilik va sovet qaramligi sharoitida o’zbek xalqining milliy ozodlik, tarixiy va milliy qadriyatlarni tiklash uchun olib borgan kurashlari va ularning axamiyati.
Mashg’ulotning maqsadi:	Mustamlakachilik va qaramlik sharoiti dagi ma’naviyat haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, yo’qoitilgan moddiy va ma’naviy meroslar haqida tushuncha hosil qilish.
Pedagogik vazifalar:	*O’quv faoliyati natijalari:*.
• mavzuni mustaqil o’rganish uchun asos yaratadi;	Chorizmning milliy ma’naviyatimizga nisbatan mustamlakachilik siyosatining moxiyatini aytib beradi.
mavzu bo’yicha bilimlarni chu-qur o’zlashtirish va mustah-kamlashga yordam beradi	O’rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi sharoitida mintaqa xalqlari ma’naviyatiga yetkazgan zararlari va ularning oqibatlarini izohlab beradi.
• o’z nuqtai nazariga ega bo’lishni shakllantiradi; mantiqiy xulosa chiqarishga ko’mak beradi	Mustamlakachilik va sovet qaramligi sharoitida o’zbek xalqining milliy ozodlik, tarixiy va milliy qadriyatlarni tiklash uchun olib borgan kurashlari va ularning axamiyati aytib beradi.
O’qitish usullari va texnika	Konferensiya – ma’ruza, bahs-munozara, namoyish etish.
O’qitish vositalari	Ma’ruzalar, o’quv daftarlar, ko’rgaz-mali

	qurollar, slaydlar, proyektor.
O'qitish shakllari	To'g'ridan-to'g'ri va jamoa bo'lib ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O'qituvchi	*talaba*
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Konferensiya – ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'uloti-ning maqsadi va natijalarini tushun-tiradi.	Mavzu nomini yozib oladilar. Tinglaydilar.
	1.2. Konferensiya – ma'ruza bahs-munozara tariqasida o'tkazilishini e'lon qiladi. Bahs-munozarani bosh-qarib borish uchun eng iqtidorli tala-balar orasidan boshlovchi tayinlaydi. Ma'ruzalar mavzusi bilan tanishti-radi (1-ilova). Ma'ruzalarni baholash mezonlarini ekranga chiqaradi. (4-ilova). Zarur hollarda bahs-munozaraga aralashadi va kerakli tomonga yo'naltiradi. Kon-ferensiya qatnashchilarini baholash maqsadida ekspert guruhni tashkil qiladi.	Tinglaydilar. O'UM ga qaraydilar.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Talabalarni tayyor ma'ruza asosida chiqishlarini tashkil qiladi, o'quv materialining mazmuni mantiqan to'g'ri tuzilganligini diqqat bilan tinglaydi. Bayon etilayotgan mavzuni muhokama qilishga ehtiyoj sezilsa, ma'ruzani vaqtincha to'xtadi va jamoa bo'lib munozarali masalani muhokama qiladi. Slaydlardan foydalaniladi (2-ilova).	Ma'ruzachi ma'ruzani o'qiydi. Taqrizchi ijobiy tomonlarini ko'rsatib o'tadi, sayoz tomonlariga izoh beradi. Opponentlar o'z fikrlarini aytib, savol beradilar.
	2.2. Ma'ruzalarning mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilishni tashkil qiladi. Boshlovchi bilan birgalikda bahs-munozarani boshqarib turadi: 1) Savollar beradi (3-ilova); 2) Ma'ruzaning asosiy jihatlarini aniqlaydi; 3) Chiqishlarni qo'llab-quvvatlaydi. Har bir ma'ruzaning muhokamasi yakunida qisqacha umumlashtiradi.	Ma'ruzaning mazmuni jamoa bo'lib muhokama qilinadi. Bahs munozaraga kirishadi. Ekspertlar ma'ruzachini, taqrizchilarni va opponentlarni baholaydilar.
III-bosqich. Yakunlovchi.	3.1. Yakun chiqaradi, o'quv faoliyatining natijalarini umumlashtiradi, faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	Eshitadi. O'zini qiziqtirgan savollar beradi.
	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik	O'UM ga

(10 min.)	ko’rish bo’yicha topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar tavsiya etadi, testlarni ko’rib chiqishni vazifa sifatida beradi. (5-ilova)	qaraydilar

5-Ilova

3-o’quv topshiriq

Testlar

1. Ma’naviyat tushunchasining to’g’ri ta’rifini belgilang.

a) ma’naviyat - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, u kishi-larning yurish-turishlarini tartibga solib turuvchi kuch;

b) insonning yurish-turishlarida, o’zgalarga nisbatan munosabatlari-da aks etuvchi hatti-harakatlar;

v) insonning his-tuyg’ulari orqali ifodalanuvchi ichki dunyosining namoyon bo’lishi;

g) inson atrof-muhitga va o’ziga nisbatan bo’lgan munosabatlarida aks etuvchi botiniy va zoxiriy dunyosini ifoda etishi;

d) ma’naviyat - kishilarning o’ziga, o’zgalarga, atrof-muhitga nisbatan bo’lgan ifodalanuvchi munosabatlarida botiniy va zoxiriy hatti-harakatlari.

2. Markaziy Osiyoda ilk Renessans (uyg’onish) qaysi asrlarga to’g’ri keladi?

a) Miloddan avvalgi V-VI asrlarga
b) Milodiy IX-XII asrlarga
v) XIV-XVI asrlarga
g) XVIII-XIX asrlarga
d) XIX-XX asrlarga

3. XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan Sharqning buyuk musavviri, miniatyura san’atining moxir ustasi?

a) Xoja Mahmud Naqqosh
b) Mirak Naqqosh
v) Kamoliddin Behzod
g) Mir Mli Tabriziy
d) Sulton Ali Tabriziy.

4. Oliy ta’lim qanday bosqichlarga bo’linadi?

a) bakalavriat, magistratura va aspirantura
b) magistratura, aspirantura va doktorantura
v) bakalavriat, magistratura, adyunktura
g) bakalavriat, magistratura
d) magistratura, aspirantura.

5. Zardushtiylik ta’limotining tub mohiyati?

a) Allohga ishonish, payg’ambarlarga iymon keltirish, diniy amallarni bajarish;

b) Markaziy Osiyo xalqlari uchun muqaddas hisoblangan olovga sig’inish, jonivorlarga ozor bermaslik;

v) Dunyo xalqlarini tinch-totuv yashashga da’vatlash, osoyishta mehnat qilishga chaqirish;

g) Insonlarni bir-birlariga sevishga va shu orqali farovonlikka erishishga undash;

d) Ezgulik bilan zulm, yorug’lik bilan zulmat, adolat bilan razolat o’rtasidagi kurash.

6. O’zbekiston Respublikasining Gerbida qanday ramzlar tasvirlangan?

a) Xumo qushi, O’zbekiston bayrog’i, yulduz, bug’doy boshog’i;

b) Kabutar, paxta, bug'doy boshog'i, yarim oy;

v) Xumo qushi, O'zbekiston bayrog'i, yarim oy, yulduzcha, bug'doy boshog'lari, paxta, quyosh.

g) Bug'doy boshog'lari, paxta, yashil dala, ikki daryo, kuyosh;

d) Bug'doy boshoqlari, paxtazor dala, O'zbekiston bayrog'i, Tovus qushi, yulduzcha, yarim oy.

7. Turkiston jadidchilik harakatining vakillari Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitratlar faol a'zolik qilgan gazetalari?

a) «Tarjimon», «Sadoi Turkiston», «Taraqqiy», «Turon»;

b) «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Najot»;

v) «O'rta Osiyoning umr guzari», «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujjor»;

g) «Tarjimon», «Tujjor»;

d) «Turon», «Xurshid».

8. Markaziy Osiyo davlatlarini Rossiya tomonidan zabt etilib, mustamlakaga aylantirilishi xalqimiz hayotida qanday ma'naviy oqibatlarni keltirib chiqardi?

a) Xalq turmushida farovonlik, ma'naviy hayotida yuksalish, madaniyatida o'sish, maorifda jonlanish ro'y berdi.

b) Iqtisodiy tangligi ortdi, siyosiy huquqlari cheklandi, ma'naviy xo'rlandi, ijtimoiy hayotda ikkinchi darajali millatga aylantirildi.

v) yurtda ilm-fan rivoj topdi, xalqlar erkin yashay boshladilar.

g) O'zbeklarni birlashtirdi, o'zaro nizolarga chek qo'ydi.

d) Xalqlar va millatlar yakdil bo'lib yangi porloq turmush qurishga kirishdilar, gazeta va jurnallar chiqa boshladi, maktablar qurildi.

9. Markaziy Osiyo xalqlarining rus mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashlari?

a) Po'latxon boshchiligida 1874-1876 yillar Farg'ona qo'zg'aloni, 1892 yil Toshkent qo'zg'aloni, 1898 yil Andijon, 1916 yil Jizzax qo'zg'alonlari;

b) 1783 yil Buxoroda «Yetti qabila» qo'zg'aloni, 1741 yil Xivaliklar qo'zg'aloni, 1745 yil Ibodullaxitoy qo'zg'aloni;

v) 1783-1797 yil Sarim Dotov qo'zg'aloni, 1900 yil Marv qo'zg'aloni, 1821-1825 yil Xitoy-qipchoqlar qo'zg'aloni, 1855-1856 yil Ernazar rahbarligidagi qoraqalpoqlar qo'zg'aloni;

g) 1741 yil Xivaliklar, 1745 yil Ibadullaxitoy boshchiligidagi qo'zg'alonlar. Po'latxon boshchiligidagi 1874-1876 yil Farg'ona qo'zg'aloni;

d) 1783-1797 yil Sarim Dotov rahbarligidagi 1855-1856 yil Ernazar rahbarligidagi qoraqalpoqlar qo'zg'aloni.

10. Hozirda O'zbekiston jahonning nechta davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan?

a) 80 tasi bilan

b) 87 tasi bilan

v) 90 tasi bilan

g) 125 tasi bilan

d) 130 dan ortig'i bilan.

11. O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik to'g'risida Deklarasiyasi qachon qabul qilindi?

a) 1990 y. 29 dekabr

b) 1991 y. 31 avgust

v) 1991 y. 1 sentyabr

g) 1992 y. 18 mart

d) 1992 y. 16 may.

12. Eramizdan avval mamlakatimiz mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlar?
a) Shiroq, Mukanna, Temur Malik
b) Shiroq, To’maris, Spitamen
v) Mukanna, Shiroq, Spitamen
g) To’maris, Jaloliddin, Temur Malik
d) Spitamen, Shiroq, Jaloliddin.

13. Jamiyat taraqqiyotida mafkura qanday rol o’ynaydi?
a) Jamiyatda tub iqtisodiy o’zgarishlarga olib keladi, jamiyatning moddiy ahvolini yaxshilaydi. Jamiyatni moddiy ahvolini yaxshilanishiga ta’sir ko’rsatadi;
b) Jamiyat a’zolari o’rtasida nizolar keltirib chiqaradi, jamiyat parchalanib ketishiga sabab bo’ladi;
v) Jamiyat a’zolarini jipslashtirib yagona maqsad sari yo’nal-tirishiga yordam beradi, istiqlolni ta’minlaydi;
g) Jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltiradi, siyosiy barqaror-likni ta’minlaydi;
d) Mafkura jamiyat taraqqiyotiga to’sqinlik qiladi, taraqqiyotiga g’ov bo’ladi.
14. Xadisi Shariflarni saxih xadislar sifatida to’plagan vatandosh-larimiz?
a) Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy.
b) Imom Buxoriy, Imom Muslim
v) Imom Buxoriy, Imom Abu Dovud
g) Imom Abu Dovud, Imom an-Nasoiy
d) Imom ibn Mojja, Imom at-Termiziy.
15. O’zbekiston hududidagi eng qadimgi davlatlar?
a) Xorazm, Sug’diyona, Baqtriya, Marg’iyona.
b) Xorazm, Sug’diyona, Baqtriya, Midiya
v) Xorazm, Sug’diyona, Baqtriya, Parfiya
g) Sug’diyona, Baqtriya, Xorazm, Somoniylar davlati.
d) Baqtriya, Xorazm, Sug’diyona, Qoraxoniylar davlati.
16. Tasavvuf ta’limotining Markaziy Osiyolik namoyondalari?
a) Imom Fazzoliy, Axmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Umar Xayyom;
b) Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxolik Fijduvoniy, Baxouddin Naqshband;
v) Baxouddin Nakshband, Xoji Axror, Maxmud az-Zamaxshariy;
g) Axmad Yassaviy, Xoja Axror, Jaloliddin Rumiy;
d) Xoja Axror, Maxmud Zamaxshariy, Umar Xayyom.
17. O’zbekistonda «Navro’z» bayrami qachon o’tkazildi?
a) 8 mart;
b) 20 may;
v) 21 mart;
g) 22 mart;
d) 23 mart;
18. «Falsafa - ma’naviyat» nisbatida falsafaning tutgan o’rni.
a) Falsafa jamiyat ma’naviy qiyofasini belgilovchi omil;
b) Ma’naviy kamolot;
v) Falsafa - ma’naviyat taraqqiyotida muhim rol o’ynaydi;
g) Falsafa manaviyatining muhim elementi bo’lganligi uchun ular o’zaro chambarchas bog’liq;
d) Falsafaning ma’naviyatga hyech qanday daxli yo’q.
19. Respublikada 11 sinfni bitirgan yoshlardan necha foizi oliy o’quv yurtlariga kirmoqdalar?
a) 10% b) 15%v) 20%g) 25%d) 40%.

20. «Oktyabr inqilobi» deb atalmish davlat to’ntarilishiga Markaziy Osiyo xalqlari qanday munosabatda bo’ladilar?

a) Jon dillari bilan, zo’r mamnuniyat bilan kutib oldilar;

b) Mazmun va mohiyatiga ko’ra yot bo’lganligi uchun xalq qo’llab-quvvatlamadi. U zo’rlab qabul qildirilgan tuzum edi;

v) Yurtning eng qashshoq qatlami yaxshi kutib oldi, o’ziga to’q qismi yoqlamadi;

g) Oktyabr «inqilobini» ezilgan xalq yaxshi kutib oldi, ammo dindorlar qarshi turdilar;

d) Katta yer egalari, savdogarlar yaxshi umid ruxida qizg’in qo’llab quvvatladilar.

5-MAVZU. MAЪNAVIY TUYĞU VA QADRIYAT

5.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Muammoli - ma’ruza.
Ma’ruza rejasi	1. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr qimmati – oliy qadriyat 2.Vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg’usi – yuksak qadriyat 3. Tarixiy jarayonlarni anglash va yon atrofda bo’layotgan o’zgarishlarga daxldorlik xissi. Milliy o’zlikni anglashning mohiyati.
Mashg’ulotning maqsadi: Ma’naviy barkamol inson tushunchasi va uning sharqona ta’rifi haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, komil inson va uning sharqona fazilatlari haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar:	*O’quv faoliyati natijalari:*.
Islom Karimov tomonidan bar-kamol inson tushunchasiga be-rilgan ta’rifning mohiyatini yoritib beradi.	Barkamol inson avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o’zgalarga ibrat bo’la-digan bilimli, ma’rifatli kishi ekanligini aytib beradi.
Ma’naviy barkamol insonning aqliy, axloqiy, ma’naviy fazi-latlari bilan tanishtiradi.	Ma’naviy barkamol inson chuqur va zamonaviy bilimga, keng dunyoqarashga, mustaqil fikrga ega ekanligini izohlab beradi.
Imon, diyonat, adolat, mehr – shavqat va e’tiqod, poklik, xalollik va vafodorlik shaxs ma’naviy fazilatlarini yoritib beradi.	Imon, diyonat, adolat, mehr – shavqat va e’tiqod, poklik, xalollik va vafodorlik shaxs ma’naviy fazilati ekanlitgini izohlay oladi.
O’qitish usullari va texnika va texnika	Muammoli uslub, bahs-munozara, suhbat, «o’yla-juft bo’lib ishla – fikr almash», bliz-so’rov, FSMU, T-sxema texnikalari.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, lazerli proyektor, tarqatma materiallar.
O’qitish shakllari	Jamoa, frontal va juft-juft bo’lib ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*talaba*

I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Muammoni keltirib chiqaradi, yakuniy xulosa – muammo yechimining aniq natijasidir. Muammo ichidan muammolarni keltirib chiqaradi, uning yechimi esa hamma muammolarni hal qiladi. Muammo ichidagi muammolarni xulosalaydi, muammoli savollar bilan uning yechimiga vosita bo'la oladi. Talabalar uchun savollar va topshiriqlar tuzadi. Bu savol va topshiriqlar muammoning yechimiga turtki bo'ladi.	O'UM ga qaraydilar
	1.2. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va vazifalarini tushuntiradi.	Tinglaydilar, yozadilar.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Talabalarning bilimlarini suhbat asosida savollar orqali dolzarb-lashtirib, jonlantiradi.	Savollarga javob beradi.
	2.2. Dolzarblashtirilgan savollar orqali talabalarni muammo bilan to'qnashtiradi, Darsda ko'rib chiqiladigan muammoni shakllantiradi. FSMU texnologiyasidan foydalanilgan holda talabalarga: «Qanday insonni ma'naviy barkamol inson deb hisoblaysiz?» degan muammoli savol bilan murojaat qiladi. FSMU kartochkalarini tarqatadi (1-ilova)	Muammoli savolni yozib oladilar. Juft-juft bo'lib, FSMU kartochkalarini to'ldiradi. O'z erkin fikrini ifoda etadi.
	2.3. Talabalarni qay darajada jadvalni to'g'ri yoki noto'g'ri to'ldirganliklarini tahlil qiladi, birgalikda muammoli savolni muhokama qiladi, xulosa chiqarishga yordam beradi.	Muhokama qiladilar, g'oyalar bilan chiqadilar.
	2.4. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zamona talabi ekanligi eng muhim muammolardan biri ekanligini aytib o'tadi. Talabalarga yo'naltiruvchi savollar berish orqali (2-ilova), ushbu muammo ichidagi muammolarni keltirib chiqaradi. Muammoli savollar orqali talabalarni bu muammo yechimini topishga undaydi.	O'z erkin fikrlarini bildiradilar, bahs-munozara yuritadilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradi.
	2.5. Talabalarning fikrlarini umumlashtirib, ma'naviy barkamol inson tushunchasini slaydlar yordamida (3-ilova) tushuntiradi.	Tinglaydilar. Yozadilar.
	2.6. Komil inson va uning sharqona fazilatlarini Sharq mutafakkirlarni fikrlaridan namunalar keltirgan holda yoritib beradi. Talabalarga: «Ma'naviy barkamol, sog'lom avlod, komil inson tushunchalaridagi mushtaraklik va farq nimada?» - deb savol bilan murojaat qilib, T-sxemani to'ldirishni so'raydi (4-ilova).	Tinglaydilar, yozadilar. T-sxemani juft-juft bo'lib to'ldiradilar.
	2.7. Berilgan topshiriq yuzasidan blis-so'rov o'tkazadi, yakuniy xulosa chiqaradi.	Javoblarni o'qib beradi.
III-	3.1. Talabalarning bilim va ko'nikmalari	O'zini qiziqtirgan

bosqich.	baholanadi.	savollar beradi.
Yakuniy. (10 min.)	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar tavsiya etiladi. «Ma'naviy barkamol insonning qiyofasi» mavzusida esse yozib kelib vazifa tariqasida beriladi.	O'UM ga qaraydilar

-Ilova

1-o'quv topshiriq

FSMU jadvali

Qanday insonni ma'naviy barkamol inson deb hisoblaysiz?

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

2-Ilova

Mavzu bo'yicha bilimlarni dolzarblashtiruvchi savol

Jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar va ularning yechimi.

Yo'naltiruvchi savollar:

1. Ma'naviyatning inson faoliyatidagi rolini izohlang.
2. Ma'naviy qashshoqlikni yo'qotish uchun nimalar qilish kerak? (2-slayd)

1-muammo. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin?

1. Ma'naviy barkamol insonni, komil insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash nima uchun zamona talabi hisoblanadi?

2. Islom Karimovning ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalari.

2-muammo. Ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash borasidagi muammolarni aniqlash va yechimini topish.

1. Ma'naviy barkamol inson deganda nimani tushunasiz?

2. Sog'lom avlodning qirralarini izohlang?

3. Sog’lom avlod Davlat dasturi haqida nimalarni bilasiz?

3-muammo. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish yo’l-yo’riqlarini bugungi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda aniqlash.

1. Komil inson deganda qanday insonni tushunasiz?

2. Sharq mutafakkirlari komil inson haqida qanday fikrlar bildirilgan.

3. Ma’naviy barkamol, komil insonning asosiy fazilatlariga nimalar kiradi?

O’quv vizual materiallar

3-Ilova

1-savol. Islom Karimov ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash zamona talabi ekanligi to’g’risida

1-slayd



2-slayd.

Ma’naviy qashshoqlikni yo’qotish



3-slayd

Shaxs ma’naviyatining botiniy belgilari



2-savol. Ma’naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati

4-slayd



5-slayd

3-savol. Komil inson va uning sharqona fazilatlari



2-topshiriq

4-Ilova

T-sxema

Ma’naviy barkamol, sog’lom avlod, komil inson tushunchalaridagi mushtaraklik	*Ma’naviy barkamol, sog’lom avlod, komil inson tushunchalaridagi farq*
• har bir insonning o’z-o’zini anglashi;	• ma’naviy barkamol inson – ongi yuksak, mustaqil fikrlash oladigan, xulq atvori bilan o’zgalarga ibrat bo’ladigan bilimli, ma’rifatli kishi;
• o’zga insonlarni qadrlay bilishi;	
• inson zotini ulug’lay bilishi;	
• insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni o’zlashtirishga intilish;	• Sog’lom avlod – jismonan baquvvat, ma’naviy boy avlod;
• ichki va tashqi dunyosining birligi;	• Komil inson – odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislat-larning ifodachisi.
• sog’lom fikri va oqilona so’zining birligi;	
• dili va tilining birligi;	



O’quv vizual materiallar

3-Ilova
1-slayd

Vatan va vatanparvarlik tushunchalarning falsafiy talqini

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh aqrobalar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so’zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo’lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanar ekan.
SISERON

Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo’lida qurbon bo’lishga hozir ekanliklarida aks etadi.
GEGEL

Kimki o’z yurtini sevmasa, u hyech nimani seva olmaydi.
BAYRON

Kimki o’z vataniga daxldor bo’lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas
BELINSKIY

O’z Vataniga dog’ tushirish – uni sotish degan so’z
GYUGO

Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug’iladi. Ya’ni inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otib yuksala boradi. Bu ildiz qanchalar chuqur bo’lsa, tug’ilib o’sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo’ladi
I.KARIMOV

2-slayd

Vatanparvarlik tushunchasi



5. 2. Amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi.

Talabalar soni 25 ta	*vaqti 2 soat*
Mashg’ulot shakli	“Nima uchun?” organayzeridan foydalangan holda, mavzu bo’yicha bilimlarni mustahkamlashga va chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy mashg’ulot.
Mashg’ulot rejasi	1. Ma’naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati. 2. Shaxs ma’naviy qiyofas ini belgilovchi mezonlar: vatanparvarlik, insonparvarlik va o’z millatiga sadoqat. 3. Iymon tushunchasi. Diniy va dunyoviy iymon. 4. Milliy o’zlikni anglash tushunchasi va mohiyati. 5. Huquqiy savodxonlik tushunchasi. Demokratik tamoyillarni taminlashda huquqiy savodxonlikning roli.
Mashg’ulotning maqsadi: Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta’minlash.	
Pedagogik vazifalar:	O’quv faoliyati natijalari:
Ma’naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati haqida izoh beradi.	Ma’naviy barkamol inson ya’ni komil inson haqida qarashlarni tushintira oladi.
Shaxs ma’naviy qiyofas ini belgilovchi mezonlar: vatanparvarlik, insonparvarlik va o’z millatiga sadoqatlilik haqida ma’lumot beradi.	Shaxs ma’naviy qiyofasini belgilovchi mezonlar: vatanparvarlik, insonparvarlik va o’z millatiga sadoqatlilikning ma’naviy–axloqiy mohiyatini anglaydi.
Iymon tushunchasi. Diniy va dunyoviy iymon omillarini yoritib beradi.	Iymon tushunchasi. Diniy va dunyoviy iymonlilikning mohiyatini anglaydi.
Milliy o’zlikni anglash tushunchasi va mohiyati haqida ma’lumot beradi.	Milliy o’zlikni anglash tushunchasi va mohiyati haqida ilgari surilgan g’oyalarni aytib bera oladi.
Huquqiy savodxonlik tushunchasi. Demokratik tamoyillarni taminlashda huquqiy savodxonlikning o’rnini tushintirib berish.	Huquqiy savodxonlik tushunchasi. Demokratik tamoyillarni taminlashda huquqiy savodxonlikning rolini tushunib olish.
O’qitish vositalari	Sxema, slaydlar, doska, qog’oz qalam.
O’qitish usullari	Topshiriqlar, Nima uchun? dialog, amaliy ishlash usuli
O’qitish shakllari	Individual, guruhlarga bo’linib ishlash
O’qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.

Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*Talaba*
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O’quv mashg’uloti mavzusi, maqsad va o’quv faoliyati natijalarini aytadi: Ta’lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi.	Tinglaydilar.
	1.2. Talabalarni jonlantirish maqsadida «Nima uchun?» texnikasidan foydalanilgan holda: «Komil inson haqida qarashlarni o’rganishning ma’naviy-axloqiy jihatlari va milliy o’zlikni anglashdagi o’rni va tahlili?» deb savol bilan murojaat qiladi (1-ilova). Fikrlarni umumlashtirib, amaliy mashg’ulotni boshlaydi.	Organayzerli to’ldiradilar. Erkin o’z fikrini bildiradilar.
	1.3. Talabalarni 3 ta kichik guruhlarga bo’ladi, baholash ko’rsatkichi va mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova).	Interfaol usullardan foydalanilgan holda kichik guruhlarga bo’linadi
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Guruhlarga topshiriq beradi: 10-minut ichida har bir guruh quyidagi mavzular bo’yicha umumiy esse yozing: 1. Ma’naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati qanday? 2. Iymon tushunchasi. Diniy va dunyoviy iymon tushunchasining ma’naviy-axloqiy jihatlari nimalardan iborat? 3. Milliy o’zlikni anglash tushunchasi va mohiyati haqida nimalar bilasiz?	Esseni mustaqil, birgalikda vatman-qog’ozlarga yozadilar.
	2.2. Esse yozish uchun yo’riqnoma beradi, taqdimotini tayyorlashga ko’maklashadi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor qaratadi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to’g’ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Topshiriqni bajaradilar, taqdimotini o’tkazadilar, qo’shimchalar kiritadilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar.
	2.3. Guruhlarga «Koop-koop» texnikasidan foydalanilgan holda, (2-ilova), “Komil inson haqida qarashlar qanday nazariy manbalar asosida vujudga kelgan?”, - deb savol bilan murojaat qiladi.	Mustaqil topshiriqni bajaradilar.
	2.4. Ish boshlanganligini e’lon qiladi, har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o’tkazishda yordam beradi.	Topshiriqni bajaradilar.
	2.5. Ish taqdimotini tashkil qiladi, izoh beradi, talabalarning bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga e’tiborini qaratadi.	Ish natijalarining taqdimotini o’tkazadilar. Jamoa bo’lib muhokama

		qiladilar, baholaydilar.
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi, aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi: Mavzuning mazmunini chuqur o'rganish, keyingi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish (4-Ilova)	Tinglaydi, aniqlaydi.

1-Ilova

1-o'quv topshiriq

«Nima uchun» organayzeri



2-Ilova

«Koop-koop» («Birgalikda o'qiymiz») texnikasini o'tkazish qoidasi

Ish bos-qichlari	*Faoliyat*	
	Ta'lim beruvchi	*Ta'lim oluvchi*
1.	3 va 5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil qiladi	
2.	Har bir guruhga mavzuning bir bo'lagi bo'lib hisoblangan bir xil topshiriqlar beradi. Topshiriqni bajarish uchun yo'riqnomalar beradi.	Guruh a'zolari o'zaro topshiriqlarni bo'lib olishadi.
3.	Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarilishini va muomala madaniyatini nazorat qiladi.	3.1. Hamma topshiriqni mustaqil bajaradi, mavzular bo'yicha mustaqil ishlaydi. 3.2. Guruh a'zolarining minima'ruzalarini tinglaydi. Umumiy ma'ruza tayyorlanadi. Ma'ruzani o'qish uchun spiker tayinlanadi.
4.	Guruhlarda ish yakunlarini chiqarilishini so'raydi va taqdimotini o'tkazishni talab qiladi.	Guruh-spikeri ma'ruzaning taqdimotini o'tkazadi.
5.	Natijalarni tahlil qiladi va baholaydi, g'olib guruhlarni aniqlaydi.	

3-Ilova

Talabalarning bilim va ko’nikmalarini baholash mezonlari

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	Jami	Baho
I				
II				
III				

4-Ilova

1-o’quv topshiriq.
Jadvalni to’ldiring.

9-12 asrlarda Arab-musurmon sharqida Komil inson haqida qarashlarning ma’naviy-axloqiy jihatlari qanday bo’lgan?	Komil inson haqida qarashlarning g’oyaviy-nazariy manbalarini ko’rsating	Komil inson haqida qarashlarning ma’naviy-axloqiy jihatlari Markaziy Osiyodagi ijtimoiy fikr rivojiga qanday ta’sir etdi, bugungi kundagi ahamiyati?

JADVALNI TO’LDIRING



2-o’quv topshiriq.

Mavzuni mustaqil o’rganish uchun topshiriq savollari

1. Mavzu bo’yicha berilgan qo’shimcha adabiyotlar bilan tanishing.

2. Falsafa qomusiy lug’atidan “Markaziy Osiyolik allomalarining Komil inson haqidagi qarashlari” to’g’risida ma’lumot oling.

3. “Iymon va iymonlilik” mavzusi bo’yicha referat tayyorlang.

4. Internet slaydlariga kirib ushbu mavzu bo’yicha qo’shimcha axborotlar oling.

6-МАВЗУ. Шахс ва миллат маънавий камолотининг уйғунлиги.

6.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Informasion ma’lumotga ega bo’lgan bahs-munozarali ma’ruza.
Ma’ruza rejasi	1. Milliy o’z – o’zini anglash tushunchasi va uning moxiyati. 2. Milliy o’z – o’zini anglash milliy taraqqiyotni ta’minlovchi omil va ma’naviy burch. 3. Millatlararo totuvlik tushunchasi va milliy istiqlol g’oyasida millatlararo totuvlik g’oyasi 4. Demokratiya va huquqiy savodxonlik umummilliy ma’naviy taraqqiyotning zaruriyati
Mashg’ulotning maqsadi: O’z millatiga sadoqatli bo’lish, ona zamin manfaatlari yo’lida fidoiy bo’lish, o’z millatining kelajagi yo’lida qayg’urish kabi tushunchalarni shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.	
Pedagogik vazifalar:	*O’quv faoliyati natijalari:*.
Milliy o’z – o’zini anglash tushunchasi va uning mohiyatini yoritib beradi.	Milliy o’z – o’zini anglash tushunchalariga ta’rif beradi.
Millatlararo totuvlik tushunchasi va milliy istiqlol g’oyasida millatlararo totuvlik g’oyasi bilan tanishtiradi.	Millatlararo totuvlik tushunchasi va milliy g’oyaning ma’naviy-ma’rifiy qirralarini sanab beradi.
Demokratiya va huquqiy savodxonlik umummilliy ma’naviy taraqqiyotning zaruriyati ekanligini yoritib beradi.	Demokratiya va huquqiy savodxonlik umummilliy ma’naviy taraqqiyotning asosi ekanligini aytib beradi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, bahs-munozara, B.B.B. va Klaster texnikalari.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, lazerli proyektor, elektron darslik.
O’qitish shakllari	Jamoa, to’g’ridan-to’g’ri va juft-juft bo’lib ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.

Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	o’qituvchi	*Talaba*
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.	O’UM ga qaraydilar.
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tarqatmalardan foydalanadi
	1.3. Mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining tayanch iboralari va ma’ruza rejasiga izoh beradi.	Yozadilar.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Ekranga tayanch ibora va tushunchalarini chiqaradi. Talabalarga B.B.B. jadvalini tarqatadi. Tayanch iboralarning tartib raqamlaridan foydalanilgan holda B.B.B. jadvalining 1 va 2 ustunlarini to’ldirishni so’raydi. (1-ilova)	Tinglaydilar. Muhokama qiladilar. Savollar bilan murojaat qiladi.
	2.2. B.B.B. jadvalini qay darajada to’ldirganliklarini bilish uchun «Blis so’rov bilish» o’tkazadi, shu tariqa talabalar mavzuni qay darajada bilishini aniqlaydi.	Javob beradilar.
	2.3. O’quv mashg’ulotining birinchi savoli bo’yicha ma’ruza qiladi. Vatan va vatanparvarlik kabi tushunchalarning mohiyatini slaydlar orqali falsafiy tahlil qiladi (2-ilova). Talabalarni bahs-munozaraga tortish maqsadida ularni jonlantiruvchi savollar beradi: 1. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» tushunchasini izohlang. 2. «Vatanni sevmoq iymondandir» degan tushunchaning mohiyati nimada? Talabalarning fikrlarini tinglab birinchi masalani umumlashtiradi.	Tinglaydilar. Yozadilar, savollarni muhokama qilib, ularga javob beradilar.
	2.4. Insonparvarlik – inson va jamiyat ma’naviy qiyofasining mezonini tushuntirish «Klaster» texnikasi orqali amalga oshiradi. (3-ilova). Fikrlarni umumlashtirib, xulosalaydi.	Tinglaydilar. Organeyzerni to’ldiradilar, Erkin fikr bildiradilar.
	2.5. «Ma’naviyat asoslari» fanidan tayyorlangan elektron darslikdan foydalangan holda, o’z millatiga sadoqatli bo’lish – yuksak burch mavzusini yoritib beradi. Mustahkamlab, umumlashtiradi.	Tinglaydilar, Yozadilar. Fikr bildiradilar.
	2.6. Mavzuni qay darajada o’zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida blis-so’rov o’tkazadi (4-ilova). BBB jadvalining uchinchi ustunini to’ldirishni talab qiladi.	Javob beradilar, BBB jadvalining 3 ustunini to’ldiradilar.

III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Ma’ruzada qilingan har bir savol qanday hal qilinganligi to’g’risida umumiy yakuniy xulosa chiqaradi.	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning bilim va ko’nikmalarini baholaydi.	O’zini qiziqtirgan savollar beradi.
	3.3. «Qanday odamni millatparvar deyish mumkin?» degan savolga klaster tuzib, test topshiriqlarini yechish uyga vazifa qilib beradi (5-ilova).	O’UM ga qaraydilar

1-Ilova

«G’arb - oqil, Sharq – donishmand, G’arb – kenglik, Sharq – teranlik,
G’arb – harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan, agar
G’arbning atoqli olimlari faol bo’lsalar, Sharqda ular
faylasuflar… G’arbga nisbatan bir-necha asrlar
avval Sharqda ilm-fanning deyarli
barcha sohalari uchun asos yaratilgan edi»

S.SULGINSKIY

2-Ilova

1-o’quv topshiriq

BBB jadvalini to’ldirish uchun tavsiyalar

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.
2. BBB jadvalini to’ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqamidan foydalaning.

Bilaman	**Bilishni istayman**	**Bilib oldim**
1	2	3

Tayanch ibora va tushunchalar

.	Odam	6.	Bevatanlik
.	Shaxs	7.	Ma’naviy qashshoq
.	Inson	8.	Baxtsizlik
.	Jamiyat	9.	Davlat ramzlari
.	Insonparvarlik	0.	Odami ersang demagil odami
.	Vatan	1.	Mustaqillik
.	Vatanparvarlik	2.	Tafakkur
.	Milliy o’zlikni anglash	3.	Milliy ruhiyat
.	Millatparvarlik	4.	Ong
0.	Suqrot	5.	Sho’rolar tuzumi
1.	Milliy g’urur	6.	Milliy valyuta
2.	Milliy iftixor	7.	Ona yurt
3.	Milliy xarakter	8.	Turkiston – umumiy uyimiz
4.	Vatan tuyg’usi	9.	O’tmish.
5.	Vatanga muhabbat	0.	Sajdagoh.

Milliy o’zlikni anglash



3-Ilova

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord texnikasi
(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska)
muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish
va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda
yagona yoki aksincha qarama-qarshi
pozisiyani shakllantirishga imkon beradi

O’qituvchi taklif etilgan muammo bo’yicha o’z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so’raydi. To’g’ridan-to’g’ri yoki ommaviy aqliy xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag’batlantiradi)

Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so’zdan ko’p bo’lmagan) sifatida alohida qog’ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:
1) yaqqol xato bo’lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
2) bahsli bo’lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo’lgan belgilarini aniqlaydilar;
4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog’oz va raqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;
5) ularning o’zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko’rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozisiyalari ishlab chiqiladi.

«PINBORD» texnikasi bo’yicha topshiriq

Milliy-ma’naviy qadriyatlar



7-МАВЗУ. Шахс маънавий қиёфасини шакллантиришнинг асосий омиллари.

7.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 62	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	Informasion ma’lumotga ega bo’lgan ma’ruza
Ma’ruza rejasi	Reja: 1. Oilada shaxsni shakllantirishning axloqiy asoslari. 2. Sog’lom turmush tarzining ma’naviy axloqiy jixatlari. 3. Ma’naviy madaniyatga tahdidlar va ularni bartaraf etishda ma’naviy tarbiya vosita va usullari
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Shaxs ma’naviyatining rivojlantirish omillari va vositalari tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar	*O’quv faoliyati natijalari:*.
Shaxs ma’naviyati, uni shakllantirishda ota – ona va oila Ta’lim tizimi shaxs ma’naviyat ining shakllantirishningvositasi ekanligini yoritib beradi.	Shaxs ma’naviyati, uni shakllantirishda ota – ona va oila ma’suliyati tushunchasiga ta’rif Ta’lim tizimi shaxs ma’naviyatining shakllantirishning muxim omili ekanligini ochib beradi.
Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi o’rnini tahlil qiladi.	Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muxim vositasi ekanligini aytib beradi.
Shaxs ma’naviyatini rivojlantir ishda davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining o’rnini yoritib beradi.	Rivojlangan iqtisodiyot – yuksak ma’naviyat mezoni ekanligini tahlil qiladi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, aqliy hujum, «Baliq skeleti» va «Kaskad» texnikalari, «Blis-so’rov» uslubi.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor, video-tasma..
O’qitish shakllari	Jamoa, juft-juft bo’lib ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayonlari	*Faoliyatning mazmuni*	
	o’qituvchi	*Talaba*

vaqti		
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut)	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qila-di, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.	Mavzuni nomini yozib oladilar.
	1.2. Har bir tinglovchiga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.	Tarqatmalardan foydalanadi.
	1.3. Mavzu bo’yicha ma’ruza mashg’uloti-ning tayanch iboralari va ma’ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan blis-so’rov usulida ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi.	O’UM ga qaraydilar. O’z fikrini erkin bayon etadilar.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. O’quv mashg’ulotining birinchi savoli bo’yicha ma’ruza qiladi. Ma’ruza mash-g’ulotini «Aqliy hujum» uslubi bilan boshlaydi. Talabalarda bilimlar mav-jud, uni bevosita mustahkamlash uchun «Vosita nima? Omil nima?» deb savol beradi, umumlashtiradi.	O’UM ga qaraydilar. O’z fikrini erkin bayon etadilar.
	2.2. Birinchi rejada berilgan, Shaxs ma’naviyati, uni shakllantirishda ota – ona va oila ma’suliyati , «Kaskad» texnikasi orqali tushuntiradi (1-ilova). Talabalarning fikrini unum-lashtiradi.	Erkin o’z fikrlarini bildiradilar. Yozadilar.
	2.3. Ma’naviyat va ma’rifat jamiyatning taraqqiyotga erishish-ning sharti ekanligini jonlantiruvchi savollar bilan yoritiladi: 1. Ta’lim tizimi shaxs ma’naviyatining shakllantirishning muxim omili 2. Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muxim vositasi 3. Shaxs ma’naviyatini rivojlan tirishda davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining dolzarb vazifalari Javoblarni tinglab, ularni to’ldiradi va umumlashtiradi.	Javob beradilar. O’UM ga qaraydilar. Tinglaydilar.
	2.4. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda talabalarni erkin bahs-munozaraga tortish maqsadida «Baliq skeleti» texnikasidan foydalanilgan holda «Nima uchun Ta’lim tizimi shaxs ma’naviyatining shakllantirishning muxim omili?» deb yozilgan tarqatma materiallar bilan ishlashni taklif qiladi. (2-ilova). Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni xulosalaydi. Video-lavha namoyish etadi.	Juft-juft bo’lib, organayzerni to’ldiradilar.
	2.5. Tayanch iboralarga qaytiladi (3-ilova). Talabalarning bilimlarini mus-tahkamlash maqsadida «Blis–so’rov» o’tkazdi. (4-ilova).	Har bir tayanch tushuncha va ibo-ralarni muho-kama qiladilar. Javob beradilar.
III-bosqich.	3.1. Ma’ruzada qilingan har bir savol qanday hal qilinganligi to’g’risida yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi.

Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.2. Talabalarning faolligi rag’batlantiriladi.	O’zini qiziqtirgan savollar beradi.
	3.3. Kelgusi mashg’ulotga tayyorgarlik ko’rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro’yhati tavsiya etiladi. Uyga vazifa sifatida testlarni ko’rib chiqish topshiriladi (5-ilova).	O’UM ga qaraydilar.

1-Ilova

«Kaskad» texnikasi

Ushbu texnologiya g’oyalar tizimini ishlab chiqishga ko’mak beradi: Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.



2-Ilova

«Baliq skeleti» texnikasi

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.



Iboralar asosida vizual materiallar

.	Shaxs ma’naviyati	9.	O’zbekistonning iqtisodiy Salohiyati
	ota – ona va oila ma’suliyati	10.	Intellektual salohiyat

.			
.	Bozor munosabati	11.	San’at
.	Ta’lim tizimi	12.	Yangini qurmay, eskini Buzmang
.	Adabiyot	13.	Davlat
.	Taraqqiyotning o’zbek modeli	14.	Nodavlat tashkilotlari
.	Qonun ustuvorligi	15.	jamoat tashkilotlari
.	Turizm darajasi	16.	Ma’rifat

O’quv vizual materiallar

2-slayd

Ma’naviyatning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi



3-slayd

Iqtisodiy yo’nalishning ta’riflari



4-Ilova

Mavzuni mustahkamlashga qaratilgan
«Blis-so’rov» savollari

	Savollar	Javoblar
.	I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining mohiyati?	
.	«Har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda umumiy gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma’naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo’lishi shart», - degan so’zlar I.Karimovning qaysi asarida keltirilgan?	
.	«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Oliy Majlisning qaysi sessiyasida qabul qilindi?	
.	Oltin zaxirasi bo’yicha O’zbekiston dunyoda nechanchi o’rinda turadi?	
.	O’rta Osiyodagi barcha resurslarning necha foizi O’zbekiston hissasiga to’g’ri keladi?	
.	O’zbekiston paxta mahsulotini eksport qiladigan mamlakatlar ichida nechanchi o’rinni egallaydi?	

Ma’naviyatni rivojlantirish omillari va vositalarining o’zaro munosabatlari va qonuniyatlari



«Ma’naviyatdagi o’zaro munosabatlar va qonuniyatlar» sxemasini o’rganish bo’yicha jadval

Savol	Javob
1. Ushbu sxemada nimalar aks ettirilgan? 2. Shaxs, jamiyat va millatlarning o’zaro munosabati ushbu sxemada qanday ko’rsatilgan? 3. Shaxs va millat yoki jamiyatning ichki salohiyati ma’naviyat va ma’rifat bilan uzviy bog’liqmi? 4. Millatlararo ma’naviy-ma’ri-fiy munosabatlarga aks ta’sir ko’r-satuvchi qanday omillarni bilasiz?	



7. 2. Amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 26	*Vaqti:* 2 soat
Mashg’ulot shakli	“Qanday?” organayzeridan foydalangan holda, mavzu bo’yicha bilimlarni mustahkamlashga va chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy mashg’ulot
Mashg’ulot *rejasi*	Reja: 1. “Ma’naviy tarbiya” tushunchasi, mohiyati, uni amalga oshirish bosqichlari 2. Oila va mahalla ma’naviy muhiti: muammo va yechimlar 3. Ma’naviy tarbiya jarayonida ziyoli mas’uliyati va ma’naviyati 4. Ma’naviy tahdidlarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish omillari va usullari
Mashg’ulotning maqsadi: Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqur o’zlashtirishni ta’minlash.	
Pedagogik vazifalar	*O’quv faoliyati natijalari.*
• nazariy bilimlarni mustahkamlatdi; • mavzu bo’yicha bilimlarni chuqur o’zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; • kichik guruhlarda ishlashni tashkil etadi;	• Oilada ota-onaning o’z farzandi va farzandning ota-ona oldidagi burchlarini sanab bera oladi; • Maktabgacha tarbiya va oliy ta’lim tizimlarida ma’naviyatni rivojlantirish yo’llari va uslublarini ayta oladi; • Adabiyot va san’atning shaxs ma’naviyatini rivojlantirishdagi o’rnini bir-biridan farqlay oladi; • Yoshlar ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda mahallaning roli haqida fikr bildira oladi; • Shaxs ma’naviyatini rivojlantirishda davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining dolzarb vazifalari yuzasidan o’z erkin fikrini bildiradi**;**
O’qitish usullari va texnika	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, vaziyatli ishlanma usuli
O’qitish vositalari	Tarqatma material, kompyuterlar, doska.
O’qitish shakllari	Individual, kollektiv.
O’qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg’ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	*Faoliyatning mazmuni*	
	O’qituvchi	*Talaba*
I-bosqich.	1.1. O’quv mashg’uloti mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladi.

Mavzuga kirish. (10 minut)	1.2. Tinglovchilarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladi.
II-bosqich. Asosiy (65 minut) III-bosqich. Yakuniy (5 minut)	2.1. Talabalarni fikrlarini jonlantirish maqsadida qanday organayzerini Texnikasidan foydalangan holda: "Shaxs ma'naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari qanday?" deb savol bilan murojaat qiladi. (1-ilova) Fikrlarni umumlashtirib amaliy mashg'ulotni boshlaydi.	Javob beradi
	2.2. Talabalarni 3 ta kichik guruhlarga bo'ladi, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (2-ilova)	Guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruhdan jamoa sardori chiqib taqdimot o'tkaza-di. O'quv topshi-rig'i va baholash mezonlari bilan tanishadi.
	2.3. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi va topshiriqlarni tarqatadi. Topshiriq: Shaxs ma'naviyatini rivojlantirish «Daraxti» jadvalini to'ldiring? (3-ilova).	Savollar beradi.
	2.4. Topshiriqni bajarishda maslahat beradi.	Tinglaydi.
	2.5. Guruh sardorlarining taqdimot marosimini o'tkazishlarini tashkil etadi.	O'UM ga Qaraydi.
	2.6. To'ldirilgan jadvallarni bir-biri bilan solishtirib, javoblarni umumlashtiradi va xulosa qiladi.	Erkin fikrini bildiradi.
	2.7. Guruhlarni bir-birlarini baholashlarini tashkil qiladi.	Baholaydi.
III-bosqich. Yakuniy (5-minut)	3.1. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	Tinglaydi.
	3.2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi.	Yozib oladi.
	3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Keyingi ma'ruza mashg'uloti tayyorgarlik ko'rishni, ma'ruza matnini o'qib Insert asosida belgilab kelishni aytadi. Keyingi ma'ruza mashg'ulotini o'qishni, dokladchilar uchun savollar tuzib kelishni topshiradi. Referat mavzularini beradi, dokladchilarni taqrizchilarni, opponentlarni belgilab oladi.	O'UMga Qaraydi.

1-Ilova.

“Koop-koop (Birgalikda o’qiymiz)» texnikasini o’tkazish qoidasi

Ish bos.	Faoliyat	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi.
1.	3 va 5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil qiladi.	Guruhga bo’linadi.
2.	Har bir guruhga mavzuning bir bo’lagi bo’lib hisoblangan bir xil topshiriqlar beradi. Topshiriqni bajarish uchun yo’riqnomalar beradi.	Guruh a’zolari o’zaro topshiriqlarni bo’lib olishadi.
3.	Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarilishini nazorat qiladi.	3.1. Hamma mustaqil topshiriqni bajaradi, mavzular bo’yicha mustaqil ishlaydi. 3.2. Guruh a’zolarining mini-ma’ruzalarini tinglaydi. Umumiy ma’ruza tayyorlanadi. Ma’ruzani o’qish uchun spiker tayinlanadi.
4.	Guruhlarda ish yakunlarini chiqarilishini so’raydi va taqdimotni o’tkazadi.	Guruh spikeri ma’ruzaning taqdimotini o’tkazadi.
5.	Natijalarni tahlil qiladi va baholaydi, g’olib guruhlarni aniqlaydi,	Tinglaydi.

2-Ilova

«Qanday» organayzerini to’ldiring



Ilova

Jadvalni to’ldiring.



4-Ilova

Umumiy fan mavzulari bo’yicha B/B/B.texnologiyasini to’ldiring

	Mavzular	**Bilaman**	**Bilishni xohlayman**	**Bilib oldim**
	2	3	4	5

2.2.3. ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

I. BO'LIM.

MA'NAVIYAT, UNING JAMIYAT VA INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

33. Ma'naviyat asoslari fanining predmeti
34. Ma'naviyat asoslari fanining maqsadi va vazifalari
35. Ma'naviyat tushunchasining mohiyati va mazmuni
36. Ma'naviyat tushunchasiga berilgan ta'riflar
37. "Ma'naviyat" ning kategoriyalari.
38. Ma'naviyatning rivojlanish qonuniyatlari
39. Ma'naviyat rivojlanishidagi "ta'sir" va "aks ta'sir" qonuniyati
40. Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ma'naviyat tushunchasiga bergan ta'rifi
41. Ma'naviyatning jamiyat va inson xayotida tutgan o'rni
42. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi
43. Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi.
44. "Milliy taraqqiyot" va "Milliy tiklanish" tushunchalari
45. Jamiyat rivojlanishining ma'naviy–axloqiy negizlari.
46. Ma'naviyatning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro munosabatlari
47. Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqadorligi
48. Milliyg'oyaning milliy-ma'naviy tiklanishdagi ahamiyati
49. Ma'naviy meros – ma'naviyat rivojlanishining asosi ekanligi.
50. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati. Qadriyat tushunchasi.
51. Ma'naviyat va ma'rifat, ularning o'zaro munosabatlari hamda inson kamolotidagi ahamiyati
52. Ma'naviy qashshoqlik, uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri
53. Manaviyat va mafkuraning o'zaro bog'liqligi va ahamiyati?
54. Ma'naviyat, iqtisod va ularning o'zaro bog'liqligi
55. Ma'naviyatning siyosat, huquq va hokimiyatdagi o'rni
56. Huquqiy ma'naviyat
57. Rahbar ma'naviyati
58. Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylik
59. Millat tushunchasi mohiyati, xususiyatlari va unda ma'naviyatning o'rni
60. Milliy ma'naviyat, uning asosiy vazifalari.
61. Umuminsoniy ma'naviyat va uning zaminlari
62. O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar va ularning faoliyati
63. O'zbekiston milliy mustaqilligining ma'naviy-ma'rifiy asoslari
64. Mustakillik yillarida milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishida Islom Karimovning xizmatlari.

II. BO'LIM.

MA'NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

31. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanish jarayonlari
32. Jahon ma'naviyati va ma'rifati rivojiga Markaziy Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi.
33. Milliy ma'navyatimiz taraqqiyotining asosiy bosqichlari
34. "Avesto" – xalqimiz diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma'naviy obida.
35. "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" "Avesto" ma'no–mohiyatini belgilovchi tamoyil sifatida.
36. Moniylik va mazdakizm ta'limotda yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi g'oyalari.
37. Sharq uyg'onish davri ma'naviy madaniyati
38. Islom dinida ma'naviyat va shaxs ma'naviy qiyofasining talqini
39. Din – jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi.
40. Qur'oni Karim. Hadislarda inson ma'naviyati.
41. IX asr hadis ilmining "Oltin asri". Imom Buxoriy "Muhaddislar sultoni".
42. Bog'dod Mamun Akademiyasi, Xorazm Mamun akademiyasi, Samarqand (Ulug'bek) Akademiyasi ularning faoliyati
43. Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniyning asarlari va mohiyati
44. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino asarlari va mohiyati
45. Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Maxmud Zamaxshariy asarlari va mohiyati
46. Tasavvuf ma'naviyati, mazmun – mohiyati. Tasavvufdagi komil inson va tarbiya xaqidagi g'oyalar.
47. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarida ma'naviyat masalalari.
48. Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi va ularning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati.
49. Prezident Islom Karimovning nutq, ma'ruza va asarlarida ma'naviyat va uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi fikrlari.
50. Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviyat va ma'rifat rivoji.
51. Alisher Navoiyning asarida ma'naviy barkamol inson haqidagi g'oyalari
52. Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni
53. Jadidchilik xarakatining o'zbek milliy ma'naviy taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati
54. Maxmud Xo'ja Bexbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonning ma'naviy g'oyalari

55. Abdulla Avloniy, Isxoqqon Ibrat va Abdurauf Fitratning ijodi hamda faoliyatida ma’naviyat g’oyalari
56. Abdulla Qodiriy va Abdulxamid Cho’lpon ijodi hamda faoliyatida ma’naviyat g’oyalari
57. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o’zbek xalqining ma’naviyatiga tahdidi
58. Mustamlakachilarning ma’naviy sohadagi olib borgan siyosati va uning oqibatlari
59. Til o’zlikni anglash vositasi va uning milliy ma’naviyatni asrashdagi o’rni
60. O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining milliy –ma’naviy taraqqiyotidagi ahamiyati

III. BO’LIM.
SHAXS MA’NAVIYATI TARAQQIYOTINING MEZONLARI

21. “Ma’naviy barkamol”, “komil inson” tushunchalari va ularning sharqona ta’rifi
22. Inson, shaxs va fuqaro tushunchalari, ularning ma’naviy jihatlari
23. Ma’naviy tahdid tushunchasi va turlari
24. Shaxs ma’naviyati mezonlari va fazilatlari
25. Milliy o’zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta’minlash, huquqiy savodxonlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat – shaxs ma’naviy barkamolligi mezonlari
26. Milliy o’zlikni anglash va uning mohiyati.
27. Axloq ma’naviyatning o’zagi
28. Iymon tushunchasining mazmun-mohiyati. Iymon turlari. Inson iymonliligi mezonlari
29. Shaxs ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari
30. Ma’naviy tarbiya tushunchasi va mohiyati va turlari
31. Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari
32. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-ona va oila mas’uliyati.
33. Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi
34. Elektron vositalari, radio va televideniyening yoshlar ma’naviy kamolotida tutgan o’rni
35. Hozirgi davrda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan ma’naviy tahdidlarning zararli oqibatlari.
36. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda mahalla, ta’lim tizimi va

jamoat tashkilotlarining o’rni.

37. Shaxs ma’naviy rivojida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o’rni va ahamiyati.
38. Ma’naviy jasorat tushunchasi.
39. Prezident Islom Karimovning ma’naviy jasorat konsepsiyasi
40. Mafkuraviy tajovuzlar va mafkuraviy immunitet

2.2.4. MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR

MUSTAQIL ISH SHAKLLARI

№	Shakli	Maksimal ball
1	O'quv adabiyotlar taxlili	3
2	Maxsus adabiyotlar taxlili	3
3	Qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlash	3
4	Tayanch tushunchalar ustida ishlash	3
5	Referat tayyorlash	5
6	Test tayyorlash	4
7	Kichik ilmiy ish	3
8	Internet tarmog'i bilan ishlash	4
9	Prezintatsiya	3
10	Ilmiy maqola va tezislar yozish	4
11	Albom tayyorlash	3
12	Trening o'tkazish	4

1.
O'QUV ADABIYOTLARI, TAYANCH TUSHUNCHALAR VA MAXSUS MANBALAR BILAN ISHLASH



Namuna

O'QUV ADABIYOTLAR RO'YXATI

6. Qirg’izboyev M. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Andijon, 2014,- 360 b
7. Aliyev B va boshqalar O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2012. – 280 b.
8. Ergashev I. va boshqalar. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Navro’z”, 2005.
9. Aliyev B., Hoshimov T. va boshqalar. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. – 240 b.
10. Mirzayev A. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O’quv qo’llanma. – T.: TDTU, 2000. – 328 b.

MAXSUS ADABIYOTLAR RO’YXATI

O’zbekiston Respublikasi qonunlari

6. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: «O’zbekiston», 2014.
7. O’zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrdagi «Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi Qonuni.
8. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risida”gi (yangi tahriri) 1999 yil 14 aprel Qonuni.
9. “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to’g’risida”gi 2002 yil 12 dekabr Qonuni.
10. “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’g’risida”gi 2002 yil 12 dekabr Qonuni.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. Karimov I. A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T. 1. – T.: O’zbekiston, 1996. – 364-b.
7. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T. 2.- T.: O’zbekiston. 1996. – 380-b.
8. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3.- T.: O’zbekiston. 1996. – 366-b.
9. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo’lidan. T. 4.- T.: O’zbekiston. 1996. – 349-b.
Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishash – davr talabi . T. 5.- T.: O’zbekiston. 1997. – 384-b

QO’ShIMChA ADABIYoTLAR

1.Jo’rayev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. –T.: TDS’HI, 2003.– 364 b
2.Jo’rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. Ma’ruza matni. – T.: “Ma’naviyat”, 2001. – 24 b.

3.Jalilov Sh.I. Fuqarolik jamiyatining poydevori. – T.: “O’zbekiston”, 2003. 208 b.
4.Sultonov T., Hayitov A. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. – T.: TDIU, 2004. – 64 b.
10.Do’stjonov T., Hasanov S. O’zbekiston demokratik taraqqiyot yo’lida. O’quv qo’llanma. – T.: TMI, 2004. – 188 b.

ILMIY JURNALLAR

7. Zunnunov G’. Fuqarolik jamiyati sari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. –2006. – №4.-B.35-37.;
8. Kenjayev E. Fuqarolik institutlari tushunchasi: ma’no va mohiyati // Jamiyat va boshqaruv. – 2008. – №3.- B.77.;
9. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O’zbekiston, 2007.-270b.;
10. Murodov S. Davlat va nodavlat tashkilotlarining o’zaro hamkorligi // Jamiyat va boshqaruv. – 2006. –№4. – B.75.;
11. Murodov S. Nodavlat sektorni modernizasiyalash va erkinlashtirish // Jamiyat va boshqaruv. – 2009. –№3. – B.22-24.;

2.

TAYaNCh TUShUNChALAR BILAN IShLASh

- **Fanning (mavzuning) mohiyatini ochib beruvchi tushunchalarni o’zlashtirish** (masalan Falsafa fanidan – donolik, dunyoqarash, tafakkur, olam, borliq va yo’qlik, dunyoning yaratilganligi yoki o’z o’zidan mavjudligi, substansiya, aloqadorlik, rivojlanish, taraqqiyot, xayot va inson, adolat, haqiqat, yaxshilik va yomonlik ...x.k)
- **Fanning (mavzuning) mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o’zlashtirish** (antologiya, gnosologiya, metodologiya, praksiologiya, dialektika, metafizika, etika, estetika, mantiq, ijtimoiy falsafa, antropologiya, ong, qadriyatlar, ijtimoiy faoliyat, globallashuv)
- **Fan tarixi to’g’risida ma’lumot beruvchi tushunchalarni o’zlashtirish** (Antik davr falsafasi, Avesto, Zardushtiylik ta’limoti Ramayana, Mahobxarat, Veda, Upanishada, Konfusiy ta’limoti, Aristotel falsafiy qarashlari, Milet maktabi, “Fozil odamlar shahri” asari, I. Kant falsafiy qarashlari ... va x.k.)

Namuna

№	Mavzu	Tayanch tushunchalar
1	**“O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, obyekti,**	Davlat, demokratiya, g’arb demokratiyasi, sharq demokratiyasi, erkinlik, tenglik, adolat, plyuralizm, diniy bag’rikenglik, tolerantlik, ijtimoiy adolat, qadriyat, umuminsoniylik, jamiyat, jamoa, shaxs, saylov, bevosita

	maqsad va vazifalari	demokratiya, bilvosita demokratiya, fanning obyekti, fanning subyekti, OAV, NNT, ijtimoiy sherikchilik.
2	**Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning "O'zbek modeli"**	Istiqlol, mustaqillik, ozodlik, deklarasiya, davlat tili, diniy davlat, dunyoviy davlat, milliy model, o'tish davri, klassik usul, evolyusion usul, revolyusion usul, shved modeli, koreys modeli, erxart modeli, amerika modeli, yapon modeli, qonun ustivorligi, iqtisodning ustunligi, ijtimoiy himoya, davlat bosh islohotchi, bosqichma-bosqichlik tamoyili.
3	**O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi**	Qonun, farmon, farmoyish, qaror, parlament, Senat, Qonunchilik palatasi, spiker, fraksiya, qo'mita, reglament, Vazirlar Mahkamasi, ijroiya hokimiyati, vazirliklar, qo'mitalar, markazlar, mahalliy davlat hokimiyati, sud hokimiyati, prokuratura, apellyasiya, kassasiya, instansiya, advokat, fuqarolik jamiyati, kuchli fuqarolik jamiyati, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, O'zMTDP, O'zXDP, Adolat SDP, O'zLDP, Kasaba uyushmasi, modernizasiya, liberallashtirish, Xabeas korpusi, ombudsman instituti.
4	**Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish. Kuchli ijtimoiy himoya va adolat.**	Bozor munosabatlari, davlat mulki, monopopoliya, ishlab chiqarish, diversifikasiya, mahalliylashtirish, xususiy mulk, tadbirkorlik, kasanachilik, ijara shartnomasi, tovar-ayriboshlash, birja, yarmarka, moliya, bank, inflyasiya, iqtisodiyot, korxona, aksiya, aksiyadorlik kompaniyalar, kredit byuro, garov reyestri, riyeltorlik, investisiya, pay fondlari.
5	**O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi**	Tashqi siyosat, chegaralar dahlsizligi, jahon hamjamiyati, yadro qurolidan holi zona, Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat vazirligi, elchi, konsul, vakil, "6+2" memorandumi, BMT, MDH, ShHT, YeI, YeXHT, YuNESKO, xalqaro hamkorlik, sanksiya, qurollanish poygasi, TRASEKA, ikki tomonlama hamkorlik, ko'p tomonlama hamkorlik, agressiya, narkobiznes, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm.

3.

REFERAT

Referat baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

a) mavzu dolzarbligining ochib berilganligi;
b) mavzuda ko'rsatilgan masalalarning to'la ochib berilganligi;
v) ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda eng samarador usullardan foydalanilganligi;
g) chiqarilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligi.

NAMUNA: Modul nomi – Siyosiy tizim (Siyosatshunoslik fanidan)
Semestr: 7.2015/2016
Referat: Individual yozma ish
Baholanishdagi ulushi: 20%
Berilgan muddati: 2 oktyabr, 2015
Topshirish muddati: 20 noyabr, 2015
Ye-mail: social@inbox/uz
Kafdra soati: Payshanba, soat 12.00-16.00
Maqsad va vazifalar:
1. Mavzuga oid adabiyotlar asosida mahalliy va xorijiy manbaa va maxsus adabiyotlar tahlili
2. Mavzuga doir qonunchilik hamda nazariy tahlil
3. Mavzuga doir yechim va muammolar tahlili va istiqbol yechimlar
4. Materialni aniq va to'g'ri xatosiz bayon etilishi, ishni sifatli rasmiylashtirilgani

Vazifa(lar)

Kirishda asosiy e'tibor mavzu doirasida ko'tarilgan muammoni ochib berishga qaratiladi. Mavzuning dolzarbligini anglay bilish, ko'tarilayotgan muammoni ko'ra bilish va uni tahlil qilishda qo'llaniladigan uslub kirish qismida aks etishi kerak.

1. Asosiy qismida mavzuga tegishli adabiyotlarning ilmiy va amaliy jihatlari hamda dolzarbligini yoritish
2. Tanlangan mavzuni O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil etilishi zarur
3. Mavzuga oid siyosiy jarayonlarni xorijiy davlatlar misolida qiyosiy tahlil etilishi lozim.
4. Amalga oshirilgan tahlillar asosida ilmiy xulosa chiqariligi zarur.

Bahlash mezoni

Savol	Mazmuni	So'z hajmi	Bet	Ball
Asosiy qismida mavzuga tegishli	Mavzuni ilmiy muammo tarzida ko'rsatish, uslubiy	400 ta	2,3	1

adabiyotlarning ilmiy va amaliy jihatlari hamda dolzarbligini yoritish	asosini ko’rsatish. Adabiyotlar ichida ilmiy jurnallar, xorijiy davlatda chop etilgan maqola va tezislarning tahliliga e’tibor berish talab qilinadi			
imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e’tiqod, poklik, halollik va vafodorlik kabi fazilatlar, milliy o’zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta’minlash kabilar ham “M.a.”ning asosiy mavzulari hisoblanadi. “M.a.” fani doirasida ma’naviy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat kabi mavzular, shaxs ma’-yatini rivojlantirish omillari va vositalariga ham alohida ahamiyat qaratiladi. Bugungi kunda “M.a.”ni o’rgatishda Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarda mazkur o’quv faniga doir barcha mavzularning mazmun-mohiyati va naz-y asoslari ko’plab dalillar va misollarga tayanib chuqur va har tomonlama ko’rsatib berilgan. Asardagi xulosa va mulohazalar, g’oya va qarashlarni ma’naviy yo’nalishdagi adabiyotlar, jumladan, “M.a.” bo’yicha darslik va qo’llanmalarga singdirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga qo’llash bu sohadagi barcha xodimlar va mutaxassislar uchun ustuvor vazifaga aylandi. *Q.Nazarov*

TARBIYA — avlodlararo ijtimoiy -tarixiy va hayotiy tajribani o’zatishga xizmat qiladigan, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy , siyosiy va b. tashkilotlar, OAV va b. ta’siri ostida jismonan sog’lom, ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi t. T. insonga individual va ijtimoiy , ongli va ongsiz ta’sirlarning yig’indisini mujassamlashtiradi, yakka kishiga, ma’lum bir jamoaga, xalq yoki millatga qaratilgan bo’lib, davlat va jamiyat qurilishi hamda riv-shida muhim ahamiyatga ega. Turli jamoat tashkilotlari, fan, texnika, adabiyot, san’at, OAV, radio va TV, targ’ibot-tashviqot ishlari ham ijtimoiy T.ga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Yosh avlodni tibbiy ko’rikdan o’tkazish, jismoniy chiniqtirish ham T.ga kiradi. Ma’lumki, T.ning asosiy turlari ikkita: oilaviy va ijtimoiy . Oila T.si oilada ota-onalar, bobo va buvilar, umuman katta yoshli qarindoshlar tomonidan bolalarni tarbiyalashdir. Azaliy o’zbek udumiga binoan ota-onalar bilan birga bobo-buvilarning T.viy ta’siri kuchli. Chunki hayotliklarida bobo va buvilar oilaning ma’naviy rahbarlari bo’lishgan. Amir Temur, temuriylar xonadonida o’rnatilgan tartibga ko’ra, shahzodalar T.si bilan ularning onalari emas, buvilari shug’ullanishgan. Shahzodalar ko’krakdan ajratilib, esini tanib, o’z-o’zini eplay boshlagach, buvilari izmiga o’tkazilgan. Mas., Mirzo Ulug’bekning onasi Gavharshodbegim bo’lsa-da, uning oilaviy T.si bilan Saroymulkxonim shug’ullangan. Amir Temurning o’zi ham farzandlari va nevaralari T.siga jiddiy ahamiyat berib, doimo nazorat qilib turgan. Oilaviy tartib, ya’ni oila a’zolarining bir-birlariga munosabat i, ota-ona va b. katta yoshli qarindoshlarining xulq-atvori, mad-y va siyosiy saviyasi, muomala mad-ti, oila daromadi, yashash sharoiti va sh.k. omillar oila T.sining asosidir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, a’zolarining o’zaro munosabat lari samimiy bo’lsa, oilaviy T. ham shunchalik samarali bo’ladi. T. tizimida asosiy o’rinlardan birini umumiy ta’lim maktablari egallaydi, chunki, endigina oila ta’sirida bo’lgan yosh nihol, umumiy ta’lim maktablarining rejalashtirilgan T.viy ta’sir doirasiga kiradi. O’sha kundan e’tiboran, murg’ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi. Umumiy ta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan T.viy ishlar jamiyatning boshqa ijtimoiy in-tlari, oila, maktabgacha T. muassasalari, o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlari, mehnat jamoalari, turli jamoat tashkilotlari, mad-y-ma’r-y muassasalar, uyushmalar amalga oshirayotgan bir butun, T.viy ta’sir doirasida bo’lib, bu boradagi maqsadli faoliyatning tarkibiy qismidir. Barkamol shaxs T.si, uni to’g’ri amalga

oshirish, ijtimoiy , ma’naviy va mad-y hayotga tayyorlashdan iborat. T. murakkab jarayon bo’lishi bilan birga, har bir mam-t va millat uchun g’oyat dolzarb masala hisoblanadi. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida T. masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Unda ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “T. biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikri bejiz keltirilmagan. T. asosan ikki negizga – axloq va oqillikka tayanmog’i lozim: birinchisi – yaxshi fazilatlarni o’stirsa, ikkinchisi – o’zgalar illatidan himoya qiladi (A. Shamfar). T. ajdodlarimiz to’plagan yaxshi fazilat va xislatlar, qadriyatlar, sh-dek, ular to’plagan tarixiy ijtimoiy tajriba, barcha bilim va ilmlarni bilish manbaidir. T. T. beruvchining professional mahoratini ifodalaydi. Shu boisdan, T. mahorat, ba’zan san’at sifatida talqin qilinadi. U insonni mustaqil shaxs bo’lib kamol topishida hal qiluvchi omil, jamiyat amalga oshirgan T.viy ishlarning natijasi, deb ham hisoblanadi. T. muayyan maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida amalga oshiriladigan ongli amaliy faoliyatdir. Bunday T.viy ta’sir inson faoliyatini ma’lum bir ijtimoiy guruh, tabaqa, shaxs yoki millat manfaati tomon yo’naltiradi. Inson shaxsi hamma vaqt ham faqat ongli, rejali T.viy ta’sirning mahsuli emas. Inson shaxsining kamolotida hyech qanday dastursiz, rejasiz, stixiyali tarzda amalga oshiriladigan ta’sirning (do’stu birodarlar, hamkasblar, qarindosh-urug’lar suhbati, bozor yoki choyxonadagi gurung yoxud ajdodlarimizdan meros bo’lib qolgan me’moriy yodgorliklar, tabiat manzaralarining ta’siri va b.) ham ahamiyati beqiyosdir. T.ning ommaviy, guruhiy va shaxsiy shakllari mavjud. Istiqlol tufayli mam-timizda ta’lim va T.ga bo’lgan munosabat o’zgardi. Mustabid to’zumga xos sinfiy, partiyaviy qarashlarga barham berilib, barkamol avlod, har tomonlama kamol topgan komil insonni, shaxsni tarbiyalashga e’tibor kuchaytirildi. Shu jihatdan, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yosh avlodni ezgu g’oyalarga sadoqat ruhida T.lash, ajdodlarimiz merosiga tayanish, oila muqaddasligini saqlash, farzandlarimizni yurtparvar va elparvar, yuksak e’tiqodli, odob-axloqli va barkamol etib T.lash barchamizning zimmamizdagi asosiy, mas’uliyatli vazifadir. *Vahob Qo’chqorov*

IJTIMOIY TARBIYA— tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko’rsatilgan maqsadga muvofiq ma’naviy ta’sirni ifoda etadigan t. I.t. shaxs ongu tafakkuri, ma’n-y-ma’r-y olamini jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg’un hamda hamohang ravishda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy -iqt-y va mad-y hayotda faol ishtirok ettirishga da’vat etadigan barcha ezgu ta’sir hamda omillar majmui. I.t. – tarbiyaviy ta’sirning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan, oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o’rta maxsus va oliy ta’lim tarbiyasi, mehnat jamoasi tarbiyasi, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarbiya in-tlarini qamrab oladigan murakkab ma’n-y-ma’r-y jarayondir. I.t. tizimi samaradorligini oshirish ushbu jarayon tashkilotchilari va targ’ibotchilarining uning maqsad va vazifalari, ustuvor yo’nalishlari, omil va vositalari, usul-uslublari haqida aniq tasavvurga ega bo’lishi, zamon talablari asosida ish olib borishiga bog’liq. Mam-timizda yangi jamiyat asoslari barpo etilayotgan hozirgi sharoitda I.t.ning asosiy maqsadi fuqarolarni insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish ishiga safarbar etish, yagona umumilliy g’oya atrofida birlashtirishdan iborat. Uning asosiy

vazifasi esa jismoniy baquvvat, ma’naviy yetuk, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo’lgan, zamonamizning ilm-fan, texnika-texnologiya yutuqlarini, ilg’or kasb-hunarlarni egallagan barkamol insonni shakllantirishdan iborat. Har bir davrning o’ziga xos I.t. usullari va vositalari bo’ladi. Qadim zamonlarda I.t. yosh avlodning keksa avlod tajribalarini o’zlashtirib olishidan iborat bo’lgan. I.t. asosan mehnat faoliyati (ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik kabi) jarayonida, turli urf-o. va marosimlarni o’tkazish vaqtida amalga oshirilgan. U asosan jismoniy baquvvat bo’lishga qaratilgan. I.t. jismoniy, harbiy, vatanparvarlik, tarixiy tarbiya, ma’n-y-ma’r-y, estetik tarbiya singari turlarga bo’linadi. Jismoniy, harbiy, vatanparvarlik tarbiyalari mohiyatida mushtaraklik ham, o’ziga xoslik ham borki, ular shaxsning ijtimoiy lashuvini ta’minlaydi. Jismoniy tarbiyada insonning gavda va vujudi chiniqtiriladi, harbiy tarbiyada insonga harbiy bilim va malaka beriladi, vatanparvarlik tarbiyasida insonning ruhi tarbiyalanib, unda ona Vatan taqdiri uchun mas’ullik fazilatlari rivojlantiriladi. I.t.lashda ota-ona mehri, Vatan muhabbati, ustoz-shogirdlik an’analari, milliy qadriyatlar, sh-dek, mahalla va jamoat nazorati ham katta ta’sir kuchiga ega bo’lib, yoshlar kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv davri tarbiyaning boshqa shakllari qatori I.t. tizimini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda yurtimizda samarali I.t. tizimi shakllantirildi. Bunda, ayniqsa, Prezidentimizning oila va mahalla in-tini qo’llab-quvvatlash, xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, mahalla oqsoqollarining diniy-ma’r-y ishlar bo’yicha maslahatchilari in-tini joriy etish, turli ijtimoiy jamg’armalar, davlat va nodavlat tashkilotlarni to’zish, OAVni rivojlantirish borasidagi farmon va qarorlari muhim ahamiyatga ega bo’ldi. *(Yana qarang: Tarbiya). Nasriddin Nazarov, Murtazo Qarshiboyev*

MA’NAVIY TARBIYA – yuksak ma’-yatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi t. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo’lgan ma’naviy xus-yatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta’minlaydigan qad. va abadiy qadriyatdir. Yurtboshimiz ta’kidlanganidek, M.t. masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat’iyat va mas’uliyat yo’qotilsa, bu o’ta muhim ish o’z holiga, o’zibo’larchilikka tashlab qo’yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo’g’rilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma’-yati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo’lidan chetga chiqib qolishi mumkin. O’z-nning taraqqiyot dasturi, o’zoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma’naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o’lmas merosni chuqur o’rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho’qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o’rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo’lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma’naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar M.t. tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o’tadi. M.t. atamasi keng ma’noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy , mad-y, ma’r-y hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig’indisini

anglatadi. Bunday tushunishda M.t. faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy to'zum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va b. faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Sh-dek, keng ma'nodagi M.t. t.si tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, M.t. muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunday M.t. oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday M.t. ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'n-y-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim- tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar. Prezidentimiz ta'kidlagani kabi, **"Ta'lim-tarbiya — ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yo'zaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir… Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.** Istiqlol yillarida mam-timizda M.t.ni amalga oshiradigan o'quv muassasalari va **umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi. Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** amalga oshirilmoqda, uning **o'zviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabo'l qilindi.** Unga **muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hyech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hyech qanday xato bo'lmaydi.** ("Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", 60-64 b.). Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, M.t. har qanday jamiyat va mam-t hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajdodlaridan yuqori darajaga ko'tarilmog'i darkor. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida M.t. turlicha izohlab kelingan. Sobiq Ittifoq davrida

hukmron mafkura M.t.ga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan, bu jarayonda milliy xus-yatlar deyarli hisobga olinmagan edi. O'z-n istiqlolga erishgach, M.t.ga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. M.t.ning milliy va umuminsoniy asoslariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bugungi O'z-n uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezonga aylandi. Bu borada jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch – milliy g'oya, milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg'or demokratik qoida va t.larni aniq-ravshan tasavvur etish, ularni o'rganish, borini asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish, xalqni, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni ana shu bilim va ko'nikmalar bilan tarbiyalash – M.t. sohasidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Masalaning bu tarzda qo'yilishining asosiy sababi shundaki, bugungi yoshlar nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio, TV, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqdalar. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan sharoitda, bolalar, yoshlar ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ular atrofini axborot davrida temir devor bilan o'rab olish, zamon talabiga, jamiyat maqsad-muddaolariga ham to'g'ri kelmaydi. Internetdan olinayotgan xabarlar yoshlar ma'naviy tarbiyasi, ongiga faqat salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, degan fikrlarga nisbatan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlagan quyidagi xulosaga tayanish lozim: **"…sodda qilib aytganda, Internet bu katta bir do'kon. Do'konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Masalan, biz bozorga o'zimiz istagan, manfaatimizga xizmat qiluvchi buyumni sotib olgani boramiz. Internetni ham kishilar ehtiyoji va manfaati uchun xizmat qiluvchi axborot bozori deb anglash kerak".** Demak, yoshlarni ma'naviy jihatdan shunday tarbiyalash lozimki, ular Internet – axborot bozoriga kirganda faqat o'zi, el-yurti uchun zarur, foydali, ma'naviy asoslarga daxl qilmaydigan narsani olsin. Yoshlarga Internetdan, axborotdan foydalanish, axborot iste'moli mad-tini o'rgatishda dunyoning qaysi burchagidan qanday ma'lumot kelmasin, qanday ma'naviy tajovo'z tahdid solmasin, har qanday holatda ham ma'n-y-ruhiy jihatdan ogoh va hushyor, turli axboriy xurujlardan o'zlarini yo'qotib qo'ymaydigan barkamol shaxslarni shakllantirish bu sohadagi M.t.ning asosiy mezoni bo'lmog'i lozim. Shu boisdan ham o'sib kelayotgan avlodning M.t.siga javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi doimo oila, mahalla, maktab va ta'lim muassasalari, umuman, barchaning diqqat-markazida turmog'i lozim. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy medisina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har bir oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko'rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklarni ta'minlashi borasida o'zining mas'ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim. Istiqlol yillarida kamdan-kam mam-tda mavjud bo'lgan noyob idora – mahalla ham milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda, yoshlarning M.t.si va ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Dunyoning pastu balandini ko'rgan mahalla oqsoqollari, kayvoni onaxonlar o'zlarining hayot tajribasi bilan yoshlarga M.t. va saboq berib, xalq an'analari davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani ibratlidir. Bunda mahallaga xos hayot tarzi va turmush mad-ti,

qo’ni-qo’shni va mahalla-ko’y o’rtasidagi munosabat larning ta’siri katta. Xullas, M.t.ning qirralari juda ko’p. M.t.da milliy g’oya, milliy g’ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma’naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o’tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o’tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g’ururlanish tuyg’ulari singdiriladi. Umuman olganda, ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o’z aqli, o’z tafakkuri, o’z mehnati, o’z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo’lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma’n-y-ruhiy muhitni, soxta aqidalar, vayronkor g’oyalar va ma’naviy tajovo’zlar bilan bo’zish qiyin. Ularni o’zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg’itib ham bo’lmaydi. Hozirgi davrda M.t. yo’nalishida mam-t oldida turgan muhim vazifalarni bajarish, el-yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, chuqur bilimli va ma’nan barkamol shaxslarni tarbiyalash bu borada xizmat qiladigan ziyoli va xizmatchilar, o’qituvchilar va mutaxassislar, umuman, barcha ma’-yat va ma’rifat sohasi xodimlarining muqaddas burchiga aylandi. *B.Isoqov, Q.Nazarov*

MA’NAVIY ISHLAB CHIQARISH – jamiyat va inson faoliyatining asosiy yo’nalishlaridan biri, ma’naviy boyliklar yaratish, boyliklarni o’zlashtirish va iste’mol qilish, ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini anglatuvchi t. M.i.ch.ning muhim belgilaridan biri – uning borliqni anglash, idrok etish, bilish va ayni paytda yangi ma’naviy qadriyatlarni yaratishga qaratilgandir. Bu jarayonda, bir tomondan, inson ongi rivojlanib, boyib boradi, ikkinchi tomondan esa, kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi g’oyalar, bilimlar, naz-yalar, badiiy asarlar va b. ma’naviy qadriyatlar yaratiladi. M.i.ch. ko’lami, hayotda to’tgan o’rni jihatidan moddiy ishlab chiqarishdan qolishmaydi. Sobiq Ittifoq davrida M.i.ch.ni asosan moddiy ishlab chiqarishning hosilasi, in’ikosi, deb qarab kelingan, uning ahamiyati e’tiborga olinmagan. Holbuki, moddiy ishlab chiqarishni ma’naviy bilimlar, malaka va ko’nikmalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Sh.u. moddiy va M.i.ch. jarayonlarini bir-biridan ajratish, bir-biriga qarshi qo’yish mutlaqo noto’g’ri, g’ayriilmiy yondashuvdir. Aslida ular bir-biri bilan o’zviy bog’liq bo’lib, ayni bir jarayonning ikki tomonini ifoda etadi. I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida bu masalaga biryoqlama qarshi, xus-n **«odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o’ringa qo’yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekani haqida ogohlantiradi».** Ammo ular o’rtasidagi o’zviy bog’liqlik ular har biri o’ziga xos xus-yatlarga ega ekanini inkor qilmaydi. M.i.ch., avvalo, insonning ruhiyati, ijodiy tafakkuri ilmiy, badiiy, axloqiy va b. qadriyatlarga asoslanadi. Xalq og’zaki ijodi namunalari deb yuritiladigan badiiy va musiqiy asarlar xalqimiz orasidan yetishib chiqqan ulkan iste’dod sohiblari tomonidan yaratilgan bo’lib, M.i.ch.ning yorqin timsolidir. Mas., “Alpomish” dostoni el-yurtimizning bag’rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari ifoda etib, barchamizni haqgo’ylikka, Vatanimiz, yurtimiz, oilamiz, do’stu yorimiz, or-nomusimiz, ota-bobolarmizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovo’zlardan himoya qilishga o’rgatadi. Jamiyat rivojlanib, mehnat taqsimoti kuchaygan sari M.i.ch. sohasida ham ixtisoslashuv jarayoni kuchayib, san’at, fal., axloq, fan, din, huquq kabi ong shakllari paydo bo’ladi, ayni

paytda ularning har biri turli janr, oqim, yo'nalishlarga bo'lina boshlaydi. M.i.ch. mahsulining yana bir xus-yati shundaki, moddiy ishlab chiqarish natijalari iste'mol jarayonida o'z qiymatini yo'qotsa, M.i.ch. mahsuli iste'mol jarayonida o'z qiymatini yo'qotmaydi, aksincha, undan qancha ko'p odam bahramand bo'lsa uning qiymati shu darajada ortib boraveradi. M.i.ch. jarayonida vorisiylik tamoyili yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki yangi bilim va g'oyalar, badiiy asarlar ajdodlar qoldirgan ma'naviy meros va uning bevosita davomi sifatida maydonga keladi. M.i.ch.da ijodiy yondashuv ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Moddiy ishlab chiqarishda ham ijod elementi mavjud, ammo bu jarayon eski andozalar, texnologiyalar, yondashuvlar asosida ham amalga oshirilishi mumkin. M.i.ch.ni esa ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. *B.Umarov*

MA'NAVIY EHTIYOJLAR – davlat, jamiyat va shaxsning barqaror turmushida moddiy ehtiyojlardan boshqa ma'naviy talablar, manfaatlar va ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishini ifodalovchi t. M.e. ijtimoiy , siyosiy, fal-y, ilmiy, axloqiy diniy, huquqiy va b. yo'nalishlarda aniq namoyon bo'ladi. Shu boisdan, M.e. ijtimoiy ong shakllariga tayanadigan faol harakat asosida taminlanadi. M.e.ning qondirilmasligi jamiyat barqaror hayotida turli bo'zg'unchi g'oyalarning paydo bo'lishiga olib kelishi ayrim hollarda davlat va jamiyat hayotiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Bunday vaziyatda M.e. tarzida namoyon bo'lgan talablar va manfaatlarni bosqichma-bosqich qondirilishi bilan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish mumkin. Xalqimiz turmush tarzida M.e. qadr va qadrlash mezonlari orqali anmoyon bo'ladi. Jamiyat va insonning ijtimoiy aloqalarida qadr-qimmati, or-nomusiga nisbatan qilingan noto'g'ri munosabat yoki harakat ma'-yat mezonlariga ziddir. Shu ma'noda, "Qornimga emas, qadrimga yig'layman", degan xalq maqoli uning ma'naviy ehtiyojlarini ifodalaydi. M.e.ning moddiy ehtiyojlar bilan o'zaro uyg'unligi har bir davrning mazmun-mohiyatini belgilaydigan tarixiy zarurat hisoblanadi. Bu borada "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlangani kabi, "**... turmushda hamma narsaning o'rnini hayotiy zarurat belgilaydi. Hayotiy zarurat bo'lmasa, ma'naviy ehtiyoj bo'lmasa, boshlangan ishlardan biron-bir samarali natijalar kutish amrimahol".** Istiqlol yillarida ana shu zarurat va ehtiyojdan kelib chiqib, xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqarish, mustaqil davlatchilik asoslarini bunyod etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, xalqimizning boy tarixiy merosi, an'analari, ijtimoiy qadriyatlari, davlat qurilishi borasida rivojlangan mam-tlar erishgan tajribaga tayanib, milliy davlatchiligimiz poydevori qo'yildi. Bugungi kunda mam-timiz aholining barcha moddiy va M.e.ini ta'minlashga qaratilgan tub o'zgarishlar, inson manfaatiga xizmat qiladigan islohotlar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bosqichma-bosqich ilgarilab bormoqda. *B.Isoqov, A.Begmatov*

MAFKURAVIY TAHDID — ijtimoiy -siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. M.t. jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojeali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida ma'naviy yo'qotishlar yo'z berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini ko'zatish mumkin. O'z-n ham bunday tahdidlardan chetda qolayotgani yo'q. Mam-tda insonparvar, demokratik jamiyat

qurilayotgan hozirgi sharoitda fuqarolar ongi va faoliyatiga siyosiy ekstremizm, diniy va fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, ekologik muammolar "ommaviy mad-t" tajovo'zi va h.k. M.t. shaklida namoyon bo'layotir. Ayniqsa, o'rta a. xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasi bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi.

OMMAVIY MADANIYAT — mad-tning murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. O.m.ni G'arb mad-ti bilan bog'liq hodisa deb tushunish, sh-dek, uni g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. Ayni paytda, folklor, xalq mad-ti ham O.m. ko'rinishlari sifatida talqin qilinadi. O.m. chuqur ijtimoiy va mad-y ildizlarga ega. O.m. paydo bo'lishining ijtimoiy -iqt-y ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yirik sanoat rivoji yollanma ishchilarga zaruratni tug'dirgan bo'lsa, feodal jamiyatning an'anaviy ijtimoiy to'zilmasining yemirilishi odatiy mehnatdan ayrilgan kishilar ommasini vujudga keltirib, ana shu ehtiyojni qondirishga xizmat qildi. O.m.ning shakllanishi ana shu jarayonning in'ikosi edi. Zero, u yangi ijtimoiy qatlamlarning (yollanma ishchilar va xizmatchilarning) o'zlarigagina xos bo'lgan mad-t ko'rinishini yaratishga bo'lgan intilishning natijasi o'laroq shakllandi. O.m.ning yo'zaga kelishi va riv-shi ayni paytda ijtimoiy qadriyatlarni sodda, barcha uchun tushunarli bo'lgan tilga ko'chirish, ommaviy savodxonlikning o'sishi, nashr mahsulotlarining paydo bo'lishi hamdir. O'zoq vaqt davomida dunyoqarash va xulq me'yorlari uctozdan shogirdlarga yakka tartibda o'tib kelgan. Tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy tajriba va dasturlar o'zatish mexanizmining universallashuvi ularni yanada kengroq doiraga olib chiqdi. Bunga ham O.m. shakllanishining muhim ko'rinishi sifatida qarash lozim. Bu jarayonning bugungi kundagi o'ziga xos natijasini bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonining universallashtirilgan — yagona andoza va dasturlar asosida tashkil etilganida ko'rishimiz mumkin. Bunday universallashtirish hozirda global miqyos kasb etmoqda. XX a.da radio, kino, TV, video, kompyuterlar tizimining paydo bo'lishi natijasida O.m. rivojining yangi bosqichiga qadam qo'yildi. Bu bosqich ko'pchilik uchun maqbo'l bo'lgan qarashlar va qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari keskin darajada o'sgani bilan xarakterlanadi. Ta'sir etishning nozik va qudratli quroliga aylangan reklama, moda kabi vositalar yordamida ommaviy iste'mol mad-tini, intellektual faoliyat jismoniy mehnatni har sohadan siqib chiqarish kuchaygan bir paytda jismoniy sog'lom bo'lishga xizmat qiladigan har xil sport turlarini faol targ'ib qilish yo'li bilan jismoniy barkamol shaxsni shakllantirishga urinish ham ana shu jarayonning natijasidir. O.m. xalq mad-tidan farqli o'laroq, nafaqat milliy, balki millatlararo, baynalmilal xus-yat kasb etishi, ayni paytda, umuman, milliylikdan o'zoq bo'lishi ham mumkin. Ko'pgina hollarda O.m.ning muayyan namunasining milliy mansubligini faqat uning tili yoki ijrochisiga qarab ajratish

mumkin. Elitar mad-t ko’pchilikka mo’ljallanmagani, tushunarsiz bo’lgani bilan ajralib turar ekan, bu uning tashuvchilarini jamiyatda alohida mavqyega ega bo’lishlariga xizmat qilgan. O.m. esa keng xalq o’rtasida mashhur bo’lgan o’zining aniq mualliflari bilan ajralib turadi. Xalq mad-ti hamma vaqt muayyan makon bilan bog’langan. O.m.da esa bunday lokallik ko’zatilmaydi. U avval boshdanoq keng auditoriyaga mo’ljallangan bo’ladi. Unda insonga xos bo’lgan hissiyotlar — muhabbat, qo’rquv, muvaffaqiyatga erishishga bo’lgan intilish, g’aroyibotga ishonch va sh.k.ga asoslanish ustuvorlik qiladi. Shu yo’l bilan O.m. real hayotga qaysidir jihatlari bilan o’xshash, ammo ayni paytda undan birmuncha o’zoq bo’lgan hayot manzarasini yaratadi, qarashlar va qadriyatlar tizimini, xulq modelini shakllantirishga xizmat qiladi. O.m. o’zining mana shu xus-yatlari bilan insonning idealga bo’lgan tabiiy ehtiyojini qondirishga intiladi. O.m olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin: 1. O.m. – xalq mad-ti, urf-o.lari, marosimlari, san’ati va sh.k.ni ifodalovchi t. 2. O.m. OAV rivoji bilan bog’liq hodisa. 3. Ommaviy ishlab chiqarish, “ko’ngilochar industriya” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo’ljallangan mad-tning siyqalashtirilgan namunalari ko’rinishidagi salbiy hodisa. Bugungi kunda O.m. mad-y-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan. Iste’molchilik kayfiyati o’zagini tashkil etgan O.m. asl kishilik mad-tiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini bo’zadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o’zga maqsadi bo’lmagan jonzot, hayvon darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Bugungi kunda OAV, TV mad-tni ommalashtirishning asosiy vositasi va manbai bo’lib xizmat qilmoqda. Bu, avvalo, odamlarning qayg’u va xursandchiligini ifodalagan, ularni qiziqtirgan har qanday muammoni tovarga, bir qolipga solingan ko’ngilxushlikka aylantirilishida namoyon bo’ladi. Globallashuv jarayonlari va uning yo’nalishlaridan biri bo’lgan O.m. ekspansiyasi ta’sirida qadriyatlar tizimida sodir bo’ladigan tub o’zgarishlar “ijtimoiy mavjudot” hisoblangan insonda muayyan o’zgarishlarni keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma’n-y-axloqiy tayanchlaridan mahrum etiladi, jamiyat inqirozga uchraydi. Shu ma’noda, I.A.Karimov ta’kidlaganidek, **“...kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so’ng jamiyatda paydo bo’lgan g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o’z ichiga olgan “Ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo’lishi kerak... Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma’naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta’siridan farzandlarimizning ongu tafakKo’rini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o’rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo’lgan ana shunday «madaniyat» namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo’lmaydi. Bunday**

xatarlardan hayotimizni asrash, ma’naviy bo’shliqqa yo’l qo’ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g’oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yo’z berayotgan keskin aql-zakovat va iste’dod musobaqasida bellashuvga qodir bo’lishimiz shart”. Davlatimiz rahbarining ushbu fikr-mulohazalarida O.m.ning mazmun-mohiyati, oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning izchil vosita va omillari aniq bayon etilgan. *Ulug’bek Saidov*

AQIDAPARASTLIK – kishilarning qalbi va ongiga mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e’tiqod darajasiga ko’tarilgan dunyoqarash shakllaridan biri. A. ikkita shaklda namoyon bo’ladi: aqidaning dunyoviy shakli *(egoizm, shovinizm, kommunizm, bolshevizm, ateizm, millatchilik va b.)*; aqidaning diniy shakli, *(vahhobiylik, “Hizb ut-tahrir”, “Hizbo’lloh”, “Al-qoida” va b.)*. Aqidalarni zamon va makondan ajratgan holda anglab, ularni mutlaq o’zgarmas haqiqat deb biladigan, shunday boshqa qarashlarni tan olmaydigan g’oyaviy-mafkuraviy oqim vakillari aqidaparastlar deb yuritiladi. Islomning sunniylik oqimi ilohiyotchilari Qur’oni Karim va hadisi sharifga asoslanib ishlab chiqqan yettita iymon talabini *aqida* deb hisoblaydilar. Shialik oqimida beshta aqida imon talabi hisoblanadi. Bo’lar – Allohning yagonaligiga, payg’ambarlarga, imomat (oliy hokimiyat imom – payg’ambar avlodi qo’lida bo’lishi)ga, adl (ilohiy taqdirning adolatliligi)ga, oxiratning ro’y berishiga ishonchdan iborat. Biroq barcha dinlarda, jumladan, islomda iymon talablaridan boshqa qator t.lar ham aqida hisoblanadi. Har bir diniy tashkilot (diniy konfessiya) va muayyan diniy jamoa o’zi haqiqatning oxirgi nuqtasi sifatida qabo’l qilgan ilohiy t.larga qat’iy ravishda ishonch ruhini dindorlar ongiga singdirish uchun juda ko’p vositalar, uslublardan foydalanadi. E’tiqodlariga xilof bo’lgan o’zgacha qarashlar va munosabat lar qaror topishiga iloji boricha qarshilik ko’rsatadi. Ana shu jarayonda qavmlarda muayyan andozaga tushgan yaxlit dunyoqarash, dunyoni his etish shakllanadi. Inson fe’l-atvori, faoliyati ma’lum bir izga tushiriladi. Shundan kelib chiqib, tabiiy va ijtimoiy hodisalarga munosabat belgilanadi. A.ni fundamentalizm, diniy ekstremizm t.lari bilan ham aynanlashtirish ularga noilmiy yondashuvlarga sabab bo’ladi. Bu t.larda umumiy o’xshash jihatlardan tashqari jiddiy tafovutlar borligini ham nazarda to’tgan ma’qul. Diniy bilimlarni tarixiy davrdan va real ijtimoiy

voqyelikdan ajratib o’zlashtirib olgan, binobarin, dinlarning asl insonparvarlik mohiyatini tushunmagan va tushunishni istamagan shaxslarni A.lar deyish to’g’ri bo’ladi. Ammo A. sof diniy mazmundan ko’ra kengroq mohiyatga ega ekanini e’tiborda tutish zarur. Ya’ni, A. nafaqat dinda, balki ilm-fanda, jumladan, fal.da ham o’zini namoyon etib, ijtimoiy taraqqiyot, milliy istiqlol va inson kamoloti yo’liga g’oyaviy to’siq bo’lishi mumkin. Har qanday sohada chuqurroq bilimga ega bo’lmagan yoki dastlabki bilimlari bilan cheklanib, o’z ustida ishlamay qo’ygan kishilar odatda A.ni rag’batlantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqadi. A. o’ta sayoz bilimga ega bo’lgani sababli bahs-munozaraga tish-tirnog’i bilan qarshi chiqadi. U ijtimoiy va milliy ma’-yatni jilovlab qo’yib, ijtimoiy taraqqiyotni turg’unlikka, hatto orqaga ketishiga sabab bo’lishi bilan o’ta xatarlidir. (*Yana qarang: E’tiqod).*

MAFKURAVIY IMMUNITET — shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g’oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g’oyaviy-naz-y qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet (lot. *immunitas* - ozod bo’lish, qutilish) tibbiy t. bo’lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o’zini turli ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo’lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Insonda M.i.ni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o’ziga xos xus-yatga ega. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlash mumkin. M.i. tizimining asosiy va birinchi elementi bu - bilim. Ammo, bilimlarning turi ko’p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan “bilim”larga tayanadi, albatta. Shunday ekan, M.i. tizimidagi bilimlar obyektiv bo’lishi, voqyelikni to’g’ri va to’liq aks ettirishi, inson ma’-yatini boyitishi va jamiyat tar-tiga xizmat qilishi lozim. Ular o’z mohiyat e’tiboriga ko’ra, Vatan va millat manfaatlari bilan o’zviy bog’liq bo’lmog’i kerak. M.i. tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg’or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo’lsa, uning zamirida yo’zaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo’ladi. Bir so’z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi M.i.ning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g’oyalar yo’lida mustahkam qalqon bo’lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o’zi M.i.ning mohiyatini to’liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element M.i.ning uchinchi muhim elementi, ya’ni ijtimoiy -iqt-y, siyosiy va mad-y-ma’r-y sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bog’liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo’lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo’laveradi. *Q.Nazarov*

MENTALITET (lot. *mens* – aql, idrok) — jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatini ifoda etuvchi t. Jamiyat, millat yoki shaxsning M.i ularning

o’ziga xos milliy an’analari, rasm-rusumlari, urf-o.lari, diniy e’tiqod va qarashlarini ham qamrab oladi. Jamiyatning, millatning, ma’lum bir jamiyatning yoki shaxsning M.ini o’rganish unga jiddiy yondashishni talab qiladi. Buning uchun juda ko’p omillar: ushbu millat yashab turgan shart-sharoit, tarixiy davr, uning o’tmishi, millatning ruhiyati va b. bir qator jihatlar inobatga olinishi, boshqa millatlar bilan qiyosiy tahlil etilishi lozim. O’zbek millati M.tining shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. A.lar davomida o’zbek xalqi muhim savdo-sotiq, ilm-fan, me’morchilik, hunarmandchilik markazlari, xalqlar va mam-tlarni bir-biri bilan bog’lab turgan yo’llar chorrahasida yashagani sababli, uning M.i taraqqiy etib borgan. Olamni idrok etishning ijtimoiy -mad-y va etnik jihatlari M.ni shakllantiradi va unda sayqal topadi. Dunyoning turli chekkasida istiqomat qiluvchi kishilar uchun turlicha M. xosdir. Uni fikrlash, his etish va ishonishning chuqur manbai sifatida tushunish mumkin. M. tilda, an’analarda, odatlarda, ongning o’z-o’zini boshqarishida namoyon bo’ladi va shu ma’noda u ijtimoiy ongning individual ongdan yuqori darajasi hisoblanib, ko’pincha muayyan individ tomonidan idrok etilmaydi va tahlil qilinmaydi, lekin uning irodasidan xoli tarzda xulq-atvorida va iboralari-da o’z aksini topadi. M. darajasida o’tmish mad-ti o’z sirlarini go’yo «oshkor etadi». Til M.i olamni til orqali tasavvur etish usuli. Oddiy kishilar va oliy zotlar M.i sho’rolar tizimi davridagi va undan oldingi M. avtoritar, qishloq xo’jalik xodimi va byurokrat M.i haqida gapirish mumkin. Har bir millatning M. turfa xil va o’ziga xosdir. Bu hol o’z etnik mansubligini idrok etishga yordam beradi, ijtimoiy hamda axloqiy tajriba milliy shakllarining avloddan avlodga o’tishida vosita vazifasini o’taydi. M. ma’lum darajada muayyan mam-t, siyosiy hayot, etnik va mad-y an’analar, ijtimoiy aloqalarga bog’liqdir. M. nisbatan muqim, barqaror hodisa bo’lsa-da, ommaviy ongda iqtisodiyot va ruhiyatdagi muloqot, siljishlar va hokimiyat shakliga bog’liq holda M.da o’zgarishlar yo’z berishi mumkin. M. ildizlari qanchalik chuqur ekani ayniqsa folklor mad-tida namoyon bo’ladi. M. ijtimoiy tarixning ajralmas jihati sifatida kishilarning t. va tasavvurlari orqali ifodalanadi. Bu t. va tasavvurlar esa til, ijtimoiy munosabat , din, mad-t orqali kishilar ongiga singdiriladi.

GENOFOND – genlar zaxirasi; turli gen (irq)larning tarqalishi, ularning nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan organizmlarning tarqalganligi. Irsiy belgilarni o’rganish va aniqlash inson genetikasi, jonivorlar hamda o’simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda G.ni saqlash muammosi dunyoning ko’pgina mam-tlari uchun dolzarb masalaga aylangan. I.A.Karimov “O’zbekiston XXI a. bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ta’kidlaganidek, tabiatga qo’pol va takabburlarcha munosabat da bo’lishga yo’l qo’yib bo’lmasligi, bunday munosabat ni tabiat aslo kechirmasligi, ayniqsa, inson – tabiatning xo’jayini, degan soxta sosialistik mafkuraviy da’vo ko’plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojeaga aylandi, ularni qirilib ketishi, G.ning yo’q bo’lib ketishi yoqasiga keltirib qo’ydi. Shu n.nazardan millat G.ini saqlash, har jihatdan barkamol, sog’lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, odamlarning tabiat, atrof-muhitga munosabat ini o’zgartirish, sog’lom turmush tarzini shakllantirish va targ’ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.